

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**TAHRIRIYAT HAY‘ATI**

**Bosh muharrir:** prof. Nabiyev D.H.

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.

**Mas‘ul kotib:** dots. Ne‘matova Y.O.

**Tahririyat hay‘ati a‘zolari:**

prof. Bahridinova B.M.

prof. Bo‘riyev O.B.

prof. Yoziyev L.Y.

prof. Jabborov A.M.

prof. Jumayev T.J.

f.-m.f.d. Imomov A.A.

k.f.d. Kamolov L.S.

prof. Kuchboyev A.E.

prof. Mengliyev B.R.

prof. Normurodov M.T.

prof. Nurillayeva Sh.N.

prof. Nurmanov S.E.

p.f.d. Oripova N.X.

prof. Ochilov A.O.

prof. Tojiyeva G.N.

prof. To‘rayev D.T.

prof. Umirzakov B.Ye.

prof. Xayriddinov B.X.

prof. Xolmurodov A.E.

prof. Choriyev S.A.

prof. Shodiyev R.D.

prof. Shodmonov N.N.

prof. Erkayev A.P.

prof. Ernazarova G.X.

prof. Eshov B.J.

prof. Qurbonov Sh.Q.

prof. Qo‘yliyev B.T.

prof. Bekmurodova G.H.

prof. Imanova G.T.

prof. Bobonazarov G‘.Y.

prof. Shukurov O.M.

prof. Yusupova A.Sh

f.f.d. Imomova G.M.

dots. Ro‘ziyev B.X.

dots. Eshqorayeva N.G‘.

dots. Xolmirzayev N.S.

dots. Hamrayeva Y.N.

dots. Rizayev B.X.

dots. Nashirova Sh.B.

f.f.f.d. Musayeva D.T.

2024  
4(1)

**QarDU xabarlari**  
Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

**Muassis:** Qarshi davlat universiteti

**Jurnal Qashqadaryo viloyati**

**Matbuot va axborot boshqarmasi**

**tomonidan 2010.17.09 da**

**№ 14–061 raqamli guvohnoma**

**bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.**

**Musahhihlar:**

Shodmonova D.E.

Tursunboyev B.N.

Pardayeva D.R.

**Sahifalovchi:**

Yuldoshev D.N.

**Texnik muharrir:**

Raxmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarorlari bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, tarix, falsafa, siyosatshunoslik filologiya, pedagogika-psixologiya va iqtisod fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**Jurnal 2009-yilda tashkil etilgan.**

**Yiliga 4 marta chop etiladi.**

**MUROJAAT UCHUN MANZIL:**

**Pochta manzili:** 180003, Qarshi, Ko‘chabog‘, 17. Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.

**Telefon:** 97-222-10-80

**TelegramID:**

[https://t.me/Qardu\\_Xabarlari2024](https://t.me/Qardu_Xabarlari2024)

**Elektron pochta:** qardu\_xabarlari@mail.ru

**Veb-sayt:**

<https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW>

**Ijtimoiy-gumanitar fanlar**

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU xabarlari” jurnalidan olindi”, degan havola berilishi shart. Mualliflardan kelgan materiallar egalari qaytarilmaydi.

## MUNDARIJA

### TARIX

|   |    |
|---|----|
| <b>Yuldashev U.</b> O‘zbekistonning pisa xalqaro baholash tadqiqotida ishtiroki.....  | 4  |
| <b>Sheripov U.A.</b> Xorazm moddiy va ma’naviy madaniyatining shakllanishida sug‘orish inshootlari va tizimlarining roli (XIX asr)..... | 10 |
| <b>To‘ychiyeva D. I.</b> 1991–2001-yillarda Zomin tumanida olib borilgan iqtisodiy islohotlar (arxiv materiallari asosida).....         | 15 |
| <b>Nurullayeva G.U.</b> O‘zbekistonda don mahsulotlari bilan ta’minlash va boshqarish tarixidan.....                                    | 22 |
| <b>Usanov Sh.M.</b> Surxondaryo viloyat milliy-madaniy markazlarining etnomadaniy plyuralizmni rivojlantirishdagi o‘rni.....            | 26 |
| <b>Rashidov Sh.</b> O‘zbekiston SSRning parda ortidagi rahbari yoxud Roman Melnikov kim edi?.....                                       | 33 |
| <b>Begaliyev N.H.</b> Markaziy Osiyoning qadimgi gidrotexnik inshootlari: tabiiy-geografik va tarixiy tipologik tahlil.....             | 37 |
| <b>Mansurov M.A.</b> Tarixiy asarlar milliy ziyolilarimiz nigohida.....   | 41 |
| <b>Quryazova L.R.</b> Odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekistonda xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi tarixidan.....               | 45 |
| <b>Алиязарова Д.В.</b> Святыни Кашкадарьинской области как важные объекты историко-культурного наследия Узбекистана.....                | 50 |
| <b>Babayev R.K.</b> Ustrushonaning tabiiy-geografik joylashuvi va ma’muriy-hududiy tuzilishi  | 54 |

### FALSAFA

|   |    |
|---|----|
| <b>Asrarova M.</b> Buxoro falsafa tarixi rivojida M.N.Boltayev maktabining o‘rni.....   | 60 |
| <b>Mansurova N.</b> Sharq va G‘arb mutafakkirlari ilmiy qarashlarida gender tenglik masalasi..                                  | 64 |
| <b>Rahmonov A.R.</b> Harbiy vatanparvarlikning axloqiy-ma’naviy, ijtimoiy-madaniy qadriyat sifatidagi zamonaviy ahamiyati.....  | 68 |
| <b>Saburov J.</b> Buxoroda amirlik davrida ilm-fan va islom ilmlari rivoji.....   | 72 |
| <b>Saurov R.R.</b> Demokratiya va demokratizm prinsipining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri (fenomenologik yondashuv)..... | 77 |

### FILOLOGIYA

|  |     |
|--|-----|
| <b>Umurova F.</b> So‘rov holatida xushmuomalalik semantikasini ifodalash vositalari va nutq muhiti.....        | 82  |
| <b>Kunnazarova Sh.M.</b> Xalq ertaklari tilida ba’zi metaforalar tahlili.....                                  | 86  |
| <b>Davletova Sh.B.</b> Kiritma konstruksiyalarning semantik turlari va stilistik funksiyalari.....             | 90  |
| <b>Musoyeva A.B.</b> Effective strategies for enhancing the research skills of future teachers....             | 95  |
| <b>Yuldashova N.M.</b> Yozma chet tili muloqotining muvaffaqiyatini belgilaydigan omillar...                   | 102 |
| <b>Yuldashova N.M.</b> Yozma diskursning ishlash jarayoni bosqichlari.....                                     | 106 |
| <b>Karimova Z.U.</b> „Do‘stlik“ konseptida qadriyatlar in’ikosi.....   | 110 |
| <b>Abdurakhimova J.S.</b> Bibliometric analysis of deep learning approach in teaching english language.....    | 114 |
| <b>Юлдашева Л.У.</b> Взаимосвязь русской и зарубежной литературы: актуальные аспекты и направления.....        | 120 |
| <b>Shodmonov G‘.N.</b> “Munis ul-ushshoq”da Navoiy g‘azallariga muxammaslar .....                              | 125 |
| <b>Rajabaliyeva M.</b> Nasafiylarning kashf etilishida poyon ravshanovning tutgan o‘rni.....                   | 131 |
| <b>Abdullayeva U.</b> Ijroviy lirikaning sotsioantropologik dominantlik asosidagi badiiy tasvir poetikasi..... | 137 |
| <b>Pirmatova Sh. M.</b> Hozirgi o‘zbek she’riyatida ruhiy kechinma va badiiy ifoda.....                        | 142 |

**Shodmonova D.** Abdulla Oripov she'riyatida metafora va ularning semantik tahlili..... 146

### **PEDAGOGIKA**

**Ruzimurodov I.N., Sherboboyeva G.B.** Talabalarni o'qitishda matematik kompetentligini rivojlantirish metodi..... 152

**Yelmuratova A.** Nofilologik yo'nalish talabalarining yozish ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy metodlar va interaktiv texnologiyalar..... 157

**Rajabov A.U.** Ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari..... 162

**Juraeva G.B.** Lingua-coaching as a new approach to teaching esp students in Uzbekistan 165

**Iskandarova G. P.** Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlarini boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash mexanizmlari..... 170

**Nurmamatov R. A.** Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchilarning raqamli kompetentligini baholash..... 176

### **PSIXOLOGIYA**

**Ne'matova I.I.** Shaxsning depressiv holatidagi psixologik xususiyatlari tahlili..... 181

### **SIYOSATSHUNOSLIK**

**Jo'rayev A.R.** Giyohvandlikning yoshlar ongiga ta'siri va unga qarshi kurash tadbirlari.... 186

## O‘ZBEKISTONNING PISA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTIDA ISHTIROKI

Yuldashev Ulug‘bek

University of Business and Science, o‘qituvchi

[ulugbekiuldashev08@gmail.com](mailto:ulugbekiuldashev08@gmail.com)

ORCID 0009-0005-5043-7387

UDK 94:371.263

**Annotatsiya.** O‘zbekiston hukumati ta’lim sohasida xalqaro tajribani qo‘llash orqali katta yutuqlarga erishishni maqsad qilgan. Ta’lim sohasida jahon tajribasining bir qismi bo‘lgan PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtiroki O‘zbekiston ta’lim tizimida mavjud kamchilik va muammolarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu tadqiqotlar orasida PISA alohida ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekiston unda 2022-yilda birinchi bor ishtirok etdi. 2023-yilda chiqqan natijalar maktab ta’limi sohasida mavjud muammolarni ko‘rsatib berdi. Ushbu tadqiqotda PISA xalqaro baholash tadqiqotiga tayyorgarlik jarayonlari, maktab ta’limidagi bu borada amalga oshirilgan ishlar hamda 2022-yilga ishtirok natijalari tahlil etilgan. Maqolani yozishda davriy matbuot materiallari, OECD nashriyotining PISA-2022 natijalari bo‘yicha ma’lumotlari, ayrim olimlarning bu sohada ilmiy maqolalarini tahlil etib o‘rganish asosida yakuniy xulosalar berilgan. Xalqaro baholash tadqiqotiga tayyorgarlik jarayonlari tarixiylik tamoyili asosida davriy ravishda yoritib tahlil qilindi. Namangan viloyat xalq ta’limi boshqarmasi hisobotlari ham tayyorgarlik jarayonini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. PISA-2022 natijalari bo‘yicha turli mutaxassislarning fikrlarini o‘rganish va muallifning shaxsiy tahlili asosida yakuniy xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar.** OECD, PISA, xalqaro tadqiqotlar, maktab ta’limidagi muammolar, tabiiy fanlar, matematika, o‘qish savodxonligi.

**Abstract.** The government of Uzbekistan aims to achieve great success in the field of education by applying international experience. Participation in international assessment studies such as PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, which are part of the world experience in the field of education, helps to identify shortcomings and problems in the education system of Uzbekistan. Among these studies, PISA is of particular importance, and Uzbekistan participated in it for the first time in 2022. The results released in 2023 showed the existing problems in the field of school education. This study analyzed the processes of preparation for the PISA international assessment study, the work carried out in this regard in school education, and the results of participation in 2022. When writing the article, final conclusions were drawn based on the analysis of periodical press materials, information from the OECD publishing house on the results of PISA-2022, and scientific articles by some scientists in this field. The processes of preparation for the international assessment study were periodically covered and analyzed based on the principle of historicity. Reports from the Namangan Regional Department of Public Education also played an important role in studying the preparatory process. Based on the study of the opinions of various experts on the results of PISA-2022 and the author's personal analysis, final conclusions and proposals were developed.

**Keywords.** OECD, PISA, international studies, problems in school education, natural sciences, mathematics, reading literacy

**Kirish.** Ma’lumki, har qanday davlat taraqqiyoti undagi sifatli ta’lim bilan chambarchas bog‘liq. Chunki ta’lim tizimi mamlakat iqtisodiyotini harakatlantiruvchi mutaxassis kadrlarni yetishtirib beradi. Shuning uchun ham ko‘plab davlatlar, shu jumladan, O‘zbekistonda ham uzluksiz ta’lim tizimiga har doim jiddiy e’tibor qaratilib kelinmoqda. Sifatli ta’lim tizimini yaratishda ta’lim sifatini baholash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston hukumati ham PISA, PIRLS, TIMSS kabi turli xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishga hamda ularning natijalaridan ta’lim tizimidagi muammolarni aniqlash va bartaraf etishda foydalanishga e’tibor qaratmoqda.

Maqolada xalqaro baholash tadqiqotlaridan biri bo‘lgan PISA da O‘zbekistonning ilk ishtiroki har tomonlama, tarixiy dalillar asosida o‘rganildi va tahlil qilindi. PISA-2022 natijalari o‘rganilib, turli mutaxassislarning ilmiy maqolalari asosida xulosalar berildi. O‘zbekiston o‘z oldiga 2030-yilga qadar PISA tadqiqotida ilg‘or 30 ta mamlakat qatoriga kirish maqsadini qo‘ygan. Shuning uchun ham ushbu tadqiqotdagi tarixiy tahlil va boshqa davlatlar tajribasini o‘rganish asosida berilgan xulosalar dolzarb ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Maqola uchun o‘rganilgan adabiyotlarni bir necha guruhlariga bo‘lish mumkin. Ulardan birinchi guruhga davriy matbuot materiallarini kiritish mumkin. Xususan, “Yangi O‘zbekiston”, “Ma’rifat”, “Yoshlar ovozi” kabi gazetalarda

berilgan maqolalar PISA tadqiqotiga tayyorgarlik jarayoni, uning ahamiyati va natijalar bo'yicha tahlillarni amalga oshirishda muhim manba sifatida xizmat qildi.

Ikkinchi guruh adabiyotlarga ushbu mavzuga aloqador ilmiy-tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. Jumladan, Kurbaniyazov Sh. va Allayorova X. hammuallifligida yaratilgan "Ta'lim sifatini baholash jarayonini PISA xalqaro dasturi talablari asosida tashkil etish yo'llari" nomli maqolada PISA-2022 natijalari mualliflar nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun Tashibekova M. tomonidan yozilgan "Boshlang'ich sinflarda STEAM – ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi (tabiiy fanlar misolida)" nomli dissertatsiyada PISA tadqiqotida tabiiy fanlardan yuqori natija qayd etishda STEAM texnologiyasining ahamiyati ochib berilgan.

Uchinchi guruh adabiyotlar sifatida PISA tadqiqotiga tegishli rasmiy natijalarini aks ettirgan OECD nashriyoti tomonidan chop etilgan PISA-2022 natijalari va ularning tahlillaridan foydalanildi.

To'rtinchi guruh rasmiy adabiyotlar hisoblanib, ularga Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, rasmiy solnoma va Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasining hisobotlari kiradi. Ularda PISA tadqiqoti bilan bog'liq belgilab qo'yilgan vazifalar hamda tayyorgarlik jarayoni bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda, eng avvalo, O'zbekiston hukumatining PISA xalqaro tadqiqotida ishtirok etish vazifasining qo'yilishi va unga tayyorgarlik jarayonlari tarixini o'rganish, shuningdek, PISA-2022 natijalari tahlilini o'rganish maqsadi qo'yildi. Mavzuga oid ma'lumotlar rasmiy hujjatlar, davriy matbuot materiallari, PISA xalqaro baholash tadqiqotining xulosalari va ilmiy maqolalar asosida to'plandi. To'plangan adabiyotlar asosida ma'lumotlar xronologik tartibda tarixiylik tamoyili asosida tartiblandi. PISA ga tayyorgarlik va uning natijalari bilan bog'liq ma'lumotlar keyingi PISA tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida qanday yo'l tutish kerakligi borasida ma'lum xulosalarga kelish imkoniyatini beradi.

**Natijalar va muhokama.** Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development; keyingi o'rinlarda qisqacha OECD) 2000-yildan dunyo bo'ylab 15 yoshli bolalarning bilim va ko'nikmasini Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA - The Programme for International Student Assessment) asosida baholab keladi [1]. Ushbu dastur davlatlardagi ta'lim tizimi ahvolini, undagi kamchilik va muammolarni ochib berishda hamda boshq davlatlar bilan solishtirish orqali xulosa berishi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) o'quvchilarning bilimi va bilganlari bilan nima qila olishlarini o'rganish, ta'lim natijalarining sifati va tengligini taqqoslash, boshqa mamlakatlarda qo'llaniladigan siyosat va amaliyotlarni o'rganish orqali ta'lim sohasida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradigan keng qamrovli xalqaro baholash tadqiqoti sifatida PISA ni tashkil etmoqda [2]. PISA dasturi o'zi haqida bergan ma'lumotlarda, o'quvchilarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotda to'la ishtirok etishda kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni qay darajada o'zlashtirganini baholaydi. Bundan tashqari, o'quvchilarning maktab ichi va tashqarisida turli vaziyatlarda olgan bilimlarini qo'llay olish yoki olmasligini ham baholaydi [3]. PISA baholash dasturi ta'lim tizimiga va o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga baho berishda eng mashhur xalqaro dasturlardan bir bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston hukumati ham ta'lim tizimidagi muhim islohotlar qatorida jahon tajribasini joriy qilish maqsadida turli xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA da ham ishtirok etishga qaror qildi. Bu haqda 2018-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS xalqaro baholash dasturlarining xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish va ularga tayyorgarlik ko'rish vazifalari belgilandi [4]. Ushbu qarorda tayyorgarlik ko'rish bosqichlaridagi vazifalar ham belgilangan edi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasining xalqaro tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha tajribasini o'rganish

vazifasi ham qo'yilgan edi. Shu maqsadda respublika bo'yicha hududlarda tayyorgarlik jarayoni boshlandi.

Vazirlar Mahkamasi qarori asosida Xalq ta'limi vazirligining 316-sonli buyrug'i qabul qilinib, viloyat xalq ta'limi boshqarmalariga topshiriqlar berildi. Xususan, Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasining 2018-yil 24-dekabrda 226-sonli buyrug'iga asosan xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida Namangan shahar va barcha tumanlarda 2 tadan jami 24 ta tayanch maktablar belgilandi va viloyat bo'yicha 48 nafar xodimlar mas'ul etib birlashtirildi. Jahon bankining READ 2 dasturi hamda Rossiya trening markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ta'lim sifatini baholash tadqiqotlari (PISA-2021, PIRLS-2021)ga tayyorgarlik Rossiya Federatsiyasi tajribasini o'rganish maqsadida 2019-yil 17–23-fevral kunlari Moskva shahrida bo'lib o'tgan seminar treningga Namangan viloyatidan Chust tuman xalq ta'limi bo'limi ta'lim sifati monitoringi bo'limi bosh inspektor-metodisti Darvishxo'jayev Abdurashid ishtirok etgani viloyat xalq ta'limi boshqarmasining hisobotida aks etgan [5]. Bu kabi seminar-treninglarda boshqa viloyat vakillari ham ishtirok etgan hamda Rossiya tajribasi asosida PISA tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rishda muhim ahamiyat kasb etgan.

PISA va boshqa xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik keyingi yillarda ham davom ettirildi. Xalq ta'limi tizimiga oid qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda ham xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik bo'yicha vazifalar belgilandi. 2019-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi [6]. Ushbu konsepsiyada O'zbekiston Respublikasi PISA reytingi bo'yicha 2030-yilga kelib jahonning ilg'or 30 ta davlati qatoriga kirish vazifasi qo'yildi [7]. Bunday ulkan vazifaning qo'yilishi Xalq ta'limi vazirligi va tizimdagi barcha ta'lim muassasalari oldiga katta mas'uliyat yukladi.

Xalq ta'limi vazirligi boshchiligida xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida Abdulla Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollari belgilash ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "STesting" platformasi ishlab chiqildi. Bu platforma PISA, TIMSS, PIRLS doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan test va videomahsulotlarni o'z ichiga olgan platformadir. Mazkur loyiha doirasida 100 dan ortiq videolar yaratilib, 1500 dan ortiq testlar joylashtirildi. Platforma 2021-yil sentyabr-oktyabr oylarida tayanch maktablarda sinovdan o'tkazildi. Eng muhim jihatlaridan biri, platforma mutlaqo bepul shaklda tashkil etildi. 2022-yilga qadar 2,6 milliondan ortiq o'quvchi platformada ro'yxatdan o'tgan [8]. Bunday platformaning yaratilishi o'quvchilarda PISA sinoviga tayyorgarlik ko'rishda qulayliklar yaratdi.

Viloyatlardagi xalq ta'limi boshqarmalari ham keyingi yillarda tayyorgarlik jarayonini davom ettirdilar. Xalqaro baholash tadqiqotiga tayyorgarlik yuzasidan trenerlarning vazifalari belgilab olindi. Trenerlarning metodik guruhi tashkillanib o'zaro tajribalar almashinish yo'lga qo'yildi. Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining 2020-yil 20-fevraldagi 44-C sonli buyrug'iga asosan trenerlar 27–29-fevral kunlari Abdulla Avloniy nomidagi markaziy malaka oshirish institutida tashkil etilgan "Ta'lim sifatini baholash PISA tadqiqot dasturi bo'yicha xalqaro tajribalar" mavzusidagi seminar treningda ishtirok etib malakalarini oshirib kelishdi [9]. 2021-yilda ham xalqaro tadqiqot sinoviga tayyorgarlik davom ettirildi. Belgilangan maktablarda tajriba-sinov testlarida amalga oshirildi. Jumladan, Namangan viloyati uchun belgilangan 5 ta maktabda 2021-yilning 27-apreldan 30-aprelgacha bo'lgan muddatda o'tkazildi. Namangan shahridagi 7-maktab karantinda bo'lganligi sababli u yerda 12-may kuni o'tkazildi [10]. Tajriba sinovlari ham o'quvchilarining xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ko'rishlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Lekin pandemiya bilan bog'liq vaziyat xalqaro tadqiqotga tayyorlashda bir qator muammolarni keltirib chiqargan.

O'zbekistonning PISA tadqiqotida 2021-yil 3 ta yo'nalish bo'yicha ishtirok etishi rejalashtirilgan edi, ammo pandemiya natijasida O'zbekiston ta'lim muassasalarida 2022-yil aprel-may oylarida o'tkazildi [11]. Ushbu tadqiqotning kechiktirilishi sababi haqida tashkilotning hisobotida ham aks etgan. Unda aytilishicha, 8-baholash tadqiqoti 2021-yilga

rejalashtirilgan bo'lsa-da, PISA Boshqaruv Kengashi COVID-19 pandemiyasi tufayli ta'lim tizimlari juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelganligi oqibatida 2022-yilga qoldirilgani ta'kidlangan [12]. 2022-yilgi tadqiqotda o'quvchilardan olingan so'rovnomada maktablarning yopilishi bilan bog'liq savollarni ham o'z ichiga oldi.

2022-yilgi PISA xalqaro tadqiqotida O'zbekiston umumta'lim muassasalaridan yuqori natijalar kutilmagan. Chunki xalqaro darajadagi tadqiqotda birinchi marta ishtirok etayotgan davlatdan ta'lim tizimida qisqa muddatda katta o'zgarishlar amalga oshirilishini kutish ham to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham 2022-yil uchun aniq bir marra qo'yilmagan, lekin 2023-yil uchun jahonning ilg'or 70 ta davlati qatoriga kirish vazifasi belgilangan [13]. Maktab ta'limi tizimida mavjud muammolar yuqori natijalardan umid qilishga imkon bermasdi. Buni milliy miqyosda o'tkazilgan sinovlar natijalari ham ko'rsatib bergan. Masalan, 2020-yil 22-oktyabr kuni umumta'lim muassasalarining reytingi e'lon qilinishi va natijalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazilgan. Unda ta'kidlanishicha, 9-sinf o'quvchilarining bilim darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlarida qatnashgan o'quvchilarning 56,1 foizi ona tilidan diktantdan va 11,97 foizi matematikadan yozma ishdan ijobiy baholangan. Milliy baholash tizimida matematika fanidan juda past natijani qayd etgan o'quvchilardan PISAning xalqaro darajadagi tadqiqotida yuqori natija kutish aqlga sig'masdi. Shuning uchun birinchi sinov O'zbekiston uchun ta'lim tizimidagi muammolarni aniqlash va xalqaro tajriba asosida ularga yechim topish uchun kerak edi.

O'zbekistonning bir qator yetakchi o'qituvchilari ham 2022-yilgi PISA tadqiqotidan yuqori natijalar kutmagan. Jumladan, o'qituvchi-blogger Isroil Tillaboyev ham PISA imtihoni natijalari pastligi "shok holatiga tushiradigan" darajada bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. 2023-yil PISA tadqiqoti natijalari e'lon qilinganda o'zbekistonlik o'quvchilar uchala fan bo'yicha ham juda past natijalarni qayd etdilar.


PISA-2022 tadqiqotida o'zbekistonlik 15 yoshli o'quvchilar natijalari nihoyatda past ko'rsatkichlari bilan yodda qoladigan bo'ldi. O'zbekiston o'quvchilari matematik savodxonlikdan 364 ball to'plab 72-o'rinni, o'qish savodxonligidan 336 ball to'plab 80-o'rinni, tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligidan 355 ball to'plab 80-o'rinni egallashdi. Faqatgina Kambodja davlati O'zbekistondan past natijalar qayd etdi. Ba'zilar buni birinchi marta ishtirok uchun tabiiy hol deb hisoblasa, boshqalar bu qadar past natijadan xavotirda. Chunki iqtisodiy jihatdan juda qoloq mamlakatlar ham ushbu baholash dasturida O'zbekistondan yuqori o'rinlarni egallashgan [14].

O'zbekistonlik o'quvchilar uchala yo'nalish bo'yicha ham Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo davlatlarning o'rtacha ko'rsatkichlaridan past natijalarni qayd etdi. O'zbekistonda o'quvchilarining matematikadan 19 foizi kamida 2-darajali testlarni ishlay olishgan, OECD mamlakatlarida o'rtacha ko'rsatkich 69 foizni tashkil etadi. O'zbekistonlik o'quvchilarning hech qaysisi 5- va 6-darajali savollarni ishlay olmagan, barcha yo'nalishlar bo'yicha 1-o'rinni egallagan Singapur o'quvchilarining 41 foizi bu natijaga erisha olgan. O'qish savodxonligi bo'yicha esa OECD mamlakatlarida o'rtacha 74 foiz o'quvchilar kamida 2-darajali savollarga javob bergan bo'lsa, O'zbekiston uchun bu ko'rsatkich atigi 14 foizni tashkil etgan. Birorta ham o'zbekistonlik o'quvchi katta hajmdagi matnlarni tushunish, mavhum tushunchalar bilan ishlash hamda fakt va fikrni farqlashni talab qiladigan 5- va 6-darajali savollarga javob bera olmagan. Tabiiy fanlar bo'yicha ham matematika kabi atigi 19 foiz o'zbekistonlik o'quvchilar kamida 2-darajali savollarga javob bergan. Bu bo'yicha OECD davlatlarining o'rtacha ko'rsatkichi 76 foizni tashkil etgan. Bu yo'nalishda ham 5- va 6-darajali savollarga birorta ham o'zbekistonlik o'quvchi javob bera olmagan. Har uchta fan yo'nalishi bo'yicha bunday past ko'rsatkichlar O'zbekiston ta'lim tizimida yodlashga qaratilgan eskicha yondashuvning oqibatini ko'rsatib turibdi. O'quvchilar olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash va fikrlash ko'nikmalarini yetarlicha shakllantirmagan.

OECD mamlakatlarida oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidagi farqlar matematika fanidan natijalarda ham farqlarni aks ettiradi. Lekin bu omil O'zbekiston o'quvchilarning

natijalaridagi farqqa unchalik katta ta'sir etmagan. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lganlar eng past imkoniyatga ega bo'lganlarga nisbatan 22 ball farqni qayd etganlar. OECD bo'yicha bu ko'rsatkich o'rtacha 93 ballni tashkil etgan. Bundan tashqari, 20 foiz eng quyi qatlam vakillari matematikadan eng yaxshi natija qayd etganlarning chorak qismini tashkil etgan [15]. O'zbekiston, Kambodja va Kosovo o'quvchilari iqtisodiy imkoniyati cheklanganiga qaramasdan matematikadan yuqori natijalar qayd etgan o'quvchilar soni ko'pligi bilan ajralib turuvchi davlatlar qatoriga kirgan. Buni PISAning O'zbekiston uchun chiqarilgan maxsus hisobotida keltirilgan quyidagi chizma ham isbotlaydi.

**PISA-2022 tadqiqotlarida matematika fanidan xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy ahvol bo'yicha ko'rsatkichlar asosida natijalar**



*Manba: PISA 2022 RESULTS: FACTSHEETS – UZBEKISTAN. – Paris: OECD Publishing, 2023. – P.3.*

OECD bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarda ham, Yaponiya va Estoniya kabi davlatlarning ko'rsatkichlarida ham ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshiroq bo'lgan sari matematika fanidan natijalar yuqoriroq bo'lganini ko'rish mumkin. O'zbekistonda esa aksincha ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga ko'ra o'quvchilarning natijalari deyarli katta farq ko'rsatmagan. Bundan O'zbekistonda o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari ularning boshqalardan ta'limda katta ustunlik bermaganligi haqida xulosa qilish mumkin. Yana bir xulosa shundaki, muammo ota-onalarning farzandi ta'limi uchun ajratadigan xarajatida emas, balki ta'lim tizimining o'zida ekanligini ko'rish mumkin.

Genderlar orasidagi farq bo'yicha esa O'zbekistonning natijalari OECD mamlakatlaridagi o'rtacha ko'rsatkichlardan farq qilmadi. O'g'il bolalar matematikadan, qizlar esa o'qishdan yaxshiroq ball to'plagan. Matematikada past natijalarga erishgan qizlar ulushi yuqoriroq (qizlar uchun 83% va o'g'il bolalar uchun 78%), o'qishda esa aksincha (qizlar uchun 84% va o'g'il bolalar uchun 88%). Natijalari minimal darajadan oshish bo'yicha har 10 nafar o'g'il bolaga 8 nafardan kamroq qiz to'g'ri keldi.

PISA testining yana bir jihati o'quvchilardan ularning maktabdagi hayoti bo'yicha so'rovnoma olinishida namoyon bo'ladi. Maktabda do'stlar orttirish, o'zini maktabga tegishli yoki tegishli emas deb hisoblash, maktabda o'zini yolg'iz his qilish kabi savollarga javob berishda o'zbekistonlik o'quvchilarning javoblari OECD bo'yicha ko'rsatkichlardan tubdan farq qilmaydi.

COVID-19 pandemiyasi ham ta'lim jarayonlariga salbiy tas'ir etganini PISA-2022 xulosalaridan bilib olish mumkin. O'zbekistonda o'quvchilarning 15 foizi maktablarning yopiqligi tufayli 3 oy va undan ortiq darslarni o'tkazib yuborgani haqida qayd etgan. OECD bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa 8 foizni tashkil etadi. Pandemiya davrida ta'lim muassasalaridagi faoliyatidagi muammolar natijalarga ham ta'sir etgani haqida xulosa qilish mumkin.

PISA tadqiqotlaridan yana bir o'ziga xos xulosa shundaki, maktablarga kengroq boshqaruv erkinligi berilgan mamlakatlar yaxshi natijalarni qayd etgan. O'zbekistonlik o'quvchilardan olingan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ularning 90 foizi direktorlar o'qituvchi ishga olishga mas'ul maktablarga qatnaydi (OECD o'rtacha ko'rsatkichi 60 foiz) hamda boryo'g'i 10 foiz o'quvchilar o'qituvchilarning o'zi o'qitish materiallarini hal qiladigan



maktablarga qatnaydi (OECD o'rtacha ko'rsatkichi esa 76 foizni tashkil etadi). 2001-yil PISA testida yuqori natijalar qayd etgan Finlandiya ta'limining muvaffaqiyati ham akademik erkinlik, maktablar va o'qituvchilarga berilgan o'zini-o'zi boshqarish huquqi bilan bog'liq.

Ta'lim sifatini ta'minlashda interfaol axborot ta'lim muhitini yaratish, inson shaxsiga hurmat, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ta'limni demokratlashtirish katta ahamiyatga ega. Ta'limning yangicha mazmuni ta'limni boshqarishni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Ta'limdagi to'g'ri boshqaruvni shakllantirish va o'qituvchilarga o'z faoliyatini amalga oshirishda kengroq erkinlik berish muvaffaqiyatning kaliti hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** O'zbekistonning PISA-2022 dagi ishtiroki orqali ta'lim tizimidagi kamchiliklar yaqqol ochib berildi. Navbatdagi asosiy vazifa ushbu kamchiliklar ustida ishlab, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy choralar ko'rish hisoblanadi. Baholash dasturi natijalari asosida quyidagilar haqida xulosa chiqarish mumkin:

1) ta'lim tizimidagi yodlashga yo'naltirilgan yondashuv tufayli o'quvchilarning hayotiy vaziyatlar bilimlarini qo'llash bo'yicha ko'nikmalar shakllanmagan. Bugungi kunda fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim tizimini yaratish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarda davom etish va bunda xorij tajribasini o'rganish lozim;

2) ijtimoiy-iqtisodiy ahvol natijalardagi farqda aks etmagani asosiy muammo ta'lim tizimining o'zida ekanligini ko'rsatib turibdi. Imkoniyati cheklangan bo'lsa ham, yuqori natijalarning qayd etilishi, qobiliyatli o'quvchilar mavjudligi faqat ularning imkoniyatlarini yuzaga chiqarish sifatli ta'lim tizimi orqali amalga oshishi mumkinligini bildiradi;

3) PISA tadqiqoti xulosalarida aytilganidek, maktablarga o'zini boshqarishda kengroq vakolatlar berish yuqori natijalarga erishishga yo'l ochishi mumkin. Buning uchun jamiyatda insonlar dunyoqarashini o'zgartirish, xususan, o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat hissi hamda o'zaro bir-biriga nisbatan ishonchni shakllantirishni talab etiladi;

4) ta'lim tizimidagi tenglik ham mamlakatlarga muvaffaqiyat olib kelgan. Barcha maktablarda teng sharoitlar yaratilishi, butun mamlakat bo'ylab bir xil imkoniyatlar yaratgan davlatlarda PISA baholash tadqiqotida yaxshi natija qayd etgan. O'zbekistonda ham belgilangan maqsadlarga erishishda ushbu omilni hisobga olish talab etiladi;

5) faqatgina maktab ta'limigina emas, ta'limning erta bolalik va maktabgacha ta'lim bosqichlariga ham e'tibor qaratish kerak. Bundan tashqari ota-onalarda ta'limga nisbatan munosabatini, ya'ni pedagoglarga hurmat va ishonchni shakllantirish ham kerak bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kurbaniyazov Sh., Allayorova X. Ta'lim sifatini baholash jarayonini PISA xalqaro dasturi talablari asosida tashkil etish yo'llari // "Ta'limda iqtisodiyot, menejment va raqamli innovatsiyalar: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. 1-qism. – Toshkent, 2024. – B.30.

2. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023. – P.38.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018dagi 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori / <https://lex.uz/docs/-4097073>

4. Наманган вилоят халқ таълими бошқармасининг 2019 йил давомида амалга оширилган ишлар бўйича ҳисоботи. – В.10-11.

5. Солнома. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев фаолияти хроникаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б.318.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni / <https://lex.uz/docs/-4312785>

7. Наманган вилоят халқ таълими бошқармаси тизимида 2020 йилнинг 3 ойи давомида "Таълим тўғрисидаги" Қонун ва "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури"да белгиланган вазифаларни ижроси бўйича ҳисоботи – Б.8.

8. Наманган вилоят халқ таълими бошқармаси тизимида 2021 йил давомида "Таълим тўғрисидаги" Қонун ва "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури"да белгиланган вазифалар ижроси бўйича ҳисоботи – Б.25.

9. Ташибекова М. Бошланғич синфларда STEAM – таълим технологиясидан фойдаланиш методикаси (Табиий фанлар мисолида). Педагогика фан. фал. док. (PhD) ... дис. – Наманган, 2022. – Б.27.

10. PISA 2022 Results (Volume II): Learning During – and From – Disruption. – Paris: OECD Publishing, 2023. – P.40.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni / <https://lex.uz/docs/-4312785>

12. Ma’rifat. 2024-yil 27-mart.

13. PISA 2022 RESULTS: FACTSHEETS – UZBEKISTAN. – Paris: OECD Publishing, 2023. – P.2-4.

## XORAZM MODDIY VA MA’NAVIY MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA SUG‘ORISH INSHOOTLARI VA TIZIMLARINING ROLI (XIX ASR)

**Sheripov Umarbek Atajanovich,**  
Urganch davlat pedagogika instituti  
Tarix va geografiya kafedrasida dotsenti.  
Tarix fanlari nomzodi, dotsent.  
[sheripovumarbek@gmail.com](mailto:sheripovumarbek@gmail.com)  
ORCID 0009-0003-6865-8765  
UDK: 94(575.171)(072)

**Annotatsiya.** Qadimiy Xorazm o‘zbek davlatchiligining beshigi hisoblanadi. Bu yerda Markaziy Osiyodagi dastlabki dehqonchilik manzilgohlari va ilk davlatchilik vujudga kelgan. Sug‘orish, ya’ni qishloq xo‘jaligi yerlarini suv bilan ta’minlash texnologiyasi qadimgi davrlarda ildiz otgan. To‘rtta buyuk sivilizatsiya davrida birinchi sug‘orish tizimlarini o‘z ichiga olgan irrigatsion sivilizatsiyalar deb ham nomlangan Mesopotamiyada Shumer, Nil bo‘yida qadimgi Misr, Hind qirg‘og‘ida qadimgi Hind va Sariq Daryo bo‘yida Xitoy bunga misol bo‘la oladi. Tarixchilar sug‘orish tizimlarining qurilishini insoniyatning tarixdan tarixga o‘tishining asosiy omillaridan biri deb hisoblashadi. Ushbu maqolada Xorazm hududida dehqonchilikning rivojlanishi va shaxarlarning yuksalishida muhim rol o‘ynagan suniy sug‘orish inshooti chig‘ir to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Qadimdan turli xalqlarda suv chiqarish moslamasi turli nomlar bilan atalgan. Muomalada shuningdek, Xorazmda chig‘ir atamasi birinchi marta qaysi manbalarda tilga olinishi, uning tuzilishi, turlari va qanday sharoitlarda ishlatilishi bilan bog‘liq qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Chig‘irning ixtiro qilinishi yuzlab yillar davomida Xorazm xalqining moddiy va ma’naviy madaniyatining yuksalishiga, yangi ekin maydonlarining o‘zlashtirilishiga va aholining iqtisodiy farovonligining o‘sishiga olib keldi.

**Kalit so‘zlar.** sun‘iy sug‘orish, shoduf, soqiya, irrigatsion texnika, chig‘ir, koriz, tarnov, qasnoq, digir, chig‘ir solma, prapollerli nasos.

## THE ROLE OF IRRIGATION FACILITIES AND SYSTEMS IN THE FORMATION OF THE MATERIAL AND SPIRITUAL CULTURE OF KHOREZM (XIX CENTURY)

**Abstract.** Ancient Khorezm is considered as the cradle of Uzbek statehood. The first farming settlements and the first statehood in Central Asia were established here. This abstract discusses the development of ancient agriculture and statehood in the Khorezm region. Irrigation, that is, the technology of providing water to agricultural land, has its roots in ancient times. Examples include Sumer in Mesopotamia, ancient Egypt on the Nile, ancient Indus on the Indus, and China on the Yellow River, also known as the irrigation civilizations that included the first irrigation systems during the Four Great Civilizations. Historians consider the construction of irrigation systems to be one of the main factors in the transition of mankind from history to history. The main focus is on the artificial irrigation structure known as the “*chigir*”. The article provides information about the *chigir*'s design, types, and the historical sources in which it was first mentioned. It also explores the conditions under which the *chigir* was used and its role in the rise of cities. The invention of the *chigir* contributed significantly to the material and spiritual culture of the Khorezm people for centuries, leading to the development of new agricultural lands and the growth of the population's economic prosperity.

**Keywords.** artificial irrigation, shaduf, saqiya, irrigation technology, chigir, Y.Gulomov, qanat, gutter, qasnoq, mill, chigir mechanism, propeller pump.

**Kirish** Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotining asosini sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik tashkil qiladi. Kanal va anhorlardagi suv gorizonti ko‘pincha dalalar sathidan ancha past bo‘lganligi uchun qadimdan suvni sun‘iy yo‘l bilan pastdan yuqoriga chiqarganlar. Bunday sun‘iy sug‘orish inshootlari qadimgi dehqonchilik madaniyati markazlari bo‘lmish Misrda “shoduf”, Hindistonda “rati”, Mesopotamiyada “cherd” deb ataladi[1]. Xorazmda qadimdan kanallardan dalalarga suv chiqarishning eng oddiy usullari “sepma,” “depma” “nova” hisoblanadi. Asrlar davomida yangi aholi sonining ko‘payishi, ayniqsa ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining o‘troq hayotga o‘tishga intilishi ekin maydonlarining o‘zlashtirilishiga, dehqonchilik hududlarining ko‘payishiga olib keldi. Tabiiyki, bunday sug‘orish inshootlari aholining suvga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira olmas edi. Sharqda dehqonchilikning uzoq taraqqiyot protsessi davomida suv chiqarish mexanizmlarining eng oddiy usullaridan asta-sekin ancha murakkab turlariga o‘tish natijasida u yerda o‘ziga xos irrigatsion texnika vujudga kelgan. Misr va Mesopotamiyada “soqiya”, Eron va Hindistonda “charx”, Xorazmda “chig‘ir” deb ataluvchi ish hayvonlari yordami bilan suv chiqarishga ixtisoslashgan qadimiy qurilmaning ixtiro qilinishi dehqon mehnatining unumdorligi oshishiga va katta ekin maydonlarining o‘zlashtirilishiga olib keldi.

“Chig‘ir” yoki “chiqir” deb ataladigan atama hozirgi adabiyotlarda chig‘ir deb yuritiladi va uni “chiqarmoq” fe‘li bilan bog‘laydilar.

Boshqa rivoyatga qaraganda, “chig‘ir”ning nomi “chig‘iriy” (aylantirmoq) fe‘lidan kelib chiqqan. Chig‘irning mahalliy nomi birinchi marta XVII asr o‘rtalarida Abulg‘ozi tomonidan aytib o‘tiladi. Abulg‘ozi so‘ziga qaraganda, u o‘z kitobini juda sodda tilda yozishga harakat qilgan. Shu sababli u eroncha o‘rniga xalq terminini ishlatishni afzal ko‘rgan deb xulosa chiqarish mumkin[2].

Bundan tashqari 1349-yilda Xorazmda tuzilgan shayx Sulaymon Xaddodiyning xonaqo vaqf hujjatlarida chig‘irning nomi eroncha “charx” nomi bilan keltiriladi.[3]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondoshuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Chig‘ir uch asosiy qism: suv botirib oluvchi idishlari bo‘lgan g‘ildirak, gorizantal o‘q va tarnovlardan iborat.

Professor Y.G‘ulomov o‘zining “Xorazmning sug‘orilish tarixi” nomli monografiyasida chig‘irning tuzilishi, uni o‘rnatish va turlari to‘g‘risida batafsil ma‘lumot beradi. Chig‘irni o‘rnatishda va sug‘orishda qulaylik tug‘diradigan joyda chuqurligi 3 metr, kengligi 1 metr va uzunligi 3 metr bo‘lgan quduq qazilib, uning uch tomoni o‘pirilib ketmasligi uchun yog‘och va shox-shabbalar bilan tikladi; tor bir tomoni esa suv oqib kirishi uchun ochiq qoladi.



**Chig‘ir konstruksiyasining ko‘rinishi.**

Bunday quduq “koriz” deb ataladi. Koriz suvining manbai bilan “tortma” deb ataluvchi ariq orqali bog‘lanadi. Tortmaning o‘ziga suv solma yoki yopdan ko‘pincha tuqurtqa orqali keladi. Ko‘pincha tortma oqar suvdan ancha pastda quriladi: shu sababli

tuqurtqa yopilishi bilan korizga oqayotgan suv ham to'xtaydi.

Chig'irning g'ildiragi vertikal holda korizning ichiga o'rnatiladi. G'ildirak o'qining uchli tomoni yo'g'on yog'ochni o'yib o'rnatiladi. Bu yog'och tarnovga qarama-qarshi bo'lgan devorining o'rtasiga o'rnatiladi. G'ildirakni korizda shunday o'rnatish kerakki, undagi idishlar suvga bemalol to'lsin. Shu bilan birga, g'ildirakning eng katta qismi koriz og'zidan yuqorida bo'lishi kerak, ya'ni idishlardagi suv tarnovga ancha qiyalik bilan tushsin.

Chig'irlarning ikki xili uchraydi: "ullu chig'ir" (katta chig'ir) va "kichchi chig'ir" (kichik chig'ir). Bular bir-biridan g'ildiragining, demak, idishlarning hajmi bilan ham farq qiladi. G'ildiraklarning diametri bir yarim metrdan ikki yarim metrgacha bo'ladi. G'ildiraklarning tuguni ("qacnoq") kengligi 6-7 sm, qalinligi 2 sm bo'lib, katta yog'och gardishga o'xshaydi. G'ildirak tuguniga sopol ko'zalar ("digirlar") o'rnatiladi; har bir ko'zaning tagi yassi dasta shakliga o'xshaydi. Digir shu dastaga – tugunga bog'lanadi, shuningdek, tut yoki tolning yosh novdasi po'stlog'idan eshilgan ip bilan ko'zaning bo'ynidan ham bog'lanadi. Digirlar tugunga shunday qiyalik bilan joylashtiriladiki, korizga qayta botirganda undagi suv g'ildirak oldida tarnovga quyiladi. Chig'ir g'ildiragiga uning katta-kichikligiga qarab, 24 dan 36 gacha digir bog'lanadi. Ko'pincha 28-30 digir bog'lanadi[4].

Digirga o'rta hisobda 3 litr suv sig'adi. Katta chig'irni tuyaning kuchi bilan, kichik chig'irlarni eshak, ot va ho'kizlarning kuchi bilan harakatga keltiriladi.



Digir.

Chig'irlar har xil kattalikda bo'lib, eng katta chig'ir g'ildiragiga 32 ta sopol digir bog'lanadi. U 4 metr pastlikdan suvni 7 metr yuqoriga ko'tarishga qodir. Har 5 ta digir 1 chelak suv ko'tarishini e'tiborga olsak, tuya yordamida 1-1,5 minutda aylantirilayotgan chig'ir 6-9 chelak suv chiqaradi[5].

Chig'ir g'ildiragining gorizonttal o'qi ("yotiq o'q")ning korizdan ham chetga chiqadigan uzun uchi bo'ladi. Bu uchiga bir qancha tishli boshqa kichikroq g'ildirak o'rnatiladi. Bu oddiy uzatuvchi qator tishli g'ildirakchani eslatadi. Gorizonttal o'qdagi bu vertikal g'ildirak "kichi ko'mach" deb ataladi. Kichik ko'machning erkin aylanishi uchun yerda kichik chuqurcha qaziladi.

Ish hayvoni sifatida chig'irga tuya, ot, ho'kiz yoki eshak qo'shiladi. Hayvon vertikal o'q atrofida koriz bilan dastak orasida yuradi. U gorizonttal (ulu) ko'machni soat strelkasi yo'nalishida aylantiradi. Bunda gorizonttal tishlar vertikal (kichik) ko'mach tishlari bilan birikadi va shu usulda chig'ir g'ildiragi o'rnatiladi va o'q harakatga keladi. Digirlar birin-ketin korizdagi suvga to'ladi. Suv korizning ketigacha ko'tarilib, g'ildirakka parallel o'rnatilgan yog'och tarnovga quyiladi. Tarnovdan suv "chig'ir solma" deb ataluvchi ariq bilan dalaga oqadi.

XIX asrda ham Xorazmda iqtisodiyotning asosini qishloq xo'jaligi tashkil qilgan. Xorazm sharoitida yerni sug'orish ancha qiyin muammo edi. Xorazmda yer ko'p bo'lishiga qaramay, har bir dehqon Amudaryoga tutashgan yerning har bir metri uchun qattiq kurash olib borar edi. Daryo chetidan uzoqlashgan sari yer ishlanmasdan qola berar

edi. Bunday yerlarga faqat suv jon kirgizishi mumkin edi. Xorazmda yerlar ikki usul bilan, ya'ni chig'irliq bilan va chig'irliqsiz sug'orilar edi. Chig'irliqsiz sug'oriladigan yerlarga suv daryolardan ariqlar orqali chiqarilar, ariq suvlari yerning nishabiga qarab oqardi. Yerni chig'irliq (chig'ir) bilan sug'orilgan taqdirda buning uchun daryoga katta chig'irliq o'rnatilar, bu chig'irliqni suvning oqish kuchi harakatga keltirmay, balki ot yoki xo'kiz yordami bilan harakatga keltirililar, kichikroq chig'irlarni esa odamlarning o'zi aylantirib harakatga keltirardi.[6]



**Tuya yordamida chig'irning ishlash jarayoni.**

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va yangi ekin maydonlarini o'zlashtirish borasidagi ishlar Xiva xonligining Chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan istilo qilinishi va bo'ysundirilishi natijasida yanada kengaydi. Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlaridan ajralgan va 2 mln. 200 ming tilla pul hajmida tovon to'lagan xonlikdagi hayot yarim mustamlaka holatiga keldi [7]. Qishloq xo'jaligi va uning muhim qismi hisoblangan sug'orish ishlari tushkunlikka uchradi.

Xiva xonligiga harbiy ekspeditsiya va ilmiy-tadqiqotlar jarayonida kelgan rus zobitlari, rassom va olimlarning diqqatini dastavval sug'orish inshootlari, suv ko'tarish dastgohlari tortgan. Xiva xonlari xazinasini ro'yxatga olgan orientalist A.L. Kun: "Daryo bo'yidan yurganimizda va Qo'shko'pirdan Xivaga kelguncha oqar suv bilan aylantirilayotgan 160 ta chig'irlarni ko'rdik"[8], – deb yozgandi.


Chig'irni ilk bor ko'rgan va uning asosiy qismlarini tasvirlashga harakat qilgan rassom N.N. Karazin yozgandi: "Chig'ir – bu suv ko'tarish uchun ishlatiladigan dastgoh bo'lib, yotqizib qo'yilgan yog'ochga tishli g'ildirak o'rnatiladi. Unga bir-biriga o'xshash sopol idishchalar, qiya qilib aylanadigan tomonga qaratib, bog'lanadi. O'q yog'och ot yoki eshak yordamida aylantiriladi va harakatga kelgan sopol idishlar pastga tushganda to'lgan suvlarini yuqoriga ko'tarilganda tarnovga tashlab, ariqqa o'tkazadi"[9].



**Inson qo'l kuchi bilan ishlaydigan chig'ir.**

XX asr boshlariga kelib, Xorazmda ichki sug'orish tizimida 60 ming chig'irlar bo'lib, ot va tuyalar yordamida ularning digirini (*ishchi g'ildirak*) aylantirib, suv baland

dalalarga chiqarilgan. Har bir chig'ir (*xorazm shevasida — chiqir*) suvni 2–2,5 metrga ko'tarib, 2–3 gektar yerni sug'orish imkonini bergan. Ba'zida 1 ta chig'irni harakatga keltirish uchun 3,5–4,5 ot (*ot, tuya, eshaklar charchagan vaqtda almashtirib turish uchun 3-4 tadan hayvon zaxirada saqlab turilgan*) kuchi sarflangan. Xiva xonligi tugatilishi arafasida Xorazmda 70–100 ming chig'ir bo'lgan va ularni harakatga keltirish uchun 10 milliondan ortiq ish kuni (*ishchi kuchi*) sarflangan[10].



**Xorazmdagi chig'irlar. XIX asr.**

Markaziy Osiyoda sovet hokimiyati o'rnatilishi va milliy davlat chegaralanishi o'tkazilgan yillarda ham asosiy sug'orish mexanizmi chig'irlar bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Xorazm Xalq Respublikasida 1924-yilda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun 46 ming chig'irlar mavjud bo'lgan bir sharoitda, 100 ta ot kuchiga ega 3 ta nasos stansiyasi o'rnatildi. Ular neft yoqilg'isi bilan harakatga keltiriladi va markazdan qochirma propellerli nasoslar bilan jihozlangandi[11].

**Xulosa va takliflar.** Xorazm vohasida sug'orish tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, tajriba to'plash va ko'nikmalarni rivojlantirish bilan dehqonlar daryo dehqonchiligidan muntazam sun'iy sug'orishga o'tdilar va keyinchalik koriz, tarnov, digir, chig'ir solma, murakkab gidrotexnika inshootlari va sug'orish tizimlarini yaratdilar. Asrlar davomida ariq va quduqlardan suvni ko'tarish uchun moslangan chig'irlar yordamida sug'orish ishlari Xorazm vohasida ikkinchi jahon urushi arafasida deyarli yakunlandi. Endilikda ularning o'rnini elektr energiyasi bilan ishlaydigan propellerli nasoslar egalladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1,4,5,9. Y. G'ulomov. Xorazm sug'orilish tarixi. Toshkent-1959. 258–270- betlar
2. Abulg'oziy- Shajarayi turk.Toshkent-1992y. "Cho'lpon" 188-b.
3. O'zSSR fanlar akademiyasi asosiy kutubxonasining 217-sonli qo'lyozmasi, 285a varak,
4. Кондрашев С.К. Орошаемый Хорезм. - М., 1931, 137-с.
5. Шапский О.А. Как хивинцы ведут полевое хозяйство на своих безводных землях. — М., 1900. — С. 18.
6. Yo'ldoshev.M.Y. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent-1959. 80-81 betlar.
7. Условия мира России с Хивой. // В кн.: Национальная политика в императорской России. Цивилизованные окраины. - М., 1997. — С. 367–371.
8. Кун А.Л. Поездка по хивинскому ханству в 1873 г. // ИРГО. — Т. 10. — СПб., 1874. — № 1. - С. 48.
9. Казарин Н.Н. В низовьях Аму // "Вестник Европы". — М., 1875. — № 3. — С. 204. Наврузов С. Система орошения Хивинского ханства и их освещения в дореволюционной исторической литературе. - "ОНУ". — Т., 1992, — № 11-12. — С. 51.
10. Салтыков А. История ирригационных и мелиоративных работ в Хорезме (1920–1941 гг.). Автореф. ... дисс.канд.ист.наук. — Т., 1968. — С. 8; O'zR. MA, 73-jamg'arma, 1-ro'uxat, 19-ish, 14-varaq.
11. Ирригация Узбекистана. — Т. III. — С. 233.

**1991–2001-YILLARDA ZOMIN TUMANIDA OLIB BORILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR (ARXIV MATERIALLARI ASOSIDA)****To‘ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi**

QarDU tayanch doktoranti

[dilnozameliyeva35@gmail.com](mailto:dilnozameliyeva35@gmail.com)

ORCID ID 009-0002-7712-8769

УДК: 33 С5 (52)04+9(с) 52КБК: 65. 9 (5 Ў36) 30.1.Т-59.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Zomin tumanining 1991–2001-yillardagi iqtisodiy holati, mustaqilligimizning ilk yillarida O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o‘tishi bilan tuman miqyosida olib borilgan iqtisodiy o‘zgarishlar, amalga oshirilgan zaruriy chora-tadbirlar hamda bu jarayondagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etishga doir ishlab chiqilgan iqtisodiy reja va dasturlar, ularning ko‘lami, amaliyotga tatbiq etish jarayonlari, shuningdek, sohadagi kamchilik va muammolarning ijobiy yechimlari yillar kesimida qonun hujjatlari va arxiv materiallari asosida tadqiq qilinadi. Shu bilan birga, bugungi Zomin tumanining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda 1991–2001-yillardagi bosqichma-bosqich tashkil etilgan iqtisodiy tadbirlarning izchilligiga to‘xtalib, iqtisodiy tarixning nafaqat mamlakatlar, balki tumanlarning yaxlit tarixini yoritishdagi muhim o‘rni borligi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, maqolada, iqtisodiyotning tomiri hisoblangan korxonalar va zavodlar, kichik va o‘rta biznes egalari qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Tadbirkorlarga maslahat markaz”larining tashkil etilishi va ularning amaliy ko‘magi soha vakillari uchun XX asrning 90-yillaridagi muhim yangilik bo‘lganligiga alohida urg‘u beriladi. Yana bir ulkan qadamlardan biri – Zomin tumani iqtisodiy jabhalariga chet el investitsiyasini joriy etish, hamkorlikda sifatli mahsulot va xizmat turlarini yaratish, yangi ish o‘rinlarini barpo etish va bu orqali xalq farovonligini oshirish yo‘lida qilingan chora-tadbirlar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Iqtisodiyot, shirkat, bank, moliya, investitsiya, biznes, sarmoya, moliyalashtirish, mablag‘, xarajat, tadbirkorlik, kompensatsiya, iqtisodiy barqarorlik, xususiyashtirish.

**ECONOMIC REFORMS CARRIED OUT IN THE ZOMIN DISTRICT IN 1991-2001 (BASED ON ARCHIVAL MATERIALS)**

**Abstract.** In this article the economic situation of the Zomin district in 1991-2001, the economic changes carried out at the district level in connection with the transition to the market relations of the Republic of Uzbekistan in the first years of our independence, the necessary measures implemented and the existing problems in this process, their elimination economic plans and programs developed in the field, their scope, implementation processes, as well as positive solutions to shortcomings and problems in the field researched on the basis of legal documents and archival materials over the years. At the same time, in ensuring the economic stability of today's Zomin district, it is said that economic history has an important role in illuminating the overall history of not only countries, but also the consistency of economic activities organized in stages in 1991-2001. Also, in the article, the establishment of «Advisory Centers for Entrepreneurs» in order to support the owners of small and medium-sized enterprises and factories, which are the backbone of the economy, and their practical support was an important innovation in the 90s of the 20th century is emphasized. Another important step is the introduction of foreign investment in the economic aspects of Zomin district, the creation of quality products and services in cooperation, measures taken to create new jobs and thus increase the welfare of the people discussed.

**Keywords.** Economy, company, banking, finance, investment, business, investment. financing, funding, cost, entrepreneurship, compensation, economic stability, privatization.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi rasman mustaqillikka erishgan kundanoq barcha sohalarda bo‘lgani kabi, iqtisodiy hayotda ham yangi va ijtimoiy hayot talab qilayotgan ko‘plab islohotlarni amalga oshirishga kirishildi. Dastlab mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan byudjetda mablag‘ taqchilligi sezila boshladi. Ammo mazkur holatdan chiqish bo‘yicha, butun respublikada rejalar ishlab chiqildi va ularning ijrosi boshlab yuborildi. Bunda nafaqat viloyatlar, balki tumanlarga ham alohida iqtisodiy rivojlanish uchun vazifa va topshiriqlar berilib, oylik va yillik hisobot hujjatlari orqali ularning nazorati olib borildi. Bu tadbirlar dastlab biroz murakkablik va qiyinchiliklar bilan boshlangan bo‘lsa-da, hukumatning tizimli dasturlari va xalqning amaliy mehnat mahsuli o‘laroq, sohada sekinlik bilan oldinga siljishlar kuzatildi. Iqtisodiy islohotlardan maqsad – respublika moliyaviy barqarorligini saqlash, korxonalar, zavodlar, fabrikalarning samarali ishlashini yo‘lga qo‘yish va bu jarayonda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali xalqning turmush tarzini yaxshilashdan iborat edi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zomin tumanining iqtisodiy holati va olib borilgan islohotlar qiyosiy va xronologik tahlil asosida tegishli zaruriy qonun hujjatlari, arxiv materiallari va mavzuga oid adabiyotlar yordamida talqin etilgan. Tumanda mustaqillikning ilk yillarida iqtisodiy vazifalar belgilab olindi va ularning amaliy ijrolari qilib borildi. 1991-yil yakunlariga doir, tuman byudjetini aks ettirgan hisobotlar tayyorlanib, uni tasdiqlash uchun Xalq deputatlari tuman Kengashining IX sessiyasida taqdim etilgan.[1] Unga muvofiq, 1991-yil mahalliy byudjet daromad qismi rejaga nisbatan 123 foizga bajarilib, xarajatlar qismi 94 foizga o'zlashtirildi. Tuman byudjetidagi reja ko'rsatkichini bajarishga erishildi va natijada ko'zda tutilgan – aholining turmush darajasini ko'tarish, xalq xo'jaligi tarmoqlariga mablag' berish borasidagi rejalar bajarildi. Aholining bemor qismiga bepul dori berishdan tortib, maktab o'quvchilariga bepul nonushta berishga doir rejalar amalda ham bajarildi. Mustaqilligimizning ilk yili va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, tuman byudjetidan xalq xo'jaligi, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, aholining kam ta'minlangan tabaqalariga mablag'lar ajratilib berildi. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, iqtisodiy islohotlarga salbiy ta'sir etuvchi omillar ham mavjud bo'lib, sohadagi ayrim kadrlarning tajribasizligi va mablag' taqchilligi shular jumlasidandir. 1992-yil tuman byudjet mablag'larining reja va taqsimoti ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, mablag'larning asosiy ko'rstkichlari: 1) ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar, aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari 1991-yilga nisbatan 1.5 barobar oshirilib, 94209,0 ming so'mga yetkazilgan bo'lsa; 2) xalq xo'jaligi xarajatlari 2518,0 ga; 3) boshqaruv xarajatlari esa qariyb 2 barobarga – 1748.0 ga oshirildi. Ayni vaqtda, boshqarma, korxonalar, birlashma (assotsiatsiya, konsern) va qurilish tashkilotlari o'z ishchi-xizmatchilarining maoshlarini oshirish, ularni ijtimoiy himoya qilish choralari ko'rib chiqishi hayotiy ehtiyojga aylanib ulgurgandi [2]. 1992-yilda aholini ijtimoiy himoyalash bilan birga, ularni zaruriy iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kerakli iqtisodiy dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan bo'lsa-da, iqtisodiyotda qiyinchiliklar, savdo tashkilotlaridagi kamchiliklar tufayli ta'minotdagi uzilish va taqchiliklar kuzatilgan. Jumladan, aholiga miqdor asosida beriladigan oziq-ovqat mahsulotlarida yetishmovchiliklar vujudga kelgan. Mazkur holatlar esa, ijobiy islohotlarni, ayniqsa, savdo tashkilotlari ishini tubdan yaxshilashni talab etardi. Shuningdek, tuman aholisiga mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazish, narxlarning sun'iy oshib ketishining oldini olish bo'yicha soliq inspeksiya sinfining ham puxta ishlashi kerakligi ko'p bora ta'kidlanardi. Bundan tashqari bu davrda Zomin tumanida 105 ming aholi istiqomat qilgan va ularni to'laqonli ravishda iste'mol mollari bilan ta'minlashda qiyinchiliklar bo'lgan [3]. Oziq-ovqat bilan bir qatorda aholiga belgilangan me'yorlar va cheklangan narxlarda sotiladigan 8 turdagi bolalar tovarlarining ro'yxati tuzilgan bo'lib, yil davomida har bir bolaga berib kelingan. Mazkur davrda iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilish maqsadida Zomin tumani mahalliy byudjetining 1990-yil 1-oktyabrdan to 1992-yil 1-oktyabrgacha davrdagi tuzilishi va ijrosining kompleks ravishdagi o'tkazilgan taftish natijalariga ko'ra, Zomin nohiya hokimlik idorasi bo'limlari va nohiya moliya bo'limi mahalliy byudjetining daromad qismini bajarishda va qo'shimcha mablag'lar manbasini topishda xalq xo'jaligini rejali ratsional mablag' bilan ta'minlashda amaldagi tadbirlar asosida uzluksiz moliyalashtirish ishlari bo'yicha sezilarli darajada ishlar amalga oshirilgan. Nohiya mahalliy byudjeti 9 ta qishloq kengashi, Navro'z shahar va Zomin posyolka Kengashlari byudjetini o'z ichiga olgan holda amaldagi moliyaviy rejani ortig'i bilan bajargan. Rejada ortiqcha tushgan 2184,9 ming so'mlik mablag' nohiya sotsial madaniy tadbirlarini rivojlantirishga va obodonlashtirishga yo'naltirilgan [4]. Ammo ayrim xo'jalik tashkilotlarining hisobotlarni vaqtida topshirmaganliklari yoki iqtisodiy xatoliklarga yo'l qo'yganliklari ham mazkur nazorat ishlarida ochiqdigan. Nazorat guruhi tomonidan tizimli ishlash, mavjud xatoliklarni bartaraf etish, hisobotlarni aniq va belgilangan muddatda tayyorlab topshirish vazifalari berilgan. Ochiqlangan kamchiliklar va zarur topshiriqlar o'z navbatida, bosqichma-bosqich qoniqarli natijalarini ham ko'rsatib borgan. Jumladan, 1993-yil 23-aprelda Zomin tumani hokimi Umarov Nurmuhammad Shermatovichning ma'ruzasiga ko'ra, 1993-yilda xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish



borasida bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Yilning birinchi choragida 102 mln 100 ming soʻmlik xalq isteʼmol mollari ishlab chiqarildi yoki oʻtgan yilning shu davriga qaraganda, 32 mln soʻmlik miqdorda koʻp. Oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari ayrim yengil sanoat mahsulotlarida ham sezilarli oʻzgarishlar borligi taʼkidlandi. Aholiga savdo xizmatlarini koʻrsatishda ham oldinga siljishlar koʻzga tashlanadi. Tumanning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, xalq xoʻjaligi tarmoqlarini ishchi kuchi bilan taʼminlash borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda oʻtgan yilning shu davridagiga nisbatan xalq xoʻjaligi tarmoqlarida ijtimoiy foydali mehnat bilan band boʻlganlar soni 836 kishiga koʻpaydi yoki ular 24400 kishini tashkil etmoqda. Bu esa, aholining turmush tarzi yaxshilanishiga yordam berdi. Ish oʻrinlarini koʻpaytirish, aholi bandligini taʼminlash orqali xalq faravonligiga erishish mumkinligini anglagan holda keng koʻlamli ishlar boshlab yuborildi. Xususan, iqtisodiy hayotdagi muhim oʻzgarishlardan biri, davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish yuzasidan ayrim ishlar, yaʼni Ulyanovo lak-boʻyoq sexi, Ulyanovo tayyorlov idorasiga qarashli 7 ta obyekt xususiylashtirildi. Shuningdek, yuzlab turar joy binolari ham fuqarolarga xususiy qilib berildi [5]. Yuqorida sanab oʻtilgan barcha misollar, Zomin tumanida mustaqillikning dastlabki yillarida boshlab yuborilgan iqtisodiy islohotlarning amaliy ifodasi edi. Ogʻir iqtisodiy yillar boʻlishiga qaramasdan, qurilish, obodonlashtirish, yoʻl va koʻpriklarni taʼmirlash gʻoyat murakkab muammolardan biri ekanligini hisobga olgan holda, pogʻonama-pogʻona bu kabi ishlarni ham imkon doirasida hal etishga eʼtibor qaratildi. Zomin tumanining 1994-yil iqtisodiy jabhalariga nazar tashlaydigan boʻlsak, ushbu yil davomida tuman xalq xoʻjaligida koʻp tarmoqli iqtisodiyot vujudga keldi. Mulkchilikning nodavlat shakllariga sanoat korxonalarining 21 foizi, qishloq xoʻjaligi korxonalarining 100 foizi, ijtimoiy, maishiy xizmat, savdo tarmoqlarining 88 foizi oʻtkazildi. 1994-yil holatiga koʻra, tuman mahalliy byudjetining daromadlar qismi 113.6 foizga bajarilib, rejadan tashqari qurilgan 1,3 mln soʻm daromad byudjet tanqisligini yumshatishga oz boʻlsa-da oʻz taʼsirini koʻrsatdi.[6] Tumanda bu kabi iqtisodiy rivojlanish – sanoat korxonalaridagi oʻsish, mahsulot hajmining ortishi, yangi ish oʻrinlarining yaratilishi va yana bir qancha omillar hisobiga vujudga keldi. Va bu tadbirlar davom ettirilib, viloyat hokimining 1995-yil 7-fevraldagi 30-son “Jizzax viloyati boʻyicha 1994-yilda iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etish yakunlariga doir” qarori ijrosini taʼminlash,[7] shuningdek, Zomin tumanida iqtisodiy islohotlarni yangi pogʻonaga koʻtarish maqsadida, tuman hokimligi boʻlimlari, agroxizmat uyushmasi, ijara shirkatlari birlashmalariga, tuman kengashi va faollar yigʻilishi qarorlaridan kelib chiqib, quyidagilar yuklatildi: ikki hafta muddat ichida joylarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning 1995–1996-yillarga moʻljallangan dasturini ishlab chiqish, oʻrta va kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish hisobiga raqobatlashgan xalq isteʼmol mollari ishlab chiqarishni koʻpaytirishga erishish, mahalliy byudjetdagi tanglikni yumshatish maqsadida shahar va tumanlarda yer uchastkalarini kimoshdi savdosiga qoʻyib sotish jarayonlarini kuchaytirish kabi vazifalar belgilab berildi. Endigina mustaqilligining uch yilligini nishonlagan davlat uchun yuqoridagi iqtisodiy rejalar, sohadagi qonun va qarorlar, shuningdek, ularning viloyat va tumanlar kesimidagi ijrosiga erishish oson boʻlmadi. Ammo, shunday boʻlsa-da, xalqimizning hayot tarzi, tarixiy va milliy oʻziga xosligini inobatga olgan holda, mamlakatimizning munosib taraqqiyot yoʻli tanlab olindi. Shunga binoan, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga oʻtkazishning barcha huquqiy asoslari yaratildi.

**Natijalar va muhokama.** 1995-yil 1-chaqiriq Xalq deputatlari Zomin tumani Kengashining I sessiyasida tuman hokimi Sh.U. Abdugʻaniyevning maʼruzasiga koʻra, oʻtgan 1994-yil mamlakatimiz, xususan, tuman xalq xoʻjaligini yangicha iqtisodiy qonunlar asosida barqarorlashtirishda katta sinov yili boʻlganligi taʼkidlandi. Avvalo, bozor iqtisodiyotining asosiy sharti davlat mulkini xususiylashtirish, xalq xoʻjaligida ishlab chiqaruvchilarga imtiyozli imkoniyatlar yaratish, iqtisodiyotga chel el sarmoyasi va ilgʻor texnologiyalarni kiritish, muomalaga chiqarilgan milliy valyutaning xarid qudratini mustahkamlash, respublikaning gʻalla, neft, koʻplab oziq-ovqat mahsulotlari bilan oʻzini-oʻzi taʼminlash

borasida zaruriy chora-tadbirlar belgilandi va amalga oshirildi[8]. Respublika miqyosida iqtisodiy masalalarga doir ishlab chiqilgan qonun, farmoyishlarning tuman miqyosida amaliy ijrosi o'laroq, ushbu yil davomida davlat xo'jaliklarining barchasi mulkchilikning ijara-shirkat, jamoat-shirkat, hissadorlik shakllariga aylantirildi. Tumanda mavjud sanoat, transport korxonalari, qurilish, maishiy xizmat, savdo tashkilotlari mulkchilikning jamoa va hissadorlik uyushmalariga o'tdi. Moddiy ta'minot, shuningdek, tayyorlov korxonalari ham ochiq turdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Hatto Zomin tumanidagi dorixonalar, savdo va umumiy ovqatlanish shaxobchalari ham xususiy lashtirildi. O'rta va kichik biznes, shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, tadbirkorlarga imtiyoz berish, ular faoliyatidagi cheklovlarni olib tashlash va mazkur tabaqa vakillarining erkin ishlashi uchun hukumat tomonidan ishlab chiqilgan qonun va qarorlar tumanda ham o'zining amaliy ifodasini topdi. Bu paytda tuman iqtisodiyoti sekinlik bilan rivojlanishda davom etardi. Jumladan, 1994-yil, Zomin tumanida iqtisodiy jarayonlar sarhisobi bo'yicha, 29.4 mln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, 20.0 mln so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, 9085 kv.m uy-joy, 650 o'rinli 3ta maktab, 20 o'rinli yangi kasalxona qurilib, foydalanishga topshirildi. Davlatga 16680 tonna g'alla, 20447 tonna paxta, 1834 tonna go'sht, 2573 tonna sut, 37 tonna pilla, 1278 tonna sabzavot, 1115 tonna poliz mahsulotlari, 80 tonna meva sotildi. Zomin tumani hokimi o'z ma'ruzasida yana shuni ta'kidladiki, amalga oshirilayotgan tadbirlarimiz ko'lamini hamda ularning samarasi oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarish, xalqimizning talab-eh-tiyolarini qondirish darajasi bilan xolisona taqqoslaganda hech birimizni qanoatlanira olmaydi. Hali iqtisodiy sohada qilishimiz zarur ishlar va vazifalar ko'p, kamchiliklar bilan birga yetarlicha ijobiy natijalar ko'rsatayotgan tashkilotlar ham talaygina. Masalan, bizning iqtisodiy islohotlarimizga yelkama-yelka turib, ishlayotgan "Tamara" hissadorlik jamiyati va Elektromexanika zavodi rahbari, injener-texnik xodimlarining faoliyati diqqatga sazovordir. Qisqa muddatda bu tashkilotlar ishlab chiqarish jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etib, mahsulotlar hajmi va sifatini yangi bosqichga ko'targanligi namunalidir[9]. Zomin tuman iqtisodiyotini yillar kesimida tahlil etadigan bo'lsak, 1996-yilga kelib tuman byudjet taqsimotida ijobiy o'zgarishlar mavjudligini ko'rish mumkin. Chunki ushbu yilga kelib, byudjet taqsimotida doimiy xarajatlar ro'yxati (xalq xo'jaligini moliyalashtirish, sotsial-madaniy tadbirlar, boshqaruv organini saqlash, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam) dan tashqari, bolali oilalarga nafaqa va kompensatsiyalar tayinlash, 2 yoshgacha bola qarovi bilan ishlamay uyda o'tirgan onalarga ham to'lovlar berilishi reja asosida ishlab chiqildi. Aholining nochor qatlamini himoyalashga doir amaliy ishlar qilindi. Jumladan, tuman hududidagi Zomin ijara shirkatlar birlashmasida 30 nafar urush qatnashchilariga 100 kgdan g'alla, 800 oilaga 2 tonnadan somon, 70 mexanizator va g'allakorlarga 44 tonna g'alla tarqatildi. Bundan tashqari ishchilar oyligiga qo'shimcha zaruriy oziq-ovqatlar: shakar, moy, un kabi mahsulotlar berib borildi. Aholining juda nochor qismiga tomorqalar ajratish orqali ularni ish bilan band etish va iqtisodiy holatini yaxshilash ishlari amalga oshirildi. Qishloq fuqarolar yig'ini tomonidan 384 nafar kam ta'minlangan oilalarga 421.000 so'm miqdorda yordam puli tarqatildi. Yuqorida sanab o'tilgan aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan ijobiy islohotlarni davom ettirish uchun 1996-yil oldida bajarilishi zarur vazifa va majburiyatlar ham ko'p edi. Bular: tayyor mahsulotlar, xalq iste'mol-mollari ishlab chiqarishni o'tgan yilga nisbatan, 120 foiz o'sish sur'atini ko'paytirish, ularning turlarini kengaytish, yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini, Jahon bozori talablariga muvofiq lashtirish, katta va kichik texnologiyalarni, tuman miqyosidagi korxonalar va tashkilotlarga to'laqonli jalb etish. Izlanish va tadbirkorlik orqali tumandagi iqtisodiy turg'unlikka barham berish zarurligi aytiladi. Ya'na shuni alohida aytish joizki, endi tuman korxonalar va savdo tashkilotlari o'zidagi moliyaviy barqarorlikka erishish bilan birga, boshqa hududlardagi korxonalar va fabrikalar bilan shartnomalar tuzish boshlab yuborildi. Masalan, tayyor mahsulotlarni sotish uchun bir nechta

ulgurji savdo bazalar bilan shartnomalar tuzildi.[10] Xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida Toshkent, Andijon, Namangan, Farg'ona, Buxoro to'qimachilik kombinatlari bilan gazmol, Oltiariq A.J bilan junli ip borasida shartnomalar imzolandi. 1996-yil tumanda sanoat mahsulotlari hajmi 164.0 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilga kelib bu ko'rsatkich 232.0 mln so'mni tashkil etdi. Ishchilar soni 720 ga 1043 ta bilan farqlandi. Bu hajm va ishchilar soni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, sanoat-qurilish materiallari va yengil sanoat ulushiga to'g'ri kelardi.[11] Yutuqlar bilan birga tuman iqtisodiy hayotidagi salbiy holatlar va kamchiliklarga ham alohida urg'u berib borildi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 3-noyabr "Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[12] gi 461-sonli qarorini amalga oshirishda sustkashlikka yo'l qo'yilayotganligi qattiq tanqid qilindi va zaruriy choralar ko'rish haqida vazifalar berildi.[13] Qisqa fursat ichida topshiriqlar ijobiy natijalarni ko'rsata boshladi. Iqtisodiy hayotda barqarorlikka erish maqsadida, tuman ko'lamidagi ishlar davomi sifatida, 1997-2000 yillarda Zomin tumanini ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish dasturini ishlab chiqish bo'yicha tuman hokimining 481k-sonli qarori qabul qilindi.[14] Mazkur qarorga binoan, sohaga doir mukammal dastur ishlab chiqish, tumanga chet el investitsiyalarini jalb etish orqali qo'shma korxonalar, savdo va pullik xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, tadbirkorlikni yanada qo'llanquvvatlash, makroiqtisodiy holatlarni barqarorlashtirish, obodonlashtirish ishlari ko'lami va aholi turmush tarzini yaxshilashga doir vazifalar aniq va tizimli holatda belgilab berilgan. 2000-yilga kelib, tuman iqtisodiyotini mustahkamlash, ayniqsa, tadbirkorlikni takomillashtirish chora-tadbirlari yangi bosqichga ko'tarildi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Boisi, ushbu yilda "Zomin tumani kichik va o'rta tadbirkorlikni axborot-maslahat bilan qo'llab-quvvatlash Markazining Nizomini ro'yxatga olish va tasdiqlash to'g'risida"gi qaror fikrimiz isbotidir.[15] Markazning asosiy vazifa va yo'nalishlari quyidagilardan iborat. Yuridik va jismoniy shaxs tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy, huquqiy, ishlab chiqarish texnologiyasi va boshqa zaruriy axborotlar, shuningdek, tadbirkorlik sohasidagi dastur va loyihalarini samarali amalga oshirishni ta'minlash, kichik va o'rta biznes subyektlari ham xususiy tadbirkorlarga, qishloq xo'jalik korxonalarini (fermer xo'jaliklari)ga ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish, biznes-rejalarni tuzish, kredit olish va hujjatlarini tayyorlash, kichik va o'rta biznes subyektlari va qishloq xo'jalik korxonalarini, xususiy tadbirkorlikning barcha turlariga auditorlik xizmati, auditorlik tekshirishni o'tkazish va shunga o'xshash boshqa maslahat xizmatlarini ko'rsatishda ularga har tomonlama yordam berish, tadbirkorlik subyektlariga yangi texnologiyalarni sotib olish, o'rnatish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, natijaviy mahsulotlarni olish va sotish jarayonlarini tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish, malakali ishchilar potensialini kengaytirish, viloyat banklaridan kreditlar olish, chet el rivojlangan davlatlarining qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi texnologiyalari va xalq iste'mol mollarni qayta ishlash texnikasi tajribalarini o'rganishda ko'maklashish, tuman ishlab chiqarish korxonalarida xomashyodan tortib to oxirgi tayyor mahsulot olish bosqichiga qadar bo'lgan jarayonni sifatli tashkil etishda zamonaviy miniuskunalar va yuqoqri texnologiyalardan foydalanuvchi biznes-rejalarni ishlab chiqib tatbiq etish, yuridik xizmatlar ko'rsatish, kichik va o'rta biznes subyektlari hamda qishloq xo'jalik korxonalariga soliq, moliya, sug'urta va boshqa tuzilmalarga, xususiy tadbirkorlarning o'zaro faoliyatiga ko'maklashish, tumanda innovatsiya va investitsiya bilan bog'liq jarayonlarda faol qatnashish, tuman miqyosidagi jamiiki korxonalar va tashkilotlarning texnika va texnologiyalarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rganib chiqish, aniqlash va ularni olib ishlab chiqarish jarayoniga qo'llashda amaliy tashabbuslar ko'rsatish, va eng muhim jihatlardan biri sanoat va savdo tashkilot, korxonalarini o'z ichki zaruriyatlarini qondirib, ortiqcha mahsulot va tovarlarni chetga eksport qilish salohiyatini oshirishda ko'maklashish, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, xo'jaliklarga sohaga oid zaruriy hujjatlarni tayyorlab berish, iqtisodiy tashkilotlararo

sogʻlom raqobatni shakllantirish, yuqorida sanab oʻtilgan masalalarga doir, davriy nashrlarni chop etish kabi vazifa va yoʻnalishlari belgilab qoʻyilgan. Markaz ushbu tamoyillar asosida oʻz faoliyatini yuritdi. Bundan tashqari Markazning iqtisodiy jarayonlarda huquq va majburiyatlari ham Nizomda belgilab berilgan. Zomin tumani kichik va oʻrta tadbirkorlikni axborot-maslahat bilan qoʻllab-quvvatlash markazining tashkil etilishi tadbirkorlar uchun ulkan imkoniyatlar eshigi vazifasizni oʻtabgina qolmay, tez orada tumanda amaliy, ijobiy natijalarni koʻrsata boshlaganligi, iqtisodiy dastur va rejalarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish, shuningdek, doimiy nazorat tuzilmalarining mavjudligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida tadbirkorlikning oʻrni va ahamiyatini allaqachon hukumat anglab bilgan edi. Shu bois, viloyat va tumanlar koʻlamida ham ushbu jabhaga eʼtibor oldingidan ham kuchaytirildi. 2000-yil “Zomin tumanida xususiy tadbirkorlik, kichik va oʻrta biznes subyektlari (dehqon va fermer xoʻjaliklari)ni rivojlantirishni yanada ragʻbatlantirish, ularga yetarli shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik subyektlarini davlat roʻyxatiga olish tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”[16] gi tuman hokimining qarori boshlangan ishlarning davomi boʻldi. Qarorda, tadbirkorlik subyektlarini huquqiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash, ularni davlat roʻyxatidan oʻtkazish, tumanda “Tadbirkorlar va fermerlar kuni”ni oʻtkazish kabi takliflar oʻz aksini topgan. Tadbirkorlar faoliyati nafaqat qonun va qarorlar, balki banklarning amaliy yordami bilan yanada oldinga siljidi. Masalan, Zomin tumani “Tadbirkorbank” tomonidan tadbirkorlar, kichik va oʻrta biznes vakillariga kreditlar berish va taqsimlash mexanizmi yoʻlga qoʻyildi. Yil davomida 36 ta tadbirkorga 38716 ming soʻm kredit berildi. Bu esa oʻz navbatida tadbirkorlik rivoji, ayniqsa, yangi ish boshlagan tadbirkorlarga faoliyatini yoʻlga qoʻyishda koʻmak vazifasini oʻtadi. Fermerlarga bank tomonidan beriladigan chorva mollari va boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanadigan fuqarolarga kredit berishda reyting usulini keng tatbiq etish lozimligini taʼkidlaydi, tuman “Tadbirkorbank” boʻlimi boshqaruvchisi N.Tangirov Zomin tumani Xalq deputatlari ikkinchi chaqiriq 11-ssesiya yigʻilishida soʻzlagan nutqida[17]. Zomin tumani iqtisodiyotini erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish borasida Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Respublika Oliy Majlisining sessiyalari va Vazirlar Mahkamasining yigʻilishlarida soʻzlagan maʼruzalaridan kelib chiqadigan vazifalarning bajarilishini taʼminlash maqsadida 2000-yil tumanda salmoqli iqtisodiy oʻsishga erishildi. Jumladan, makroiqtisodiyot boʻyicha ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish va toʻgʻri tashkil etilgan ishlar fikrimiz isbotidir. Sanoat ishlab chiqarish hajmi ham oʻtgan yilgi koʻrsatkichlarga taqqoslaganda oldinga siljiganligini statistik maʼlumotlar orqali koʻrish mumkin. Sanoat korxonalaridagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1999-yilning shu davriga nisbatan 107 foizga ildamlagan boʻlsa, chakana tovar aylanish 143 foizga, pullik xizmat koʻrsatish 60 foizga, jumladan, maishiy xizmat koʻrsatish 120 foizga oʻsdi. Yil davomida Vazirlar Mahkamasining “2000-yilgacha boʻlgan davrda qishloq ijtimoiy infrastrukturasi rivojlantirish Dasturi toʻgʻrisida”[18] gi qarori asosida 17.7 min kv.metr uy-joylar, 3.6 km gaz va 0.8 km suv tarmoqlari, 4 ta maishiy xizmat koʻrsatish obyektlari, 60 kv.metr savdo, 60 oʻrinli umumiy ovqatlanish tarmoqlari foydalanishga topshirildi. Bu paytda xususiylashtirish jarayonlari ham tezlashib, 428 ta yakka tartibdagi mehnat bilan shugʻullanyotgan 114 ta yuridik shaxslar davlat roʻyxatidan oʻtkazildi.[19] Eʼtiborli jihati shundaki, mazkur davr arxiv manbalari va adabiyotlari asosida tahlil qilinganda, tumanda yilma-yil oʻsish surʼatlari, shunchaki oʻz-oʻzidan boʻlgan emas. Yuqoridagi natijalar, mukammal reja va dasturlar, iqtisodiyotni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar va ularning ustida doimiy nazorat hisobiga demakdir. Qolaversa, iqtisodiy masalalarni hal etish va sohadagi kadrlar salmogʻini oshirish ham ustuvorlik yaratdi. Fikrimiz isboti sifatida, tashkilot, korxonalar, kichik va oʻrta

biznes vakillari, shuningdek, savdo kompleks rahbarlaridan tortib, xodimlariga qadar iqtisodiy bilimlarini oshirish maqsadida maxsus o'quv mashg'ulotlari tashkil etilganligi ijobiy samarasini berdi. Natijada mavjud tashkilotlar oyoqqa turgan bo'lsa, tez sur'atlarda yangilari ham ko'paydi. Chunonchi, 2000-yilning 1-oktyabr holatiga fermer xo'jaliklari soni 316 taga yetgan bo'lsa, bu o'tgan yilga nisbatan 41 taga ko'p bo'lib, ularda ishlovchi aholi esa 1300 kishini tashkil etardi[20]. Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham oshib, tuman aholisini to'laqonli ta'minlash bilan birga, chetga chiqarish imkoniyati ham vujudga keldi. Tumandagi xo'jaliklar va fermer xo'jaliklarining o'zaro hisob-kitob ishlarini takomillashtirish, fermer xo'jaliklariga xizmat sifatini yaxshilash maqsadida, 2000-yil may oyida tumanda "Mini bank" tashkil etilganligi ijobiy ko'rsatkichlarning bir sababidir. 2000-yilni nisbatan muvaffaqiyatli, iqtisodiy siljishlar bilan yakunlagan tuman hokimiyati kelgusi 2001-yil uchun iqtisodiy rejalar dasturini ishlab chiqdi. Dasturga muvofiq, joriy yilda mahalliy byudjetning asosiy ko'rsatkichlari daromadlar bo'yicha 1697681ming so'm, xarajatlar bo'yicha 1697681 ming so'm belgilangandi [21]. Tumanda ishlab chiqilgan dasturga asosan amaliy ishlar qilinib, kamchilik va muammolar bartaraf etilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy jihatdan mutlaqo mustaqil huquqiy davlatni qurish yo'lidan borib, bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari orqali bosqichma-bosqich rivojlanish tajribasi xronologik ketma-ketlikda ijobiy natijalar berganligini ko'rish mumkin. Sohada dastlabki, qiyinchiliklarga qaramay, hukumat tomonidan ishlab chiqilgan qonun, qaror va farmoyishlarning tuman miqyosida og'ishmay bajarilganligi ham, aholini xalq iste'mol mollari bilan ta'minlash, ularga yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikning har qanday ko'rinishini qo'llab-quvvatlash orqali xalq turmush tarzini yaxshilashga harakat qilindi va Zomin tumanida bu tashabbus va iqtisodiy islohotlar o'zini oqladi. Eng muhimi, islohotlar bugun ham tizimli va yangicha ko'rinishda davom etmoqda. Maqsad – Yangi O'zbekistonning, undagi viloyat va tumanlarning iqtisodiy salohiyotini oshirishdan iborat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. SHRTDA, M-385-fond, ro'yxat-1, yig'ma jild-1, varaq-13.
2. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-1, yig'ma jild-1, varaq-14.
3. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-1, yig'ma jild -3, varaq- 29.
4. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-2, yig'ma jild-7, varaq-15.
5. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-2, yig'ma jild-7, varaq-8.
6. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-4, yig'ma jild-14, varaq-2.
7. ShRTDA, M-385-fond, o'yxat-4, yig'ma jild-14, varaq-4.
8. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-4, yig'ma jild-1, varaq-20.
9. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-4, yig'ma jild-1, varaq-31.
10. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-5, yig'ma jild-1, varaq-10.
11. A.Toshkenboyev, O'.Nosirov. Jizzax viloyati.T.; "O'zbekiston" 1996.26-bet.
12. Vazirlar Mahkamasining "Kommunal xizmatlar ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi to'g'risida" gi qarori//lex.uz.
13. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-10, yig'ma jild-1, vaaq-8.
14. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-5, yig'ma jild-33, varaq-28.
15. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-9, yig'ma jild-10, varaq-18.
16. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-9, yig'ma jild-49, varaq-3.
17. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-9, yig'ma jild-2, varaq-6.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2000-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi qishloq ijtimoiy infrastrukturasi rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori//lex.uz.
19. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-4, yig'ma jild-2, varaq-7.
20. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-4, yig'ma jild-2, varaq-18.
21. ShRTDA, M-385-fond, ro'yxat-10, yig'ma jild-1, varaq-2.

## O‘ZBEKISTONDA DON MAHSULOTLARI BILAN TA‘MINLASH VA BOSHQARISH TARIXIDAN

Nurullayeva Gulnora Uktamovna

“Turon universiteti” nodavlat oliy ta‘lim muassasasi o‘qituvchisi

[gulnora\\_nur68@mail.ru](mailto:gulnora_nur68@mail.ru)

ORCID 0009-0006-8915-2124

UDK: 35+380.13

**Annotatsiya.** Maqolada yurtimiz tarixida un va un mahsulotlarini ishlab chiqarilishi va uning boshqaruv tizimini shakllanishi haqida fikr yuritiladi. Xususan, O‘rta Osiyoda don yetishtirish tarixi, don, un, un mahsulotlari yetishtirish jarayonining sanoatga aylanishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatining don mahsulotlarini yetishtirish jarayoniga ta‘siri, Rossiya imperiyasi davrida don va don mahsulotlari yetishtirishdagi muammolar, aholi o‘rtasida don yetishmovchiligi muammosi, Sovet hokimiyati hukmronlik yillarida mamlakatning agrar mamlakatga aylantirilishi, agrar sohadagi o‘zgarishlar, adolatsizliklar, xususiy mulk egalari mol-mulkingning natsionalizatsiya qilinishi oqibatlari hamda paxta yetishtirishning kengayishi natijasida don va don mahsulotlari taqchilligi muammolari ham bayon etilgan. O‘z navbatida, mustaqillik sharofati bilan don mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi erkinliklar va yutuqlar, respublikamizda don mustaqilligiga erishish borasida olib borilgan siyosat, “O‘zdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasining tashkil topishi, mamlakatda fermerlik va kichik biznesni rivojlantirish asosida don, un, un mahsulotlari yetishtirishning kengayishi, aholining un va un mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlari qoplanishiga doir olib borilgan ichki siyosat, boshqaruv tizimi haqida ham so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Don mahsulotlari, un, yorma, mustamlakachilik, Turkiston, natsionalizatsiya, non payogi, Уззэгэгтээрно, “O‘zdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasi.

### FROM THE HISTORY OF GRAIN PRODUCTS SUPPLY AND MANAGEMENT IN UZBEKISTAN

**Abstract.** The article discusses the production of flour and flour products and the formation of its management system in the history of our country. In particular, information on the history of grain cultivation in Central Asia, the industrialization of the process of grain, flour, and flour products production is given. At the same time, the influence of the colonial policy of tsarist Russia on the process of grain production, problems in the production of grain and grain products during the Russian Empire, the problem of grain shortage among the population, the transformation of the country into an agrarian country during the years of Soviet rule, changes in the agrarian sector, injustices, the consequences of the nationalization of the property of private property owners and the problems of the shortage of grain and grain products as a result of the expansion of cotton cultivation are also described. In turn, the freedoms and achievements in the production of grain products with the honor of independence, the policy of achieving grain independence in our republic, the establishment of the joint-stock company «Uzbekdonmahsulot», the expansion of the production of grain, flour and flour products based on the development of farming and small business in the country, the internal policy and management system for meeting the needs of the population for flour and flour products will also be discussed.

**Key words:** Cereal products, flour, cereal, colonization, Turkestan, nationalization, bread stock, Уззэгэгтээрно, “Uzdonmahsulot” joint stock

**Kirish.** Non aziz ne‘mat, uni e‘zozlash, uvul qilmaslik xususida xalqimizda qadriyat shakllangan bo‘lib, vaqt o‘tgan sayin u avloddan avlodga o‘tib rivoj topib kelmoqda. Shunday ulug‘ ne‘matni tayyorlash uchun donni va asosan bug‘doyni yetishtirish, un ishlab chiqarish va unni pishirib dasturxonlarimizga tortgunga qadar bo‘lgan har bir jarayonda o‘z hissasini qo‘shgan insonlarning mehnati sharafli va o‘z o‘rnida mashaqqatli hisoblanadi. Bu mashaqqatli faoliyat bilan shug‘ullanadigan xodimlarni boshqarib turadigan boshqaruv tashkilotining xizmati ham tahsinga loyiq. Shu jihatdan “O‘zdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasining va uning tarkibidagi korxonalarining xizmatlari juda katta.

**Tadqiqot metodologiyasi.** “O‘zdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasining tarixi ancha uzoq yillarga borib taqaladi. Bu kompaniya o‘zidan ilgari tashkilotlarning asosida tashkil topgan bo‘lib, o‘ziga xos o‘tmish yo‘llariga ega. Mashaqqatli kechgan mustamlakachilik yillarida ham xalqimizning og‘ir mehnati ortidan don mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash takomillashib brogan. Bu sohani boshqarilishi tez-tez o‘zgarib turgan.

Don mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va saqlashni boshqarish sohasining ildizi uzoq o'tmish yillariga, XIX asr o'rtalariga borib taqaladi.

1867-yilda Rus podsholigi tomonidan egallangan hududda to'liq mustamlakaga aylantirilgan Turkiston general gubernatorligi tashkil qilindi. Turkistonda Rus podsholigi mustamlakasi davrida, ya'ni XIX asrning 80- yillarida podsholik hukumati tomonidan agrar soha, jumladan, don mahsulotlari yetishtirilishi bo'yicha islohotlar o'tkazish ishlari olib borilgan. Rus podsholigining agrar siyosati, Turkiston hududidan o'zlari avvaldan bosh madsad qilib qo'ygan niyatlarini amalga oshirish, ya'ni asosiy boylik bo'lgan xomashyoni olib chiqib ketishdan iborat edi. Don mahsulotlari ham shu xomashyolar turkumiga kirardi. Mustamlakaga aylantirilgan Turkiston davlati va yarim mustamlakaga aylangan Buxoro amirligi hamda Xiva xonligidan iloji boricha ko'proq boyliklar olib chiqib ketishga harakat qilindi. Jumladan, don ekinlari yetishtirilishi ham qattiq nazorat ostiga olindi.

Rus podsholigining Respublikamiz hududida hukmronligi boshlangunga qadar, xalqimizning don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash jarayonlari bozor iqtisodiyoti yo'nalishida, mayda xo'jaliklar ishlab chiqarishiga moslangan edi. Imperiya mustamlakachiligi o'rnatilgandan boshlab, ya'ni 1867- yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligi poytaxti Toshkent shahrida Intendant bo'limi tashkil etildi. Bo'limning asosiy vazifasi xo'jalik ta'minoti ijrosini ta'minlash, ya'ni rus harbiylarini oziq-ovqat bilan ta'minlash edi.

Bunday iqtisodiy va agrar siyosatning mazmun mohiyati 1917-yildan keyin, sovetlarni hokimiyatga kelishi bilan ham o'zgarmadi. Respublikamiz hududida asosiy oziq-ovqat sanoati bo'lgan don mahsulotlari bilan aholini ta'minlanishini mustamlakachilarning talon-taroj siyosati oqibatida og'ir ahvolga kelib qoldi. Non mahsulotlari taqchilligi aholi o'rtasida ocharchiliklarni keltirib chiqardi.

Bolsheviklar diktaturasi Sovetlar hokimiyati o'rnatilgandan keyin Turkiston o'lkasida xo'jalik ta'minoti mustamlakachilar qo'lida qoldi. Rus podsholigi davridagidek sanoat boshqaruvi organlari sovetlar tomonidan nazoratga olindi. Deyish mumkinki, hokimiyat o'zgardi, lekin mustamlakachilik tartiblari o'zgarmadi. Turkiston hududidagi xalqning norozilik harakatlari bostirilib, Turkiston hududida to'liq Sovetlar hukmronligi o'rnatildan keyin, ya'ni 1919-yil oxirlarilaridan boshlab mahalliy aholining barcha mol-mulklari natsionalizatsiya qilina boshlandi. Sovetlar hokimiyatini mustahkamlash va sotsializm qurishning asosiy quroli bo'lgan xususiy mulklarni natsiolizatsiya qilish Turkistondagi yangi mustamlakachilarni bosh maqsadi edi.

Oziq- ovqat bilan aholini ta'minlanishini yaxshilash bahonasida Turkiston Xalq komissarlari Soveti qoshida oziq-ovqat bo'limi tashkil qilindi va unga katta huquqlar berildi. Bu huquqlari bilan qizil askarlar o'zlariga berilgan vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlari tez-tez uchrab turardi. Ularning faoliyatida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashdek insonparvarlik emas, balki millatchilik, shovinistik va zo'ravonlik ruhdagi adolatsiz faoliyat yaqqol ko'rinib turardi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarix fanlari doktori, professor Qahramon Rajabovning "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2021-yil 29-oktyabrdagi 44 (4651)-sonida nashr qilingan "Turkistonda ocharchilik oqibatlari" maqolasida shunday fikr bildirilgan: "G'alla monopoliyasi hech qanday tayyorgarliksiz joriy qilindi va shafqatsiz ravishda amalga oshirildi. Turkistondagi tartibsiz rekvizitsiyadan eng ko'p aziyat chekkan musulmon aholisi g'alla monopoliyasini, o'sha davrdagi Sovet amaldorlaridan biri hikoya qilib yozganidek, xudo tomonidan yuborilgan jazodek qabul qilindi. Dehqonlarning oxirgi qadoq g'allasi oziq-ovqat to'plovchi otryadlar tomonidan tortib olindi, hatto shu otryadlarda xizmat qilgan mahalliy kommunistlar ham o'z ishlarining naqadar jirkanch ekanini tushunib, uni bajarishdan bosh tortdilar". Ana shunday insonlardan biri samarqandlik Qorazokir Hamidov Turkiston ASSR sovetlarining favqulodda VII syezdida nutq so'zlab, quyidagicha keskin fikr bildirgan edi: "Men g'alla monopoliyasiga butunlay qarshiman. Qishloqlarda ahvol juda ham og'ir. Qishloqlarda odamlar ochlikdan qirilib ketdi. Avvalo, u yerda erkinlik yoq".

Sinfy non payogi to'g'risidagi dekretga muvofiq Turkistonda kartochka tizimi joriy qilindi. Barcha aholi uch toifaga ajratildi: I toifa ishchilar, qizil askarlar va mas'ul xodimlar 1 funt (1 funt 409,5 gramm), II toifa xizmatchilar, qora ishlarni bajaruvchi ishchilar yarim qadoq (205 gramm), III toifa ishchilar va burjuaziya chorak qadoq (102 gramm) non olishlari mumkin edi. Oziq-ovqat taqsimlashda qo'llanilayotgan milliy tengsizlik siyosati Turkiston ASSR sovetlarining VIII syezdida qattiq tanqid qilindi. Andijondan kelgan delegatning aytishicha, "Oziq-ovqat bo'limiga tushayotgan barcha mahsulotlar yevropalik aholiga tarqatilmogda. Mahalliy aholi hech narsadan foydalanmayapti" [6].

Muallif bu maqolasida Turkistondagi sovetlar hokimiyati tomonidan olib borilgan iqtisodiy va agrar siyosatning bosh maqsadi nimalardan iborat bo'lganligini aniq ko'rsatib bergan. Sovetlarning talonchilikdan iborat bo'lgan agrar siyosati oqibatida Turkistonda XX asr boshlarida mahalliy aholi orasida ocharchilikdan o'lish oddiy holga kelib qoldi.

Aholi orasida norozilik kelib chiqishini oldini olish maqsadida un va un mahsulotlarini ishlab chiqarilishi nazorati kuchaytirildi. Sovetlar Turkiston o'lkasida un-yorma ishlab chiqaruvchi sanoatni butunlay nazoratga oladigan sanoat boshqaruvi organini tuzish muhim deb hisobladilar. 1920-yil noyabr oyida "Turkmuka" deb nomlangan un sanoatini boshqaruv tresti tuzildi. "Turkmuka" tarkibiga hozirgi O'zbekiston hududidan 6 ta sholi zavodi va 21 ta tegirmon kirgizildi. Markaziy Osiyoning Turkiston o'lkasi hududidagi boshqa xuddi shunday korxonalar ham qamrab olindi.

Turkistonda 1922-yil boshida donni qayta ishlab chiqarish sanoatiga tegishli bo'lgan korxonalar, ularning yodamchi xo'jaliklari, qurilish obyektlari, shu korxonalarda ishlaydigan xodimlar "Turkmuka" trestidan Turkiston oziq-ovqat xalq qo'mitasi (Туркнаркомпрод) tarkibiga o'tkazib berildi. Un va un mahsulotlari asosiy oziq-ovqat hisoblanishini hisobga olgan holda, bu soha nazorati yanada kuchaytirildi. Bu o'zgarishlar ham mahalliy aholini ocharchilikdan chiqara olmadi, aksincha eng asosiy hayot manbai bo'lgan non tanqisligi kuchaydi.

1924-yilning boshlarida Sovet hokimiyati rahbarlari Turkiston avtonom sovet sotsialistik Respublikasidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash hamda ularning savdosi bilan shug'ullanuvchi yagona davlat tashkiloti tuzish kerak degan xulosaga keldilar. Turkiston Iqtisodiy Kengashning 1924-yil aprel oyida kengaytirilgan yigilishi o'tkazildi. Yig'ilish qaroriga muvofiq barcha qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va sotishni boshqaruv tresti (Туркселхоз) tashkil qilindi. Don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari ham shu trestga qarashli bo'ldi. Amalda "Turkselxoztorg" tresti boshqaruv apparat xodimlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, chorvachlik kabi sohalar bilan shug'ullangan holda, un-yorma mahsulotlarini ishlab chiqarilishi hamda tegirmonlarni holatini yaxshilash vazifalari bilan deyarli shug'ullanmadilar. 1925-yil yanvar oyida Butunittifoq xalq xo'jaligi Qo'mitasining buyrug'iga muvofiq iyul oyidan boshlab "Turkselxoztorg" boshqaruv tresti tarqatib yuborildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni boshqarish vakolati O'rta Osiyodagi sobiq Ittifoqning Mehnat Muhofazasi Kengashi vakolatiga o'tkazildi.

1926-yil 26-may kuni non va non mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishga yo'naltirilgan O'rta Osiyo davlat aksionerlik jamiyati "Osiyonon" (Азияхлеб) tuzildi. 1927-1932-yillar davomida "Osiyonon" aksionerlik jamiyati tomonidan 6 million rublga teng summadagi ishlar bajarildi. O'zbekistonning yirik shaharlarida 28 ming tonna g'allani joylashtirish imkoniga ega bo'lgan 28 ta katta omborxonalar qurildi va ular kerakli jihozlar bilan ta'minlandi.

"Osiyonon" aksionerlik jamiyatining jaoliyati 1932-yil 11-mart kuni tugatildi. Undan keyin don mahsulotlarini qayta ishlash sohasi Butunittifoq un sonoati birlashmasiga o'tkazib yuborildi. Ozbekistonda bu birlashmaning bo'limi bo'lgan O'zbekiston un boshqarmasi tresti (Узглавмука) tashkil qilindi. Trestning asosiy vazifalari – tegirmon korxonalar ishini boshqarish, un ishlab chiqarish rejalarini bajarilishini ta'minlash, un sanoatini rivojlantirish, un ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini takomillashtirish, dondan foydalanish tejamkorligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish, issiqlik va elektr energiyasini



tejjash kabi vazifalarni ta'minlashdan iborat edi.

O'zbekiston Respublikasida 1932-yil 2-mart kuni don mahsulotlarini tayyorlovchi ofis (Уззаготзерно) tashkil etildi.

O'z boshidan ko'plab evrilishlarni o'tkazgan don mahsulotlarini qabul qilib olish va qayta ishlashni boshqarish tizimida yana o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1955-yilning ikkinchi yarmida Sovet Ittifoqi bo'yicha don mahsulotlarini qayta ishlash, non mahsulotlarini tayyorlashning boshqaruv organlarini qayta tashkil qilish ishlari boshlanib ketdi. Bu jarayon 1956-yil iyul oyiga qadar davom etdi. Don mahsulotlarini qabul qilish, qayta ishlash, non mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yagona boshqaruv apparati tuzildi. Natijada respublikada non mahsulotlari tayyorlash vazirligi tashkil etildi hamda uning tarkibiga un va yorma tayyorlash sohasi ham qo'shib berildi.

Respublikadagi non mahsulotlari tayyorlash vazirligi 1962-yil 6-aprelda tugatilib, Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va tayyorlash bo'yicha vazirlik tashkil qilindi. Uning tarkibiga non mahsulotlarini tayyorlash boshqarmasi ham qo'shib yuborildi. Markazdagi ayrim iqtisodchilar O'zbekistonda don mahsulotlari o'rniga paxta yetishtirish taklifi bilan chiqa boshladilar. Ularning fikriga ko'ra, O'zbekistonga don mahsulotlarini chetdan import qilib, uning o'rniga paxta ekib hosil olish, sobiq SSSRga ko'p daromad keltirardi. Natijada don yetishtirishga mo'ljallangan yerlarni paxta dalalariga aylantirish ishlari ham boshlab yuborildi. XX asr oxirlarida bu holat notog'ri ekanligi g'allakorlar tomonidan tanqid ostiga olina boshlandi.

1986-yil 24-mart kuni O'zbekiston Respublikasida Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va tayyorlash bo'yicha vazirlik qayta tashkil qilinib, non mahsulotlari vazirligi (Узхлебпром) alohida ajralib chiqdi. Bu vazirlik tarkibida novvoyxonalar, makaron va konditer sanoat sohalari hamda unga bo'ysunuvchi 22 ta novvoychilik bilan shug'ullanadigan korxonalar kirardi.

**Natijalar va muhokama.** G'alla ekinlari don mahsulotlari xomashyosining asosiy qismini tashkil qiladi. Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin don ishlab chiqarish sezilarli darajada o'sdi. Hozirgi kunda don ekinlari yetishtiriladigan umumiy maydon paxtadan oldingi birinchi o'rinda turadi. Don davlat ahamiyatiga ega mahsulot hisoblanadi. Shuning uchun ko'plab xo'jaliklar don yetishtirish bilan shug'ullanadilar.

O'zbekiston mustaqilligi qo'lga kiritilgandan keyingi islohotlar bu sohaning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1994-yil 22-aprelda chiqarilgan 40-sonli Farmonga muvofiq "O'zdonmahsulot" davlat konserni davlat-aksionerlik korporatsiyasiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasining "O'zdonmahsulot" davlat-aksionerlik korporatsiyasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida"gi 311-sonli Qarori tasdiqlandi. Qarorga asosan davlat mulkini xususiylashtirish va privatizatsiya qilish ishlari amalga oshirildi.

1995-1998- yillar mobaynida 13 ta yorma, 30 ta omixta yem va 52 ta un ishlab chiqarish zavodlari xususiylashtirildi. Don mahsulotlarini sotib olish, saqlash va qayta ishlash boshqaruv tizimini tubdan yaxshilash maqsadida, ortiqcha oraliq strukturalarni tugatish, kelgusida sohani rivojlantirish, sanoatda bozor iqtisodiyoti talablarini faollashtirish jarayonlari, xususiylashtirish va investitsiyalarni jalb qilish maqsadida 2004- yil 6-avgust kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga muvofiq "O'zdonmahsulot" davlat-aksionerlik korporatsiyasi "O'zdonmahsulot" aksionerlik kompaniyasiga aylantirildi.

"O'zdonmahsulot" aksionerlik kompaniyasining asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari ijrosini ta'minlash, don mahsulotlarini sotib olish, saqlanishini ta'minlash va qayta iashlab chiqarish kabi vazifalardan iborat deb hisoblandi.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda "O'zdonmahsulot" aksionerlik kompaniyasi va uning tarkibidagi korxonalar tomonidan sanoat tarmoqlari va yurtimiz rivojiga muhim hissa qo'shuvchi yirik loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur loyihalar zamirida, eng avvalo,

xalq manfaati va farovon turmushini ta'minlashdek ezgu g'oya mujassam. Shuningdek, korxonalariga xizmat qilib kelayotgan ishchi-xodimlar uchun ham qulayliklar yaratish, ularning mehnat sharoitini yaxshilash uchun bir qator qulayliklar yaratib kelinmoqda.

Hozirgi kunda "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi ichki bozor iste'mol talabini ta'minlash maqsadida turli xildagi zamonaviy non va non mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini va hajmini oshirib bormoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari ("O'zdonmahsulot") davlat konsernini tashkil etish to'g'risida" PF-334-sonli farmoni. LEX.UZ. <https://leks.uz/docs>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 22-apreldagi "O'zdonmahsulot" davlat konsernini "O'zdonmahsulot" davlat aksionerlik korporatsiyasiga aylantirish to'g'risida"gi PF-840-sonli farmoni. LEX.UZ. <https://leks.uz/docs>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 25-maydagi "Don va donni qayta ishlash mahsulotlari hisobini yuritish tizimini takomillashtirishga, ularning saqlanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 95- sonli Qarori. LEX.UZ. <https://leks.uz/docs>

4. Нажмиддинов И.Х., Ишметов А.Ж. и др. История отрасли хлебопродуктов в Узбекистане. – Ташкент, Шарк, 2001. – 125 с.

5. "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining 2023-yilga mo'ljallangan biznes rejasi. 2001.

6. Rajabov Q. Turkistonda ocharchilik oqibatlarini / "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi 2021 yil 29-oktyabrdagi 44 (4651)-soni.

7. Mustaqil yurt g'allasi. Tuzuvchi O'tkir Rahmat. –Toshkent: O'zbekiston, 2003. – 134 b.

8. Abdullayeva N. Dunyo obodligi sizlardan. –Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001.

9. Nurullayeva G. Non mahsulotlarining yaratilish tarixi va uning insoniyat sivilizatsiyasidagi o'rni // O'zMU xabarlari, 2024, № 1/5/2. B. 12-15.

10. Xaitov R.A., Zuparov R.I., Radjabova V.E., Shukurov Z.Z Don va don mahsulotlarining sifatini baholash hamda nazorat qilish. –Toshkent: Universitet, 2000. – 255 b.

## SURXONDARYO VILOYAT MILLIY-MADANIY MARKAZLARINING ETNOMADANIY PLYURALIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

**Usanov Shuxrat Musurmonovich**

TTA Termiz filiali "Ijtimoiy-gumanitar fanlar"

kafedrasini assistenti

[shuhratusanov0@gmail.com](mailto:shuhratusanov0@gmail.com)

ORCID [0009-0009-7164-8158](https://orcid.org/0009-0009-7164-8158)

UDK: 94(575.1)»1991/2020»:008

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivojlanishi, etnomadaniy plyuralizmning shakllanishida milliy-madaniy markazlarning ahamiyati, Surxondaryo viloyatidagi milliy-madaniy markazlar, viloyatda markazlarning tashkil etilishi, milliy-madaniy markazlarning maqsad-vazifalari, turli millatga mansub kishilar orasida bag'rikenglik va millatlararo totuvlik jihatlari haqida ma'lumotlar, etnomadaniy jarayonlarda viloyat milliy-madaniy markazlarining ahamiyati, millatlararo munosabatlar shakllanishining viloyatdagi tarixiy shakllari, millatlararo munosabatlar jarayonida milliy-madaniy markazlarning ahamiyati hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalari qo'mitasining amalga oshirayotgan samarali ishlari, Surxondaryo viloyatida yashovchi turli millat vakillari va ularning viloyatdagi millatlararo munosabatlardagi o'rni, viloyatda milliy-madaniy markazlarning madaniy tadbirlarda amalga oshirayotgan ishlar va ularning xalqlar orasida tinchlikni, barqarorlikni mustahkamlashda ahamiyati ochib berildi.

**Kalit so'zlar.** Milliy-madaniy markazlar, tolerantlik, urf-odat, turli millat, millatlararo totuvlik, hamjihatlik, bag'rikenglik.

## THE ROLE OF NATIONAL-CULTURAL CENTERS OF SURKHANDARYA REGION IN THE DEVELOPMENT OF ETHNO-CULTURAL PLURALISM

**Abstract.** This article is about the development of inter-ethnic relations in Uzbekistan, the importance of national-cultural centers in the formation of ethno-cultural pluralism, the organization of national-cultural centers in the Surkhandarya region, the goals and tasks of national-cultural centers, the

aspects of tolerance and inter-ethnic harmony between people of different nationalities, the importance of national-cultural centers of the region in ethnocultural processes, historical forms of the formation of inter-ethnic relations in the region, the importance of national-cultural centers in the process of inter-ethnic relations, and the effective work of the committee on inter-ethnic relations and friendly relations of the Ministry of Culture and Tourism of the Republic of Uzbekistan, Representatives of different nationalities living in Surkhandarya region and their place in inter-ethnic relations in the region, the activities of national-cultural centers in the region in cultural activities and their importance in strengthening peace and stability among peoples.

**Key words.** National-cultural centers, tolerance, tradition, different nationalities, international harmony, solidarity, tolerance.

**Kirish.** Bugungi shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan zamonda har bir xalq o'ziga xos ijtimoiy hamkorlik asosida jamiyat qurmoqda. "Ijtimoiy hamkorlik o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. U jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari, qatlamlari, siyosiy partiya va harakatlari o'rtasida ijtimoiy taraqqiyotga muayyan ehtiyoj paydo bo'lgandagina yuzaga keladi. Demak, ... muayyan ehtiyoj, qiziqishlarni qondirishga umumiy zarurat tug'ilgandagina paydo bo'ladi va harakatlanadi" [5.54-b].

Har qaysi mamlakat tarixiy-ijtimoiy bosqich jarayonida hamisha yangi hayot tarziga o'tishda butun intellektual kuch orqaligina erishish mumkin ekanligini anglaydilar. Ushbu tadqiq etilgan mavzuda ham etnomadaniy xilma-xillikda milliy-madaniy markazlar ahamiyati, uning jamiyat mustahkamligidagi o'rni ilmiy manbalar asosida ochib berilgan.

Milliy-madaniy markazlar etnomadaniy plyuralizmning shakllanishida, mintaqada istiqomat qiluvchi turli millatga mansub kishilar hamjihatligida, bir maqsad yo'lida istiqomat qilib millatlararo totuvlikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ilmiy tadqiqotni yoritishda asosan oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonun hujjati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, hukumat qarorlari, viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari, millatlararo munosabat sohasiga tegishli bo'lgan internet saytlaridan olingan manbalar, Respublika va xorijda millatlararo munosabatlar sohasiga tegishli tadqiqotlar olib borgan olimlarning asarlari asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotni o'rganishda ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash, chiqarilayotgan farmon va qarorlarni tahlil etishdan kelib chiqqan xulosalar, ma'lumotlarga xolislik bilan yondashuv orqali tadqiq etildi.

**Natijalar va muhokama.** XX asrning 80-yillarida milliy uyg'onish turli millat va elatlar ijtimoiy, siyosiy va madaniy faolligining yuksalishiga turtki bo'ldi. Milliy-madaniy markazlar ilk marta 1989-yildan tuzila boshladi[3. 433-b].

Ushbu milliy-madaniy markazlar tashkil etilishi mamlakatimizda mustaqillikdan oldinoq millatlararo munosabatlar, etnomadaniy munosabatlar, turli millatga mansub kishilarning hamjihatligida ilk asos bo'lib xizmat qilgan.

Yer yuzida yetti milliarddan ortiq kishilar yashayotgan bo'lib, bu kishilar turli millatga mansubdir. Hozirgi vaqtga kelib O'zbekistonda 130 dan ortiq millatga mansub kishilarning istak va manfaatlarini qamrab oluvchi 156 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat olib bormoqda[13].

Ushbu faoliyat olib borayotgan markazlar qaysidir millatga mansub, lekin maqsadlari yagona bo'lgan, ya'ni vatanni yagona deb bilib uning taraqqiy etishida o'z hissasini qo'shish deb hisoblaydilar.

Bugungi kunda mamlakatimiz turli millatga mansub, turli qarashlarga ega kishilardan iborat ekanligi hisobga olinib davlatda ushbu turli millatli kishilarning huquqiy manfaatlari qonuniy jihatdan ham mustahkamlangan hisoblanadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida: *O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi*, 8-moddasida: *O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi*, 19-moddasida: *O'zbekiston*

*Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar [1. b-2,5].*

Umuman olganda, mamlakatda qonuniy jihatdan ham turli millatli kishilar manfaatlari kafolatli ekanligini anglash mumkin ekan.

Milliy-madaniy markazlarning rivojlanishi uchun mustaqillik yillari juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1989–1990-yillarda Toshkentda dastlabki 9 ta milliy-madaniy markaz va boshqa mintaqalarda, jumladan, Samarqand va Buxoroda tojik, Andijonda uyg'ur, Sirdaryo, Farg'ona va Nukusda koreys milliy-madaniy markazlari birin-ketin tuzildi.

1991-yilda milliy-madaniy markazlar soni 35 taga yetdi, ushbu markazlarning 14 tasi Toshkentda edi. Yana uchta markazni tuzish ishlari boshlab yuborilgan edi.

Millatlararo totuvlik va madaniyatlararo bag'rikenglikni rivojlantirishda milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida 1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tuzilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo totuvlik va madaniyatlararo bag'rikenglikni mustahkamlashda muhim rol o'ynadi.

1992-yilga kelib mamlakatimizda turli millatga mansub xalqlar ahilligini taminlovchi markazlar soni 54 tani tashkil etdi. 1994-yilda 76 ta markaz (shu jumladan, Toshkentda 22 ta markaz) ishlayotgan va yana ikkita markaz tuzila boshlagan edi. 2003-yilda ularning soni 122 taga, 2005-yilda 135 taga, shu jumladan, Toshkentda 35 taga, Samarqandda 11 taga, Buxoroda 10 taga yetdi[4. b-214].

Respublika bo'yicha vujudga kelayotgan ushbu markazlar chinakam ma'noda mamlakatimizda etnomadaniy, milliy etnik jarayonlarda ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Markazlar tomonidan turli tadbir va kechalar tashkil etilishi esa turli millat vakillarining o'z qadriyat, urf-odat, an'analarini tarannum etishda, turli xalqlar orasida madaniyatlarini yoyishda muhim ahamiyat kasb etgan.

2003-yil 8-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika baynalmilal madaniyat markazining faoliyati masalalari to'g'risida"gi qaror qabul qilinadi. Unda:

– Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta'minlash, ularning o'ziga xos madaniyatlari va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.

– Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, mazkur Nizomga amal qiladi va o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

– Markaz maslahat, ekspert va axborot-tahlil funksiyalarini amalga oshiradi, milliy-madaniyat markazlari, uyushmalar, jamiyatlar, shuningdek, etnik asosda tashkil etilgan boshqa tashkilotlar va ular huzurida tuzilgan tarkibiy bo'linmalar (keyingi o'rinlarda matnda "madaniyat markazlari" deb yuritiladi) monitoringini olib boradi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu sohada joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va Markaz bilan aloqalar o'rnatish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlaridan biriga yuklanadi.

Nizomda Markazning asosiy vazifalari quyidagicha belgilandi:

– tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari, shuningdek, jamoat tashkilotlari bilan

birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish;

– millatlararo totuvlik prinsiplari qaror topishiga yo‘naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag‘batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish;

– davlat organlarida madaniyat markazlarining manfaatlarini ifodalash, Nizomda qayd etilgan vazifalar amalga oshirilishi masalalari bo‘yicha ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining o‘ziga xos milliy an‘analari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini tiklash va rivojlantirish;

– turdosh xorijiy tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatilishida madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu masalada ularga har tomonlama ko‘maklashish, millatlararo munosabatlarni tartibga solishga taalluqli xalqaro huquqiy hujjatlar ma‘lumotlari bankini barpo etish;

– millatlararo munosabatlar masalalariga tegishli qonun hujjatlari va normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda ishtirok etish;

– madaniyat markazlariga amaliy va metodik yordam ko‘rsatish;

– adliya organlaridan ro‘yxatdan o‘tishda madaniyat markazlari tomonidan kiritiladigan hujjatlar yuzasidan xulosalar tayyorlash;

– jamoat tashkilotlariga millatlararo totuvlikni qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha maslahatlar berish, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniyati va ma‘naviy qadriyatlarini rivojlantirish;

– millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda tashkiliy, huquqiy, metodik yordam ko‘rsatish, konferensiyalar, seminarlar va “davra suhbatlari” tashkil etish;

– har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan teleradio ko‘rsatuvlar va eshittirishlar tayyorlashda, kitoblar, risolalar, ma‘lumotnomalar, prospektlar, bukletlar va bosma mahsulotlarning boshqa turlarini tayyorlashda qatnashish;

– madaniyat markazlarining faoliyati to‘g‘risida axborot-tahlil ishlarini yuritish va ushbu masala bo‘yicha zarur ma‘lumotlar bankini barpo etish.

Markazning huquqlari ko‘rsatildi:

– madaniyat markazlari o‘z faoliyatini amalga oshirishiga tashkiliy metodik va amaliy yordam berish, ular ishini muvofiqlashtirish, ular tomonidan o‘tkazilayotgan tadbirlarda qatnashish, masalalarning davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlikda hal etilishiga ko‘maklashish;

– millatlararo munosabatlar masalalari bo‘yicha materiallarni ko‘rib chiqish va zarur chora-tadbirlar ko‘rish uchun boshqaruvning tarmoq va hududiy organlariga yuborish;

– o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan tegishli axborotni davlat organlari va boshqa organlardan, muassasalar, korxonalar va tashkilotlardan, madaniyat markazlaridan so‘rab olish;

– o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish maqsadida muvofiqlashtiruvchi kengashlar va boshqa kengashlar, jamg‘armalar, komissiyalar va ishchi guruhlar tashkil etish;

– xorijiy davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan vakolatxonalar bilan millatlararo munosabatlar masalalari bo‘yicha hamkorlikni amalga oshirish;

– belgilangan tartibda matbuot organi ta‘sis etish;

– markaz huzurida Jamoatchilik kengashi faoliyat ko‘rsatadi, u milliy madaniyat markazlari, manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa davlat organlari, jamoatchilik va ijodiy tashkilotlar rahbarlaridan, millatlararo munosabatlar muammolari bo‘yicha mutaxassislardan tuziladi. Jamoatchilik kengashining shaxsiy tarkibi va Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari kompleksi rahbari tomonidan tasdiqlanadi[2].

O‘zbekiston Respublikasida 2017-yildan keyin qo‘shni mintaqalar bilan juda katta o‘zgarishlar kuzatildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning o‘zida xorijiy mamlakatlar bilan juda ko‘plab uchrashuvlar, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari bilan 20 dan ziyod uchrashuvlar o‘tkazdi. 10 ta davlat bilan oliy darajadagi rasmiy va ishchi tashriflar, muntazam ravishda telefon so‘zlashuvlari amalga oshirildi[7. b-4].

Ushbu olib borilgan uchrashuvlardagi muzokaralar natijasi o‘laroq mamlakatimiz diplomatik aloqalarida ijobiy jihatlar shakllandi.

Hozirda mamlakatda faoliyat olib borayotgan 156 ta milliy-madaniy markazlar faoliyati ham aynan Yangi O‘zbekiston sharoitida juda katta o‘zgarishlarga duch keldi.

Ushbu faoliyat olib borayotgan madaniy markazlar etnomadaniy plyuralizmning shakllanib rivojlanishida muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Millatlararo munosabatlar va siyosiy plyuralizmning shakllanishida xizmat qilayotgan milliy-madaniy markazlardan Surxondaryo viloyatida hozirgi davrga kelib jami 9 ta milliy-madaniy markaz faoliyat olib bormoqda.

Surxondaryo Turkman madaniyat markazi O‘zbekistondagi eng birinchi tuzilib shakllangan milliy markazlaridan biri hisoblanadi, markaz 1992-yil 30-mart kuni butun dunyo turkmanlarining (Ashxabat shahrida bo‘lib o‘tgan) gumanitar birlashmasining “Dunyo Turkmanlarining gumanitar birlashmasining a‘ziligiga qabul qilish tartibi, a‘zolarining huquqlari va burchlari haqida” gi qarori asosida dunyoning qator davlatlarida tuzilgan madaniyat markazlari qatori faoliyat yurita boshlagan (2001-yil 4-mayda rasmiy ro‘yxatga olingan)[8].

Ushbu madaniyat markazi viloyatda istiqomat qilib kelayotgan turkman millatiga mansub kishilarning millatlararo munosabatlari, etnomadaniy jarayonlarida juda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Surxondaryo Tojik milliy-madaniy markazi Surxondaryo hududida ilk milliy markazlardan deydi, markaz faollaridan biri Iskandar Mirzo. Uning aytishicha, tojik milliy markazi 1992-yildan boshlab tuzila boshlagan. Markazning rasmiy ravishda davlat ro‘yxatdan o‘tishi esa, Respublika tojik milliy markazi 2008-yilda tashkili bilan bog‘liqdir. Shu yili viloyatda ham milliy-markaz rasmiy tashkil etildi. 2023-yilga kelib Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy, Boysun tumanlarida ham tojik milliy-madaniy markazlari faoliyat olib bora boshladi[12].

Viloyatda tojik millatiga mansub kishilar o‘zbeklardan keyingi o‘rinlarda turganligi uchun viloyatda tojik milliy-madaniy markazlari soni nisbatan ko‘proqdir. Milliy-madaniy markazlarning maqsadlari viloyatda istiqomat qilib kelayotgan tojik millatli kishilar manfaalari, ularning madaniyati, san‘atini targ‘ib qilish, turli millatli kishilar bilan munosabatlarida markazlarning ahamiyati muhimdir.

Surxondaryo viloyatida tojik tilida o‘qitiladigan maktablar ham mavjud. Hozirda viloyat bo‘yicha 80 dan ortiq maktabda tojik tilida darslar olib boriladi, shundan 58 tasi aralash maktablarda, 22 ta maktabda esa faqat tojik tilida ta’lim berilmoqda[9].

Surxondaryo rus milliy-madaniy markazi 1995-yil 25-may kuni “Rus madaniyati” uyushmasi Surxondaryo viloyati adliya boshqarmasi tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi va o‘z faoliyatini boshladi.

Madaniyat uyushmasi sifatida faoliyat yuritib boshlagan rus milliy-madaniy markazi 2010-yil 20-sentyabrda viloyat adliya boshqarmasi tomonidan qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng “Rossiya madaniyati” uyushmasi O‘zbekiston Respublikasi Rus madaniyat markazining Surxondaryo bo‘limi nomini oldi.

Rus Milliy madaniyat markazining hozirgacha eng oxirgi ro‘yxatga olinishi 2016-yil 20-dekabr kuni hisoblanadi.

Surxondaryo rus madaniyat markazi har yili O‘zbekiston xalqaro markazlarining “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” respublika va mintaqaviy festivallarida faol ishtirok etib markazning maqsad va intilishlarini namoyon etib kelmoqda. Milliy markaz har yili turli bayramlarni, jumladan, Rossiya va O‘zbekiston bayramlari – O‘zbekiston Respublikasi

Mustaqillik kuni, Navro‘z, Pasxa, Maslenitsa va boshqalarda markaz faol qatnashib kelmoqda[10].

Surxondaryo viloyati hududlarida turli xalqlar qatori lo‘lilar ham istiqomat qilib keladi. Janubiy Surxon vohasida lo‘lilar, asosan, Sherobod bekligida, Sherobod daryosining Darband qishlog‘iga yaqin joylarda, shuningdek, Denov, Sho‘rchi, Sherobod, Jarqo‘rg‘on atrofidagi to‘rtta qishloqda o‘zbeklar bilan yonma-yon yashashgan. Ularning soni 300 kishidan oshmagan[6.b-25].

Viloyatda yashovchi lo‘lilar maqsad va manfaatlarini birlashtirish maqsadida, 2023-yil 14-iyun kuni Turayev Faxriddin Sayliyevich raisligida Surxondaryo mo‘ltoni-lo‘li milliy-madaniy markazi faoliyati boshlandi.

Milliy-madaniy markazlar Surxondaryo viloyatida yashovchi turli millat vakillari hududlarda milliylik, qadriyatlar, urf-odatlar, turli millatga mansub kishilar manfaatlarini birlashtirish, vatan-yagona degan g‘oyani kishilar qalbiga singdirish ishlari olib boradi.

1995-yil 16-noyabr YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida “Bag‘rikenglik tamoyillari to‘g‘risida”gi Deklaratsiya qabul qilinib, ushbu sana “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” sifatida dunyo xalqlari tomonidan keng nishonlanib kelinadi. Boisi, bag‘rikenglik – tinchlik va totuvlik, taraqqiyot asosi.

Bu sanani O‘zbekistonda nishonlash ham yaxshi an‘anaga aylangan. Yurtimizda har yili xalqaro bag‘rikenglik kuniga bag‘ishlangan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik haftaliklari, kechalar, tadbirlar o‘tkaziladi.

Surxondaryo viloyat milliy-madaniy markazlari tomonidan ham har yili 16-noyabr kuni munosabati bilan turli tadbirlar, kechalar tashkil etilib kelinmoqda. O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi hamkorligida “Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi” mavzusida 2019-yil 17-noyabr kuni Termiz davlat universiteti O‘zbek tili va qardosh tillar kafedrasida tadbir tashkil etildi. Tadbir avvalida Surxondaryo viloyat turkman madaniyat markazi raisi Avazov Ergash Xedirberdiyevich so‘zga chiqib tadbirni ochib berdi.

Tadbirda Surxondaryo viloyat tojik milliy-madaniy markazi raisi R.Abdullayev, Surxondaryo viloyat rus milliy markazi raisi N.F. Aleksandrovna va boshqa markaz faollari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida R.Abdullayev so‘zga chiqib, yurtimizda millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni saqlash yo‘lida olib borilayotgan oqilona islohotlar, amaliy chora-tadbirlar masalalariga to‘xtalib o‘tdi[11].

Tadbirda alohida qayd etilganidek, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik o‘zbek xalqi ma‘naviyati va madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Qizg‘in munozara ostida o‘tgan tadbir qatnashchilarda katta taassurot qoldirdi. Yig‘ilganlar tomonidan yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar vakillari yaxlit holda O‘zbekiston xalqini tashkil etishi, ular bir-birlari bilan hamjihat bo‘lib, yurtimiz ravnaqi yo‘lida sidqidildan mehnat qilayotganliklarini ta‘kidlandi. Yuksak taraqqiyotga millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash orqali yetish mumkinligini qayd etishdi.

Tadbir jamiyatda tinchlikni taminlash, madaniy xilma-xillikni asrab-avaylash va qo‘llab-quvvatlash, jahon hamjamiyatidagi hamjihatlik, hamfikrlilik va samimiy muloqot, xalqlar, mamlakatlar, madaniyatlar va shaxslar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Milliy-madaniy markazlar tomonidan har yili turli tadbir kechalar tashkil etilishi viloyatda yashovchi turli millatga mansub kishilarning qalbida vatanga bo‘lgan mehr muhabbatning yanada oshishida, hududda etnomadaniy jarayonlarning yanada mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2020-yil davomida viloyat markazlari tomonidan yuzdan ortiq tadbirlar tashkil etilgan[12].

Ushbu yilning 14-yanvar kuni Surxondaryo milliy-madaniy markazlari tashabbusi

bilan “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” nomli tadbir tashkil etildi.

Tadbirda Surxondaryo viloyat milliy-madaniy markazlari a‘zolari va keng jamoatchilik ishtirok etdilar.

Tadbirni Surxondaryo viloyat tojik milliy-madaniy markazi raisi R.Abdullayev ochib berdi. Shuningdek, tadbirda Surxondaryo viloyat tojik milliy-madaniy markazi raisi R.Abdullayev, Surxondaryo viloyat rus milliy markazi raisi N.F.Aleksandrovna, Turkman madaniyat markazi raisi E.Avazov va boshqa markaz faollari ishtirok etdilar.

Tadbir qatnashchilari millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni saqlash yo‘lida olib borilayotgan oqilona islohotlar, amaliy chora-tadbirlar masalalariga to‘xtalib o‘tdilar[12].

Shunday qilib Surxondaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlar asosan quyidagi vazifalarni amalga oshirib kelmoqda:

– viloyatda yashovchi turli millat vakillarini ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy jarayonlarga faol ishtirok etishini ta‘minlash;

– milliy-madaniy markazlar turli millatga mansub kishilarning xorijiy mamlakatlardagi millatdoshlari bilan do‘stona hamkorlik qilish, madaniy-ma‘rifiy aloqalar o‘rnatish va ularni rivojlantirishda ko‘mak berish;

– mamlakatimiz fuqarolari orasidagi hamjihatlik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko‘maklashish;

– musiqa va teatr studiyalarini, ona tili, tarix, yozuv, adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, teatr va rassomchilik san‘ati, milliy urf-odatlar va hunarmandchilik, milliy sport va o‘yinlar turlarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv guruhlari va yakshanba maktablarini amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzadi;

– milliy madaniyat, milliy til; milliy san‘at turlari va milliy urf-odatlarni o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, festivallar va uchrashuvlarni tashkil etish;

– xor va badiiy jamoalarni tashkil etish.

Milliy-madaniy markazlarning viloyatda hamjihatlik, millatlararo totuvlikning mustahkamlanishida ahamiyati katta hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyatida millatlararo munosabatlar rivojlanishida, xalqlar orasida do‘stlik rishtalari mustahkamlanib borishida, viloyatda, qolaversa, Respublikada etnomadaniy plyuralizmning keng yoyilishida milliy-madaniy markazlar o‘rni juda muhimdir.

Aynan milliy-madaniy markazlar faoliyati tufayli viloyatda turli millatli xalqlar urf-odatlari, udumlari, qadriyatlarini milliy o‘yinlari targ‘ib qilinmoqda.

Viloyatda bir maqsad yo‘lida hamjihat xalqlar o‘rtasida mustahkam aloqalar rivojlanishida, millatlararo bag‘rikenglik munosabatlari shakllanishida, tinchlik, barqarorlik jarayonlarida milliy-madaniy markazlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T, 2023, – B. 2,5.
2. 2003-yil 8-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika baynalmilal madaniyat markazining faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-244685>
3. Musayev O.R Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar.// O‘quv qo‘llanma. –T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2021. 433 b.
4. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. darslik. –T: 2019. 214 b.
5. Qodirov A. An‘anaviy jamiyat va uni modernizatsiyalashtirish strategiyasi. Toshkent, 2006. – B. 54.
6. Рўзиева М. Сурхон воҳаси лўлиларининг анъанавий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари (XIX асрнинг охири – XXI асрнинг боши).Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... – Т., 2023. – Б. 25.
7. “Dunyo turkmanlarining gumanitar birlashmasining a‘zoliciga qabul qilish tartibi, a‘zolarining huquqlari va burchlari haqida” gi qarori. 1992-yil 30-mart. Turkman madaniyat markazi joriy arxivi 3-fond, 5-varaq.
8. Surxondaryo viloyat xalq ta‘lim boshqarmasi maktablar bilan ishlash bo‘limi statistik ma‘lumotlari



(2020-yil 15-sentabr holatida).

9. Surxondaryo viloyati Rus milliy markazi joriy arxivi. Bayonnoma–5. 4-varaq. [t.me/russskiy\\_kulturniy\\_sentr](http://t.me/russskiy_kulturniy_sentr).

10. Respublika tojik milliy markazi Surxondaryo viloyat hududiy bo‘limining 2019 yilda viloyat va tuman hokimliklari bilan hamkorlikda hamda markaz tashabbusi bilan o‘tkazgan tadbirlari haqidagi hisoboti. 2019. bayonnoma–2. 23-varaq.

11. Respublika tojik milliy markazi Surxondaryo viloyat hududiy bo‘limining 2020-yilda viloyat va tuman hokimliklari bilan hamkorlikda hamda markaz tashabbusi bilan o‘tkazgan tadbirlari haqidagi hisoboti. 2020. Bayonnoma-1. 3-varaq.

12. O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi millatlararo munosabatlar va do‘stlik aloqalari qo‘mitasi sayti. <http://interkomitet.prepod.uz/qomita-haqida/?lang=uk>

## O‘ZBEKISTON SSRning PARDA ORTIDAGI RAHBARI YOXUD ROMAN MELNIKOV KIM EDI?

**Shohjahon Rashidov,**

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

[shokhjahonr@inbox.ru](mailto:shokhjahonr@inbox.ru)

ORCID 0009-0009-5773-8130

UDK 94:323(575.1)“1950”

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muallif tomonidan XX asr 50-yillaridagi siyosiy jarayonlar tahlilga tortilgan. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibi lavozimida 1949–1959-yillarda faoliyat ko‘rsatgan Roman Melnikov faoliyati atroflicha o‘rganilgan. R.Melnikovning O‘zbekistondagi siyosiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatishga harakat qilgani hamda o‘zbek siyosiy elitasi bilan ziddiyatli munosabatlari tadqiq etilgan. Ushbu davrda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti tizimidagi eng muhim lavozimlardan biri – ikkinchi kotibning mavqeyi yanada mustahkamlangani, ikkinchi kotib, har doim Markazdan rus millatiga mansub shaxslardan tayinlangani yozilgan. Shuningdek, ikkinchi kotiblar partiya nomenklaturasini yuritish uchun ham javobgar bo‘lishgani, shu sabab davlat boshqaruviga milliy kadrlarni jalb qilish masalasi doimo Markazning nazoratida qolgani asoslangan.

**Kalit so‘zlar.** ikkinchi kotib, nomenklatura, kadrlar siyosati, mustamlakachilik, O‘zbekiston SSR boshqaruvi, siyosiy elita, rahbarlar almashinuvi, “iliqlik”.

## WHO WAS ROMAN MELNIKOV, THE BEHIND-THE-SCENE LEADER OF THE UZBEKISTAN SSR?

**Abstract.** In this article, the author analyzed the political processes of the 1950s of the 20th century. The activities of Roman Melnikov, who worked as the second secretary of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan in 1949-1959, have been studied in detail. The attempts of R. Melnikov to influence political processes in Uzbekistan and his contradictory relations with the Uzbek political elite have been researched. During this period, one of the most important positions in the system of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan - the position of second secretary - was further strengthened. This is also based on the fact that the second secretaries were also responsible for maintaining the party nomenklatura, and therefore the issue of attracting national personnel to public administration was always under the control of the Center.

**Key words.** second secretary, nomenklatura, personnel policy, colonialism, leadership of the Uzbek SSR, political elite, change of leaders, “thaw”.

**Kirish.** XX asr 30-yillarida Stalin tomonidan milliy respublikalarni nazoratda ushlab maqsadida Markaziy Komitetning ikkinchi kotibi lavozimi joriy etilgan edi. Ikkinchi kotib lavozimidagi shaxs Markazdan tayinlanib, mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishning muhim ustunlaridan sanalardi. Odatga ko‘ra milliy respublikalarga yuboriladigan ikkinchi kotiblar Rossiya hududida tug‘ilgan bo‘lishi va rus millatiga mansub bo‘lishi shart edi. Ularning ikkita asosiy vazifasi belgilab berilgan edi: kadrlar siyosatini yuritish hamda respublikani baynalmilallashtirish. Yuqoridagi ikki vazifani amalga oshirishga to‘sqinlik qilgan milliy respublikalarning siyosiy rahbarlari Markaz tomonidan turli usullar orqali jazolangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik kabi metod va tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, 1949–1959-yillarda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotib sifatida ishlagan Roman Melnikov

siyosiy faoliyati o'rganilgan.

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** XX asr 50-yillarida eng yuqori lavozim: O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi sifatida 5 nafar shaxs siyosiy rahbarlikni amalga oshirdi. Bu Sovet davlati mavjud bo'lgan yillardagi eng ko'p rahbarlar almashgan davr hisoblanadi<sup>1</sup>. XX asr 50-yillaridagi "taxtlar o'yini"ga Sharof Rashidov barham berdi hamda respublikani eng uzoq vaqt – 24 yil davomida boshqardi.

Biroq yuqorida tilga olingan siyosiy o'zgarishlar fonida O'zbekiston SSRning o'sha vaqtlardagi ikkinchi kotibi yoki "parda ortidagi rahbari" Roman Yefimovich Melnikovning ta'siri va xohish-istaklari katta bo'ldi.

R. Melnikov 1908-yilda Moskva oblastining Uvarov rayonidagi Sinichkino qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Moskvadagi zavodlarda, 1931-yildan boshlab Moskva shahridagi Stalin rayon sovetida ishlay boshladi. 1936-yilda esa Moskva shahar Pervomaysk rayon sovetining raisi bo'ldi. 1945–1948-yillarda VKP(B) Markaziy Komiteti huzuridagi Oliy partiya maktabida o'qidi. Aynan shu yillarda partiya va kommunizm g'oyalari "yuksak" sadoqatini namoyish etgan R. Melnikov sovet hukumati tomonidan Lenin ordeni, Qizil Bayroq ordeni I darajali Vatan urushi ordenlari bilan mukofotlangan edi[1].

1949-yilning boshida u VKP(B) Markaziy Komitetning O'zbekiston SSR bo'yicha Vakilining o'rinbosari etib tayinlandi. Markaziy Osiyoning eng yirik, muhim siyosiy nuqtasi bo'lgan O'zbekistonga Moskva tomonidan R. Melnikovga o'xshagan insonlarning birlashtirilishi uning naqadar muhim, ishonchli va partiya manfaatlariga "sodiq" xizmat qiladigan inson bo'lganidan dalolat beradi. Manbalarning guvohlik berishicha, u 1949-yilning noyabr oyidan boshlab Toshkentga, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibi sifatida yuborilgan[1]. Ikkinchi kotibga O'zbekiston SSRDA amalga oshirilishi kerak bo'lgan muhim vazifa va missiyalar topshirilgan edi. Ularning ichida eng asosiy vazifa O'zbekistondagi siyosiy elita faoliyatini qattiq nazoratda ushlab edi.

R. Melnikov O'zbekistonga kelganda respublikaning birinchi siyosiy rahbari sifatida Usmon Yusupov faoliyat ko'rsatar edi. U O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimini 1937-yildan buyon egallab kelar, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda respublikadagi ulkan bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari bevosita uning nomi bilan bog'liq edi. Usmon Yusupov rahbarligi yillarida O'zbekiston kommunistik partiyasi a'zolikiga yangi mahalliy nomzod kadrlarni qabul qilish ishlari jadallashdi [2, B.16]. Bularning barchasi uning o'zbek xalqi orasidagi nufuzi oshishiga sabab bo'ldi. Qolaversa, Usmon Yusupovning Stalin bilan aloqalari yaxshiligi Markaziy Komitetning ikkinchi kotibi sifatida endigina ish boshlagan Roman Melnikovga xush kelmagani aniq edi. Sababi U.Usupov kabi o'z so'zi va nufuziga ega bo'lgan rahbarning mavjud bo'lishi R. Melnikovning erkin faoliyat yuritishi hamda respublikaning ichki ishlariga bemalol aralashishiga xalaqit berar edi.

Shu sabab, Usmon Yusupovning siyosiy hokimiyatdan, nainki O'zbekistondan uzoqlashtirilishidan eng avvalo R.Melnikov manfaatdor edi. 1950-yil aprel oyida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining plenumi bo'lib o'tadi. Uch kun davom etgan tanqidiy ruhdagi plenumda "eng ko'p kaltak yegan Usmon Yusupov" bo'ldi[3, B.154]. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi sifatidagi 12 yillik rahbarlikdan so'ng U.Usupov Moskvaga ishga o'tkazildi.

U.Usupov o'rniga 1950-yil aprel oyidan boshlab O'zbekistonning birinchi siyosiy rahbari lavozimiga Amin Ermatovich Niyozov tayinlandi. Yangi rahbar R. Melnikov, qolaversa, Markazning izmidan chiqmaslikka harakat qildi. Aynan shu davrdan boshlab Roman Melnikovning O'zbekiston SSRDAgi barcha ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol aralasha boshlagani kuzatildi. Xususan, 1950-yil 5 noyabrda Moskvaga, KPSS MKga yozgan

<sup>1</sup> Izoh: Dastlab, 1950-yil aprel oyida Usmon Yusupov Markazga ishga o'tkazildi. Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi tiklanish davrida O'zbekistonni boshqargan ushbu arbob xalq orasida katta obro'ga ega edi. U.Usupovdan keyin 1950-1955-yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimida Amin Ermatovich Niyozov, 1955-1957 yillarda Nuriddin Akramovich Muhitdinov, 1957-1959-yillarda Sobir Kamolovich Kamolov O'zbekistonga rahbar etib tayinlandi.

xatida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Byurosi nomidan murojaat qilib, kolxozchilarning sport jamiyati – “Paxtakor”ni tuzishga ruxsat so‘raydi[4, C. 265.] .

XX asr 50-yillari boshlarida O‘zbekiston rahbariyati tomonidan nafaqat siyosiy, balki mafkuraviy jabhada ham milliy manfaatlariga zid bo‘lgan bir qator qarorlar qabul qilindi. Amin Niyozovning bu ishlarni to‘xtatib qolishga jur‘ati ham siyosiy irodasi ham yetmadi. Ular orasida eng ayanchlisi o‘zbekistonlik yozuvchi va shoirlarga nisbatan o‘tkazilgan navbatdagi qatag‘on siyosati edi.

1952-yil 21–22 fevralda O‘zbekiston Kompartiyasi MKning mafkuraviy masalalarga bag‘ishlangan mash‘um X plenumi bo‘lib o‘tdi. Plenumda O‘zbekiston Kompartiyasi MKning birinchi kotibi A.E. Niyozov “Respublikadagi ideologiya ishining ahvoli va uni yaxshilash tadbirlari to‘g‘risida” ma‘ruza qildi. Ma‘ruzada O‘zbekiston ziyolilaridan bir guruhi (yozuvchilar, olimlar, shoirlar va boshqalar) noto‘g‘ri ravishda millatchilikda ayblandi [5, B.261-262.]. Manbalarda qayd etilishicha, mazkur ma‘ruza matni bir necha bor R. Melnikov tahriridan o‘tkazilib, o‘zbek ziyolilarini obro‘sizlantirishga qaratilgan bo‘hton va uydirmalar bilan “boyitilgan”. Bu davrda sovet totalitar mafkurasi o‘z siyosiy maqsadlari yo‘lida tarixni soxtalashtirish, tarixiy voqelikni buzib ko‘rsatishga ko‘p bora harakat qilgan. Siyosiy mafkuraga “xizmat qilmagan”, uning izmida yurmagan olimlar, yozuvchilar turli bosim va quvg‘inlarga uchradi.

1952-yil avgustda esa O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XI plenumida R.Melnikov mahalliy kadrlarning rus tilini bilmasliklari siyosiy va madaniy saviyani oshirish yo‘lidagi jiddiy to‘siq ekanligi haqida gapirdi. Partiya tashkilotlarida rus tilini o‘rgangan insongina madaniy va bilimdon xodim bo‘la olishini ta‘kidlab, o‘zining mustamlakachilik g‘oyalari ochiqchasiga namoyish etdi[6].

Bu ishlar Stalin vafot etib, siyosiy hokimiyat o‘zgargandan keyin ham davom etdi. Amin Niyozov Markaz va R. Melnikovning chizgan chizig‘idan chetga og‘ishmaslikka harakat qildi. Xususan, 1953-yil 13-iyulda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining V plenumida ham A. Niyozov jadidlar, inog‘omovchilik hamda Fayzulla Xo‘jayevlar faoliyatini qoraladi [7, 11-varaq]. O‘zbekistonning birinchi siyosiy rahbarlarining plenum va syezdlarda qiladigan ma‘ruzalari avval R. Melnikov tomonidan ko‘rib chiqilgani manbalarda qayd etilgan [8, B.268-269].

N. Xrushchov hokimiyat tepasiga kelishi bilan sovet boshqaruvi tizimida o‘zgarishlar qilishga intildi. Ittifoq tarkibidagi ko‘pgina respublikalarda siyosiy rahbariyat o‘zgartirildi. O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibi sifatida sadoqat bilan xizmat qilayotgan Roman Melnikov esa o‘z faoliyatini N.Xrushchov hokimiyati ostida ham davom ettirdi.

N. Xrushchov O‘zbekiston SSRda kadrlar tizimining mavjud holatidan qoniqmadi va uni o‘z nazoratiga olishga harakat qildi. O‘zbekistondagi kadrlar nomenklaturasini Moskvadan yuborilgan ro‘yxat asosida “yangilash”ni maqsad qildi. Shvetsiyalik olim Niklas Norling Rossiya Federatsiyasi arxivlaridagi ma‘lumotlar asosida bildirishicha, Roman Melnikov 1954-yil 24-mayda N.Xrushchovga xat yo‘llab, O‘zbekiston Kompartiyasi MK Markazdan yuboriladigan “yangi nomenklatura”ga rozi ekanligini va respublikadagi rahbar kadrlarning qisqartirilishini ma‘lum qilgan [9, P.151]. Shunday qilib, respublikadagi kadrlar masalasi Markaz va R.Melnikovlar ishtirokida hal qilingan.

Ko‘p o‘tmay, N.Xrushchov va Amin Niyozov munosabatlari yomonlasha boshladi. Birinchidan, N.Xrushchov A.Niyozovni Stalin davridagi rahbarlardan deb hisoblardi. Ikkinchidan, Amin Niyozovning ish yuritishdagi kamchiliklari haqida N.Xrushchovga O‘zbekistondan ma‘lumotlar muntazam yetkazib turilgan. Bu ishning boshida ham Roman Melnikov “tashabbus” ko‘rsatdi. Rossiyalik tarixchi F.Razzoqovning yozishicha, 1955-yil dekabr oyida Amin Niyozovning faoliyati R. Melnikov boshchiligida o‘tgan O‘zbekiston Kompartiyasi burosi va sekretariatida muhokama qilingan. Majlisda A.Niyozovning ish faoliyati qoniqarsiz deb topilgan. U ishni eplay olmayatgani ta‘kidlangan [10, C. 57].

1955-yil 22 dekabrda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining plenumi

bo'lib o'tdi [11]. Plenumni boshqargan R.Melnikov kun tartibida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibini tayinlash vazifasi turganini ta'kidladi. Plenum Nuriddin Akramovich Muhitdinovni O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi lavozimiga tayinladi. N. Muhitdinov qisqa vaqt davomida rahbarlik qilgan bo'lsa-da, Markaz oldiga respublika manfaatlaridan kelib chiqqan holda aniq talablar qo'ya boshladi. Aynan uning tashabbuslari bilan XX asrda qatag'onga uchragan davlat rahbarlari A. Ikromov, F. Xo'jayevlar nomini oqlash masalasi ko'tarildi. Rossiya Federatsiyasi arxivlarida saqlanayotgan mutlaqo maxfiy tamg'asi ostidagi hujjatlarning guvohlik berishicha, A.Ikromov hamda Abdulla Qodiriylarning oqlanishida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining tashabbusi katta bo'lgan [12].

1956-yil 11–13-oktabr kunlari O'zbekiston ziyolilarining birinchi syezdini o'tkazish rejalashtirilib, unda N. Muhitdinovning qatag'on qurbonlarini oqlash masalasidagi ma'ruzasi eshitilishi kerak edi. Roman Melnikov ma'ruza matnidan oqlangan shaxslarning ismi sharifi va oqlash jarayonining borishi haqidagi jummalarni o'chirib tashlashni taklif qiladi [13, C.184-185]. Biroq o'z so'zida qat'iy turgan N.Muhitdinov o'z ma'ruzasida nomi oqlangan shaxslarning ism-u sharifini birma-bir sanab o'tgan [14, C.55-56].

Nuriddin Muhitdinov milliy kadrlarni boshqaruvga jalb qilish, o'zbek tilining nufuzini oshirish va boshqa milliy masalalarda ham ko'plab ishlarni qildi. Uning bu xatti-harakatlari eng avvalo, R.Melnikovning halovatini buzgan edi. Shu sabab, Roman Melnikov va uning tarafdorlari N.Muhitdinovni respublika boshqaruvidan uzoqlashtirish payiga tushishadi. N.Xrushchov tomonidan eng istiqbolli kadrlardan biri sifatida e'tirof etilgan N.Muhitdinov 1957-yil dekabrda KPSS MK Prezidiumi a'ziligiga kiritildi. Bu sovet boshqaruvi tizimidagi eng nufuzli lavozimlardan biri edi. Shu tariqa N.Muhitdinov O'zbekistonda uzoqlashtirildi. Tarixchi olim H. Ziyoyev ta'kidlaganidek, "Bu amalda surgunning o'zi, O'zbekiston uchun katta yo'qotish edi. Partiya N.Muhitdinov kabi iste'dodli siyosatchi va millatparvarlarning umumxalq suyanchig'iga aylanishini xavfli deb hisoblardi" [15].

1957-yil 28-dekabrda O'zbekiston KP MK VI Plenumi bo'lib o'tdi. Unda asosiy masala Nuriddin Muhitdinovning yangi lavozimga o'tganligi munosabati bilan O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi sekretarligiga yangi nomzodni ko'rib chiqish edi. Plenumda O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi sekretarligiga Sobir Kamolovich Kamolov saylandi. O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi lavozimiga esa Mansur Ziyayevich Mirzaahmedov tayinlandi [16].

Sobir Kamolov O'zbekistonning birinchi siyosiy rahbari sifatida juda kam muddat rahbarlik qilgan bo'lsa-da, respublikada ijobiy tomonga siljishlar kuzatildi. O'zbekistonda kimyo sanoatini rivojlantirish, sanoatda novatorlarning g'oyalarini keng tatbiq etish ishlariga alohida e'tibor berildi. Qolaversa, O'zbekiston 1958-yilda davlatga 3 046 500 tonna paxta topshirdi. Bu o'zbek xalqining fidokorona mehnatlari natijasi ham edi. Ushbu ko'rsatkich 1957-yilga nisbatan 210 100 tonnaga ko'p edi. Umuman olganda, respublikaning boshqa sohalaridagi natijalari ham yaxshi edi. Lekin Sobir Kamolov va Roman Melnikov o'rtasidagi munosabatlarda ziddiyat mavjud edi.

Rossiya arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar hamda boshqa manbalarda ushbu jihatga e'tibor qaratilgan. Xususan, 1959-yil 14-mart kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston KP MK plenumida Sobir Kamolovni ishdan olish masalasi ko'tarilgan. Plenumda S.Kamolov faoliyatidagi qator kamchiliklar tanqid qilingan. Ular orasida S.Kamolov va R.Melnikov o'rtasidagi keskin munosabatlar haqida ham so'z borgan. S.Kamolov partiya va hukumat tizimidagi ko'p yillik faoliyati natijasida Roman Melnikovning kirdikorlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. RGASPI (Rossiya davlat ijtimoiy va siyosiy tarix arxivi)da saqlanayotgan hujjatlarning guvohlik berishicha, Sobir Kamolov O'zbekiston KP MKning ikkinchi kotibi Roman Melnikovning bir qancha ko'rsatmalarini bajarmagan. Hatto S.Kamolov Siroj Nuriddinovdan (U 1956-1959 yillarda Toshkent viloyat partiya komitetining rahbari bo'lib ishlagan) R.Melnikovni Toshkent obkomiga ikkinchi kotib qilib olib ketishni so'ragan [17]. Sobir Kamolov bu yo'l orqali Roman Melnikovni respublika markaziy boshqaruvidan

uzoqlashtirishni, ichki masalalarni o'zi mustaqil hal qilishni istagan. Biroq yakunda Markazning "ko'z-u qulog'i" bo'lmish R. Melnikovning qo'li baland kelib, Sobir Kamolov Farg'ona viloyat ijroiya qo'mitasiga rahbar qilib jo'natilgan[18].

Sobir Kamolov o'rniga tayinlangan Sharof Rashidovich Rashidov O'zbekistonda XX asr 50-yillarida kechgan rahbarlar almashinuviga chek qo'ydi hamda 1959-yildan to 1983-yilga qadar rahbarlik qildi. Sharof Rashidov rahbarligining ilk yilida Moskva Roman Melnikovni O'zbekistondan chaqirib oldi va uni KPSS MKga ishga o'tkazdi. R.Melnikov KPSS MKda turli lavozimlarda ishladi hamda 1982-yilda nafaqaga chiqarildi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, O'zbekiston SSRda XX asr 50-yillarida kechgan ziddiyatli jarayonlarda Roman Melnikovning ta'siri katta bo'ldi. Ayniqsa, o'zbekistonlik rahbar kadrlarning milliy masalalardagi harakatlariga toqatsizlik bilan munosabatda bo'ldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қизил Ўзбекистон. 1950 йил 5 март. №53.
2. Мухаммадиев Р. Ўзбекистон ССРдаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий жараёнларда Усмон Юсуповни тугган ўрни: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Тошкент, 2022.
3. Мухитдинов Н. Усмон Юсупов // Шарқ юлдузи, 1992. №1.
4. Советская национальная политика: идеология и практика 1945-1953. -Москва, РОССПЭН, 2013.
5. Ражабов Қ. Ўзбекистон ССРда совет режимининг катагон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917-1991 й.). – Тошкент: Фан, 2022.
6. Қизил Ўзбекистон. 1952 йил 5 август. №184.
7. Ўзбекистон ПАА 58-фонд, 170-рўйхат, 17-иш
8. Мухитдинов Н. Кремлда ўтган йилларим. -Тошкент: Ўзбекистон, 1995.
9. Nicklas Norling. Myth and reality: politics in Soviet Uzbekistan. A dissertation submitted to Johns Hopkins University in conformity with the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. -Baltimore, 2014.
10. Раззаков Ф. Коррупция в Политбюро. Дело «красного узбека». – Москва, Алгоритм, 2009.
11. Қизил Ўзбекистон. 1955 йил 23 декабр. №302.
12. Қаранг: <http://istmat.info/>: РГАСПИ (Российский государственный архив социально-политической истории), 17-фонд, 171-рўйхат, 444-йиғмажилд, 53-варак.
13. Мухитдинов Н. Река времени. -Москва: Руст-рости, 1995.
14. Доклад тов. Мухитдинова Н.А. Первого секретаря ЦК КП Узбекистан. I съезд интеллигенции Узбекистана. 11-13 октября 1956 года. Стенографический отчет. -Ташкент, Государственное издательство Узбекской ССР, 1957.
15. Зиёев Х. Занжирбанд ҳукмдорлар / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 18 сентябрь, 1992 йил.
16. Ўзбекистон ПАА. 58-фонд, 182-рўйхат, 14-йиғмажилд, 6-варак.
17. РГАСПИ. Ф.17, оп. 89, д. 649, л. 5-17.
18. Фарғона вилоят архиви. 1124-фонд, 7-рўйхат, 885-йиғмажилд, 89-варак.

#### MARKAZIY OSIYONING QADIMGI GIDROTEXNIK INSHOOTLARI: TABIY- GEOGRAFIK VA TARIXIY TIPOLOGIK TAHLIL

**Begaliyev Nurbek Hasan o'g'li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

[nurbek050295@gmail.com](mailto:nurbek050295@gmail.com)

O'UK (575.1); 631.

ORCID-0000-0002-2984-7155

**Annotatsiya.** Jahon miqyosida jadallashib borayotgan globallashuv sharoyitida dunyo mamlakatlarining ekologik holatiga jiddiy ta'sir etuvchi suv va suvdan foydalanish, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holatda suv tanqisligini bartaraf etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Binobarin, suv va suvdan foydalanish, irrigator kadrlar tayyorlash, gidrotexnika inshootlari o'tmishi va tarixi, to'g'onlar, dambalar, korizlar, quduq va sardobalar barpo etish jarayonlarini tadqiq etish butun dunyo mamlakatlari tarixshunosligida muhim hisoblanadi. Shuningdek, idrotexnika inshootlaridan unumli foydalanish tajribalarini o'rganish, turli iqlim sharoyitida bo'lgan hududlarda suvdan foydalanish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Ushbu maqolada qadimgi davrlarda kechgan suvdan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Markaziy Osiyo, gidrotexnik inshootlar, o'rta asrlar, karvon yo'llari, sardobalar tarixi, hovuzlar va quduqlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, Buxoro-Qarshi karvon yo'li, karvon yo'llari yo'nalishlari,

me'moriy yechimlar, texnologik yangiliklar, Sirdaryoning quyi havzasi, tarixiy-tipologik tahlil, Amudaryoning o'rta oqimi.

### ANCIENT HYDROTECHNICAL INSTITUTIONS OF CENTRAL ASIA: NATURAL-GEOGRAPHICAL AND HISTORICAL TYPOLOGICAL ANALYSIS.

**Abstract.** Water and water use, which seriously affects the ecological situation of the countries of the world in the conditions of globalization, which is accelerating on a global scale, and the elimination of water shortages in the case of existing opportunities, remain an urgent issue. Therefore, the study of water and water use, training of irrigators, the past and history of hydraulic structures, the construction of dams, dams, drains, wells and cisterns is important in the historiography of countries around the world. Also, studying the experiences of efficient use of hydrotechnical facilities will undoubtedly serve to meet the needs of water use in regions with different climatic conditions. This article analysed the use of water in ancient times.

**Keywords.** Central Asia, hydrotechnical structures, middle ages, caravan routes, history of cisterns, ponds and wells, socio-economic factors, Bukhara-Karshi caravan route, caravan routes, architectural solutions, technological innovations, lower basin of Syrdarya, historical-typological analysis, Amudarya midstream.

**Kirish.** Savdo karvonlari va yo'lovchilarni, ulov vositalarini suv bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi gidrotexnik inshootlar (quduqlar, hovuzlar va sardobalar) qadimgi kommunikatsiya yo'llari tizimining muhim elementini tashkil etgan. Bronza davridan boshlab mintaqadagi dasht va cho'llarning chorvador qabilalar tomonidan jadal o'zlashtirilishi aloqa yo'llari yo'nalishlari bo'ylab zarur infratuzilmalar – yo'lbo'yi inshootlari, birinchi galda quduqlar barpo etilishini talab etardi. Ma'lumki, O'rta Osiyoning janubiy hududlarida eneolit davridan boshlangan irrigatsiya tizimi, bronza davrida mintaqaning markaziy hududlaridagi daryo vodiylariga ham yoyildi. Bu davrda sug'orish inshootlari barpo etish sohasida to'plangan tajribalardan kelib chiqsak, o'z tuzilishiga ko'ra unchalik murakkab bo'lmagan quduqlarning barpo etilishi nafaqat cho'l va dasht hududlarda, shu bilan birga ichimlik suviga bo'lgan tabiiy ehtiyoj tufayli, o'troq dehqonchilik hududlarida ham barpo etila boshlanganligi haqida xulosa qilish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'rta Osiyoning dasht va cho'llariga xos bo'lgan issiq va quruq iqlim sharoiti bu hududlar orqali o'tuvchi yo'llar bo'yida bronza davridan boshlab quduqlar barpo etilishiga olib keldi. Qozog'istonda Chaglinka, Tasti-Butak va boshqa bir qator joylardan bronza davriga oid quduqlar topib o'rganilgan [1:53-54]. Qizilqum (Uchquduq, Qulquduq, Juzquduq, Tomdi va boshqalar) va Qoraqum sahrosida, mintaqaning boshqa cho'l va dasht hududlarida ham mahalliy cho'ponlar tomonidan asrlar davomida foydalanib kelingan qadimgi quduqlar ko'p uchraydi. XIX asr rus harbiy razvedka ma'lumotlarida Buxoro va Qarshidan Amudaryo kechuvlariga, Chorjo'ydan Marvga olib boruvchi yo'llardagi quduqlar 2,5 va 4-5 sajendan 10-11 sajengacha chuqurlikda qazilganini aks etgan. Mintaqaning ayrim cho'l va dasht hududlarida quduqlar ancha chuqur qazilishi ma'lum. Masalan, Janubiy Turkmanistonda quduqlar 40 metr dan chuqurroq bo'lgan bo'lsa [2:220-229], Samarqand – Qarshi oralig'idagi hududlarda quduqlar chuqurligi 38-40 metrgacha yetadi. Umuman olganda, mintaqaning quruq va issiq iqlimli dasht va cho'llarida unchalik murakkab gidrotexnik inshoot bo'lmagan quduqlar [3] qadimgi davrdan to yaqin vaqtlargacha savdo karvonlarini, ulov vositalarini va chorva mollarini ichimlik suvi bilan ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib kelgan.

**Natijalar va muhokama.** Yerosti chuchuk suvlaridan iste'mol uchun foydalanishga imkon beruvchi quduqlar nafaqat cho'l hududlarda, shu bilan birga, o'troq dehqonchilik vohalarida ham barpo etilgan. Misol tariqasida, xitoyliklarning Davanga yurishi paytida poytaxt Ershi shahrini suv bilan ta'minlovchi o'zan to'sib qo'yilgani bois bu shaharga qo'shni Dasin davlatidan quduq qazuvchi ustalar yordamga yuborilganini [4:170] aytib o'tish mumkin. Bunday quduqlar mintaqaning barcha shaharlarida va karvon yo'lidagi mustahkam qal'alarda bo'lganini ko'plab manbalardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Xususan, rivojlangan o'rta asrlarda Marv shahrida (Sulton qal'ada) quduqlar, maxsus darvozali, zinapoyali, ochiq va yopiq hovuzlar bo'lgani, mintaqaning boshqa shaharlarida ham quduqlar va hovuzlardan

foydalanilgani, shaharlarda hovuzlar, yopiq hovuzlar (sardoba) ni boshqaruvchi maxsus idora (devon) ham bo'lgani manbalarda aks etgan[5:74-95].

Amudaryo bo'yidagi kechuvlarni nazorat qilib turuvchi qal'alarda (XII-XIII asr boshlariga oid Qizqal'a va boshqalar) ham quduqlar va yopiq hovuzlar o'rni topilgani [6:162], X-XIII asr boshlarida Xorazmni Janubiy Turkmaniston, Eron va boshqa mamlakatlar bilan bog'lovchi karvon yo'llari bo'yidagi mustahkamlangan karvonsaroylardan Oqyayla va Talayxonota karvonsaroylari ichki hovlisida sardoba va ularni suv bilan ta'minlovchi quvur qoldiqlari topilgani ahamiyatga molikdir[7:91].

O'rta Osiyoning savdo markazlari bo'lgan shaharlarda suv ta'minoti yaxshi yo'lga qo'yilgani ma'lum. Samarqandda rivojlangan o'rta asrlarga oid quduqlar haqida ma'lumotlar mavjud[8:16]. Shu bilan birga, mintaqaning barcha shaharlaridagi jamoat binolarida, karvonsaroylar, bozorlar ichki hovlisida ham quduqlar bo'lganligi shubhasizdir.

Umuman olganda, O'rta Osiyoning dasht va cho'l hududlarida quduqlar barpo etish usullari, quduqlar tuzilishi va shakllari bronza davridan to XX asr boshlarigacha o'zgarmasdan qolgan[9:162]. Bu sohadagi tajribalar esa avloddan avlodga o'tib kelgan.

Mintaqamizning ba'zi hududlarida, ayniqsa, cho'l va dashtlarida yerosti suvlarining sho'rliigi, iste'molga yaroqsizligi va chuchuk suv zaxiralarini saqlashga bo'lgan ehtiyoj tabiiy ravishda hovuz va sardobalar ko'rinishidagi murakkab gidrotexnik inshootlar barpo etilishiga ham olib keldi. Bu jarayon dastlab chorvador xo'jaliklarning yomg'ir suvlari to'planadigan tabiiy chuqurlarda suvni saqlashga intilish ko'rinishida bo'lgan bo'lsa, davrlar o'tishi bilan yopiq hovuzlar va sardobalar paydo bo'lishiga olib keldi. Baqtriyadagi Dulbarjin yodgorligi yaqinidagi sardoba Markaziy Osiyoda antik davridayoq sardobalar barpo etish an'anasi mavjud bo'lganini tasdiqlaydi [10:30]. Bunday inshootlar cho'l va dasht hududlari orqali o'tgan aloqa-savdo yo'llari bo'yida va o'troq makonlarda ham barpo etilgan bo'lib, ularning qurilishi, ayniqsa, o'rta asrlarda keng rivojlandi. Murakkab gidrotexnik inshootlar barpo etish sohasida to'plangan tajribalardan kelib chiqib, sardobalar qurishda maxsus texnologiya qo'llanilgan [11:506-509]. Bu texnologiya sardoba suvini yerosti suvlari ta'siridan saqlashga, inshootning chidamliligi va mustahkamligini oshirishga xizmat qilgan. Sardobalar qurishda yon taraflarida maxsus derazalar, ustki qismida tuynuk bo'lishiga ham katta e'tibor qaratilgan. Bular sardoba suvining uzoq muddat buzilmasdan saqlanib turishiga xizmat qilgan. Dasht va cho'l hududlaridagi sardobalar odatda yomg'ir va qor suvlari bilan qish va bahor oylarida to'ldirilgan bo'lsa, shaharlardagi sardobalar suvi ariqlardan maxsus sopol quvurlar orqali keltirilgan[12:20-21]. Buni hozirgi kunda Buxoro va Qarshi shahrida saqlanib qolgan sardobalar misolida ham ko'rish mumkin.

Qarshidagi sardoba Amir Temur yoki shayboniy hukmdor Abdullaxon Ikkinchi hukmronligi davrida qurilgan. Gumbazi balandligi – 7 m., hovuzi diametri –14 m.ni tashkil etadi. Unga suv Qashqadaryodan olingan Fayzobod arig'idan maxsus sopol quvurlar orqali keltirilgan. Bu sardoba XX asr o'rtalarida buzilib ketgan bo'lib, 2006-yilda Qarshi shahrining 2700 yilligi yubileyi arafasida olib borilgan tadqiqotlar davrida u topildi va ochilib, ta'mirlab chiqildi ( - ilova).

Bizgacha yetib kelmagan boshqa yo'lbo'yi inshootlari – karvonsaroylar va rabotlardan farqli ravishda mintaqamizda, xususan, O'zbekistonning cho'l hududlarida o'rta asrlar davriga oid ko'plab sardobalar saqlanib qolgan. Buni ushbu inshootlarning amaliy ahamiyati to yaqin davrlargacha saqlanib kelganligi bilan izohlash mumkin.

Qizilqum (Uchquduq, Qulquduq, Juzquduq, Tomdi va boshqalar) va Qoraqum sahrosida, mintaqaning boshqa cho'l va dasht hududlarida ham mahalliy cho'ponlar tomonidan asrlar davomida foydalanib kelingan qadimgi quduqlar ko'p uchraydi. Buxoro va Qarshidan Amudaryo kechuvlariga, Chorjo'ydan Marvga olib boruvchi yo'llardagi quduqlar 4-5 metrdan 20-25 metrgacha chuqurlikda qazilganini aks etgan. Mintaqaning ayrim cho'l va dasht hududlarida quduqlar ancha chuqur qazilishi ma'lum. Masalan, Janubiy Turkmanistonda quduqlar 40 metrdan chuqurroq bo'lgan bo'lsa[2:220-229], Samarqand – Qarshi oralig'idagi hududlarda quduqlar chuqurligi 38-40 metrgacha yetadi.

Umuman olganda, mintaqaning quruq va issiq iqlimli dasht va cho'llarida unchalik murakkab gidrotexnik inshoot bo'lmagan quduqlar qadimgi davrdan to yaqin vaqtlargacha savdo karvonlarini, ulov vositalarini va chorva mollarini ichimlik suvi bilan ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib kelgan.

Yerosti chuchuk suvlaridan iste'mol uchun foydalanishga imkon beruvchi quduqlar nafaqat cho'l hududlarda, shuningdek, o'troq dehqonchilik vohalarida ham barpo etilgan. Bunday quduqlar mintaqaning barcha shaharlarida va karvon yo'lidagi mustahkam qal'alarda bo'lganini ko'plab manbalardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi[7:74-95].

O'rta Osiyoning savdo markazlari bo'lgan shaharlarda suv ta'minoti yaxshi yo'lga qo'yilgani ma'lum. Samarqandda rivojlangan o'rta asrlarga oid quduqlar haqida ma'lumotlar mavjud[7:16]. Shu bilan birga, mintaqaning barcha shaharlaridagi jamoat binolarida, karvonsaroylar va bozorlar ichki hovlisida ham quduqlar bo'lgan.

Umuman olganda, O'rta Osiyoning dasht va cho'l hududlarida quduqlar barpo etish usullari, quduqlar tuzilishi va shakllari o'zgarimasdan qolgan. Bu sohadagi tajribalar esa avloddan avlodga o'tib kelgan.

Mintaqamizning ba'zi hududlarida, ayniqsa, cho'l va dashtlarida yerosti suvlarining sho'rliigi, iste'molga yaroqsizligi va chuchuk suv zaxiralarini saqlashga bo'lgan ehtiyoj tabiiy ravishda hovuz va sardobalar ko'rinishidagi murakkab gidrotexnik inshootlar barpo etilishiga ham olib keldi.

**Xulosa va takliflar.** Markaziy Osiyoda antik davridayoq sardobalar barpo etish an'anasi mavjud bo'lgan[10:30]. Bunday inshootlar cho'l va dasht hududlari orqali o'tgan aloqa-savdo yo'llari bo'yida va o'troq makonlarda ham barpo etilgan bo'lib, ularning qurilishi, ayniqsa, so'nggi o'rta asrlarda keng rivojlandi. Murakkab gidrotexnik inshootlar barpo etish sohasida to'plangan tajribalardan kelib chiqib, sardobalar qurishda maxsus texnologiya qo'llanilgan. Unga ko'ra, sardoba qurilishida ishlatiladigan suv, qum va tuproq toza joydan olingan, qumga yantoq, qamish va yulg'un kuli qo'shilgan, g'isht loyiga tuya juni qo'shib, pishitilgandan keyin uni ikki yilgacha jazirama oftobda quritilib, keyin xumdonga pishirilgan. Pishiq g'ishtlarni terishda ham loyga qo'y suti, tuya juni qo'shilgan, sardoba tagiga 3 qavat qoramol yoki tuya terisi to'shalib, ustidan ganch suvoq va undan keyin pishiq g'isht bilan terib chiqilgan [11:506-509]. Bu texnologiya sardoba suvini yerosti suvlari ta'siridan saqlashga, inshootning chidamliligi va mustahkamligini oshirishga xizmat qilgan. Sardobalar qurishda yon taraflarida maxsus derazalar, ustki qismida tuynuk bo'lishiga ham katta e'tibor qaratilgan. Bular sardoba suvining uzoq muddat buzilmasdan saqlanib turishiga xizmat qilgan. Dasht va cho'l hududlaridagi sardobalar odatda yomg'ir va qor suvlari bilan qish va bahor oylarida to'ldirilgan bo'lsa[12:20-21], shaharlardagi sardobalar suvi ariqlardan maxsus sopol quvurlar orqali keltirilgan. Buni hozirgi kunda mintaqamizdagi shaharlarda saqlanib qolgan yagona sardoba, ya'ni Qarshi sardobasi misolida ham ko'rish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Оразбаев А.М. Колодцы на поселении Чаглинка (Шагалалы). / Поиски ираскопки в Казахстане. – Алма-Ата, Наука, 1972. – С.154-162., Черников С.С. Восточный Казахстан в эпоху бронзы. – М.-Л., 1960. – С. 53-54.
2. Бабаджанов Р.К. Вопросы о скотоводческом хозяйстве туркмен Тедженского оазиса в конце XIX-начале XX вв. // Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1975. – С. 220-229.
3. Quduqlarning ustki qismi yog'ochdan, guvala yoki xom g'ishtdan qurilgan maxsus ko'tarma bilan o'rab olingan. Mustahkam arqon bilan charxga bog'langan va odatda teridan qilingan qovg'a yordamida quduqdan suv olingan. Qovg'ani quduq tubiga tushirib, suvga to'lgach tortib olishda uy hayvonlari (tuya, eshak) kuchidan foydalanilgan.
4. Бичурин Н. (Июкинф) Собрание сведений... Ч. II. – С. 170.
5. Анарбаев А. Благоустройство средневекового города Средней Азии. – Т.: Фан, 1981. – С. 74-95.
6. Qizqal'aning janubi-g'arbiy qismida pishiq g'ishtdan ishlangan quduq, g'arbiy qismida 5 ta aylana va tuxumsimon shakldagi hovuz topilgan. Bu haqda qarang: Gulyamov Y. G. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. - Ташкент, 1957. – С. 162.



7. Вяткин В.Л. Афрасиаб – городища бывшего Самарканда. Археологический очерк. – Ташкент, 1927. – С. 16.
8. Оразбаев А.М. Колодцы на поселении Чаглинка... – С.162.
9. Уралов А. Гражданское зодчество средневековой Центральной Азии. Автореф.дисс.докт.ист.наук. – Ташкент, 1998. – С. 30.
10. Ravshanov P. Qarshi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 506-509.
11. Mavlonov O'. Ajdodlarimiz zakovati // Fan va turmush. – Toshkent, 1993, – № 7-8. – B. 20-21.
12. Бабаджанов Р.К. К вопросу о скотоводческом хозяйстве туркмен Тедженского оазиса в конце XIX- начале XX вв. // Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. - М.: Наука, 1975. – С. 220-229.
13. Mavlonov O'. Ajdodlarimiz zakovati // Fan va turmush. – Toshkent, 1993, – № 7-8. – B. 20-21.

## TARIXIY ASARLAR MILLIY ZIYOLILARIMIZ NIGOHIDA

**Mansurov Maxmudjon Abdug'opporovich**

University of Business and Science universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

[Maxmudovmansur144@gmail.com](mailto:Maxmudovmansur144@gmail.com)

ORCID 0009-0008-8870-637X

UO'K:94(545.1):070(043.3)

**Annotatsiya.** O'tgan asrning birinchi yarmida o'tmish madaniyatga nisbatan panja ostidan qarash kuchaydi. Shunga qaramasdan, ma'rifatparvar ziyolilar va fan fidoyilarining sa'y-harakatlari natijasida o'lkada tarixiy-madaniy merosni saqlash hamda o'rganish ishlari davom ettirildi. Aynan milliy ziyolilarimiz tomonidan tarixiy-madaniy merosimizni, xususan, tarix fanini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Ilmiy tashkilot va jamiyatlar bo'limining bevosita ixtiyorida Toshkentdagi davlat kutubxonasi hamda o'zbek san'ati va tarixiy yodgorliklarni qo'riqlash qo'mitalari tashkil etilgan.

XX asrning 20–30-yillarida mashhur bo'lgan O'zbekiston SSR Xalq maorifi komissarligi nashriyot organi bo'lgan – “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnali bu borada eng faol nashrlardan biri bo'lganligini ta'kidlash kerak. Mazkur jurnal sahifalarida milliy ziyolilarning tarix, adabiyotshunoslik, elshunoslik, qadimshunoslik va boshqa yo'nalishlardagi tadqiqotlari chop etib borildi. Maqolada ziyolilarning tarixiy-madaniy merosga bo'lgan munosabatining tahlili o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar.** Markaz, “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnali, kutubxona, madaniyat, kitob, devon, milliy ziyoli.

## HISTORICAL WORKS THROUGH THE EYES OF OUR NATIONAL INTELLECTUALS

**Abstract.** In the first half of the last century, a negative view of the past culture intensified. Nevertheless, as a result of the efforts of enlightened intellectuals and devotees of science, work on the preservation and study of the historical and cultural heritage continued in the country. It was our national intelligentsia that paid great attention to the study of our historical and cultural heritage, in particular, the science of history. The State Library in Tashkent and the Committees for the Preservation of Uzbek Art and Historical Monuments were established under the direct authority of the Department of Scientific Organizations and Societies.

It should be noted that the magazine “Maorif va o'qitg'uvchi”, which was the publishing body of the People's Commissariat of Education of the Uzbek SSR, which was popular in the 20s and 30s of the 20th century, was one of the most active publications in this regard. The pages of this journal published research by national intellectuals in history, literary studies, ethnography, archaeology, and other areas. The article reflects an analysis of the attitude of intellectuals to historical and cultural heritage.

**Key words.** Center, Education and teacher, library, culture, book, cabinet, national intellectual.

**Kirish.** XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmi – 30-yillar sovet hokimiyati uchun o'zining siyosiy va iqtisodiy mavqeyini yanada mustahkamlash davri bo'ldi. Bolsheviklarning mutlaq yakkahokim partiyasi jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida mafkuraviy ta'sirini o'tkazib bordi. Ayniqsa, bu kishilar ongini o'zgartirishda muhim omil bo'lgan ma'naviyat sohasida jiddiy tus oldi. Agar sovet hokimiyatining dastlabki yillarida madaniyat va uni boshqarish jabhalarida birmuncha erkinlik mavjud bo'lib, hokimiyat mahalliy urf-odatlar va xususiyatlarni hisobga olishga majbur bo'lsa-da, keyinchalik ma'muriy-buyruqbozlik usullari keng quloch yoyib, mustahkamlanib bordi. Bolshevikcha “madaniy

inqilob” yo’li va usullari ustuvorlik qila boshladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Maqolani yozishda O‘zbekiston Milliy arxivining R-34-fondidagi materiallardan foydalanilgan. Bundan tashqari, mavzuga oid bo‘lgan “Maorif va o‘qitg‘uvchi”, “Inqilob” va “Ishtirokiyun” jurnallari birlamchi manba sifatida keng tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** “Tarixiy asarlar milliy ziyolilarmiz nigohida” nomli mazkur tadqiqotni yoritishda xolislik, tarixiy-xronologik tahlil, tizimlilik tamoyili asosida ish ko‘rib, qiyosiy tahlil usullaridan bevosita foydalanilgan.

**Natijalar va muhokama.** Xalqning ma’rifat, fan va milliy ma’naviyatga bo‘lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan uzoqni ko‘zlamay, yaxshi o‘ylamay olib borgan siyosati natijasida siyosiy manfaatlar yo‘liga burildi. Yangi ziyoli kadrlarni shakllantirish, eski mavjud milliy ziyolilarni yo‘q qilish ushbu maqsadlarni ko‘zlab amalga oshirildi. Bunday yondashuv tarixiy-madaniy merosga bo‘lgan munosabatda ham o‘z aksini topdi. O‘tmish madaniyatga nisbatan panja ostidan qarash kuchaydi. Shunga qaramasdan, ma’rifatparvar ziyolilar va fan fidoyilarining sa’y-harakatlari natijasida o‘lkada tarixiy-madaniy merosni saqlash hamda o‘rganish ishlari davom ettirildi.

Turkistonda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilgandan keyin, ya’ni 1924-yilda O‘zbekiston Xalq maorifi komissarligi huzurida Akademik Markaz (Уз Академцентр) tashkil etildi va u uchta, ya’ni ilmiy-pedagogik va musiqiy-etnografik, o‘zbekshunoslik, ilmiy tashkilot va jamiyatlar kabi bo‘limlardan iborat edi[1]. O‘zbek Akademik markazning shtatdan tashqari xodimlarini ro‘yxatida o‘zbek xalqining eng ko‘zga ko‘ringan milliy ziyolilari, jumladan, Abdumo‘min Sattoriy, Hoji Mu’in Shukrullayev, G‘ozi Olim Yunusov, Abdumusavvar Odilov, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li (Cho‘lpon), Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud va Sadridin Ayniy kabi namoyandalarini nomlarini ko‘rish mumkin. Ushbu ziyolilarning olib borgan ilmiy-amaliy harakatlari tufayli markaz ko‘plab ijobiy ishlarni qo‘lga kiritdi. Xususan, ilmiy-pedagogik bo‘lim turli xildagi o‘quv yurtlari uchun yangi o‘quv rejasi va dasturlarni ishlab chiqish, ularga darsliklar tuzish, O‘zbekistonda chop etiladigan darslik hamda metodik adabiyotlarni nazorat qilish, o‘zbekshunoslik bo‘limi esa mahalliy xalqning o‘tmishi, tili va turmush tarzini har tomonlama o‘rganish bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib bordi. O‘zbekshunoslik bo‘limi joylarda o‘zining boshlang‘ich tashkilotlarini tuzib, ularning ishlarini muvofiqlashtirib bordi. O‘zbekistonda mahalliy tilda chop etiladigan barcha materiallarni til bo‘yicha taqriz qilish bilan ham shug‘ullandi.

Ilmiy tashkilot va jamiyatlar bo‘limining bevosita ixtiyorida Toshkentdagi davlat kutubxonasi hamda o‘zbek san’ati va tarixiy yodgorliklarni qo‘riqlash qo‘mitalari bor edi. Ushbu bo‘lim O‘zbekiston hududidagi barcha ilmiy tashkilotlar va jamiyatlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini g‘oyaviy jihatdan boshqarib borgan. Shu bilan birga, 1925-yil 6- dekabrda Akademmarkaz kollegiyasining qarori bilan Samarqandda Sharq qo‘lyozmalarini maxsus saqlash joylarini tuzish ishlari ham o‘tkazildi [2]. Ta’kidlash joizki, Akademmarkaz o‘z davrida madaniy, tarixiy-sharqshunoslik yo‘nalishining rivojiga samarali hissa qo‘shgan muassasa deb e’tirof etilgan edi.

Ta’kidlash kerakki, milliy ziyolilarning zimmasida adabiy merosni zamonasining ma’naviy mulkiga aylantirish, o‘tmishdagi buyuk siymolarni elga tanitish, asarlarini ko‘p nusxada qayta nashr etish kabi mas’uliyatli, o‘z navbatida murakkab vazifalar turar edi. Tadqiqotning dastlabki bobida qayd etilganidek, ushbu davr matbuotida millatning mashhur siymolarini yorituvchi o‘nlab maqolalar e’lon qilindi. Ammo 20-yillarning oxiriga kelib, mumtoz merosimizga markscha-lenincha ta’limot asosida tanqidiy ko‘z bilan qarash keng yoyildi. Ma’naviy meros oq-qora, yaxshi-yomon, foydali-foydasiz kabi rang va turlarga ajratila boshlandi.

Sovet madaniyati nazariyasida madaniy merosdan foydalilarini olib, keraksizlaridan voz kechish yoki ularni zamonga moslashtirish haqidagi fikrlar bo‘lgan. Bolsheviklar partiyasi faollaridan biri bo‘lgan I.A. Zelenskiy bu haqda shunday degan edi: “Eski madaniyat ikki qismdan iborat: moddiy qismdan, biz o‘zlashtirgan ishlab chiqarish apparatidan xo‘jalik va

texnik asos (bazis)ga bevosita yoʻldosh boʻlgan aniq fanlar, gʻoyaviy qismlar, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti darajasidagina emas, balki ishlab chiqarish kuchlari va qurollari taqsimotidan kelib chiqqan (qurollar va vositalarga xususiy egalik) gʻoyaviy qismidan iborat. Madaniyatning aynan shu qismini, yaʼni mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalariga xususiy egalik faktidan kelib chiqqan qismini biz ulotirib tashlashimiz zarur”.

Shunga qaramay, milliy ziyolilarimiz tomonidan tarix ilmi targʻiboti va oʻtmish madaniy merosini xalqqa yetkazish borasidagi harakatlari toʻxtab qolmadi. Shu oʻrinda, XX asrning 20–30- yillarida mashhur boʻlgan Oʻzbekiston SSR Xalq maorifi komissarligi nashriyot organi boʻlgan – “Maorif va oʻqitgʻuvchi” jurnali bu borada eng faol nashrlardan biri boʻlganligini taʼkidlash kerak. Mazkur jurnal sahifalarida milliy ziyolilarning tarix, adabiyotshunoslik, elshunoslik, qadimshunoslik va boshqa yoʻnalishlardagi tadqiqotlari chop etib borildi.

XX asrning 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab milliy ziyolilarning tarix va mumtoz adabiyotga oid qarashlari haqida soʻz borganda avvalo Abdurauf Fitrat nomini alohida taʼkidlash oʻrinli. Oʻz oʻrnida shuni qayd etish kerakki, Abdurauf Fitrat ulkan sharqshunos olim edi. U arab, fors, moʻgʻul, usmonli turk va qadimgi turk tillarini mukammal bilibgina qolmay, bu xalqlar tarixi, madaniyati, adabiyot hamda sanʼatni juda chuqur oʻrgangan, oʻrta asrlar islom tarixi va adabiyotini mukammal bilgan. “Maorif va oʻqitgʻuvchi” jurnalining 1926-yildagi 7–8-sonlarida “Adabiy taftishlar” ruknida “Muqaddamat ul-adab” nomi bilan olimning maqolasi berilgan. Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi boʻyicha tadqiqot olib borgan Z. Islomov ushbu maqolani “yurtimizdagi Mahmud Zamaxshariy va uning “Muqaddamat ul-adab” asariga bagʻishlangan ilk tadqiqot deb hisoblash mumkin” [3], deb qayd etadi. Unda Abdurauf Fitrat haqiqiy keng qamrovli olim ekanligini koʻrsatadi.

Jumladan, “Muqaddamat ul-adab” asarini barcha tadqiqotlar qatori oʻz nomi bilan emas, balki asar muqaddimasida koʻrsatilganidek, “Lugʻati Xorazmshohiy” deb atalganligini taʼkidlaydi. Abdurauf Fitrat asar bilan yaqindan tanishib chiqadi, ism va feʼllar qismlariga kiritilgan arabcha va boshqa tillardagi soʻzlikka alohida eʼtibor beradi. Buning uchun olim Buxorodagi Ibn Sino kutubxonasida saqlangan asarning qadimiy ikki qoʻlyozmasi bilan yaqindan tanishadi. Ularning birinchisi hijriy 705/1305 yili Hamid Hofiz nomli kotib tomonidan koʻchirilgan asarning toʻliq qoʻlyozmasi edi. Undagi lugʻat qismiga arabiy-forsiy tillardagi muodillar (ekvivalentlari – M.Maxmudov) kiritilgan.

Abdurauf Fitrat maqolada yozgan ikkinchi qoʻlyozma 898/1492 yili kotib Darvish Muhammad tomonidan koʻchirilgan. Uning hoshiyasidagi muhrda yozilishicha, qoʻlyozma oʻzbek xonlaridan Abdullaxon II ning beklaridan boʻlmish Qulbobo Koʻkaldosh tomonidan 977/1569 yilda kutubxonaga vaqf qilinib topshirilgan.

Abdurauf Fitrat qoʻlyozmadagi turkiy soʻzlikni “chigʻatoycha” deb nomlaydi va uni Alisher Navoiy yoki undan ilgariroq davrga mansub boʻlsa kerak, degan fikrni ilgari suradi. Maqola davomida muallif shamol, girdob, yer, tuproq, togʻ, suv, olov kabi soʻzlarning turkiy (oʻzbek)cha va moʻgʻulcha shakllarini taqqoslaydi. Maqola soʻngida Abdurauf Fitrat turkiy, moʻgʻuliy soʻzlarga sanoq sonlar, jumladan, birlik va oʻnlik sonlarini biri-biriga qiyoslaydi.

Shu bilan birga, Abdurauf Fitrat Ahmad Yassaviy ijodiga ham oʻz eʼtiborini qaratgan. Uning “Ahmad Yassaviy” va “Yassaviy maktabi shoirlari toʻgʻrisida tekshirishlar” sarlavhali maqolalari 1927-yilda “Maorif va oʻqitgʻuvchi” jurnalida nashr qilinib, unda muallif Ahmad Yassaviy yashab oʻtgan muhit hamda mafkurani tahlil qilish, uning asarlarini tub mohiyatini ochishga harakat qiladi va oʻzining muayyan ilmiy xulosalarini bildiradi. Abdurauf Fitrat: “Bu kitobdagi chigʻatoy lugʻatlarining Navoiylar zamonidan, yo undan burungʻi zamonlardan qolgʻon bir manba boʻlgʻoni uchun bizga yararlik ekaniga shubha yoʻqdir”, deya qayd etadi. Ahmad Yassaviy haqidagi maqolasida esa “Devoni hikmat” asarining nusxalari keyingi davrlarda yozilgan, uning shogirdlari tomonidan ushbu hikmatlarga oʻzgartishlar kiritilgan boʻlishi mumkinligiga ishora qilib: “Devoni hikmat”ning Yassaviy zamoniga yaqin bir zamonda yozilgʻon biror nusxasi topilmaguncha maʼlum. “Devonu hikmat”larni til tarixi qarashidan tekshirishdan ilmiy bir natija chiqmaydir”, - deydi. Ushbu ikki maqola olimning

bir necha yillik izlanishlari mahsuli edi.

Abdurauf Fitrat tasavvuf ta'limoti va uning o'tmishi, shoir yashagan davr, ijtimoiy-ma'naviy muhit, ulug' mutafakkirning hayot sahifalari, oilasi, bolaligi, ilm tahsili, o'z tariqatiga asos solishi, "Devoni hikmat" tarixi, hikmatlarning ma'no-mohiyati, adabiy qimmat, yassaviylikning ta'siri, mafkurasi, Ahmad Yassaviyda tasavvuf darajasi kabi masalalarni chuqur o'rganib chiqqan hamda bular xususida yangi fikr-mulohazalarini bayon etgan. O'z maqolasini tasavvufga doir umumiy kirish bilan boshlar ekan, olim tasavvuf maslagining yuzaga kelishini mustamlakachilarning mahkumlarga qilgan adolatsizliklaridan kelib chiqqan aks ta'siri bilan bog'laydi.

Abdurauf Fitrat Ahmad Yassaviy hikmatlarining turkiy til rivojidadagi xizmatlari xususida mulohaza yuritib, V–VI asrning adabiy mahsuli bo'lgan hikmatlarning "Qutadg'u bilig"dan bir asr so'ngra, "Hibat ul-haqoyiq" bilan bir davrda yozilgani bois adabiyotimiz va tariximiz uchun muhim ahamiyatga molik, deb hisoblaydi. Abdurauf Fitratning fikricha, ushbu davrda yozilgan turkiy asarlarning ozligi nazarda tutilganda, hikmatlarning qimmat yanada ortgan bo'lar edi. Lekin Abdurauf Fitrat XX asrga qadar yetib kelgan "Devoni hikmat" nusxalarining qadimiy emasligini ta'kidlagan edi.

"Maorif va o'qitg'uvchi" sahifalarida birinchilardan bo'lib o'zbek xalqining shakllanish tarixi masalasini ko'tarib chiqqan Miyon Buzruk Solihov [4] hisoblanadi. Uning "O'zbek tarixiga doir to'rt muhim kitob" maqolasida bildirilgan fikrlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Unda "Mehmonnomai Buxoro", "Zafarnoma", "Firdavs ul-iqbol", "Tarixi Farg'ona" kabi asarlar tavsiflanadi va ularning mazmuni ilmiy bayon etiladi. Miyon Buzruk Solihov 1925-yildan Istanbulda O'rta Osiyoning o'rta asrlar tarixiga doir qo'lyozma asarlarni o'rganish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlarni olib bordi. U Istanbuldagi mashhur Nuri Usmoniy kutubxonasida Fazlulloh ibn Ro'zbexonning "Mehmonnomai Buxoro" qo'lyozma asarini topishga muvaffaq bo'ldi [5]. Kutubxona shuningdek, Sharafiddin Ali Yazdiyning turkiyga tarjima qilingan "Zafarnoma" asari bilan tanishadi. Universitet kutubxonasida Muhammad Rizo Ogahiyning "Firdavsul-iqbol" asari ustida tadqiqot olib boradi. Xolis Afandi xususiy kutubxonasida esa "Tarixi Farg'ona" qo'lyozma asarini topishga muvaffaq bo'ladi [6].

Miyon Buzruk Solihov "Mehmonnomai Buxoro" kitobini o'sha davr haqida eng ishonchli va mufassal ma'lumot beruvchi asar sifatida ta'riflaydi. "Ayni zamonda mavjud ma'lumotlarning zamon va mahallarini ko'rsatib ularni yoritadi. Bu jihatdan kitobning ilm dunyosi va xususan o'zbek tarixi uchun ulug' qimmat bo'la oladi", deb baholaydi. U "Zafarnoma" kitobi haqida shunday yozadi: "... bu kun har yerda mavjud bo'lg'onidan uning tarjimasi mazmun va mundarija e'tibori bilan yangi bir qimmatga ega bo'la olmaydi. Lekin O'rta Osiyo tarixiga mo'tabar va ishonchli manbalardan biri bo'lg'on "Zafarnoma"ning o'zbekchaga ko'chirilganligi va XV–XVI asrlarda o'zbek yozi (yozuvi – M. M.) tilini jonli suratda ko'rsatgani uchun kitobning ahamiyati ulug'dir" [7].

Ushbu olim Munis Xorazmiyning "Firdavsul-iqbol" asari to'g'risida so'z yuritib, bir jildda uchta kitob mavjudligini e'tirof etadi. Ya'ni, Munisning "Firdavs ul-iqbol", Ogahiyning "Riyo ud-davla" va "Zubdat ut-tavorix" asarlari. Kitoblarning nusxalari, paleografik xususiyatlari va nuqsonlari xususida ham ma'lumot beradi. "Farg'ona tarixi" asari to'g'risida so'z yuritib, uning Turkiyaga kelib qolish sabablarini yoritib beradi. Asarning tarixiy manba sifatidagi o'rniga baho berib, undan o'zbek xalqi tarixini o'rganish uchun faqat yordamchi manba sifatida foydalanish mumkinligini e'tirof etadi.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, XX asrning 20–30-yillarida partiya va hukumat nafaqat iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada, balki madaniyat, badiiy adabiyot hamda san'at sohalarida ham yagona siyosat va mafkurani barcha milliy respublikalarda o'tkazishni yana kuchaytirdi. Aynan shu kabi tadbirlar tufayli keyingi o'n yilliklarda madaniyat, ayniqsa, badiiy adabiyot va san'atda milliylik hamda an'naviylikning ta'siri sezilarli darajada pasaydi. Bunda "xalq dushmani", "burjua millatchilari" deb ayblangan va mahv etilgan, surgun qilingan ziyolilarning qayg'uli taqdiri ham omon qolgan ijodkorlarning milliy hamda fuqarolik mavqeyiga ma'lum darajada ta'sir qilgan edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб.... – Б. 218.
2. О'zMA, R-34-fond, 1-ro'ухат, 2629-ish, 110–111-vaqalar;
3. Вся Средняя Азия / Справочная книга на 1926 хозгод. – Ташкент, 1926. – С. 399–400.
4. Ахунова М. А., Лунин Б. В. История исторической науки в Узбекистане. Краткий очерк. – Ташкент: Фан, 1970. – С. 57.
5. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб. – Тошкент, 2019.
6. Зеленский И. В. Борьбе за культуру // За партию. – 1928. – №7. – С. 12–13.
7. Ўзбекистонда совет давлатининг қатағон сиёсати: келиб чиқиш сабаблари ва фожиали оқибатлари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2021. – Б. 162–163.
8. Абдурауф Фитрат. Муқаддам ул-адаб // Маориф ва ўқитғувчи. – 1926. – №7–8. – Б. 76–78.
9. Раҳмон Ф. Навоий // Маориф ва ўқитғувчи. – 1927. – №5–6.
10. Миён Бузрук Ўзбек тарихига доир тўрт муҳим китоб // Маориф ва ўқитғувчи. – 1927. – №9–10. – Б. 57–61.
11. Абдурауф Фитрат. Навоий форс шоирлиги ва форс девони тўғрисида // Маориф ва ўқитғувчи. – 1926. – №12.
12. Туркестанский восточный институт за первые четыре года своего существования (1918–1922). – Наука и просвещение, 1922. – №2.
13. Абдурауф Фитрат. Тилимиз // Иштирокиюн. – 1919 йил 12 июнь.
14. Абдурахмон Саъдий. Абу Наср бин Муҳаммад бин Тархон Форобий // Инқилоб. – 1924. – №11–12. – Б. 98–108.
15. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий ибрати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2019. – №27.
16. Саъдий А. Имом Ғаззолий // Инқилоб. – 1922. – №6. – Б. 28–29.
17. Садриддин Айний. Тарихи эзоҳ // Маориф ва ўқитғувчи. – 1927. – №7–8. – Б. 30–32.

### ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHDA O'ZBEKISTONDA XALQARO HAMKORLIKNING YO'LGA QO'YILISHI TARIXIDAN

**Quryazova Laylo Rahmonovna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Tarix fakulteti izlanuvchisi

[kuryazovalaylo7@gmail.com](mailto:kuryazovalaylo7@gmail.com)

ORCID 0009-0000-5344-5394

UDK: 343.43 (035.3) (575.1)

**Annotatsiya.** Maqolada keng adabiyotlar asosida odam savdosiga qarshi kurashda O'zbekistonda xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi tarixi o'rganilgan. Odam savdosi ko'p qirrali muammo ekanligi sababli unga qarshi kurash yuzasidan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda yagona mexanizmni ishlab chiqish va uni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan xalqaro tashkilotlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, maqolada odam savdosiga qarshi kurashish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning Yevropadan Amerika va Shimoliy Afrika qit'alariga keng ko'lamlı migratsiyasi hamda ayollarni Yevropaga sotish hodisasi, xalqaro miqyosda shaxslarni ekspluatatsiya maqsadida foydalanishga qarshi kurash aynan Millatlar Ligasi tashkil etilishi, Xalqaro miqyosda qul savdosi va uning har qanday ko'rinishlarini tugatish, bugungi kunga kelib ham jahonda odam savdosining uchta keng tarqalgan turi kabi masalalar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar.** Odam savdosi, transmilliy jinoiy guruh, qullik, fohishalik, majburiy mehnat, loqaydlik.

### FROM THE HISTORY OF THE FORMATION OF INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIGHT AGAINST HUMAN TRAFFICKING IN UZBEKISTAN

**Abstract.** The article examines the history of the development of international cooperation in Uzbekistan in the fight against human trafficking based on extensive literature. Particular attention is paid to the activities of international and regional organizations tasked with developing and implementing a unified mechanism in cooperation with international and regional organizations in order to combat human trafficking as a multifaceted problem.

At the same time, the article analyzes issues such as the large-scale migration of women from Europe to the continents of America and North Africa in the late 19th and early 20th centuries, the phenomenon of selling women to Europe, the fight against the use of individuals at the international level for exploitation, as

well as the creation of the League of Nations, the cessation of the slave trade at the international level and any of its manifestations today. Issues such as three common types of human trafficking in the world were also analyzed.

**Key words.** human trafficking, transnational crime group, slavery, prostitution, forced labor, indifference.

**Kirish.** Odam savdosi insoniyat sivilizatsiyasiga, jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli u uyushgan jinoyatchilik, xususan, xalqaro terrorizm, narkobiznes, qurol-yarog'larni noqonuniy sotish bilan bog'liq o'ta og'ir jinoyatlar qatorida odam savdosining har qanday ko'rinishiga qarshi kurash bugun jahon afkor ommasi uchun dolzarb muammo bo'lib qoldi. Odamlarning soddaligi va ishonuvchanligi sababli moddiy muammolarni tezda hal etish ilinji, yengil ish topish, tez boy bo'lish orzusi, yetarli huquqiy bilimga ega emasligi, loqaydlik va nopok kimsalarning g'ayriqonuniy harakatlari, transmilliy jinoiy guruhlarning ixtisoslashuviga sabab bo'ldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani ochib berishda tizimlilik, taqqoslash, muammoviy-maqсадli, tarixiy, qiyosiy, mantiqiy yondashuv, aholining ziyoratgohlardagi ishtirokini sotsiologiya va antropologiya fanlari (eksperiment, kuzatish, son va sifat analizi, sintez) hamda og'zaki tarix metodi (intervyu, anketa, so'rovnomma) usullaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Odam savdosiga qarshi kurashish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning Yevropadan Amerika va Shimoliy Afrika qit'alariga keng ko'lamlı migratsiyasi hamda ayollarni Yevropaga sotish hodisasi kuzatilgan. Bu kabi hodisalarga barham berish maqsadida dastlab 1807-yilda Britaniya koloniyalarida qul mehnatidan foydalanishni bekor qilish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishidan boshlangan. Bu hujjatning qabul qilinishi qullikni bekor qilishni to'liq taqiqlamagan bo'lsa-da, 1834-yildan boshlab butun koloniyalarda amal qilib kelingan. Bunga asosiy sabab sifatida 1815-yilda Vena kongressi va 1818-yildagi Axen kongresslarida qullik bilan shug'ullanish uchun javobgarlik belgilanishi turtki bo'lgan [1: 11].

1885-yilda Berlinda 16 mamlakat ishtirokida xalqaro konferensiya bo'lib, unda "Kongo haqida"gi Bosh akt imzolandi. Ushbu xalqaro-huquqiy aktda yana bir marotaba qullikni cheklash masalasiga urg'u berib, Kongo daryosi mintaqasidagi aholini qul sifatida sotishga doir harakatlar uchun javobgarlik belgilash masalalari nazarda tutildi [2].

1899-yilda Londonda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada "Xotin-qizlardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun ularni yollashga qarshi kurash to'g'risida"gi rezolyutsiya, 1904-yil 18-mayda Fransiyaning Versal shahrida "Oq tanli cho'rilar savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi hamda 1910-yil 4-mayda "Oq tanli cho'rilar savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi protokollar qabul qilindi.

Xalqaro miqyosda shaxslarni ekspluatatsiya qilish maqsadida foydalanishga qarshi kurashda aynan Millatlar Ligasi tashkil etilishi bilan muhim qadam qo'yildi. Bu 1921-yil 30-sentabrda qabul qilingan "Ayollar va bolalar savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya bo'ldi. Mazkur Konvensiya ayollarni shahvoniy maqsadlarda foydalanish yoki ayollar va bolalar savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilandi. 1924-yilda Millatlar Ligasi doirasida mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish vazifasi yuklangan vaqtincha-lik Komissiya 1926-yil 25-sentabrda "Qullik to'g'risida"gi Konvensiyani qabul qildi. Ushbu Konvensiyada "qullik – bu insonning shunday holati yoki ahvoliki, uning ustidan egalik huquqining belgilari yoki ulardan ba'ziları amalga oshirildi", deb ta'rif berildi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, ushbu Konvensiyada ko'rsatilgan qoidalarni buzgan yoki amal qilib kelmagan ahdlashuvchi davlatlarga nisbatan jazo chorasi belgilanmadi [3:104-105].

Qullikning boshqa bir qator shakllari keng tarqala boshlanganidan so'ng boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga olib keldi. Aynan 1930-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan 29-sonli "Zo'raki va majburiy mehnat to'g'risida"gi Konvensiyasi qabul qilindi [4:505-525]. Bundan tashqari 1933-yil 11-oktyabrda esa Millatlar Ligasi tomonidan "Balog'atga yetgan xotin-qizlar savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi

xalqaro konvensiyalar ham qabul qilindi [5:34]. Odam savdosi muammosiga qarshi kurashishning keyingi tarixiy jarayonlari sekin-asta rivojlanib, 1948-yil 10-dekabrda “Inson huquqlari” umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiyaning 4 – moddasida “Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas, qullik va qul savdosining barcha ko‘rinishlari taqiqlanadi[6:12]” deb belgilab qo‘yildi.

Biroq qullikning har qanday ko‘rinishini taqiqlash, uning oldini olish yuzasidan xalqaro miqyosda kamchiliklarning mavjudligi va qullikni zamonaviy ko‘rinishi odam savdosi transmilliy jinoyatchilikning oldini olish uchun mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirib borish kerakligi ma’lum bo‘ldi. Natijada xalqaro miqyosda 1949-yil 21-martda “Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiya qabul qilindi. Konvensiyaning 1-moddasiga ko‘ra, “boshqa shaxsni fohishalik maqsadida, hattoki uning roziligi bilan qo‘shib qo‘ygan, yo‘ldan urgan yoki nomusiga tajovuz qilgan”, shu moddaning ikkinchi bandida “boshqa shaxsning fohishaligini hattoki shu shaxsning roziligi bilan ishlatgan har bir kishini jazolashga majburiyat oladilar” deb bayon etildi [3:25].

Xalqaro miqyosda qul savdosi va uning har qanday ko‘rinishlarini tugatish maqsadida 1956-yil 7-sentyabrda tuzilgan va 1957-yil 30-aprelda kuchga kirgan “Qullik va qul savdosini, qullikka o‘xshash institutlar va odatlarni bekor qilish to‘g‘risida”gi qo‘shimcha Konvensiyada [3:112-113] qarz bilan bog‘liq hamda krepostnoylik kabi qullik institutlarini bekor qilishga qaratildi.

Biroq bugungi kunga kelib ham jahonda odam savdosining uchta keng tarqalgan turi shakllandi va birinchi o‘ringa fohishabozlik turi kirdi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, chet davlatlardan olib kelingan odam savdosining qurbonlari kamida 127 mamlakatdan sotuvga chiqib, 137 davlatda ekspluatatsiya qilingan. Dunyoda har yili taxminan 2 million 700 ming kishi odam savdosining qurboniga aylanadi, yili dunyo bo‘yicha 600–800 ming nafar ayol va bolalar aldov yo‘li bilan xorijiy mamlakatlarga olib ketilib, sotib yuborilgan[7]. Taxminan 20-40 million kishi quldorlikning zamonaviy shakli qurboniga aylanib, olinayotgan yillik daromad miqdori 7 milliard AQSh dollaridan oshib ketgan. Odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizi ayol va bolalar bo‘ldi. Hisob kitoblarga ko‘ra, ayollarning 72 foizi jinsiy ekspluatatsiya maqsadida sotildi. Qora bozorga tovar sifatida tushadiganlar umumiy sonining 71 foizini ayollar va yosh qizlar tashkil etdi[8:9]. Prof. M.Rustambayevning ta’kidlashicha, 2009-yilga qadar birinchi toifaga kiruvchi davlatlar (BMT ma’lumotlariga ko‘ra, bunday davlatlar bugungi kunda 127 tani tashkil etadi) ichida “peshqadamlik” qilayotgan mamlakatlar qatorida Belarus, Moldova, Rossiya Federatsiyasi va Ukraina kirgan. AQSh, Isroil, Turkiya, Italiya, Yaponiya, Gretsiya, Germaniya va Birlashgan Arab Amirliklari “jonli tovar”ni qabul qilib oluvchi o‘lkalar hisoblandi [8:7]. U yoki bu davlatga jo‘natilishiga qarab odam savdosi bilan shug‘ullanuvchilarning bajaradigan vazifasi turlicha bo‘lishiga qaramay, tahlil etilayotgan muammo davlat chegaralarini tan olmasdan, u rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar uchun ham birdek xavfli hisoblandi. Uning qurbonlari, odatda, turli yurtlardan kelib xorijiy mamlakatlarda ish qidirib yurgan ayollar va bolalar[9:15] hisoblandi. Bu jarayonda jinsiy aloqa yo‘li bilan o‘tadigan virusli va yuqumli kasalliklar, ular ichida, ayniqsa, xavflisi bo‘lmish OITS/VICH, sifilis, gonoreya va boshqa tanosil kasalliklarini yuqtirish xavfi juda yuqori hisoblanib, bunday faoliyat jabrlanuvchi sog‘lig‘ining jiddiy buzilishiga, shuningdek, nogiron go‘daklarning tug‘ilishi, hatto o‘limiga ham olib keldi.

Bu holatlarning oldini olish uchun dunyo bo‘ylab shuncha keng qamrovli amaliyot, tegishli targ‘ibot-tashviqot olib borilishiga qaramay, har yili millionlab ayollar, qizlar, keksalar, hatto yosh bolalar “zamonaviy qullik”, ya’ni odam savdosi qurboniga aylandi. Ushbu jinoyatning rivojlanishiga turtki bo‘layotgan asosiy omillardan biri odamlarning chet elga borish va ishga joylashish haqida yetarli ma’lumotga ega emasligi bo‘ldi. BMTning ma’lumotiga ko‘ra, hozirda dunyoda taxminan 27 mln. kishi qul sifatida foydalanib kelinayotganligini, bu holat pasayishi o‘rniga oshib borayotganligini bildirgan[2].

Odam savdosi ko'p qirrali muammo ekanligi sababli unga qarshi kurash yuzasidan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda yagona mexanizmni ishlab chiqish va uni amalga oshirish vazifasi BMTning "Narkotik va jinoyatchilik boshqarmasi" (United Nations Office on Drug and Crime (UNODC))ga yuklatildi. Aynan UNODC BMTning "Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha global initsiativ markazi"ni (OSQKGI)ga rahbarlikni amalga oshirdi. Ushbu boshqarma bir qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, ya'ni BMTning Bolalar Fondi (United Nations Childrens Fund (UNICEF)), BMTning "Rivojlanish Dasturi, "Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissiya boshqarmasi" (IHOKB), "Qochoqlar ishi bo'yicha Oliy komissiya boshqarmasi" (QIOKB), "Xalqaro mehnat tashkiloti" (XMT), "Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot" (MXT), "Xalqaro jinoyat politsiya tashkiloti" (Interpol), shuningdek, YXHTning odam savdosiga qarshi kurashni muvofiqlashtirish guruhi ekspertlari kengashi ishtirokida qat'iy choralarni ishlab chiqdi. Shunga asosan 2006-yil 26-27-sentabr kunlari Tokio shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi yig'ilishda odam savdosiga qarshi kurash samaradorligini oshirish yuzasidan boshqa mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda bir qator vazifalar belgilab olindi. 2008-yilning 13-15-fevral kunlari Vena shahrida ushbu markazning "Odam savdosiga qarshi kurash" xalqaro forumi bo'lib o'tdi. Forum doirasida odam savdosiga qarshi kurashdagi salbiy jihatlar va natijalar yuzasidan 28 ta ishchi yig'ilishi bo'ldi. Forum yakunida "Vienna Forum Report: a Way Forward to Combat Human Trafficking" (odam savdosiga qarshi kurashni davom ettirish Vena forumi ishi bo'yicha) nomli bayonoti tayyorlandi[10].

O'zbekiston Respublikasi ham xorijiy davlatlar bilan uyushgan jinoyatchilikning (shu jumladan, odam savdosining) xavfli ko'rinishlariga qarshi kurash haqida ham umumiy 29 ta shartnoma va kelishuv imzoladi. Jumladan, 2005-yil odam savdosiga qarshi kurashish yuzasidan davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish maqsadida MDH doirasida "Odam savdosiga qarshi kurashish sohasida hamkorlikni kuchaytirish to'g'risida"gi kelishuvga qo'shildi. 2006 yilda sakkiz a'zo mamlakat doirasida "Odam savdosiga qarshi kurashning 2007–2010-yillarga mo'ljallangan dasturi" qabul qilindi. 2007-yil 4-iyulda O'zbekiston Respublikasi hukumati va Rossiya Federatsiyasi hukumati o'rtasida "Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi bitim imzolandi[12]. Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi O'zbekiston odam savdosiga qarshi kurash borasida xalqaro hamkorlikning faol a'zosi ekanligidan dalolat berdi.

Shuningdek, BMTning 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi" Konvensiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 30-avgustdagi 536-II-sonli BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qarori bilan ratifikatsiya qilindi va 2004- yil 8-yanvardan kuchga kirdi[13]. Aynan shu 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi" Konvensiyasiga qo'shimcha odam savdosi, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar savdosi haqida ogohlantirish va chek qo'yish hamda bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risidagi bayonnoma ham O'zbekistonda 2001-yil 28-iyunda ratifikatsiya qilindi [5:36]. 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi "Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqida"gi bayonnomasi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 8-iyuldagi O'RQ-160-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilindi va 2008-yil 11-sentyabrdan kuchga kirdi[13].

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi odam savdosi va qullikka qarshi BMT Bosh Assambleyasining 2000-yil 20-mayda qabul qilgan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokol" 2008-yilda, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 1957-yil 25-iyunda qabul qilgan "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida"gi konvensiyasi 1997-yilda, shu tashkilot tomonidan 1999-yil 17-iyunda qabul qilgan "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini



taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risida’gi Konvensiyasini 2008-yilda ratifikatsiya qilindi.

Milliy qonunchilikda, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 135-moddasida[11:75] Odam savdosi, ya’ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishda jinoiy javobgarlik ko‘rsatilgan. Zo‘rlab ishlatish va majburiy mehnat, shahvoniy foydalanish yo‘li bilan, ya’ni bunda shaxsni shunday ahvolga tushirib qo‘yish tushiniladiki, unda yollangan shaxs yollovchining xohishiga ko‘ra tartibsiz jinsiy aloqalarga kirishishga yoki kimlarningdir jinsiy ehtiyojlarini g‘ayritabiiy usulda qondirishga majbur qilish, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib odamlarni yollashm, ya’ni ikki yoki undan ortiq shaxslarning ishtirokida oldindan bila turib odamlardan shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish (til biriktirish odamlarni yollashgacha tuzilgan bo‘ladi) yo‘li bilan sodir etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 133-moddasiga muvofiq [11:74], shaxs tirikligida uning roziligini olmasdan turib yoki o‘lganidan keyin yaqin qarindoshlarining roziligisiz ilmiy ishlar yoxud ta’lim ishlari uchun transplantatsiya qilish yoki buzilmaydigan holda saqlash (konservatsiya) maqsadida murdaning a‘zolari yoki to‘qimalarini ajratib olib sotish odam savdosining yana bir shakllaridan biridir. Hozirgi kunga kelib bu ko‘rinishdagi jinoyatlar tobora avj olib bormoqda. Ushbu jinoyatlar g‘araz niyatlarda moddiy foyda olish maqsadida odamning tabiiy organlarini ajratib sotish orqali sodir etilmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bir necha asrlardan beri saqlanib kelayotgan odam savdosi bilan bog‘liq munosabatlar ayni paytda turli xil yangi zamonaviy ko‘rinishlarda mavjud bo‘lib, uning tushunchasi, mohiyati va xar xil ko‘rinishlari xalqaro va milliy huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda atroflicha belgilab qo‘yilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Буряк М.Ю. Торговля людьми и борьба с ней (криминологические и уголовно-правовые аспекты): Автореф. дис. канд. юрид. наук. – Владивосток, ДГУ, 2005.
2. Вилкс А. Торговля людьми и органами человека: криминологические, политические и социальные проблемы. Взгляд на криминальные реалии XXI века. -Рига, 2005 // <http://www.crime.vl.ru/index.php?p=1340&more=1>.
3. Инсон ҳуқуқлари доирасида миграция ва инсонлар савдосига қарши кураш масалалари бўйича ҳуқуқий норматив ҳужжатлар тўплами. – Тошкент, 2008.
4. Узбекистан и международный договор по правам человека: Сб. международных договоров по правам человека, к которым присоединилась Республика Узбекистан / Отв.ред. А.Х.Саидов. – Ташкент, Адолат, 1998. – С. 505-524.
5. Матчанов О. Одам савдосига қарши курашнинг халқаро – ҳуқуқий асослари // Одам савдоси жиноятининг содир этилиши сабаблари ва имкон берган шарт-шароитлари. Мазкур жиноятнинг олдини олишда ва қарши курашишда ички ишлар органларининг фаолияти. Республика илмий-амалий конференция тўплами. – Тошкент. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Малака ошириш институти, 2022.
6. Одам савдосига қарши кураш соҳасидаги миллий ва халқаро ҳуқуқ нормалари / Тузувчилар Л.Исҳоқова, К.Ҳамроева. – Тошкент: Yurist-media markazi, 2010.
7. Норбоев О. Одам савдоси – глобал муаммо /<http://pravacheloveka.uz/uz/articles/odam-savdosi-global-muammo>. Мурожат санаси: 30 декабр 2023 йил.
8. Рустамбаев М. Одам савдоси. – Тошкент, ТДЮИ нашриёти, 2009.
9. Филиппов И.А. Защита трудовых прав и свобод личности в Уголовном кодексе Российской Федерации//Ж. Следователь. – Москва, 2003. - № 12.
10. Улучшение координации усилий по борьбе с торговлей людьми. Доклад Генерального секретаря. резолюцией 61/180. United Nations, Treaty Series, vol. 2237, No.39574. <http://www.ungift.org/docs/ungift/pdf/vf/ebook2.pdf>.
11. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. –Тошкент: Адолат, 2008.
12. <https://lex.uz/uz/docs/1331492> Мурожат қилинган сана 25 февраль 2024 йил.
13. <https://lex.uz/docs/1304566>
14. <https://lex.uz/ru/docs/1463681>. Мурожат қилинган сана 25 февраль 2024 йил.

## СВЯТЫНИ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ КАК ВАЖНЫЕ ОБЪЕКТЫ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА

**Алиназарова Дилдора Валишеровна**

д.ф.и.н. (PhD) и.о.доцента Национального университета

Узбекистана им. Мирзо Улугбека

[dildoraalinazarova@gmail.com](mailto:dildoraalinazarova@gmail.com)

ORCID 0009-0000-1180-8679

УДК: 94(575.1):902/904:910.4 502.8 (584.4)

**Аннотация.** В статье рассматриваются святыни, расположенные на территории Кашкадарьинского оазиса, анализ их происхождения, захоронения здесь представителей суфизма. Изучаются особенности строения данных святынь, кроме того, изучены вопросы сохранения данных святынь как основных объектов историко-культурного наследия.

В статье также изучаются теоретические аспекты темы, в частности, места паломничества и участие в них местного населения, действия, совершаемые в местах паломничества, статус личности, захороненного на месте паломничества, то есть рассмотрены вопросы их роли и значения в жизни местного населения, в разрезе различных наук раскрыты гуманистическая сущность материальных и духовных ценностей, а также проведён анализ взглядов и подходов в деле воспитания молодёжи посредством изложенных в них благородных идей воспитания совершенного человека, патриотизма, толерантности, доброты.

**Ключевые слова.** пир, паломники, тарикат, история, святыня, гробница, наследие

### QASHQADARYO VILOYATI O'ZBEKISTON TARIXIY VA MADANIY MEROSINING MUHIM OBYEKTI SIFATIDA

**Annatsiya.** Maqolada Qashqadaryo vohasi hududida joylashgan ziyoratgohlar, ularning kelib chiqishi tahlili, bu yerdagi so'fiylik vakillarining dafn etilishi to'g'risida fikr yuritiladi. Bu ziyoratgohlarning strukturaviy xususiyatlari o'rganiladi, bundan tashqari, ushbu ziyoratgohlarni tarixiy-madaniy merosning asosiy obyektlari sifatida asrab-avaylash masalalari o'rganiladi.

Maqolada mavzuning nazariy jihatlarini o'rganilgan, xususan, ziyoratgohlar va ularda aholining ishtiroki, ziyoratgohlarda bajariladigan amallar, ziyoratgohda dafn etilgan shaxsning maqomoti, ya'ni ularning mahalliy aholi hayotidagi o'rni va ahamiyati masalasi turli fanlar kesimida moddiy va ma'naviy qadriyatlarining insonparvarlik mohiyatini ochib berish va ulardagi komil inson g'oyasini, vatanparvarlik, bag'rikenglik, tolerantlik, ezgulik kabi oliyjanob g'oyalar orqali yoshlarni tarbiyalash yuzasidan qarashlari va yondashuvlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar.** pirlar, ziyoratchilar, tariqat, tarix, ziyoratgoh, maqbara, meros

**Введение.** В настоящее время, когда Узбекистан переживает модернизацию во всех сферах жизни общества, происходят принципиальные социальные, экономические, духовные перемены, проблемы развития культуры и сохранения историко-культурного наследия приобретают важное значение. В частности, историко-культурное наследие становится важной частью этих происходящих преобразований, так как несет в себе многовековые духовные ценности, которые способствуют сохранению национальной идентичности, обеспечивает связь поколений, что является опорой нашего сознания.

В статье рассматриваются теоретические аспекты темы, в частности, места паломничества и участие в них местного населения, действия, совершаемые в местах паломничества, статус личности, захороненного на месте паломничества, то есть рассмотрены вопросы их роли и значения в жизни местного населения, в разрезе различных наук раскрыты гуманистическая сущность материальных и духовных ценностей, а также проведён анализ взглядов и подходов в деле воспитания молодёжи посредством изложенных в них благородных идей воспитания совершенного человека, патриотизма, толерантности, доброты.

Основная научная концепция автора в исследовательской работе заключается в том, что паломничество - это религиозное поклонение, специфическое психическое состояние человека и его отражение, которое связано с социальными изменениями в этом обществе.

По своему характеру источники и литература об источниковедческих аспектах

истории мест паломничества Южного Узбекистана классифицированы таким образом, что они включают в себя исламские источники, произведения Ибн Хаукаля, Абдулкарима ас-Самъоний, Сейди Али Раиса, Ибн Хордадбеха, Табари, Балазури, Джайхуни, Макдиси, Хафиза Абру и других, которые помогают изучить формирование в средние века в Старом Термезе и его окрестностях исламской культуры, личностей термизидов, что сырцовый кирпич, использованный в городском строительстве, существовал также непосредственно вокруг мавзолея и погребения, состояния мест паломничества.

Материалы о состоянии мест паломничества в советские годы в южных регионах Узбекистана можно встретить в фонде Р-2761 «Республиканское правление общества охраны памятников истории и культуры». Ценные сведения содержатся также в фонде Р-2296 «Главного управления по охране памятников и изобразительного искусства Министерства культуры УзССР (1957-1976)». В нём имеются приказы по поводу сохранности памятников, процесса реставрации, выделенных на неё средствах, приводится официальный список памятников того периода. Также в фондах НАУз под литерой «М» собраны архивные документы, непосредственно связанные с историей периода независимости Узбекистана, включающие в себя исторические материалы об архитектуре, сфере культурного строительства и другие процессы. К примеру, были полноценно использованы фонды М-7, М-38 Министерства культуры Республики Узбекистан, а также указы, законы и распоряжения государственного значения по поводу обеспечения сохранности историко-культурных ценностей, осуществления мер по их исполнению, фонд М-35 Государственного комитета Республики Узбекистан по архитектуре и строительству, в котором содержатся документы, касающиеся списка историко-культурных памятников Узбекистана.

Историография вопросов мест паломничества южных территорий Узбекистана была изучена с разделением на три группы. В работах первой группы, изданных в период советской власти, представлен анализ и негативная оценка общих особенностей мест паломничества в Узбекистане и отношения к ним населения. В этих трудах авторы дают негативную оценку жизни местного населения или его отношения к исламской религии, иногда излагая свои взгляды с этнографической точки зрения.

**Методология исследования.** В раскрытии темы исследования использованы методы системности, сравнения, проблемно-целевой, исторический, сопоставительный методы, метод логического подхода, социологические и антропологические (эксперимент, наблюдение, количественный и качественный анализ, синтез) методы выявления участия населения в местах паломничества и метода устной истории (интервью, анкета, опрос).

**Результаты и обсуждение.** Наследие – это важная часть туристического потенциала страны, и в тоже время существенный пласт ее социально-экономического развития, так как охватывает разные сферы, строящие свою деятельность вокруг наследия, а это означает появление рабочих мест, решение проблем трудовой занятости в столице и регионах. Не говоря уже о том, что сохранение наследия связано с имиджевой политикой современного Узбекистана как критерий отношения к культуре, духовным ценностям, идеям гуманизма и созидания, которые оно в себе несет.

Одним из регионов со множеством культурных и исторических объектов является Кашкадарья. Здесь сохранилось наибольшее количество памятников - более восьмисот. А Шахрисабз занесен в Список всемирного культурного наследия ЮНЕСКО, особое место занимают святыни, одной из которых является святыня Ок-сув.

Примерно в 17 километрах к юго-востоку от города Китаб, в селе Ходжа Исфароз (Ходжа аз-фароз), находится святыня «Ок-сув». Местные жители говорят, что здесь также были похоронены Шейх Шамсуддин и его сын Шейх Наджмуддин, а позже и третий великий пир Дарвеш Мухаммад.

Хазрат Ходжа Шейх Шамсиддин (умер в мае 1501 г.) родился в селе Хеззан (Таджикистан) недалеко от Фараба. О точной дате рождения сведений нет. Он являлся потомком Собиря парранда, и относился к родословной Шейх Антоура. В юности он получил знания у отца и занимался земледелием [1:88]. Шейх Шамсиддин обладал знанием «Кул ва хал» (внешнее и внутреннее знание в суфийской интерпретации). Он был учеником Хазрата Султана Саида Ахмада Башира (1368-1464) в Кеше. Шейх Шамсиддин и его сын Шейх Наджмуддин служили в мечети и медресе, построенных Амиром Темуром на левом берегу Ак-Су. Дети шейха Наджмуддина также достигли совершенства, как и их отец. После их смерти медресе управлял Дарвеш Мухаммад [1:88-89].

В книге А. Чориева отмечается, что Хазрет Шейх о своем сыне Шейхе Шамсиддине говорил, что он являлся одним из самых великих святых. Я сам его вырастил и воспитал. Наставляющее письмо я дал сам. Шейх Шамсиддин был великим и совершенным учёным [2:303]. Шейх Шамсиддин умер 20 мая 1501 года, и его могила находится в селе Ходжа Исфароз [1:91].

О месте рождения ученого суфия Дарвеша Мухаммада Вахшувари сведений нет. Он умер в Десфароре (Асфирозе) в 1562 году. Его могила находится в селе Ходжаиспароз Китабского района Кашкадарьинской области, на берегу реки Акдарья [3:128]. Генеалогическое древо имени Дарвеш Мухаммад указывает его под именем Ходжа Махмуд, а Дарвеш Мухаммад - псевдоним. Его отец, Ходжа Афак Калон, был одним из сайидов Термеза. Он женится на внучке шейха Яькуба Чархи. От этого брака родился Дарвеш Мухаммед Вахшувари. Помимо линии суфизма, его родословная восходит к семье знаменитого Яькуба Чархи по материнской линии. Дарвеш Мухаммад жил преимущественно в селениях Вахшувор Чаганиана и Хисори Шодман. [4:39-41].

Дарвеш Мухаммад (к.с.) был среднего роста, с красивым лицом, смуглым цветом кожи, белой бородой, высоким и стройным. Он был совершенным хранителем внешних и внутренних знаний, обладал исключительным умением обучать и направлять мюридов. Он говорил простым языком, понятным каждому, относился к каждому в соответствии с его уровнем, умел определять его качества и развивать его способности, и в этом отношении он был великим добродетелем [5:78]. Вот почему он упоминается как Дарвеш Мухаммад.

Знаниям Тариката он обучался у своего дяди Мухаммада Захида (ок. 1475-1563) Вахшувари и получил его наставничество [6:443]. Абдурахим Хисари пишет, что Дарвеш Мухаммад также получал образование у Ходжи Ахрара Вали [7:30]. Хамиджон Хамиди в своей книге «Тасаввуф Алломалари» упоминает, что Дарвеш Мухаммад был халифом Ходжа Ахрара Вали [8:347]. Однако в других источниках эта информация не обнаружена.

Отмечается, что Дервиш Мухаммад встречался с шейхом Кубровии Камалуддином Хусейном Хорезми (умер /1551) а так же беседовал с шейхом Накшбандия шейхом Амиром Али Азизом Хирави (умер /1601-1602). Дарвешу Мухаммаду относят такие произведения, как «Рисола-дар сулук», «Рисола-хуш дар дам». Есть сведения, что Дарвеш Мухаммад находился под глубоким влиянием суфийско-философских взглядов Мухиддина ибн Араби, основателя учения «Вахдат-уль-Вуджуд», и в результате этого написал трактат на эту тему [5 :78-79].

Мавлана Дарвеш Мухаммад Вахшувари был великим представителем тариката «Ходжаган» и занимал 21-е место в золотой силсила. Дарвеш Мухаммад, ведущий течения под названием «Ходжагон Сардафтари», был главным наставником своего сына Абдулбаки Ходжаги Имканаги. Кроме него, его обучали Ходжа Мирак Гумбаз Сабзи, Ходжа Мухаммад Реза, Мавлана Шер Мухаммад, Шейх Солати, Мир Али Азизон Самарканди и другие. Они позволили Хаджаги Мухаммаду Имканаги (к.с.) продолжить «Золотую силсилу» [5:79].

Когда Дервиш Мухаммад Эмканаги достиг статуса муршида он находился в

Кешском районе. Это было в периоды правления Шейбанидов. Мавлана находит спокойствие и уединение в кишлаке Имкана. Обучение детей и передача им знаний было его любимым занятием. Живя в бедности, он умирает в 970 г. хиджры (31 августа 1562 г. - 21 августа 1563 г.) [7:30 утра].

Во многих источниках утверждается, что деятельность Дарवेशа Мухаммада Эмканаги как муршида проходила в Шахрисабзском районе. Жизнь мавлана была очень простой и бедной. Об этом пишут так: никто не знал кто это. Однажды один из турков машойихов проходил мимо того места, где он жил. Его привлек необычный приятный запах мавланы, и он указав на мавлана сказал: «Отсюда идет запах земли».

В истории Шахрисабз всегда был одним из центров знаний. Уже в те времена это благословенное место часто посещали великие люди из других стран.

На берегах реки Аксув находятся сагана шейха Наджмиддина и великого пира Дарवेशа Мухаммада. По словам местных жителей строительство сагана связано с именем Амира Темура. Могилы шейхов находятся в четырехугольной сагане расположенной над землей. Высота общей саганы 4 м, ширина ок. 8 м., высота 12 м. Сагана в целом покрыта мрамором и обработана белой и коричневой краской. Рядом с Саганой написаны имена трех шейхов и годы их жизни. Перед Саганой расположен деревянный неф. Здесь следует отметить, что в 1961 году под предлогом археологических исследований надгробия великих шейхов, были увезены [9].

Сегодня на территории святыни находится только мечеть с часовней внутри, и она хорошо сохранилась. По способу строительства мечеть имеет прямоугольную форму, перекрытую куполом. Фасад мечети покрыт открытым крыльцом, а во дворе растет 600-летний тополь, который в просторечии называют «что он посажен самим Амиром Темуром»[10:280].

**Выводы и предложения.** На примере одной лишь святыни можно сказать, что Узбекистан, в частности Кашкадарьинская область обладает необыкновенным культурным наследием, которое прослеживается в архитектуре, искусстве, музыке и литературе. Города Карши, Шахрисабз являются живыми музеями, где каждое здание и улица рассказывают свою уникальную историю. Местные ремесла, такие как ковроткачество, шитье и гончарство, передаются из поколения в поколение, сохраняя традиции и культурные ценности.

#### Список использованной литературы

1. Бердиев А. Оқ-сув зиёратгоҳи ҳақида // Мавлоно Абдулбоки Хожаги Эмканагий. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Тошкент, 2013.
2. Чориев А. Ҳазрати Султон тарихи ва Ҳазрати Башир монокиби. –Тошкент: Шарқ 1996.
3. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. –Тошкент: Hilol-nashr, 2016.
4. Жуманазар Абдусаттор. Вахшувор. –Тошкент: Академнашр, 2015.
5. Обидов А., Бобохонов Ж. Тарикат силсиласининг олтин занжири. –Тошкент: Navro‘z, 2018.
6. Мирзо Кенжабек. Термиз тазкироси. Буюк Термизийлар. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2017.
7. Абдусаттор Жуманазар. Ҳожагий Эмканагий устози ва таълим олган мактаб // Мавлоно Абдулбоки Хожаги Эмканагий. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Тошкент, 2013.
8. Ҳамиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2016.
9. Полевые исследования: Кашкадарьинская область Китабский район, 2024 год 9 июня.
10. Асорова Л. Тарикатнинг етти пири. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2021.

---

**USTRUSHONANING TABIIY-GEOGRAFIK JOYLASHUVI VA  
MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI****Babayev Ro'zibek Kurbanovich.**Qarshi davlat universiteti O'zbekiston tarixi  
kafedrasida tadqiqotchisi,  
[rbabayev1985@gmail.com](mailto:rbabayev1985@gmail.com)

UDK: 95(575.1)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ustrushonaning tarixiy-geografik joylashuvi va hududiy tuzilishi masalalari tahlil qilingan. Muallif ko'p sonli tarixiy adabiyotlar hamda yozma manbalarning qiyosiy tahlillari asosida Markaziy Osiyo tarixi madaniyatida o'chmas iz qoldirgan Ustrushona tarixiy-madaniy o'lkasi o'tmishini tadqiq etgan. Shuningdek, Ustrushonaning tarixiy geografiyasi, strategik joylashuvi, tarixiy-madaniy chegaralari, aholi joylashuvi, o'troq aholining turmush tarzi va mashg'ulotlari kabi masalalar yoritilgan. Ushbu tarixiy-madaniy o'lkaning strategik joylashuvi, savdo-karvon yo'llari va yo'nalishlari, etnomadaniy aloqalar hamda migratsiya jarayonlari ham muallif nazaridan chetda qolmagan va tadqiqot doirasiga tortilgan.

**Kalit so'zlar.** Shimoliy hududlar, Sirdaryoning o'rta oqimlari, cho'l va dasht hududlar, Yevroosiyo mintaqasi, Volga-Ural bo'ylari, Oltoy tog'lari, tarixiy-geografik viloyatlar, siyosiy-ma'muriy tuzilishi, Chu va Talos daryolari, Xitoy yilnomalari, arab va fors manbalari, boshqaruv markazlari, Sovet, Zomin, Dizak va Bunjikat, Varkat rustog'i, Ustrushona rustoqlari, migratsiya jarayonlari.

**Abstract.** This article analyzes the issues of historical-geographic location and territorial structure of Ustrushona. Based on a large number of historical literature and comparative analysis of written sources, the author researched the past of the historical and cultural region of Ustrushona, which left an indelible mark on the history and culture of Central Asia. Moreover, issues such as the historical geography, strategic location, historical-cultural borders, population location, lifestyle and occupations of the settled population of Ustrushona are covered. The strategic location of this historical-cultural country, trade and caravan routes and routes, ethno-cultural relations and migration processes were included in the scope of research.

**Key words.** Northern regions, middle reaches of Syr Darya, Central Asian countries, desert and steppe regions, Eurasian region, Volga-Urals, Altai mountains, historical-geographical regions, political-administrative structure, Chu and Talos rivers, Chinese chronicles, Arabic and Persian sources, administrative centers, Soviet, Zomin, Dizak and Bunjikat, Varkat village, Ustrushona village, migration processes.

**Kirish.** Ustrushona – ilk o'rta asrlarda va rivojlangan o'rta asrlarning dastlabki asrlarida Markaziy Osiyodagi muayyan bir tarixiy-geografik viloyat (aniqrog'i, o'lka) bo'lib, uning hududi hozirgi shimoli-g'arbiy Tojikiston, Markaziy O'zbekiston va janubi-g'arbiy Qirg'iziston hududlariga to'g'ri kelgan. Ushbu tarixiy-geografik viloyat hozirgi O'zbekiston Respublikasining Jizzax va Sirdaryo viloyatlari, Tojikiston Respublikasining Sug'd (Xo'jand atroflari, Istaravshan (O'ratepa), Maschoh va atrof hududlar) va Qirg'iziston Respublikasi Batken viloyatining g'arbiy qismidan iborat bo'lgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ustrushonaning shimoliy hududlari Sirdaryoning o'rta oqimidan janub va janubi-g'arbdan Panjikent tumani (Tojikiston), Hisor tog'lari va Samarqand viloyatigacha cho'zilgan bo'lsa, uning hududlari sharqdan g'arbga qarab Turkiston tog' tizmalari (Qirg'iziston qismi)dan boshlanib, Nurota tog'larining sharqiy etaklarigacha borib yetgan[1].

Ustrushonaning asosiy aholi markazlari Turkiston tog' tizmasidan shimoldagi Shahrison botig'i (O'ratepa havzasi)da va Zomin tekisligida, Zarafshon daryosining yuqori havzasida joylashgan edi. Shimoldan Sirdaryoning yuqori oqimi, janub-sharqdan Hisor tizmasi bilan chegaralangan Ustrushona shimolda Choch vohasi bilan, shimoli-sharqda tog' dovonlari orqali Farg'ona vodiysi bilan, janubi-g'arbda Sug'd, janubi-g'arbda Tohariston (asosan Chag'oniyon) bilan chegaradosh edi.



1-xarita

Ma'lumki, Yevroosiyo mintaqasining o'zak hududlarida joylashgan Markaziy Osiyo o'zining tabiiy-geografik joylashuvi va iqlim sharoitiga ko'ra mintaqadagi bir qator hududlardan farqli bo'lib, asosan tekisliklardagi dasht-cho'llarni va qisman tog'lik hududlardagi vohalarni o'z ichiga oladi. Markaziy Osiyoning shimol va shimoli-sharqiy qismlari asosan yirik dasht-cho'l yoki dashtliklardan iborat bo'lsa, janub va janubi-sharqiy qismlari esa asosan baland tog'liklar etagida joylashgan o'nlab katta-kichik vohalarni qamraydi. Cho'l va dashtlik hududlar Kaspiy dengizining sharqi, Volga – Uralbo'ylaridan Oltoy tog'larigacha yoyilgan 4-5 ming chaqirimlik masofaga cho'zilib, ko'plab chorvachilikka mos yaylovlarga ega bo'lsa, vohalar ko'proq Amudaryo – Sirdaryo oralig'idagi bugungi Sherobod, Qashqadaryo, Zarafshon, Chirchiq, Chu va Talas havzalari va ushbu daryolarning suv manbasi bo'lgan tog' etaklaridagi dehqonchilikka mos tekisliklarga egadir. Bular qatoriga Murg'ob daryosi havzasida joylashgan Marv vohasini ham kiritish mumkin.

**Natijalar va muhokama.** Markaziy Osiyodagi vohalar asosan quyidagi hududlarda joylashib, ularning ko'pchiligi qadimgi davr va rivojlangan o'rta asrlar oralig'ida muayyan tarixiy-geografik viloyatlar o'laroq bo'lingan (ularni janubdan shimolga qarab ketma-ketlikda keltirib o'tamiz):

1. Pomir – Badaxshon tog'laridan boshlanuvchi Amudaryoning yuqori havzasidagi Tohariston (Chag'oniyon, Termiz, Balx, Qunduz, Xuttal, Kumed va b.).

2. Cafed-kuh (Parapomiz) tog' tizmalaridan boshlanuvchi Murg'ob daryosi havzasidagi Marv.

3. Hisor tog'laridan boshlanuvchi Qashqadaryo daryosi havzasidagi Kesh va Naxshab.

4. Zarafshon tog'laridan boshlanuvchi Zarafshon daryosi va uning havzasidagi Markaziy Sug'd (Panjikent, Samarqand, Ishtixon, Kushoniya va b.) va G'arbiy Sug'd (Buxoro)[2:103].

5. Turkiston tog' tizmalaridagi Jizzax vohasi, Mascho tog' etaklaridagi Ustrushona[3:207].

6. Tyanshan va Oloy tog'laridan boshlanuvchi Sirdaryoning yuqori xavzasidagi Farg'ona vodiysi[4:27-28].

7. Sirdaryoning o'rta havzasi va Tyanshan tog'larining g'arbiy qismidan boshlanuvchi Chirchiq va Ohangaron daryolari havzasidagi Choch (Toshkent).

8. Sirdaryoning o'rta havzasidagi O'tror.

9. Amudaryoning quyi havzasidagi Xorazm.

10. Tyanshan tog'larining shimoli-g'arbiy qismidan boshlanuvchi Chu va Talas daryolari havzasidagi Taroz, Chu vohalari.

11. Tyanshan tog'larining markaziy qismlaridan boshlanuvchi Yettisuv (bu tarixiy-geografik o'lkaga Chu – Talas daryolari havzasi ham kiradi).

Ustrushonaning siyosiy-ma'muriy jihatdan o'ziga xos tizimga ega bo'lgani o'z davri xitoy, arab va fors tillaridagi yozma manbalarda quyidagicha o'z ifodasini topgan:

**Yozma manbalarga ko'ra Ustrushona tarixiy-geografik viloyatining hududi, boshqaruv markazi, yirik shaharlari**

| № | Xitoy yilnomalari  | Arab va forsiy tili manbalar   |
|---|--|--|
| 1 | “Sharqiy sao hukmdorligi – boshqacha nomlanishlari Shuaydushanna, Suyduyishana, Kiputana va Suduchjini, hammasi bo‘lib to‘rtta nomga ega. Ushbu mamlakat Bossi tog‘ining shimoliy tomonida joylashgan. Bu joylar Katta Xan sulolasi davrida Ershi (Farg‘onaning markaziy shahri)ga tobe bo‘lgan. Shimoli-sharqda Gyuychjanti (Xo‘jand)gacha 200, shimolda Shi (Choch)gacha, g‘arbda Kan (Samarqand), shimoli-sharqda Ninyuan (Farg‘ona)ga 400 li; janubda Tuxolo (To‘xoriston)gacha 500 li. Ushbu shaharlarning barchasi 400 lidan ortiqroq masofadadir. | “Ustrushona – Sug‘d kabi, viloyat nomi. U erda (Ustrushonada) bu nomdagi na shahar va na qishloq bor. Ustrushona ko‘proq tog‘liklardan iborat. Uning g‘arbiy tomoni Samarqand chegaralari, shimoli Shosh va Farg‘onaning bir qismi, janubda esa Kesh, Sag‘oniyon, Shuman, Vashjird va Rasht, sharqiy tomoni Farg‘onaning ba‘zi chegaralari bilan tutashgan”                        |
| 2 | -  | Boshqaruv markazi – <b>Bunjikat</b> . “Uning eng katta shahri ushrusanaliklar tilida <i>Bunjikat deb ataladi</i> ”.  |
| 3 | Yecha nomli shahar. “Yecha shahri bo‘lib, bu shaharda berk yopilgan g‘or bor. Bu erga har yili ikki marta qurbonlik keltirishadi”.   | Yirik shaharlari – <b>Zomin, Dizak</b> . “Bu shahar (Bunjikat)dan keyin kattaligi buyicha <b>Zomin</b> turadi. U Farg‘onadan as-Sug‘dga olib boruvchi yo‘lda [joylashgan];<br>“ <b>Dizak</b> – tekislikda [joylashgan] shahar. Uning yonida Fankon nomli rustog‘i bor. [Urush vaqtida] unda Samarqand aholisi to‘planadi. Unda ko‘p sonli [odamlar]ni sig‘diradigan rabotlar bor”. |

Ushbu ma‘lumotlar ilk o‘rta asrlarga tegishli xitoy yilnomalari – “Bey-shi” (Shimoliy sulolalar tarixi), “Suy-shu” (Suy sulolasi tarixi) va “Tan-shu” (Tan sulolasi tarixi) hamda rivojlangan o‘rta asrlar (IX – XII asrlar)ga oid Istaxriy, Ibn Hurdodbeh, Ibn Havqal, Muqaddasiy, Mas‘udiy kabi arab va fors geograflari asarlarida o‘rin olgan. Bunday asarlar qatoriga muallifi noma‘lum “Hudud al-olan” geografik asarini ham kiritish mumkin[5:146].

Arab va fors manbalarida keltirilgan ma‘lumotlardan aniq bo‘ladiki, Ustrushonaning janubi-g‘arbiy va janubi-sharqiy chegaralari ancha kengaygan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi chekka hududlari Sug‘d vohasidagi Samarqand va Kesh (Shahrisabz) atroflari hamda Tohariston o‘lkasining shimoliy viloyatlari – Chag‘oniyon (Denov), Shuman (Dushanbe) va uning tegrasidagi tarixiy viloyatlar bilan tutashib ketgan.

Ustrushona hukmdorligi bir qancha rustoqlarga bo‘linganini ko‘plab yozma manbalar tasdiqlaydi. Arab va forsiy tillardagi yozma manbalarda keltirilgan nomlari asosida ularning sonini 18 ta bo‘lgan, deb qaraladi. Yoqut al-Hamaviyning “Mu‘jam ul-buldon” asarida Ustrushona bir qancha shahar va qishloqlarni o‘z ichiga oluvchi ma‘muriy tuzilmalardan tashkil topgani keltirib o‘tilar ekan, ularning soni 18 ta - tog‘ va tekislikdagi rustoqlar ekani aytib o‘tiladi[6:263-264].

Ayrim istisnolarni aytmaganda, arab va forsiy tili yozma manbalarda ko‘pchilik rustoqlarining nomi deyarli bir xil ko‘rinishda ko‘rsatib o‘tilgan Ustrushona rustoqlaridan 9 tasi asosan, tekislikda joylashgan Bunjikant, Sabat, Zomin, Burnamad, Xarakana, Fag‘non, Xovos, Shavkat, Fag‘kat (Vag‘kat) rustoqlari bo‘lib, ularning har birida bir qancha shaharlar (rustoq markazlarini ham qo‘shib hisoblaganda) va ko‘plab qishloq tipidagi aholi maskanlari mavjud bo‘lgan. Mink, Asbanikant, Biskar, Bangam, Vavr, Shagar, Mascha, Buttam va



Burg'ar kabi rustoqlar esa tog'lik hududlarda joylashib, ulardan faqat Mink rustoqi hududida bir qancha shaharlar bo'lib, qolganlarida, asosan, ko'plab qishloq manzilgohlari joylashgan edi. Shu tariqa, o'rta asr tarixchilari Ustrushonani "400 qal'ali o'lka" sifatida tilga olar ekan bejiz emas edi. Quyida Ustrushona rustoqlarini keltirib o'tamiz:

**Arab-fors yozma manbalariga ko'ra Ustrushona tarixiy-geografik viloyatining ma'muriy-hududiy birliklari – rustoqlar (tumanlar)**

| № | Tekislikdagi rustoqlar | Tog'lik rustoqlar |
|---|------------------------|-------------------|
| 1 | Bunjikant              | Mink              |
| 2 | Sabat                  | Asbanikant        |
| 3 | Zomin                  | Biskar            |
| 4 | Burnamad               | Bangam            |
| 5 | Xarakana               | Vakr              |
| 6 | Fag'non                | Shagar            |
| 7 | Xovos                  | Mascha            |
| 8 | Shavkat                | Buttam            |
| 9 | Fag'kat (Vag'kat)      | Burg'ar           |

Ushbu jadvalda o'rin olgan rustoq nomlaridan ayrimlarining nomlari turli yozma manbalarda birmuncha yoki butunlay farqli ko'rinishda keltirilganini ham aytib o'tish mumkin. Manbalardagi farqli ma'lumotlardan kelib chiqqan arxeolog A.A. Grisina ularni birmuncha farqli ko'rinishda keltiradi. Tadqiqotchining yozishicha, Ustrushonada shu kabi 18 ta tuman bo'lgan – Kurkat, G'azaq, Bagket, Sovot, Zomin, Dizak, Bunjikat, Xarakana, Faknon, Fag'kat, Mink, Asbanikat, Biskar, Vakr, Shagar, Burg'ar, Buttam jadvaldagi 18 ta rustoq orasida Xovos, Shavkat, Burnamad, Bangam, Mascha kabi rustoq nomi A.A. Grisina ko'rsatgan 18 ta rustoq nomi orasida uchramasdan, ular o'rnida Kurkat, G'azaq, Dizak (Jizzax) va hokazo rustoq nomlari o'rin olishi Ustrushonadagi ayrim rustoqlarning bir necha nom bilan atalishi omili yotsa, boshqa tomondan esa ushbu hukmdorlikka qarashli ba'zi rustoqlarning goh Samarqand hukmdorligiga, goh Ustrushonaga o'tib turishi bilan ochiqdanadi. Boshqa tomondan esa arab va fors geograflari Ustrushona rustoqlari nomlaridan ayrimlarini bir-biridan farqli yozganliklari bilan izohlash mumkin. Buni Ibn Havqal "Kitob surat al-ard" (Erning surati kitobi) asarida Ustrushona rustoqlarini "o'z shahriga ega" va "shaharsiz" rustoqlar o'laroq quyidagicha keltirib o'tgan ma'lumotlar ham ko'rsatib turibdi: *"Ushrusona – bu [bir] viloyatning nomi, xuddi as-Sug'd ham viloyat nomi [bo'lganidek]. [Lekin] unda bu nomli shahar yo'q ... Uning eng katta shahri ushrusonaliklar tilida Bunjikat deb ataladi. Unga [quyidagi] shaharlar [qarashli]: Arsubonikat, Kurkat, G'azaq, Fag'kat, Sobot, Zomin, Dizak, Nujkat va Harqona. Bular – [Ushrusona]ning shaharlaridir. Hukmdorlar yashaydigan [bosh] shahar Bunjikatdir ... Bu shaharlarning xar birida katta rustoq, [bor]. Shaharlari mavjud bo'lmagan rustoqlar quyidagilardir: Bashog'ar, Mascho, Barg'ar, Fartong'om, Mink, Baskan va Isbikat"*[7:70-71].

Yarkat rustog'ini Sam'oniylar Ustrushonaga kiritisa, Ya'qut esa Burnamadni Ustrushonada deb ko'rsatib, uning Zomindan 4 farsax uzoqlikda, Samarqandga eltuvchi yo'lda joylashganini yozadi [8:145]. Har ikkala muallif Buzmajan rustog'ining bosh shahri Barkat yoki Abarkatni Ustrushonaga kiritib, uni Samarqanddan 4 farsax uzoqlikda, Sayxun (Sirdaryo) yo'nalishidagi mavze, deya tilga oladilar[9:145].

Ustrushona rustoqlarining boshqaruv markazini asosan yirik yoki birmuncha kichik shaharlar tashkil etib, bu yerdagi eng nufuzli rustoq - Bunjikat shahri muayyan bir rustoqning ma'muriy markazi bo'lishi bilan birga, Ustrushona hukmdorligining poytaxti vazifasini bajargan. Deyarli barcha arab-fors manbalarida Bunjikat (Shahriston / Mascho - O'ratepa

atrofi) shahri Ustrushonaning yirik siyosiy va ma'muriy markazi sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Arab tilidagi manbalarda *“Uning eng katta shahri ushrushonaliklar tilida Bunjikat deb ataladi”* degan ma'lumot uchraydi. Ushbu ma'lumot Ustrushona aholisi – “ustrushonaliklar tili”ning sug'diy til bo'lganidan darak beradi. Shu bilan birga, Ustrushonaning tekislik qismlari – shimoliy hududlarida turkiylarning ko'chmanchi urug'i bo'lmish o'g'uzlar bo'lgani arab manbalarida keltirib o'tilgan *“Bu shahar (Zomin)ning orqa [tomoni] Ushrusana tog'lariga, oldi [tomoni] esa G'uzlar mamlakatiga [qaragan]. U tekis dashtdan iborat bo'lib, unda tog'lar yo'q”* mazmunidagi ma'lumotdan anglashiladi.

Zomin shahri Ustrushonadagi bosh iqtisodiy-madaniy markazlari biri sifatida ko'rsatilishi bejiz bo'lmay, ko'pchilik qismi tog'lardan iborat bo'lgan rustoqlardan farqli holda bu yer bir tomondan tekislik va dashtliklarga tutashib ketgan edi. *“[Ushrusanadagi] Xarqona, Zomin va Sobot [shaharlari] Farg'onadan ash-Shoshga [olib boruvchi] yo'lda [joylashgan]. Kim Zomindan Xovos yo'li bilan Xo'jandaga bormoqchi bo'lsa, uning yo'li Kurkatdan [o'tadi]”*[10:70] deya arab geograflari ta'kidlab yozganlaridek, mintaqaning yirik iqtisodiy markazlari – Sug'd, Choch va Farg'ona orasida qatnaydigan savdo karvonlari aynan Zomin va unga qo'shni aholi maskanlariga to'xtab o'tishar edi. Bu ma'lumotlarni boshqa mualliflar qayd etgan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, Yaqut Hamaviy (XII – XIII asrlar) Ustrushona shaharlari va ular o'rtasidagi masofalar haqida *“... Zomin Samarqand tomondagi shaharchaning nomi bo'lib, Ustrushona viloyatlaridan biri. Ustrushonaning eng katta shahari Bunjikat, undan keyin kattalikda Zomindir. Zominning ikkinchi nomi-Sabza. Sug'ddan Farg'onaga boruvchilaruchun Zominda qo'noq bor”*deb yozgan bo'lib, bu esa Zomin shahri bir necha asrlar davomida Ustrushonaning asosiy siyosiy-iqtisodiy shaharlaridan bo'lganini ko'rsatadi.

Ustrushona iqtisodiy hayotida Bunjikat va Zomin shaharlardan keyingi o'rinda Dizak (Jizzax) shahri turib, uning bu maqomga erishishida shaharning tekislikda joylashuvi va Zominga o'xshab savdo yo'llari kesishmasida o'rin olgani omili yotadi. Buni Ibn Havqal keltirib o'tgan quyidagi ma'lumotlar tasdiqlaydi: *“Dizak – tekislikda [joylashgan] shahar. Uning yonida Fankon nomli rustog'i bor. [Urush vaqtida] unda Samarqand aholisi to'planadi. Unda ko'p sonli [odamlar]ni sig'diradigan rabotlar bor”*.

Qadimgi Ustrushona hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida aniqlangan tepaliklar majmualari va o'rganilayotgan ko'plab arxeologik yodgorliklar, xususan, qal'a qoldiqlari ham, bu ma'lumotlarni to'la tasdiqlaydi. Ushbu qal'alar hududdagi ko'plab mo'jaz vohalar (mikrooazis) negizida tashkil topgan rustoqlarni himoya qilish maqsadida, strategik jihatdan qulay bo'lgan nuqtalarga qurilib, o'ziga xos mustahkam harbiy-mudofaa tizimini tashkil etgan. Ularning asosiy qismi ilk o'rta asrlarga oiddir.

**Xulosa va takliflar.** Xullas, Ustrushona tarixiy-geografik viloyati (o'lkasi) o'z tabiiy-geografik joylashuviga ko'ra asosan tog', tog'oldi tekislik va dasht hududlardan tashkil topgani, tarkibidagi viloyat yoki tuman miqyosidagi bir necha ma'muriy birliklarga bo'linib, boshqa qo'shni tarixiy-geografik viloyatlarga nisbatan birmuncha farqli xususiyatlarga ega bo'lgan. Qo'shni Choch, Farg'ona va Sug'd vohasi asosan bir-biriga tutashib ketgan, o'zaro tig'iz iqtisodiy aloqalarga ega, dehqonchilikka qulay tekisliklarda joylashgan ma'muriy birliklardan iborat bo'lsa, bu jihatdan Ustrushona ulardan ancha farq qilib, uning shimoliy va janubiy enlamasi uzun, sharqiy va g'arbiy enlamasi esa nisbatan tor bo'lib, asosan tog' etaklari va daralarda joylashgan ma'muriy birliklar orasidagi aloqalarda ancha noqulayliklar tug'dirgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Негматов Н.Н. Уструшана в VII – X вв. (по письменным и археологическим источникам). Автореф.дисс.канд.ист.наук. – М.-Л., 1952; Grisina A. A. Ustrushanskiye byli. – Tashkent, 2000; Almanov Q.O. G‘arbiy Turk xoqonligi davrida Ustrushona. Tarix fani bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. – Qarshi, 2021.
2. O. G‘oyibov B. Sug‘d tarixidan lavhalar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. B.103
3. Негматов Н.Н. Уструшана в VII – X вв. (по письменным и археологическим источникам). Автореф.дисс.канд.ист.наук. – М.-Л., 1952.-С.207.
4. Asqarov A.A. Qadimgi Farg‘ona tarixidan lavhalar // Археология и история Центральной Азии. К 70 летию со дня рождения академика АН Республики Узбекистан Й.Ф.Бурякова. - Самарканд, 2004. – С. 27-28; Matboboev B.X. Qadimgi Farg‘onaning ilk o‘rta asrlar davri madaniyati (V–VIII asrlar arxeologik manbalarining tarixiy tahlili asosida): Tarix fanlari dok. diss. avtoreferati. – Samarqand, 2009; Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы. - Ташкент, 2013.
5. Hudud ul-olam (Movarounnahr tavsifi). Fors tilidan tarjima, so‘z boshi, izohlar va joy nomlari ko‘rsatkichi muallifi O. Bo‘riev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. B.146
6. Bolibekov A. Ustrushonada ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi // “Ustrushona Buyuk Ipak yo‘lida, uning mintaqalararo siyosiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarni rivojlantirishdagi o‘rni (Antik va o‘rta asrlar davrida)” mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston, 2016. – B. 263-264.
7. Ibn Navqal. Kitob surat al-ard (Erning surati kitobi). Movarounnahr. Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi, tarix fanlari doktori, professor Sh. S. Kamoliddin. – Toshkent, 2011. – B. 70-71.
8. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т.1. - М., 1963. – С. 145.
9. Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннее средневековье. – Сталинабад, 1957. – С. 44-45; То‘uchiboevB., Gulboyev B., Mamatov A.Ustrushonaning hududi xususida // Ustrushona Buyuk Ipak yo‘lida, uning mintaqalararo siyosiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarni rivojlantirishdagi o‘rni (Antik va o‘rta asrlar davrida)” mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Guliston, 2016. –B. 109-110; Abdurasulov B. O‘rta asrlar arab manbalarida Ustrushona tarixining yoritilishi xususida - B. 247.

**BUXORO FALSAFA TARIXI RIVOJIDA M.N. BOLTAYEV MAKTABINING O‘RNI**

Asrarova Muxabbat,  
Buxoro MTI mustaqil izlanuvchisi  
[ORCID 009-0004-1247-8156](https://orcid.org/009-0004-1247-8156)  
O‘DK(091)128

**Annotatsiya.** Maqolada Buxoro falsafa tarixi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, falsafa maktabini yaratgan, jamiyatimizning barcha sohalariga ko‘plab shogirdlarni yetishtirgan va O‘zbekistonning mustaqillikka erishgandan keyin ham falsafa olamida muhim o‘rin egallagan faylasuf olim M.N. Boltayevning beqiyos mehnatlari haqida fikr yuritiladi. Taniqli faylasuf, jonkuyar murabbiy, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor, Sharq falsafasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan olim M. Boltayevning ilmiy jonbozligini, maqolalari, monografiya va risolalari, shuningdek, yetishtirgan shogirdlari ilmiy mavzularidan bilib olish qiyin emas. Ushbu maqolada ustozning bosib o‘tgan hayot yo‘llari va ilmiy mehnatlari haqida so‘z boradi. Ushbu mavzuning maqsadi falsafa olamini o‘z bilimi ila boyitib nur sochgan va shu makonda o‘z maktabini yaratib ko‘pgina shogirdlarni yetkazgan, o‘rta asrda yashab o‘tgan zamondosh olimlar ilmiy merosini o‘rgangan, bugungi kun avlodlariga yetkazgan olimning ma‘naviy-ma‘rifiy merosi bilan tanishtirish, qadrlash, yuksak baholash va kelajak avlodga yetkazish kabi sharaflı ishni bajarishdir.

**Kalit so‘zlar.** inson ongi, aqli, tafakkuri, komil inson konsepsiyasi, sharq falsafasi, ma‘naviy-ma‘rifiy meros, mudarrislik, ilmiy-ijodiy izlanish, falsafiy ta‘limotlar, inson muammosi.

**THE PLACE OF M.N. BOLTAYEV'S SCHOOL IN THE DEVELOPMENT OF THE HISTORY OF BUKHARA PHILOSOPHY**

**Abstract.** In the article the author reflects on the activities of M.N. Boltayev, a philosopher and scientist who made a great contribution to the development of the history of philosophy in Bukhara, created a philosophical school, educated many students in all spheres of our society, and occupied an important place in national philosophy. It is easy to learn about the scientific enthusiasm of M. Boltayev, a famous philosopher, teacher-enthusiast, outstanding scientist, doctor of philosophical sciences, professor, who made a significant contribution to the development of Eastern philosophy, from the articles, monographs and brochures published by him. The purpose of this article is to evaluate the spiritual and educational heritage of the scientist, who enriched the world of philosophy with his knowledge, created his own school in this field and taught many students, studied the scientific heritage of modern scientists.

**Key words.** human mind, thinking, concept of perfection, Eastern philosophy, moral and spiritual heritage, mentoring, scientific and creative research, philosophical movements, human problem

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatning turmush tarzi, odob-axloqi, ma‘naviyati va komillikka intilishi o‘rta asr faylasuflari tomonidan yaratilgan falsafiy tushunchalardan mazmunan bo‘lmasa-da, shaklan farq qilishining guvohi bo‘lyapmiz. O‘tmish va bugungi kun insoniyatining aqliy salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashining tafovutlarini yaqqol namoyon etmoqda. Globallashuv davridagi insoniyat maqsadi, istagi va hayotdagi o‘rni shiddat bilan kirib kelgan raqamlashtirish jarayoni bilan raqobatlashmoqda. Ushbu davrlardagi insoniyat ongi, tafakkuri, tushunchalarini solishtirganda, jamiyat kelajagi yuztuban inqirozga duch kelishini ko‘rish mumkin. Inson aqli-tafakkurining zaifligi, hayotdagi o‘rni va maqsadlarining ahamiyatsizligi, tana, aql, ruh va inson muammolari kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatiga yetmaslik bilimsizlik va fikrsizlikka, u esa o‘z navbatida tubanlik va ma‘naviy axloqsizlikka olib kelishi shubhasizdir. Kelajak avlodni avaylash va asrash uchun, ma‘naviy kamolotini rivojlantirish uchun o‘rta asr allomalarining ilmiy merosini yosh avlodga yetkazish va uning mazmun-mohiyatini singdirish asosiy masalaga aylandi. Falsafa dunyosida o‘z ilmi, go‘zal xislati va fazilatları bilan shogirdlar qalbidan joy olgan olim – mo‘tabar zot, arab mamlakatlari, Eron va Yevropada falsafa tarixchilari orasida mashhur bo‘lgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi – Muhammad Nazarovich Boltayev.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Professor Muhammad Nazarovich Boltayev ilmiy merosi yetarlicha tadqiq qilingani yo‘q. Uning ijodiga bag‘ishlangan sanoqli ilmiy ishlar mavjud, xolos. Ularda M.N. Boltayevning ilmiy-falsafiy merosining turli aspektları tavsiflanadi. M.N. Boltayev faylasuf olim sifatida Abu Ali Ibn Sino, Nosiriddin Tusiy, Muhammad G‘azzoliy, Fariduddin Attor, Ubayd Zokoniyy va boshqa olimlar ishlarini yaqindan

o'rgangan va tahlil qilgan. Ustoz ilmiy merosini tahlil qilgan mutaxassislar mazkur tahlillarga bag'ishlangan asarlarga alohida e'tibor beradilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda ilmiy manbalar tahlili, taqqoslash, umumlashtirish uslublaridan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** Faylasuf olim M.N. Boltayevning o'rganilgan inson muammolari mavzularidan biri insonning o'zligini anglashdir. G'arb va Sharq falsafasini o'rganish, ularning ishlariga talqin berish kabi ilmiy ma'naviy qonuniyatlaridan iborat. Bu kabi qonuniyatlar dunyo ilm-fan sohasida olib borilayotgan izlanishlar, falsafa tarixining noyob merosi sifatida, ajdodlar qoldirgan ilmiy, falsafiy, diniy, ma'naviy va tarixiy manbalaridan unumli foydalanish masalasi muhim ilmiy tadqiqot mavzusiga aylandi. Shu bilan birga, aynan mana shu tamoyil, dunyo va inson, falsafa va mantiq ta'limotining mohiyatini falsafiy tadqiq etishning dolzarbligini saqlab qolmoqda. Davlatimizda amalga oshirilayotgan ilmiy, ma'naviy, madaniy sohalardagi islohotlar natijasida jahonga mashhur allomalimiz, mutafakkirlarimiz ilmiy-ma'naviy merosini, ularning diniy-irfoniy ta'limotlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. "Buyuk adib va mutafakkirlarimizning nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur" [1.<http://www.ziyonet.uz>]. Davlat rahbari tomonidan qo'yilgan dolzarb vazifalarni tadqiq etishga kirishgan olimlardan biri M.N. Boltayev bo'lganlari hammaga ma'lum edi. Bunday sharaflı ishni bajarishda G'arb va Sharq falsafasini o'zlashtirgan, o'z falsafiy maktabini ham yaratgan inson, Sharq xalqlari falsafasi tarixi muammolari, uning nufuzini dunyoviy kengliklarga olib chiqqan M.N. Boltayevning cheksiz ilmiy-falsafiy izlanishlari muhim ilmiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Olimning qator kitoblarida uning nazariy xulosalari asosini buyuk mutafakkir va hakim Zardusht asoslagan "Avesto" [2.24.], Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy qissa va ruboiylari, "Donishnoma"si, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Fariduddin Attor, Shayx Sanoiy, Nosir Xisrav kabi buyuk allomalarning adabiy merosi tashkil etadi.

Domla tom ma'nodagi G'arb va Sharq falsafasini o'zlashtirgan, o'z falsafiy maktabini ham yaratgan inson, mutasavvir olim edilar. Bu zakovatli inson ellik yildan ziyodroq davr ichida falsafa va mantiq ilmi olamida duraxshon yulduz kabi ziyo va ma'rifat nurini taratib kelgan. Sharq xalqlari falsafasi tarixi muammolari, uning nufuzini dunyoviy kengliklarga olib chiqqan buyuk mutafakkirlarning durdona asarlariga bo'lgan cheksiz muhabbat zukko tadqiqotchi tomonidan chuqur o'rganilgan va ilmiy risolalar, ishlarda talqinlari aks ettirilgan. Mudarrislik bilan ilmiy-ijodiy izlanishni yonma-yon tutib, mazmundor kitob-u maqolalari bilan Tojikiston davriy matbuotida ham o'zini tanitdi. Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy dunyoqarashi, uning mantiqqa doir bebaho merosi olim tadqiqotlarining asosini tashkil etdi [3.9.]. Muhammad Nazarovichning ilmiy asarlari tojik va rus tillarida e'lon qilinganligi uchun ham sarhad bilmay bizgacha yetib kelgan. Mantiq, falsafa tarixi va qardosh xalqlar adabiyoti fanidan saboq aytgan o'qituvchilar iftixor va mamnuniyat bilan Muhammad Boltayevning ko'pgina asarlarini talabalariga tavsiya etishgan. Bu asarlar talabalar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilgan va hozirga qadar o'rganilmoqda. Olim tinimsiz izlandi, ulug' mutafakkirlarning munavvar ruhlaridan madad tiladi, ularning ma'naviy xazinasiga sinchkovlik bilan murojaat etdi va ilmiy xulosalari uchun rad etish qiyin bo'lgan dalillar topdi.

Ta'kidlash joizki, professor Muhammad Nazarovichning muallifligi, tashabbusi va rahnamoligi tufayli Tojikistonda XX asrning 50–70-yillarida Sharq falsafasi tarixini o'rganish maktabi shakllandi va juda ko'p so'fiy shoirlarning ma'naviy merosi, dunyoqarashi falsafiy – irfoniy nuqtayi nazardan tadqiq etildi. Rus tilida e'lon qilingan "Abu Ali Ibn Sino", "Nosiriddin Tusiy", "Muhammad G'azzoliy", "Fariduddin Attor", "Ubayd Zokoni" haqidagi o'nlab teran mazmunli kitoblar fikrimizni quvvatlaydi.

Muhammad Nazarovichning tarjimai holiga razm solgan sinchkov o'quvchi uning ellik yetti yillik umrining ilm yo'lida sarflanganligini ko'rib hayratlanadi. Bugungi kunga qadar olimning maktabida ta'lim olgan 30 dan ziyod tadqiqotchilarning falsafa fanlari nomzodi,

falsafa fanlari doktori ilmiy darajalariga muayassar bo'lganligining o'zi bu ulug' allomaning saxovatidan dalolatdir. Muhammad Nazarovich yaratgan ilmiy karvon 20 – asrning 50 – yillaridan hozirga qadar zalvorli ma'naviy meros bilan harakatda davom etayotir. Muhammad Nazarovichning vujud-vujudiga baynalmilal tuyg'ular singib ketgan. Bu uning ilmiy merosida ham ravshan ko'rinadi. Olim o'zbek, tojik, rus tillarida birday ravon fikrlaydi va rangin yozadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor M.Boltayevning 40 dan ziyod monografiya, darslik, qo'llanmalarining yuqorida eslatganimizdek uch tilda yozilib, nashr qilinganligi fikrimizning yorqin dalili hisoblanadi. Olim yaratgan asarlarning mag'zmag'ziga umumbashariy g'oyalar singdirilganidan bo'lsa kerak, uning maqola-yu, kitoblari Ukraina, Afg'oniston, Eron, Fransiya kabi davlatlarda dari, fors, fransuz, ukrain tillariga tarjima qilinib, nashr ettirilgan.

Ustoz Sokratning inson konsepsiyasini tahlil qilganlar [4.9.]. Sokrat fikricha, insondagi eng yaxshi fazilat jon, ruhni yaxshi va komil etishdan o'zga narsa emas, ya'ni u o'z tabiatidan bo'lishi kerak, bu esa ilm-bilim va bilib olishdir. Inson uchun illat esa ilm-bilimdan mahrumlik, demak, johillikdir, deganlarida inson o'zligini anglashida ilmning beqiyos rolini e'tirof etadilar. M.N. Boltayevning Suqrot haqidagi fikrlaridan “Suqrot borliqning asosi ilohiy kuch, aql, g'oya deb hisoblagan, tabiiy narsalar asosini axloqiy, hissiy idrokdan chiqarib, umumiy tushunchalarga e'tibor qaratgan bo'lsa, Platon ushbu tushunchalar hissiy bilishga emas, balki “boshqa nimadir” daxldordir, chunki hissiy idrok mudom o'zgaruvchan, degan qarashni himoya qilganini va ushbu “boshqa nimadir”ni u ideal deb ataganini tushuntirganlar [4.81.]. Ustozning Aristotel risolasida ko'tarilgan asosiy mavzular: savdo va pul munosabatlari, sudxo'rlik va kredit masalasi, davlat boshqaruvida monarxiya va demokratiya masalasi, oligarxiya, tiraniya va hokazolardir. Aristotel fikricha, inson boyishi uchun savdo yoki dehqonchilik afzal emas. Boy bo'lishning tabiiy yo'li – bu uy xo'jaligi va yerdan mohirona boshqarish sanaladi. Shu yo'l bilan boyishni ham cheki mavjud, biroq savdo bilan boyishning chegarasi yo'q. Savdo pulga munosabatli, biroq boylik tangalarni jamg'arishdan iborat emas” [5.5.] . Ko'rinib turibdiki, Arastu o'z davrida har bir holatni sharhlaganda uning ikkala tomoniga ham e'tibor bergan, ya'ni ham rohat ko'ruvchi, ham mashaqqat chekuvchiga. Chunki har bir masalani hal etishda bir tomonlaman xulosa chiqarish – bu ustun tomon manfaati uchun mos bo'lishi mumkin.

M.Boltayev inson borlig'iga qaratilgan ko'plab asarlar yozib qoldirgan olim. “Мистическое учение Зороастра” [6.81.], “Абдурахмат Джами о человеке, его смысле жизни и назначении” [7.5.], “Ulumi aqliy dar tamadduni Islom” (Islom sivilizatsiyasida aqliy bilimlar), “Ruh dar qalamravi din va falsafa” (Falsafa va din ruh haqida), “Falsafa az og'oz tarix” (Falsafa tarixi), Jaloliddin Rumiyning “Masnavii ma'naviy” shu bilan birga Bedil, Abdurahmon Jomiy, Boyazid Bostomiy, Am'aq Buxoriy kabi yuzlab olimlarning asarlari to'plami shular jumlasidandir.

Ustozimiz tasavvuf ta'limotining bilimdoni sifatida odam murakkab mavjudot bo'lib, ikki jihatdan jismiy-jasadiy va ruhiy ravoniy tomonlardan, ya'ni “olami asgar” (kichik olam) va “olami akbar”dan (ulkan ruhiy olam) iboratligini, insonning bir tomondan ilohiy, ikkinchi tomondan jismoniy va ijtimoiy mohiyatini asoslab berganlar. Ustozimiz o'z ma'ruzalarida inson haqida fikr yuritar ekanlar, “Xudshunosi – xudoshunosi ast”, ya'ni “O'zlikni anglash – Allohni anglashdir”, deya e'tirof etganlar. Bu fikrlari bizni ushbu iborani chuqur fikrlashga undaydi [8.4.].

Muhammad Nazarovichning Ibn Sino bo'yicha qilgan tadqiqotlari ko'plab mutaxassislar davrasida qiziqish uyg'otgan [9.7.]. Chunki ustoz bu mavzuni umrlari davomida tadqiq etib, ko'plab risolalar, maqolalar yozganlar. Bugungi kunda, ushbu ilmiy merosni ko'plab olimlar va izlanuvchi yoshlar o'rganib, bilimlarini oshirmoqdalar.

Faylasuf olim M.N. Boltayev barcha ta'limotlar qatorida tasavvuf ta'limotini ham chuqur o'rganganlar. Ustozning “Xo'jai Jahon Abduxoliq G'ijduvoni inson, do'st, hakim va rif'at shayx” nomli yozgan risolalari ham shu ta'limotning tadqiqotiga bag'ishlangan [10.56.]. U kishining dono maslahatlari va rahbarliklarida ko'plab shogirdlari sharq allomalari ilmiy

merosini tahlil-u tadqiq etdilar. Xususan, O‘zbekistonda falsafaning tom ma’noda qadimdan hozirgi kunga qadar rivoji va insoniyat ilmiy yuksalishidagi o‘rnini ko‘rsatuvchi qator ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdi va xalqimizga yetkazdi. Ustozni sermahsul daraxtga o‘xshatamiz. U kishining boshchiliklarida falsafa fanlari doktori Abera Xuseynova, falsafa fanlari doktori Nigora Safarova, falsafa fanlari nomzodi Oygul Sharipova, falsafa fanlari nomzodi Bobir Karimov, falsafa fanlari doktori G.Navruzova, falsafa fanlari nomzodi Matlyuba Boltayeva va boshqalar ilmiy ishlarini himoya qilishga erishdilar. Bu ilm ahli o‘z izlanishlarida ustoz amallariga ko‘ra insonni maxsus o‘rgandilar, tadqiqotlar olib bordilar va ko‘zlangan natijalarga erishdilar. Ustoz vasiyatlariga ko‘ra, shogirdlari Muhammad Porso, Imom G‘azzoliy, Xoja Ismat Vali, ibn Arabiy, Hujviriy, Jaloliddin Rumiy, Fariduddin Attorning falsafiy qarashlarini o‘rganish borasida tadqiqotlar olib borganlar.

Bugungi kunda zabardast olim M.N. Boltayevning ilmiy merosini o‘rganish bo‘yicha qanday ishlar ko‘zlangan?

Birinchiidan, M.N. Boltayev hayoti, inson kategoriyasi tahlili va ilmiy-falsafiy merosini yurtimizda va xalqaro miqyosda keng o‘rganish va targ‘ib qilish kerak. Ikkinchiidan, o‘rta asr sharq va g‘arb allomalari hayoti va falsafiy qarashlarini izohlab beruvchi mobil ilova ishlab chiqish kerak. Uchinchiidan, mutafakkir ma’naviy merosini chet el tillariga o‘girish, ularni yurtimizda va xorijda nashr qilish hamda mukammal tarzda shakllantirilgan ilmiy nashrlarini tuzish kerak. To‘rtinchiidan, faylasuf olim, ilm-fan olamiga mashhur M. Boltayev asarlari “Buyuk mutafakkir Zardusht va uning “Avesto” kitobi”, “Абу Али ибн Сина – великий мыслитель, ученый энциклопедист средневекового Востока”, “Носириддин Туси – великий ученый и мыслитель средневекового Востока”, “Хо‘jai Jahon Abduxoliq G‘ijduvoni insondo‘st hakim va rif‘at shayx” va boshqa asarlardagi tadqiqotlari, ilmiy izlanishlardagi falsafiy qarashlarining natijasi shuni ko‘rsatadiki, komil inson bu o‘zligini anglagan inson ekan. Beshinchiidan, M. Boltayevning o‘rta asr allomalari asarlari to‘plamlarini yaratish va oliy ta‘lim tizimida yoshlarda vatanparvarlik, ijtimoiy adolat tuyg‘ulari va tarixiy merosga nisbatan hurmat hissini shakllantirish lozim. Oltinchiidan, M. Boltayevning ilmiy-falsafiy asarlari asosida maxsus ko‘rsatuv va eshittirishlar, o‘quv-ma‘rifiy filmlar, zamonaviy ruhdagi video va kinofilmlar sonini ko‘paytirish kerak. Bu orqali bo‘lajak mutaxassislarining M. Boltayev falsafiy merosi mohiyatini o‘rganishlari yanada osonlashar edi.

Yettinchiidan, Yurtimizning barcha viloyatlarida “Ma’naviyat va ma‘rifat markazlari”, “Yoshlar ittifoqi” hamda O‘zR FANing tegishli institutlari yordamida M. Boltayevning tasavvufiy qarashlarida umuminsoniy qadriyatlar masalasiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish, yoshlar orasida beshta muhim tashabbus doirasida tanlovlar tashkil qilish, mutaxassislar ma‘ruzalarini tinglash bo‘lajak mutaxassislarining intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash bo‘yicha maxsus davlat dasturlari ishlab chiqish kerak. Sakkizinchiidan, M. Boltayev tasavvufiy qarashlarida umuminsoniy qadriyatlar singdirilgan asarlarining sharhini shakllantirish, sharhlarga tayangan holda elektron darsliklar yaratish hamda ularni oliy ta‘limda kredit-modul tizimida olib boriladigan maxsus kurslarda qo‘llash ayni muddaodir. To‘qqizinchiidan, M. Boltayevning ma‘naviy merosini tadqiq qilayotgan yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus grantlar joriy qilish, mutafakkir ijodini o‘rganayotgan tadqiqotchilar, xususan, chet eldagi ilmiy-ijodiy muassasalar bilan hamkorlik qilish kerak.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, buyuk faylasuf, atoqli olim va jamoat arbobi M.N. Boltayevning bebaho ilmiy-falsafiy merosiga oid taklif qilinayotgan tavsiyalarning to‘laqonli bajarilishi sermahsul ilmiy, falsafiy-tarixiy merosimizning teran qarashlarini chuqurroq idrok qilishga, Yangi O‘zbekiston jamiyati poydevorini yaratayotgan xalqimizning shuhratini dunyo miqyosida yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”// Xalq so‘zi, 2018, 15-may.
2. Boltayev M.N. Buyuk mutafakkir Zardusht va uning “Avesto” kitobi.- Buxoro: “Buxoro”, 2001.B.4.

3. Болтаев М.Н. Абу Али Хусайн Ибн Сино (Авиценна). Книга знаний.- М.: «Экспо-пресс», 1999. - С.9.
4. Boltayev M.N. Sokrat va Platon.- Buxoro: "Buxoro", 2006. B.24.
5. Boltayev M.N. Aristotel.- Buxoro: "Buxoro", 2007. B.9.
6. Boltayev M.N. Мистическое учение Зороастры. Священные каноны маздеистов.- Бухоро: "Бухоро", 2006. Б.81.
7. Болтаев М.Н. Абдурахман Джами о человеке, его смысле жизни и назначении.- Бухоро: "Бухоро", 2008.- С.5.
8. Navro'zova G.N. M.N.Boltayev – insonshunos olim// Falsafaning dolzarb muammolari: Resp. ilmiy-naz. konf. mat.- Buxoro, 2014. B.4.
9. Karimov B.Sh. Ustozim .// Falsafaning dolzarb muammolari: Resp. ilmiy-naz. konf. mat.- Buxoro, 2014. B.7.
10. Boltayev M.N. Xo'jai Jahon Abduxoliq G'ijduvoni insondo'st hakim va rif'at shayx. Buxoro: "Buxoro", 1994. 56 - bet.

## SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARI ILMIIY QARASHLARIDA GENDER TENGLIK MASALASI

**Mansurova Nigora**

Buxoro davlat universiteti, tarix va yuridik fakulteti,  
siyosatshunoslik yo'nalishi 2 – kurs talabasi  
UDK:32;342

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gender tenglik tushunchasi va uning kelib chiqishi, ikki ulkan sivilizatsiya, ya'ni Sharq va G'arb dunyosining eng yirik mutafakkirlarining bu mavzudagi fikrlari va qarashlari tahlil etilgan. Gender tushunchasining paydo bo'lishi Yevropaga borib taqalib, bunda G'arb olami yetakchilik qilsa-da, ammo Sharqda o'rta asrlarda ham dunyoni hayratga sola oladigan, turli sohalarida o'zini namoyon qila olgan ayollar anchagina ekanligi keltirilgan. Xususan, Alisher Navoiy, Bobur singari ko'plab olim, mutafakkir va hukmdorlar erkak va ayol tengligi va insonparvarlik to'g'risidagi qarashlari o'z tasdig'ini topganligi asoslab berilgan. Shuningdek, G'arb olamida ko'plab olimlar Jon Lokk, Adim Smitlar liberalizm va shaxs erkinligini oldingi o'ringa qo'yanlaridan so'ng gender tenglik sohasi o'zgarib, yangi davrda vujudga kelgan harakatlar va ularning ishtirokchilari, jamiyatda ijtimoiy tenglikni targ'ib qilib, bugungi zamonamizda bunga erishilganligi ochib berilgan. Umuman olganda, mazkur maqolada Sharq va G'arb mutafakkirlarining gender tenglik masalasi to'g'risidagi ilmiy qarashlariga e'tibor qaratib, natijalar tahlil qilingan va o'rganib chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Gender tenglik, sivilizatsiya, sotsiologiya, feminizm, reproduktiv huquqlar, iyerarxiya, lider.

## THE ISSUE OF GENDER EQUALITY IN THE SCIENTIFIC APPROACHES OF EASTERN AND WESTERN THINKERS

**Abstract.** This article analyzes the concept of gender equality and its history, thoughts and views of great thinkers from two major civilizations - Eastern and Western. The concept of gender has its roots in Europe, and despite the fact that Western civilization occupies a leading position there were also many women in the East who had a significant impact on society and made their presence felt back in the Middle Ages. In particular, it can be noted that some scientists, thinkers and rulers, such as Alisher Navoi and Babur found confirmation of their views on equality between men and women and humanism. Also in the Western world, after scholars such as John Locke and Adam Smith highlighted liberalism and individual freedom, the field of gender equality underwent changes, and the movements and their representatives that emerged in the new era promoted social equality in society. Ultimately, it can be said that significant progress has now been made in this area. The general approach of this article is that the scientific views of Eastern and Western thinkers on the issue of gender equality have been studied and analyzed to achieve new results.

**Key words.** Gender equality, civilization, sociology, feminism, reproductive rights, hierarchy, leader.

**Kirish.** Biz hozirgi kunda ijtimoiy tenglik, gender tengligi kabi tushunchalardan bemalol foydala oladigan jamiyatda yashayapmiz. Biroq tarixga yuzlansak, "Ayollar huquqlari deklaratsiyasi"ni e'lon qilgan Olimpiya de Guj [XIII] gacha ayollardan foydalanish, ularni kamsitish, zo'rflash inson sha'nini toptovchi hodisa ekani hech kimning o'yiga kelmagan. Keyinchalik esa, butun Sharq va G'arb bo'ylab olimlar bu mavzuga jiddiy yondasha boshlashdi va jamiyatda tenglikni ta'minlash hayotiy zarurat ekanligini anglay



boshlashdi.

Bugungi kunda olimlar tomonidan olib borilayotgan ishlar sabab, keyingi davrni “gender izlanishlari davri” deb atash mumkin. Jamiyatlar rivojlangani sari insonlarda ijtimoiy va huquqiy ong shakllanib boradi. Bu vaziyatda, ayniqsa, ilmi o‘tkir dono mutafakkirlar vaziyatni to‘g‘ri anglab munosib fikrlarini bildira olishadi. G‘arb olamida olimlar aynan shunday vaziyatga duch kelib, odilona g‘oyalarini bayon qilishgan. Feministik harakatlarning vujudga kelishi va shu mavzuga doir qadriyatlar shakllanishi misolida buni aniq seza olamiz. Sharq olamida esa biz ayollar huquqlariga jiddiy e‘tibor qaratgan allomalar bilan bir qatorda hukmdorlarni ham uchratamiz.

**Adabiyotlar tahlili va metodlari.** Sharq va G‘arbning eng yirik namoyandalari gender tenglik va xotin-qizlar huquqlari masalasidagi qarashlarini bayon qilishda analiz va sintez, deduksiya va induksiya, tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy kabi tadqiqot va tahlil usullari qo‘llangan.

**Natijalar va muhokama.** Dastlab Yevropada vujudga kelgan ma‘rifatparvarlik g‘oyalari ta‘sir ostida shakllangan inson tengligi va shaxs ustuvorligi haqidagi g‘oyalar ayollarga ham ta‘sir o‘tkaza boshladi. Shunday qilib, keyingi davrlarda Yevropada ayollar anchayin faol harakatda bo‘ldilar. Shunga ko‘ra G‘arb olimlari ham soha yuzasidan katta yangiliklarni amalga oshira olishgan. Xususan, fanga yangi tushunchalarni olib kira olishgan, ayollar va erkaklarga nisbatan psixologik yondashuvlar, ularning liderlik salohiyatlari, ijtimoiy qadriyatlar yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan.

Mana shunday olimlardan biri fransuz faylasufi, sotsiologi va utopik sotsializm namoyandasi bo‘lgan Fransua Mari Charl Furje bu sohada ancha yangiliklarga qo‘l urdi. Sohaga tamomila yangi tushunchalarni olib kira oldi. U “feminizm” atamasining muallifi hisoblanadi. Ana endi feminizm atamasiga ta‘rif bersak, bu ayollar va erkaklar o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va shaxsiy tenglikni tashkil etishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar va mafkuralar tizimidir.

“Feministik harakatlar xotin-qizlar huquqlari, shu jumladan, ovoz berish, davlat lavozimlarini egallash, mehnat qilish, adolatli ish haqi olish va maoshdagi gender tafovutini bartaraf etish, mulkka egalik qilish, ta‘lim olish, nikohda teng huquqqa ega bo‘lish va onalik ta‘tiliga ega bo‘lish uchun harakat qiladilar.”[1] Mana shunday qilib, feministik harakatlar bugungi dunyoda ayollar huquqi masalasida eng katta ijtimoiy o‘zgarishlarga sababchi bo‘la oldi deya bemalol ayta olamiz. Shuningdek, ayni shu harakat G‘arb mamlakatlarida ayollarning eng katta huquqlarini: saylash, saylanish huquqi, mulkka egalik qilish, bitimlar tuzish va reproduktiv huquqlarini ta‘minlashda eng yirik sababchi omil bo‘lib hisoblanadi.

“Gender nazariyasi vujudga kelishi bugungi kunda ijtimoiy-madaniy gumanitar rivojlanishning muqobil nazariyasiga aylangan feminizm hal qiluvchi rol o‘ynaydi. XX asrning 70-yillarida Z. Freyd va P.Parsonning g‘oyalari bilan sug‘orilgan an‘anaviy ijtimoiy fandan qoniqmagani feminizm nazariyotchilari o‘zlarining g‘arb bilimiga nisbatan nazariy e‘tirozlarni hamda madaniyat tahliliga oid yangi nazariy uslubiy yondashuvlarni ifodalay boshladi. Feministik g‘oyalar madaniyatning turli sohalariga kirib borishi nihoyatda jadal sur‘atlarda davom etdi. 70-yillarning boshlarida hammani hayratga solgan munozaralar an‘anaviy madaniyatning jinsiylik konsepsiyasi, ya‘ni jinsiga ko‘ra kamsitish anglashiladi. G‘arb kishisi ongiga ajralmas bir tushuncha bo‘lib kiradi.”[2]

Fanda yana ikki bir-biriga o‘xshagan jinsga mansublikni anglatuvchi feminizm, femininity bilan birgalikda masculinity (lot. masculinus – erkak so‘zlaridan olingan) tushunchalari ham qo‘llanadi. Shunga ko‘ra, keyinchalik bu sohadagi olimlardan biri Karl Gustav Yung ham o‘z fikrlarini bayon etgan. “Karl Gustav Yung afsonalar va madaniyatdagi jamoaviy ongsizlikning namoyon bo‘lishini o‘rganib, dastlabki erkak va ayolning arxetipik tasviri – Animus va Animani ajratib ko‘rsatdi. Yung Animus obrazini qat‘iyatlilik, keskinlik va tashqariga yo‘nalgan faollik bilan, Animani esa kayfiyatning o‘zgaruvchanligi, hissiyotlilik va o‘ziga yo‘nalgan faollik bilan bog‘lab ifodalagan. Qizig‘i shundaki, psixolog ikkala obraz ham har bir insonda, uning jinsi va jinsiy mo‘ljalidan qat‘i nazar, har xil nisbatda mavjud deb

hisoblagan”[3]

Mashhur olim T.V. Bendasning tadqiqoti esa ayollar va erkaklar liderligi masalasiga e’tibor qaratadi. Uning natijalariga ko’ra esa, ayol-lider erkak-liderdan ko’p quvvat, kuch sarflaydi. Bir xil vazifani bajarishga ayol-lider bor kuchi va bor vujudi bilan kirishadi, har bir narsaga, ko’pincha mayda-chuydaga aralashaveradi. Bu hol ayol lider bilan ijrochilar o’rtasida bahslarni keltirib chiqaradi. Erkak-lider kam kuch sarflab, ijrochilar yordamida tez maqsadga yetishni o’ylaydi. U ijrochining tashabbusiga tayanadi, har bir muammoni bosiqlik bilan, shoshilmasdan hal etishga intiladi. Guruh oldiga aniq va bajarilishi real bo’lgan vazifalarni qo’yishi erkak-liderning strategik fikrlashidan darak beradi.

Ayollar masalasida tadqiqotlar olib borgan G’arb olimlaridan yana biri L.L. Ribsova xotin-qizlar qadriyatlar mavzusida tadqiqotlar olib boradi. “L.L. Ribsova ikkita tadqiqot natijalarini tahlil qilgan holda mazkur qadriyatlar tipologiyasiga muvofiq ayollarning asosiy qadriyatlar majmuyini shakllantirdi. Bu qadriyatlar majmuyi quyidagi 14 ta asosiy qadriyatlar iyerarxiyasidan tashkil topgan:

- Sog’liq oliy qadriyat sifatida.
- Bolalar tarbiyasi va kelajagini ta’minlash.
- Farovonlik – daromad, uy-joy, tartibli hayot.
- Oila.
- Ish – daromad topish vositasi, hayotning mazmunini belgilash sifatida.
- Muhabbat – bolalarga, oila, turmush o’rtog’iga.
- Oila va ishni samarali uyg’unlashtirish.
- Ta’lim.
- Iqtisodiy mustaqillik, alohidalik.
- O’z zarari hisobiga yaqinlarga yordam berishga tayyorlik.
- Sayohat, yangi narsalarni ko’rish va bilish istagi.
- Kasbiy (Professional) karyera.
- O’z-o’zini takomillashtirish.
- Tashqi ko’rinishlar: moda va bo’yanish.”[4]

Endilikda biz Sharqqa qarab yuzlanadigan bo’lsak, unda G’arbdan farqli o’laroq ko’plab mutafakkirlar va ular qatorida hukmdorlarni ham bu masalada olib borgan islohotlari va g’oyalari misol tariqasida keltira olamiz. O’rta asrlarda hukm surgan Boburiylar sulolasiga to’xtalib o’tsak: “Boburiylar davrida ta’lim va tarbiyaga qiziqish yuqori bo’lib, hatto o’rta tabaqaga mansub ayollarni ham ilm va fandan bahra olishlariga undalardi. Saroy malika xonimlaridan Gulbadan begim, Nurjahon begim va Zebunniso begim kabi ayollar yuksak ta’lim va tarbiya ko’rgan oliy iste’dodli muallif va shoirlar edilar”[5].

Bobur va Boburiylar sulolasi davrida ayollarga yuksak e’tibor berilgan. Jamiyatda ular ma’lum ma’noda huquqlarga ham ega bo’lishgan. Holbuki, o’sha davrda Sharqda qiz bolaning hattoki u aslzodalar naslidan bo’lsa ham, tug’ilgan sanasini qayd etish joiz deb topilmagan. Boburiylarning eng mashhur hukmdorlaridan biri Akbarshoh haqida eslanganda uning ko’plab islohotlari qatorida Hindistondagi ba’zi g’ayriinsoniy urf-odatlarini yo’q qilganligi ham eslab o’tiladi. Akbarshoh bunday odatlar qatoriga ayollarga doirlarini ham kiritib o’tgan: “...voyaga yetmagan bolalarni uylantirish va turmushga berish man etildi, eri vafot etgan ayollarning erining jasadi bilan birga qo’shib olovda kuydirilishiga chek qo’yildi, beva ayollarning qayta turmush qurishlariga ruxsat berildi”[6].

Bundan tashqari, Sharq olamida mashhur, Temuriylar sulolasi hukmdorlari ham bu masalada o’z fikrlariga ega bo’lishgan. Misol tariqasida, Mirzo Ulug’bekni keltiradigan bo’lsak, uning davrida poytaxt Samarqand gullab-yashnadi. Uni e’tirof etishimizga sabab, u shunchaki shoh bo’lmagan, balki butun Sharq olamida mashhur allomalaridan biri ham bo’lgan. U hattoki Buxoroda bunyod ettirgan madrasasining peshtoqiga “Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farzdir” degan Hadisi-sharifdan olingan so’zlarni o’yib yozdiradi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Ulug’bek jamiyatda faqat erkaklar emas, balki ayollar ham savodli, ilmi bo’lishlari kerak deb bilgan. Garchi o’sha davrda

ayollarga bo'lgan munosabat erkaklar bilan bir xil tarzda bo'lmagan bo'lsa-da, biroq Ulug'bekning ayollarga nisbatan va, albatta, sulola vakillariga qaratilgan hurmati cheksiz bo'lgan. Xususan, bu narsani uning o'zini tarbiyalagan buvisi Saroymulxonimga bo'lgan munosabatidan ham ko'rish mumkin. Saroymulxonimni Temuriylar saltanatining eng nomdor malikasi deya tan olish mumkin. U obodonchilik va xayriya ishlarida faoliyat olib borish bilan birgalikda, siyosiy maydonda ham ancha faol siyosat arboblardan bo'lgan.

Shu bilan birgalikda, yangi davrga kelib, butun O'rta Osiyoda vujudga kelgan ma'rifatparvarlik g'oyalari va ularni ilgari surgan olimlarning qarashlarida ham biz gender tenglik masalalarini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, asl Qoraqalpoq farzandi bo'lgan Berdimurod Qarg'aboy o'g'li (taxallusi Berdaq) qarashlarida ham xuddi shu g'oyalar ustuvor bo'lgan. Uning fikrlariga ko'ra, deyarli har bir jamiyatda fuqarolarning katta qismini xotin-qizlar tashkil qiladi. Xuddi shu sababdan ham Berdaq jamiyatni insonparvarlashtirish ayollarning turmush tarzi va ularning madaniy-ma'naviy saviyasi bilan ahamiyatligini ta'kidlaydi.

“Jamiyatda ayollar bilan erkaklar teng bo'lishi lozim. Shunday bo'lsa-da, ayol erkakning sodiq do'sti bo'lib, erini qattiq sevishi va hurmat qilishi zarur. U ayolning katta qalin evaziga sotilishini qoralaydi. Bunday odatni aqlsizlik va axloqsizlik alomati deb baholaydi. Jamiyat hayotidagi urf-odatlar ayol izzat-nafsiga tegadi, insoniy haq-huquqlarini poymol qiladi. Qoraqalpoq ma'rifatparvari xotin-qizlarning insoniy haq-huquqlarini himoya qilishga chaqiradi.” [7]

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, yangi davrda jamiyat hayotida muhim rol o'ynagan, Turkiston ozodligi va mustaqilligi g'oyasini ilgari surib, u uchun kurashgan qahramonlar – jadidlar ham jamiyat hayotiga doir bu dolzarb masalada o'z fikrlariga ega bo'lib, uni xalqqa yetkazishda muhim rol o'ynaganlar. Ular ilg'or jamiyat barpo etish istagida bo'lishgan. Biroq zamon talabi deya Yevropada paydo bo'lgan barcha odatlarni ham qabul qilib bo'lmashini yaxshi anglashgan. “Ovrupo madaniyatining eng katta aybi unda haqqoniyat yo'qligidir. Haqqoniyat esa, Avloniy ta'kidlaganidek, “ishda to'g'rilik, so'zda rostgo'ylikdir”. [8]

Jadidlarning yirik namoyandalaridan biri Fitrat jamiyatdagi notenglik va ta'lim sohasidagi muammolarga ham e'tiborini qaratadi. Xuddi shu o'rinda, u ayniqsa, istiqbolga xatar bo'lgan, davlatni holini xarob ahvolga solgan yirik muammo sifatida – ayollarning ta'lim olish zaruriyatlarini o'rtaga tashlaydi. “...millatning ilk tarbiyasi ayollar qo'lida kechadi. Ilm va idrok egasi bo'lmagan noqobil ona o'z farzandining ham qobiliyatsiz bo'lib qolishiga sherik bo'ladi, bas, shunday ekan, qizlar tahsili millat uchun eng zarur bo'lgan muammo darajasiga ko'tarilishi, xuddi erlar kabi ular tahsil va takomilga loyiqligi Qur'oniylar dalillar bilan isbotlangan”. [9]

Mana shunday tarzda, Sharqning o'rta asrlardagi buyuk hukmdorlari va yangi davr ma'rifatparvar jadidlari qarashlaridagi gender tenglik masalasi butunlay yangicha ahamiyat kasb etib, hozirda ham dolzarbligicha qolmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi zamonamiz uchun gender tenglikni ta'minlash juda muhim vazifaga aylandi. Jamiyatda tenglikni ta'minlash uchun undagi barcha a'zolarining huquqlarini inobatga olish ustuvor vazifadir. Bu tushuncha ayollarni o'z huquqlari uchun kurashga chorladi. Dastlab, G'arbda va keyinchalik Sharq dunyosida ham olimlar xotin-qizlarga e'tiborni kuchaytirish zaruratini anglab borishdi. Fikrlar xilma-xil, biroq ayni bir maqsadga xizmat qilardi, ya'ni azaliy ijtimoiy adolatni ta'minlash.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida gender tenglik qonun bilan mustahkamlanib, demokratiya, inson huquqlari va tengligining bir qismi sifatida qaralasa-da, lekin ba'zi hududlarda hali ham ayollarning huquqlari buzilishi va ularga nisbatan zo'ravonliklar haqida ham eshitish mumkin. Ammo bu sohadagi doimiy e'tibor va fuqarolarning siyosiy ongining yuksalishi natijasi o'laroq, Sharqda ham, G'arbda ham gender tenglik to'laqonli ta'minlanishiga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Feminizm. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Feminizm>
2. Halimova O. D. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi gender tenglik masalasida jahonda va yurtimizda olib borilayotgan siyosiy harakatlar. // "Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tenglik" mavzusida ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami. –Toshkent, 2021, 9-b.
3. Farxodova Z. Gender munosabatlarga sotsiologik yondashuv.// "Markaziy Osiyoda Jamiyat, Gender va Oila", xalqaro ilmiy jurnal. –T., 2022/4 (5). 114-b.
4. Xodjayev S.Dj. Xotin-qizlar hayotiy maqsad va qadriyatlarining psixologik omillari. // "Markaziy Osiyoda Jamiyat, Gender va Oila" xalqaro ilmiy jurnal. –T., - 2022/4 (5). 60-61-b.
5. Abdulhakim Sh.J. Bobur davlatining huquqiy kodeksi. "Bobur va dunyo",N-1, 2020. 14 b.
6. Satimov.G'. "Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri." – T., – 2008. -114 b.
7. Turdiyev.B.S. Siyosiy ta'limotlar tarixi. – T., 2023, 239-b.
8. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2006, 39-b.
9. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat. – T.: Yoshlar Nashriyot uyi, 2022, 127-b.

### HARBIY VATANPARVARLIKNING AXLOQIY-MA'NAVIY, IJTIMOIIY-MADANIY QADRIYAT SIFATIDAGI ZAMONAVIY AHAMIYATI

**Rahmonov Abrorbek Rustamovich**

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi  
36184-harbiy qism podpolkovniki, tadqiqotchi  
[turktili2024@gmail.com](mailto:turktili2024@gmail.com)

UDK: 004.8:316.77

**Annotatsiya.** Zamonaviy dunyoda global tahdidlarning kuchayib borishi ijtimoiy hayotda harbiy vatanparvarlik tuyg'usining sog'lom shakllanishiga turtki bo'lmoqda. Harbiy vatanparvarlikning inson ruhiyati, milliy g'ururi, sha'ni, Vatan mustaqilligi, yurt ozodligi, mamlakat xavfsizligi uchun ahamiyati beqiyosdir. Bu muqaddas tuyg'u bugungi kunda jamiyatning barcha qatlami uchun ma'naviy oziqadir. Maqolada mamlakat xavfsizligini ta'minlashda harbiy vatanparvarlik tushunchasining ahamiyati, yoshlar qalbida ushbu muqaddas tuyg'uning shakllantirishdagi vositalar tarixiy voqealar asosida nazariy tahlil qilingan. Zamonaviy sharoitda harbiy vatanparvarlikni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan usullar, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy ongni takomillashtirish uchun amalga oshirilayotgan ishlar tizimli tahlil qilingan. Harbiy vatanparvarlikning axloqiy-ma'naviy, ijtimoiy-madaniy qadriyat sifatidagi zamonaviy ahamiyati konseptual asosda ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** harbiy vatanparvarlik, milliy birlik, mamlakat, xavfsizlik, qadriyat, yoshlar, millat, axloq, jamiyat.

### THE MODERN SIGNIFICANCE OF MILITARY PATRIOTISM AS A MORAL-SPIRITUAL AND SOCIO-CULTURAL VALUE

**Abstract.** In the modern world, increasing global threats are driving the healthy formation of military patriotism in social life. The importance of military patriotism for the human spirit, national pride, honor, independence of the Motherland, freedom of the country, and security of the country is incomparable. This sacred feeling is spiritual food for all strata of society today. The article theoretically analyzes the importance of the concept of military patriotism in ensuring the country's security, the means of forming this sacred feeling in the hearts of young people based on historical events. The methods used for the development of military patriotism in modern conditions, the work being done to educate the young generation in the spirit of patriotism and to improve the national consciousness have been systematically analyzed. The modern importance of military patriotism as a moral-spiritual, socio-cultural value and its conceptual basis has been revealed.

**Key words.** military patriotism, national unity, country, security, value, youth, nation, morality, society.

**Kirish.** Shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi davrda mamlakat xavfsizligi va yurt mustaqilligini himoya qilish kabi tushunchalar dunyo mamlakatlari afkor ommasining diqqat markazidan joy oldi. Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Birinchidan, global tahdidlar, terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik, kiberhujumlar har bir mamlakat uchun xavf soladi. Ikkinchidan, XXI asrda ham davlatlarning o'z mustaqilligi uchun milliy ozodlik kurashlari davom etmoqda. Bu kurashda o'z hududini himoya qilish, Ona-Vatanining ozodligi uchun kurashish, yurt mustaqilligini qo'lga kiritish uchun xalqlarning vatanparvarlik ruhi va harbiy tayyorgarligi muhim ahamiyatga egadir. Uchinchidan, afkor ommaning ongi bilan bog'liq bo'lib, inson ongi taraqqiy

eta borgan sari atrofidagi dunyoni ko'proq tushunadi, o'zining huquq va erkinliklarini anglaydi. Qachonki ong taraqqiy etsa, mustaqillik, erkinlik, ozodlikning tub mohiyati teran anglashiladi. Ongli inson o'z hayotini o'zi boshqarish qobiliyatiga ega bo'lib, uning hayoti ustidan nazorat qilinishi va boshqarilishini xohlamaydi. Ongi taraqqiy etgan inson o'z fikrlarini erkin ifodalashga, o'z hayotini o'z xohishiga ko'ra qurishga intiladi. Bunday inson boshqalar tomonidan cheklanmaslikni istaydi. Bularning barchasi inson hayotida muhim o'zgarishlarga olib keladi.

Armiya saflarida xizmat qilish yoshlar uchun muhim tajriba maktabi bo'lib, bu ularning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Ular intizom, jamoaviylik, vatanparvarlik, burch, mas'uliyat hissi kabi muhim fazilatlarini o'rganadilar. Armiya safida xizmat qilish yoshlarning hayot yo'llarini to'g'ri tanlashlarida yangi imkoniyatlarni ochadi, ularning o'z qobiliyatlarini haqqoniy baholash, nimaga va qanday ishlarga qodir ekanliklarini ko'rsatuvchi indikator vazifasini o'taydi. Harbiy xizmat yoshlarning o'z bilimlarini takomillashtirishlari uchun zinapoya vazifasini o'taydi. Bundan anglashiladiki, bugungi kunda armiya saflarida xizmat qilayotgan yoshlar mamlakatning faol va puxta tayyorlangan kadrlar zaxirasini tashkil etish bilan birga, O'zbekiston kelajagining tayanchi va suyanchig'i bo'ladi.

Bugungi kunda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlar asosida voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir. Shu o'rinda savol tug'iladi: mamlakat xavfsizligini ta'minlashda harbiy vatanparvarlik tushunchasi qanchalik ahamiyatga ega? Yoshlar qalbida harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning muhim vositasi nimadan iborat? Bu savollarga javob topish asnosida o'tmishda va hozirgi kunda sodir bo'layotgan qurolli mojarolar va to'qnashuvlar, ularning asl sabablari, harbiy vatanparvarlikning ahamiyati manbalar asosida ijtimoiy-falsafiy tahlil etish maqsad qilingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunga qadar yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni kelajakda milliy armiyaning mard, jasur o'g'lonlari qilib voyaga yetkazish bilan bog'liq qator ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, tadqiqotchi M.Tursunova tomonidan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur ilmiy va ma'naviy merosining o'rni, uning mashaqqatli sarkardalik yo'li, jahon olimlari olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilib, Amir Temur yoshlar uchun axloqiy namuna, ideal shaxs sifatida ifodalangan [5, 420-422]. Tadqiqotchilar T.Sulaymonova va F.Qosimovalar o'smir yoshlar ongida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, hozirgi davrda yoshlar ongida vatanparvarlik qadriyatlari shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar va ularning ta'sirini o'rgangan [6, 103-106] bo'lsa, tadqiqotchi Sh.Tilavoldiyev ta'lim muassasalarida yoshlarni o'qitishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifalari, yo'nalishlari, maqsad va mazmuni, ta'lim tizimida ustoz va murabbiylarning yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi majburiyatlarini tadqiq etishgan [7, 4-25]. Biroq hozirgi kunda jahonda va mintaqada ro'y berayotgan harbiy vaziyatlarning keskinlashuvi va kundan kunga yoshlar tarbiyasiga ta'sir qiluvchi salbiy illatlar ortayotgan davrda harbiy vatanparvarlikning yuksak axloqiy-ma'naviy, ijtimoiy-madaniy qadriyat sifatidagi zamonaviy ahamiyati dolzarb mavzu sifatida o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada nazariy tahlil, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va sintez qilish, o'xshashlik, taqqoslash, mavhumlashtirish, konkretlashtirish kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot metodologiyasi mavzu bo'yicha mavjud nazariy bilimlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish orqali obyektiv xulosa chiqarish, ma'lumotlarni taqqoslash, umumlashtirish, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, turli tushunchalar, hodisalar, obyektlarni o'zaro solishtirish, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ajratish, mavhum tushunchalarni konkret misollar orqali izohlash, mavzuga ijodiy yondashish, masalaning mohiyatini aniq, mazmunli va tushunarli izohlash imkonini beradi.

**Muhokama va natijalar.** Hozirgi davrda global tahdidlarning kuchayishi, harbiy texnologiyalarning tez sur'atlar bilan o'sishi, yangi qurol-aslahalar, harbiy texnikaning paydo bo'lishi mamlakatlarning o'z armiyalarini zamonaviy qurol-aslahalar bilan jihozlash, harbiy o'quvlar tashkil etish, yoshlarni harbiy tayyorgarlikka safarbar etish majburiyatini yuzaga keltirmoqda.

Afsuski davlatlarning ertangi kuni, chegaralarining daxlsizligi, osmonining musaffoligi faqatgina zamonaviy qurol va o'q-dorilar bilan butlashda emas. Tarixdan ma'lumki, davlatning xavfsizligi va mustaqilligining barqarorligi inson omili bilan bog'liq bo'lib, vatanparvarlik ruhi, milliy birlik, harbiy tayyorgarlik, kurashchanlik ruhi mamlakat havfsizligini ta'minlashda muhim

ahamiyatga ega bo'lgan. Davlat iqtisodiy mustaqil bo'lsa, uning xavfsizligi ta'minlangan bo'ladi. Kuchli davlat o'z hududini himoya qilish uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi. "Qo'shning tinch bo'lsa, sen ham tinch" degan maqolning zamirida buyuk haqiqat mujassamdirki, davlatlar o'rtasida xalqaro munosabatlarni tartibga solish, o'zaro hamkorlik qilish, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash mamlakat xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Harbiy kuch qurol-aslaha va yuksak vatanparvarlik ruhi bilan yashaydigan harbiy xizmatchilarning jasorati, jismoniy tayyorgarligi bilan mustahkam bo'ladi. Ona-Vatani uchun jon fido qilishga tayyor bo'lgan, qurol-aslaha bilan ishlash layoqati, strategik fikrlash qobiliyati, kurashchanlik ruhi tarbiyalangan harbiy xizmatchilar mamlakat xavfsizligi uchun muhim omil bo'ladi: "armiya faqat qurol va aslaha bilangina kuchli hisoblanmaydi, balki yurt uchun jonini ayamaydigan harbiy xizmatchilar – askar va ofitserlar, generallar bilan qudratlidir. Bu armiyaning imkoniyatlari va jangovar salohiyatini belgilaydigan asosiy omildir [3].

Yana bir tarixiy haqiqat, achchiq saboq beradigan "nuqta"ga e'tibor qaratsak: qadimgi xitoyliklar o'z Vatani himoya qilish uchun miloddan avvalgi VII asrda "Buyuk Xitoy devori"ni qurishni boshlaydilar. Ular o'ylaydiki, "qalin devorni hech kim buzib kira olmaydi va yurt doimo xavfsiz hudud bo'lib qoladi". Qurilish ishlari qariyb bir necha ming yil davom etgan. Afsuski, "Buyuk Xitoy devori" qurilganidan keyin Xitoy davlatiga qarshi uch marta katta bosqinchilik yurishi amalga oshiriladi. XIII asrda Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar Xitoyni bosib olishgan bo'lsa, XVII asrda manjular Xitoyni bosib olib, Sin sulolasiga asos solishgan. XIX asrda Yaponiya ikkinchi jahon urushi davrida Xitoyni bosib olish uchun urush boshlagan bo'lsa, Buyuk Britaniya Xitoyni bosib olish, o'z ta'siri ostiga olish uchun urush e'lon qilgan. Bu yurishlarning barchasida dushman uchun baland devorlarni buzib o'tishga zarurat qolmagan. Har bir bosqinchilik urushida dushman arzimas "tanga" evaziga qal'a ichkarisidagi qo'riqchi askarlarni sotib olgan va shahar darvozalarini ichkaridan ochib, o'z maqsadlariga erishganlar. Achchiq haqiqat shuki, xitoyliklar devor qurilishga berilib ketib, haqiqiy harbiy vatanparvar, o'z burchiga sadoqatli, ona yurti uchun jonini fido qilishga qodir askarlarni tarbiyalashni unutib qo'yishgan. Hukmdorlar o'z armiyasi, xalqi va yoshlarini haqiqiy harbiy vatanparvar etib tarbiyalash toshdan bino qurishdan ham muhimligini kech anglab yetganlar.

Vatanga bo'lgan muhabbat tarbiyalangandagina "vatanparvarlik" deb atalgan ulkan tuyg'uga aylanadi. Shu bois, ota-onalar farzandlar qalbiga vatanparvarlik tuyg'usini joylamoqlari lozim" [10]. Bu ayni haqiqatdir.

So'nggi besh yil ortga nazar tashlansa, O'zbekistonda mamlakat xavfsizligini ta'minlash, mamlakat mustaqilligini ko'z qorachig'idek asrash, yoshlarni harbiy vatanparvar etib voyaga yetkazish masalasi hukumatning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi.

Konstitutsiyaning 64-moddasida "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlar" [1] deb belgilab qo'yilgan. Demak, fuqarolarning burch va majburiyatlarining ibtidosi, eng avvalo, Vatan oldidagi burchidir.

O'zbekistonda turli millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Turli millat va elatlarning bir zaminda, musaffo osmon ostida, yagona maqsad yo'lida faoliyat olib borishi, yurtning xavfsizligi, Vatan mustaqilligini ta'minlashi milliy birlik, baynalminal birdamlikning oliy namunasidir.

Harbiy vatanparvarlik xalqni birlashtiradi, milliy birlikni mustahkamlashga yordam beradi va barchani yagona bayroq ostida mamlakatni himoya qilishga undaydi. 2023–2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi [2,2]ga ko'ra, hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan vazirlik va idoralar, uyushma va qo'mitalarga barkamol avlodni vatanparvar etib tarbiyalashga oid bir qator vazifa va topshiriqlar belgilab berilgan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarish, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va

muvofiglashtirilgan faoliyatidir [2, 3].

Yoshlar qalbida harbiy vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirishning asosiy vositasi millatning milliy birligini shakllantirishdir. Oʻtmishga nazar solsak, Chor Rossiyasi mustamlakasi davrining soʻnggi oʻn yetti yili ichida mamlakatda milliy ozodlik harakatlari bilan bogʻliq toʻrt mingdan ortiq isyon va qoʻzgʻolonlar sodir boʻlgan. Demak, Vatan mustaqilligini oʻz mustaqilligi deb bilgan ajdodlar millatning milliy birligini shakllantirishga muvaffaq boʻlishgan. Milliy birlik boʻlmasa bosqinchilarga qarshi kurashlar va qoʻzgʻolonlarni amalga oshirish, uddasidan chiqish imkonsizdir. “Milliy birlik har bir millat, elatning mavjudlik belgisi, oʻsha xalq taraqqiyotining eng ustuvor omili va poydevoridir.

Tarixdan maʼlumki, bosqinchi mustamlakachilar oʻz hokimiyatini mustahkamlash uchun, avvalo, oʻzi bosib olgan xalqning milliy birligini yoʻqotishga harakat qilgan. Ingliz bosqinchilari Hindistonni bosib olgan vaqtda hind xalqining milliy birligini yoʻqotishga harakat qilgan. Ular hind xalqini turli dinlarga boʻlib, ular oʻrtasida nizo chiqarishga harakat qilishgan. Inglizlar turli din vakillari oʻrtasidagi anʼanaviy nizolarni kuchaytirishga, ularni biriga qarshi qoʻyishga, hindlarning madaniyati va tafakkur tarzini oʻzgartirishga uringanlar.

Milliy birlik tufayli sodir etilgan barcha ozodlik harakatlari bostirilgan, uning ishtirokchilari yoʻq qilingan” [4]. Bugun milliy birlik, milliy totuvlikka har qachongidan koʻra muhtojmiz. Agar millat sifatida birlasha olsak kuchli boʻlamiz, taraqqiyotga erishamiz va barcha sohalarda olgʻa yuramiz. Boʻlmasa, bir-biriga dushman va kuchsiz millatga hamda dunyo davlatlari ichra qoloq, johil va madaniyatsiz mamlakatga aylanamiz [8].

Milliy birlik shakllangan yurtning harbiy elitasi ruhan qudratli, mamlakat chegaralari daxlsiz, fuqarolari esa haqiqiy vatanparvar boʻladi.

Jamiyatda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishning yana bir omili milliy qadriyat boʻlib, uning qadrlanishi xalq qalbida harbiy vatanparvarlik tushunchasining paydo boʻlishi, jamiyatda axloqiy va maʼnaviy qarashlarning mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Insonlarda axloqiy qadriyatlar axloqiy fazilatlar orqali shakllanadi. Axloqiy fazilatlar orasida insonni komillikka yetaklovchi vatanparvarlik, vafodorlik, adolatlilik, halollik, vijdonlilik kabi goʻzal xislatlar mujassamdir. Axloqan yetuk insongina oʻzining Vatan oldidagi burchini anglashi, yurti uchun jonini fido qilishi hamda sadoqatini har doim namoyish qilishga tayyor turishi bilan ajralib turadi.

**Xulosa va takliflar.** Harbiy vatanparvarlik tushunchasi insonlarning ongi va tafakkuridan joy olishi va ularning qon-qoniga singishi bugungi zamonaviy dunyoda oʻta dolzarbligi va tarixiy zaruriyat ekanligini namoyon qilmoqda. Chunki davlatning xavfsizligi, mustaqilligining abadiy boʻlishi, fuqarolarning tinch va osuda hayot kechirishi bu muqaddas tuygʻuning ijtimoiy hayotda nechogʻli shakllangani bilan belgilanadi. Harbiy vatanparvarlik tushunchasining zamonaviy ahamiyati bugungi kunda quyidagi jabhalarlarda namoyon boʻlmoqda:

a) hozirgi kunda dunyoda terrorizm, qurolli mojarolar, davlatlarning rivojlanishiga taʼsir qilayotgan ichki va tashqi tahdidlar kuchaygan bir davrda harbiy vatanparvarlik mamlakat xavfsizligini taʼminlash uchun zarur boʻlgan harbiy kuchlarni shakllantirishda muhim rol oʻynaydi, chunki mamlakat xavfsizligini taʼminlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir;

b) harbiy vatanparvarlik tushunchasi kishilarni oʻz Vataniga sadoqatli boʻlishga oʻrgatadi. Bu sadoqatning koʻrinishi faqatgina harbiylarning harbiy xizmati bilan emas, balki yoshlarni vatanparvar etib tarbiyalash yoʻlida jamoat tashkilotlari, vazirliklar, uyushma va qoʻmitalarning birgalikdagi ommaviy tadbirlari orqali ifodalanadi;

v) harbiy vatanparvarlik tuygʻusi xalqlarni uyushtirib, millatlarni birlashtiradi, millatlar oʻrtasida milliy birlikni mustahkamlashga yordam beradi va mamlakatni yagona ezgu

g'oyalar ostida himoya qilishga konstruktiv asos bo'lib xizmat qiladi;

g) harbiy vatanparvarlik yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun muhim omil bo'lib, yoshlarda Vatanga mehr-muhabbat, sadoqat, jasurlik va qahramonlik fazilatlarini shakllantiradi. Yoshlar o'z yurtining tarixi, madaniyati va an'analarini o'rganish orqali o'z Vatani uchun faxr va g'urur tuyg'ularini his qilishadi. Harbiy vatanparvarlikka doir qahramonliklar yoshlarda Vatanga muhabbat tuyg'ularini jo'shqinlashtiradi va yurt himoyasi uchun kurashga tayyor bo'lishga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent 2023. – B. 15.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. – Toshkent, 2023. – B. 2.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigi.
4. “Yangi O'zbekiston” gazetasi. 2023-yil 4-fevral. № 24 soni, (813). – B. 1-3.
5. Musayev F.A. “Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent, 2023. – B. 420- 422.
6. Andijon Davlat universiteti. Ilmiy xabarnoma. ADU. №1, Andijon-2018. – B. 103-106.
7. Tilavoldiyev Sh. “Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari” fanidan muammoli ma'ruzalar matni to'plami. –Farg'ona, 2006. – B. 4-25.
8. Elektron manba. <https://zamin.uz/hayot-tarzi/41957-bizga-milliy-birlik-va-totuvlik-kerak.html>.
9. Elektron manba <https://aniq.uz/yangiliklar/italiyada-ular-ukraina-qurolli-kuchlari-askarlarining-ommaviy-chiqib-ketishi-haqida-gapirishdi>.
10. Elektron manba. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=309>.

### BUXORODA AMIRLIK DAVRIDA ILM-FAN VA ISLOM ILMLARI RIVOJI

**Saburov Jaloliddin,**

BuxDU tadqiqotchisi

[saburovjalol88@mail.com](mailto:saburovjalol88@mail.com)

ORCID 0009-0003-5145-4811

UDK:94(575/146-25):28

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Buxoro amirligi davrida ilm-fan va islom ilmlari rivoji, unda Buxoro amirlarining faoliyatlari ijtimoiy-ma'naviy muhit va davrning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Xususan, amirlikda Qur'on, hadis, fiqh va tasavvuf ilmlarini o'rganishga bo'lgan rag'bat, kishilar ma'naviy hayotidagi o'rni birlamchi manbalar asosida ochib berilgan. Shuningdek, Buxoroda shakllangan tasavvuf va tariqatlarining o'zaro vorisilik, uzviyligi rivojlanishi masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Amirlik hududlarida o'sha davrda faoliyat ko'rsatgan tariqatlar yoki so'fiylik toiflarining ijtimoiy hayotdagi o'rni, ma'naviy muhitga ta'siri bilan bog'liq jihatlari ham yoritilgan. Buxoroda amal qilib kelgan tariqatlar ularning ma'naviy axloqiy tamoyillari jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni ham manbalar asosida tahlil e'tilgan. Amirlik, amirzodalar va saroy ahlining tasavvuf va tariqatlarga munosabatlari, ayniqsa, naqshbandiyaning bu davr uchun o'ziga xos ahamiyati ham keng ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** ma'naviyat, ilm, ma'rifat, tasavvuf, hadis, fiqh, tafsir, insonparvarlik, madaniyat, makon va zamon, ijtimoiy hayot, axloq.

### DEVELOPMENT OF SCIENCE AND ISLAMIC SCIENCES IN THE PERIOD OF BUKHARA EMIRATE

**Abstract.** This article analyzes the development of science and Islamic studies during the period of Bukhara Emirate, the activities of Bukharan emirs, the social and spiritual environment, as well as the characteristics of this period. In particular, based on primary sources, it reveals the motivation for studying the Quran, hadiths, fiqh, and Sufism in the spiritual life of the emirate's inhabitants. Special attention given to the issues of mutual continuity and development of Sufism and tariqa that emerged in Bukhara. The role of tariqa or Sufi brotherhoods that operated in the Emirate at that time in social life and their influence on the spiritual environment highlighted as well. Based on sources, the tariqa practiced in Bukhara, their spiritual and moral foundations, and their place in the spiritual life of society analyzed. The relationships of emirs, princes, and courtiers with Sufism and tariqa are elaborately described, especially the significance of the Naqshbandi tariqa during this period.



**Key words.** spirituality, science, enlightenment, mysticism, hadith, Fiqh, tafsir, humanism, culture, spaceandtime, sociallife, morality

**Kirish.** Buxoro qadimdan ilm-fan, din, madaniyat va ma'naviyat markazi bo'lib kelgani umume'tirof etilgan. Buxoroning "Ilm qal'asi", "Madrasalar shahri", "Buxoroyi sharif", "Qubatul-Islom" nomlari bilan e'zozlanishidan insoniyat ma'naviyati, islom sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini anglash mumkin. Shuningdek, milodiy V asrga oid xitoy manbalarida Buxoro shahri "Nyumi" tarzida tilga olib o'tilgan, binobarin, shu nomdagi mulk hukmdori ham shaharda o'z qarorgohini saqlagan edi. Tan imperiyasining VII asrga oid solnomalarida Buxoro shahri An (Ango), Ansi, Buxo yoki Buxa va Fuxo shakllarida qayd etib o'tilgan. Ayni shu solnomalar guvohlik berishicha, Buxoroning hukmdorlik qilib turgan sulolasi –Buxorxudotlar nomi mintaqaning eng asosiy buddaviylik ibodatxonasi "Vixara" yoki ana shu "Vixara" ning turkiycha transkripsiyasi Buxoro (monastir) so'zidan kelib chiqqan. Biroq buddaviylik va moniylik (monaviylik) diniy ta'limotlariga oid osori atiqalar shahar hududidan ham Buxoro vohasidan ham topilgan emas.[1.27-28]. Buxoro so'zining kelib chiqishi bilan bog'liq eng qadimgi manblar ham bu o'lkada ilm-fan, dunyoviy va diniy bilimlar shakllanganini, ivojlanganini anglatuvchi ma'nolarni berishida ham hikmat bor. Shu jihatdan olganda har bir davr u qanday tuzum bo'lishidan qat'i nazar Buxoro hukmdorlari yoki bu o'lkada bo'lgan sayyohlar, hatto bosqinchilar ham ilmga rag'batni, din-u diyonatga kuchli moyillikni ko'rib tan berganlar, islomni qabul qilganlar. XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi davrida ham islom ilmlari yuksak darajada rivojlanganligi ko'zga tashlanadi. Albatta, islom omilining insonparavarlik g'oyalari, ilmga undovchi ma'rifati, sobit e'tiqod tavhidga chaqirig'i hukmdorlarni ularning toj-u taxt uchun kurashlaridan qat'iy nazar ilmga bo'lgan ayniqsa, Qur'on ilmlari, hadis, tasavvufga bo'lgan munosabatlarini shakllantirgan ilmga homiylik qilishga da'vat etgan. Shu sababli bu davr ijtimoiy hayotida diniy madaniyatlilik ustuvor darajada ko'zga tashlanib turadi. Kishilar dunyoqarashi odamlar orasidagi turli munosabtlar ham shu ma'naviy hayotning ta'sirida bo'lganligini ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XVIII asrda diniy ulamo Mirzajon Sheroziy-Buxoriy Buxoro madarasalarida o'qitiladigan islom diniy ilmlarini tizimlashtirgan. [2.b.16.v.]. Shu tariqa Buxoro amirligi davrida islom ilmlari taraqqiyoti boshlanganligini ko'rish mumkin. Umuman, bu davlatda rivoj topgan islom ilmlarining yirik guruhini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Qur'on ilmi

Fiqh ilmi

Hadis ilmi

Tasavvuf ilmi.

Buxoro Mirarab madarasasida ta'lim olgan Abdurauf Fitrat (1884-1938) o'zining 1914 yilda yozilgan "Rahbari najot" ("Najot yo'li") risolasida Buxoro amirligida rivoj topgan islom ilmlarini tavsiflab ko'rsatgan. [3.62]. Unga ko'ra, Qur'on ilmi Tafsir va Tajvid fanlarini qamrab oladi. Tafsir Qur'oni karimni sharhlar bilan o'rganish va tajvid esa Qur'oni karimni to'g'ri tilovat qilish ilmlaridir. Tafsir ilmi quyidagi turlarga bo'linadi:

1) Tafsir bar rivoyat (rivoyatlar asosida tafsir qilish, Ibn Abbos (VIII asr) va Imom Tabariy (IX asr) "Tafsir" asarlari shu toifaga kiradi);

2) Tafsirbid-diroyat (aqliy tafsir, Mahmud Zamaxshariy (XII asr), Qozi Bayzoviy (XIII asr), Husayn Voiz Koshifiyning (XV asr) "Tafsir" asarlari shu toifaga mansub).

Buxoro amirligi davrida madrasalarda ana shu ikki turga ega Tafsir ilmi chuqur o'qitilgan. Abdurauf Fitrat yozadi: "Biz musulmonlarning hamma diniy ahkomlarimiz Qur'oni karimda yig'ilgan. Musulmon ekanmiz, Qur'oni karimga amal qilishimiz vojibdir... Qur'oni karim ma'nolarini bilmoq uchun Tafsir ilmini o'qimoq shart".[4.62]

Demak, Buxoro amirligi davrida tafsir ilmiga ham juda katta e'tibor qaratilgan. Chunki Qur'on oyatlarining ma'no-mazmunini anglash, uning ma'rifatini bilish muhim sanalgan. Albatta, Buxoroda bundan oldin ham tafsir ilmlari bilimdonlari mufasssirlar ko'plab kitoblar ta'lif etganlar, hatto musulmon faylasufi hisoblangan buxorolik Ibn Sinoning Qur'on

oyatlari tafsirlari bo'lib, Sharq qo'lyozmalari fondida 60 dan ortiq tafsirlari saqlanadi. Ular ham o'z tadqiqotchisini kutib turibdi.

Qur'on ilmlari alohida o'qitilgan. Tajvid ilmi uch turli talaffuzni qamrab oladi:

- 1) tartil (osuda tilovat qilish);
- 2) xadr (tezkor tilovat qilish);
- 3) tadvir (o'rtacha tilovat qilish).[5.220].

Bu tilovat turlari sharoit, makon va zamonga qarab amalga oshiriladi. Shu sababli tajvid ilmi chuqur o'zlashtirilgan. Qur'onni to'g'ri va tartib bilan o'qish qonun-qoidalarini o'rganish bilan birga Qur'on ma'rifatini anglash, e'tiqodni mustahkamlash orqali kishilar dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviyatini oshirishga ham e'tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, Buxoro madrasalarida XVIII asrda qiroat ilmiga alohida e'tibor qaratilishi bilan birga talabalardan Qur'onni to'liq yod olish, ma'nolarini tushunish talab etilgan. Bu usluban an'anaviy bo'lsa-da, bu davrga kelib talabalar uchun maxsus darsliklar yaratilgan va oldingi uslubiy qo'llanmalar takomillashtirilgan. Xususan, musulmon dunyosining oliy ta'limi hisoblangan madrasalar boshlang'ich maktablarning ta'lim tizimi Buxoro amirligi davriga kelib bir muncha isloh qilindi va ko'plab yangi binolar qurilib, ular madrasa va masjidlar ixtiyoriga topshirilgan.

Keyinchalik XVIII asrning oxirlariga kelib amirlikda iqtisodiy hayotning birmuncha yuksalishi madaniy hayotga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Ayniqsa, ilgari davrlarda shakllangan maktab va oliy ta'lim beruvchi madrasalar faoliyati bu davrda ancha yuksaldi. Boshlang'ich ta'lim beruvchi maktablar amirlikning barcha yirik qishloqlarida, shaharlarining barcha mahallalarida mavjud bo'lib, bu maktablarda bolalarning dastlabki savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, Qur'onning kichik suralarini yodlash talab qilingan. Shariat ahkamlari haqida dastlabki bilimlari berilgan.

XIX asrning o'rtalarida Buxoroda tadqiqot olib borgan rus olim N.Xanikovning fikriga ko'ra, boshlang'ich maktablar Buxoro shahrida va boshqa shaharlarda, shuningdek, qishloqlarda juda ko'p bo'lgan [6.210]. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra ham Buxoro shahrining har bir ko'chasida maktab bo'lgan [7.23]. Maktablar asosan musulmonlarning xayr-ehsonlari yoki amirning buyrug'iga muvofiq umumiy mablag' evaziga ham tashkil etilgan. Jumladan, Mir Mansurning qizi Nozikoy yetti xonali uy va boloxonadan iborat bo'lgan hovlisini maktab o'quvchilari foydasiga diniy ta'lim olishlariga yordam sifatida vaqf qildirgan. Maktablarni tugatgan o'quvchilar asosan madrasalarda ta'lim olishni davom ettirgan. Madrasalar aholining savodxonligini oshirish, turli dunyoviy va diniy bilimlarni egallashi uchun asosiy markaz vazifasini o'tagan. Bu markazlar turli ijtimoiy guruhlarga mansub aholi vakillarining sa'y-harakati tufayli rivojlanib borgan va jamiyat madaniy-ma'naviy taraqqiyoti uchun xizmat qilgan. Amirlikdagi aholining ilm ma'rifatdan bahramand bo'lishi diniy va dunyoviy bilimlarni egallashiga imkoniyatlar yaratilganligi Buxoroda ijtimoiy madaniy muhitning o'ziga xos tarzda o'zgarishiga yo'l ochgan. Undan tashqari madrasalar ham turli sohalariga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar imtihon asosida qabul qilingan. Madrasalarda o'qitish ilgari davrlarda bo'lganidek uch bosqichda, 1) past qadam; 2) miyona (o'rta) qadam va 3) peshqadamda amalga oshirilib, yetti yil davom etgan [8.17]. Madrasalarda tahsil jarayoni turli xil: 6,10,12 yil davom etgan bo'lib, ularni tamomlash ko'p hollarda talabalarning iqtidori va qobiliyatiga bog'liq bo'lgan. Buxoro amirligi davrida madrasalardagi mudarrisning ham toifasi turlarga bo'lingan. Ilmi va tajribasiga qarab oliy, o'rta va quyi toifaga ajratilgan. Shuning uchun faqatgina talabalar emas, balki mudarrislar o'rtasida ham bilimni oshirishga qiziqish va raqobat mavjud bo'lgan. Madrasa talabalari Qur'oni karim, fiqh, shariat asoslari, diniy-axloqiy adabiyotlar bilan birga til, adabiyot, tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, handasa kabi dunyoviy va aniq fanlardan ham ta'lim olgan. O'rnatilgan qoidaga ko'ra, talaba madrasada tahsil olishi, uning hujrasida yashashi, moliyaviy ta'minot olish uchun ichki tartibga rioya etishi talab qilingan. Uzrsiz sabab tufayli madrasani ma'lum muddatga tark etishi taqiqlangan, qoidani buzgan talaba o'qish va yashash joyi (hujra)dan mahrum etilgan [9.32-33].

Buxoro madrasalari o'zining islom dunyosidagi mavqeyi va nufuzini bu davrda ham yo'qotmagan. Buxoro amirligida ta'lim tizimining yuqori bosqichi bo'lgan madrasalar shariat, ta'lim va boshqaruv tizimiga kadrlar tayyorlash, islom asoslarini o'rgatish, adabiyot, mantiq kabi fanlarni o'rgatuvchi maskan sifatida nafaqat O'rta Osiyoda, balki musulmon dunyosida mashhur bo'lgan. Bu davrda Buxoroda shariatga ko'ra, ilm o'rganish uchun murojaat qilgan kishiga rad javobini berish og'ir gunoh hisoblangan [10. №21-93]. O'qishga kelgan har bir bolaning qaysi ijtimoiy toifadan bo'lishi va o'qish uchun qancha haq to'lashidan qat'i nazar, o'qituvchilar zimmasiga ularni e'tirozsiz o'qitish vazifasi yuklatilgan. Chunki har bir musulmonning bilim olishi ham qarz, ham farz bo'lganligi hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan edi [10. №21-93]. Professor Baxtiyor To'rayevning fikriga ko'ra, Buxoroda ilmfan arablar davriga qadar ham yuqori darajada shaharning iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan rivojlanganligi arablarning shart-sharoitlaridan yaxshi bo'lgan. Islomning kirib kelishi va islomda ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farz ekanligi bu jarayonlarni yangi bosqichga ko'tardi. Ma'naviyatga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Buxoro amirligi davrida maktab va madrasalarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining nazorati bilan amirlarning o'zi shug'ullangan. Madrasalar va mudarrislar ustidan nazorat kuchli bo'lganligi uchun ham ta'lim-tarbiya sifati yuqori bo'lgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Buxoro amirligiga oid tarixiy manbalar ustida ishlash, tarixiylik, matiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, qo'lyozma manbalarni tarjima qilish uslublaridan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** Buxoroda amir Shohmurod (1785-1800)ning hukmronligi davrida adabiyotning barcha turlari gullab-yashnagan. Bu davrdagi xalq orasidagi urf-odatlar bilan shar'iy me'yorlarning mos kelmasligi amir Shohmurodni barcha sohalarda "qat'iy shar'iy hukmlar" o'rnatish yo'lini izlashga undagan. Bu o'rinda amir shar'iy hukmlarni qo'llashni tatbiq qilib, uning o'g'li amir Haydar (1800-1826) tomonidan davom ettirilgan diniy islohotlar e'tiborga loyiq. Shohmurod shariat ko'rsatmalarini amalda qo'llash yuzasidan o'ziga xos "taftish" o'tkazgan. Uning bevosita ishtirokida Buxoro faqihlari tomonidan chiqarilgan qator fatvolar saralanib, kodifikatsiya qilingan. Bu fatvolar to'plami (Fatavoyi ahli Buxoro) tugallanmay qolib ketgan. Manbalarda keltirilishicha, ushbu asarni keyinchalik o'g'li amir Haydar davom ettirgan [11.98.]. Ayni paytda ushbu hukmdorlar davrida vaqfga berilgan qator o'quv muassasalari (eng avvalo madrasalar) qayta tiklangan.[12.2193]. Amir Shohmurodning o'g'li amir Haydar (1800-1826) hukmronlik qilgan davrda otasining davriga qaraganda anchagina sustlashgan bo'lsa-da, bu davrda ham "Tarixi amir Haydar" va "Gulshan al-muluk" kabi asarlar yozilgan. Amir Haydar davrida diniy bilimlarni, ayniqsa, fiqh ilmini o'rganish juda keng tus olgan. Demak, fiqh ilmlari bilan shug'ullangan kishilar islomning boshqa ilmlarini ham yaxshi bilganlar, chunki fiqhni bilmasdan tasavvufni anglash mumkin mumkin emas.

XVIII-XIX asrlarda Buxoro madrasalarida diniy bilimga talab kuchli bo'lgani kabi dunyoviy bilim berishga ham e'tibor qaratilganligi bois madrasalarning nufuzi baland bo'lib qo'shni davlatlardan ham ilm olish maqsadida Buxoro madrasalariga kelishgan. Hatto a'lo baholarda o'qigan talabalarga amir sovg'asi topshirilgan. Manbalarda Mir Arab madrasasini a'lo baholarda tugatgan talabalarga "Qur'oni karim" yoki "Sahih Buxoriy" topshirilgani keltirib o'tilgan [13.64]. Mudarrislariga ham ilmiy faoliyatiga qarab amir tomonidan sovg'alar topshirilgan. Madrasalarda ta'lim bilan birga tarbiyaga ham katta e'tibor qaratilgan. Mang'itlar davrida madrasalardagi tarbiya jarayonini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: 1) ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tarbiyaviy choralar; 2) ta'lim bilan uzviy bog'liq bo'lgan axloqiy tarbiyaga yo'naltirilgan choralar [14.18.]. Mang'itlar davrida ilm egallashga kelgan talaba uning qaysi tabaqadan bo'lishidan qat'iy nazar, u madrasaning qonun-qoidalariga bo'ysunishi shart bo'lgan. Talaba madrasa qonun-qoidalariga rioya qilmasa yoki axloq qoidalariga amal qilmasa, uning bilimi yuqori darajada bo'lsa hamki, u talabalar safidan chiqarilgan yoki qattiq ogohlantirish berilgan. Buxoro amirligida eng mashhur va nufuzli oliy o'quv yurti bu Mir Arab madrasasi bo'lgan. Madrasaning nomi ham uni qurdirgan

shayx nomi bilan bog'liq bo'lib, uning to'liq ismi Mir Arab Abdulloh al-Yamaniy bo'lgan. 1530-yilda bunyod etilgan bu madrasa shaharning markaziy qismida qurilgan, uning baland peshtoqlari va gumbazlari bo'lib, shimoliy gumbazi yarim koshin bilan qoplangan, janubiy gumbazi esa bezatilmagan. Madrasaga hashamatli baland peshtoqdan kirilgan. Mir Arab madrasasining vaqfnomasida qayd etilishicha, bu yerdan juda ham ko'p olim va ulamolar yetishib chiqqan.[15.325].

Buxoro amirligi davrida madrasada ta'lim beradigan mudarrisning ham obro'yi baland bo'lib, tarixda ayrim hukmdorlarning o'zi ham madrasada mudarrislik qilgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Masalan, amir Shohmurod va uning o'g'li amir Haydar Mir Arab madrasasida mudarrislik qilgan. Tarixchilarning asarlarida Amir Haydarning madrasada ta'lim oluvchi 400-500 nafar talaba shogirdlari ham bo'lganligi qayd etilgan[16.110]. U talabalar uchun Istanbuldan kitoblar keltirishga shaxsan o'zi harakat qilgan[17.107].

Ahmad Donish fikriga ko'ra, mudarrislik kasbining mashaqqatlari haqida, "kunduzi muallim o'z o'quvchilari bilan mashg'ulotda band bo'ladi, kechqurun esa ertangi kungi mashg'ulotlarga tayyorlanadi, xullas, u umr bo'yi o'qiydi va o'z kasbi bilan muttasil, tanaffussiz shug'ullangan"[18.224-225]. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mudarrislik kasbi mashaqqatli bo'lsa ham, amirlar davlatni boshqarishdek mas'uliyatli vazifani mudarrislik qilib ham bajarganlar. Bu esa nafaqat oddiy aholi, hatto amirlarning ham ilmga qiziqishi yuqori bo'lganligini anglatadi.

Buxoro amirligi davrida Buxoroda dunyoviy va diniy ilmlarning ahvoli haqida ba'zi tarixchilar salbiy fikrlarni ham bildirib o'tganlar. Jumladan, S.M.Gramenitskiy madrasada o'qitiladigan fanlarni tahlil etar ekan, "Hisob ilmi" (matematika) fani meros masalasini hal etish uchun o'qitilishi, unda arifmetik to'rt amalni o'tib, qolgan son, kasr, proporsiyalar o'qitilmasligi hamda talabalarning algebra fanini umuman bilmasligini ta'kidlagan. Lekin Buxoro amirligida madrasalarda tahsil olganlarning darsliklari va daftarlari hozirga qadar arxivlarda saqlanib kelinmoqda. Ushbu arxiv hujjatlariga tayangan holda tadqiqotchi L.Asorova "Buxoro madrasalari tarixidan" nomli kitobida Gramenitskiyning bu fikrlari noto'g'ri ekanligini asoslab bergan[19.28]. Qolaversa, madrasaga qabul qilinadigan talabalar maktabni tugatgan o'quvchilardan imtihon asosida qabul qilingan.

Buxoro amirligida Amir Doniyolbiyning kichik o'g'li Muhammad Yoqub Buxoriy Amir Haydar to'g'risida yozar ekan, uni shunday ta'riflab beradi: "Ilmli, ma'rifatli, qat'iyatli, xudojo'y, hadis ilmining bilimdoni. Davlat ishlari bilan qanchalik band bo'lmasin, baribir u har kuni 400 ta talabaga ma'ruza qiladi. Shayxlarni hurmat qiladi hamda ularga katta miqdordagi g'allani in'om etadi. Jumannamozini va kechqurungi ibodatlarini hech qachon kanda qilmaydi"[20.121.]. Amir Haydar 1826-yilning 6-oktyabrida vafot etib, Buxoroning Jo'ybor mavzesidagi qabristonda otasi Shohmurod yonida dafn etilgan. Movarounnahr tarixchilari Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi davri Buxoro amirligining kuchaygan, gullab-yashnagan yillari ekanligini yozib qoldirgan [21.121].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Buxoroda oliy va o'rta madrasalarning qurilishi faoliyatlarining yo'lga qo'yilishi Buxoroning o'rta asrlardagi nufuzini qaytarishga bo'lgan harakat deb aytish mumkin. Buxoro shahrining amirlikning poytaxti sifatida shakllanishi ham turli hududlardan tolibi ilmlarning kelib tahsil olishiga, shuningdek, madrasalarning ham nufuzlari yaratilgan imkoniyat shart-sharoitdan yuksalganini ko'rsatadi. Madrasalarda ilmga e'tibor, ayniqsa, dunyoviy va diniy ilmlarga bo'lgan e'tibor Buxoroda amirlik davrida o'ziga xos rivojini anglatadi. Bu davrda yetishib chiqqan ilm ahllari ularning asarlari katta ma'naviy meros bo'lib qolgani ahamiyatlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Раззоқ А. Бухорий. К. Рахимов.Бухоро: Кубатул-ислом шахри. –Тошкент: SPLENDID, 2021. –Б.27-28.
- 2.Абдулкарим бинни Хусайн ал-Анджоний. Мутун (Матнлар). – Қозон., 1909 (араб ёзувида). Фитрат А. Танланган асарлар. V жилд. –Т.: "Маънавият" 2010.-Б. 62-207.
- 3.Хамидов А. Тажвид. Ислом. Энциклопедический словарь. –М.: Наука, 1991. – С. 220.

4. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург: Императорской Академии Наук, - СПб. 1843. - С.210.
5. ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 6-варақ; 323-фонд, 1-рўйхат, 1116-иш, 1- варақ; 1010-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 23-варақ.
6. F. Bobojonova. The issues of construction of the bukhara madrassas, their material and organization of their activity.- Центр научных публикаций, (buxdu. uz), 2021. SOCIAL SCIENCES AND HISTORY Journal homepage.
7. Асророва Л.К. Бухоро мадрасалари тарихидан. Ҳилол-Нашр. –Тошкент. 2016, - Б.17.
8. Каттаев К. Самарқанд мадрасалари ва илму фан ривож. –Самарқанд, 2003. – Б.32-33.
9. Мухаммад Шарифжон Зиё Садр. “Зикри асомии мадориси дохилаи Бухорои шариф”. //Қўлэзма. ЎРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, № 2193.
10. Мирзо Салимбек. Кашкули Салимий. Таворихи муттақадимин ва мутаахирин. Форс-тожик тилидан Н.Йўлдошев таржимаси. –Бухоро. Бухоро, 2003. -Б. 51.
11. Мирзо Абдулазим Сомий. Тарихи салотини манғития. ЎзР ФА Шарқшунослик институтида инв. № 4330/VI. –Б.98.
12. Мухаммад Шарифжон Зиё Садр. “Зикри асомии мадориси дохилаи Бухорои шариф”. //Қўлэзма. Ўзбекистон ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, № 2193.
13. Мулла Мухаммад Шариф. Тарихи Амир Ҳайдар. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлэзмалар фондида инв. № 1836. –Б.64.
14. Асророва Л.К. Бухоро мадрасалари тарихидан. –Тошкент: Ҳилол-Нашр. 2016 - Б.18.
15. Бобожонова Ф.Х. Бухоро амирлигида таълим тизими масалалари. SCIENTIFICPROGRESS.VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-160. Page 325.
16. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркистана. – Л.: Изд-во Академии Наук СССР. 1927. – С. 110.
17. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков XVIII-XIX вв.). - Алматы. Изд.: Дайк-Пресс, 2004. - С. 107.
18. Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. Перевод: М.Н. Османов, Л.Н. Демидчик. – Сталинабад: Изд. Дом “Орлик”, 1960. - С. 224-225.
19. Асророва Л.К. Бухоро мадрасалари тарихидан. Ҳилол-Нашр. Тошкент. 2016, - Б.28.
20. Саидкулов Т. Очерки историографии истории народов Средней Азии. - Т., Укитувчи, 1992. – С. 106.
21. Мухаммад Шарифжон Зиё Садр. “Зикри асомии мадориси дохилаи Бухорои шариф”. //Қўлэзма. ЎРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, № 2193.
22. Мулла Мухаммад Шариф. Тарихи Амир Ҳайдар. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлэзмалар фондида инв. № 1836. –Б.64.

## DEMOKRATIYA VA DEMOKRATIZM PRINSIPINING IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLARGA TA’SIRI (FENOMENOLOGIK YONDASHUV)

**Saurov Ravshonbek Ruslanbek o‘g‘li,**  
Toshkent xalqaro universiteti  
“Huquqshunoslik” kafedrasida katta o‘qituvchisi  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
[ravshonbek.saurov@gmail.com](mailto:ravshonbek.saurov@gmail.com)  
ORCID 0000-0001-9353-7146  
UDK. 316.334.3

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada demokratiya va demokratizm prinsipining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri yoritib berilgan bo‘lib, unda Yevropada liberal-demokratik g‘oyalarning tarqalishiga katta hissa qo‘shgan faylasuflarning demokratiya va demokratizm prinsipi to‘g‘risidagi qarashlari falsafiy-siyosiy jihatdan ochib berilgan. Shuningdek, o‘tgan asrning 90-yillari va bugungi kundagi dolzarb ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda demokratiya va demokratizm prinsipining ahamiyati va roli keltirib o‘tilgan.

Mazkur maqolada demokratiya va demokratizm usullari ijtimoiy-siyosiy hayot nuqtayi nazaridan turli tiplari keltirilib, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o‘rni yoritiladi. Bu jarayonlarda ko‘pincha g‘arb tajribalarini o‘rganish yetakchilik qilayotgani, g‘arb ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rang-baranglik, ziddiyatlar, manfaatlar o‘rtasidagi kurashlar tadqiqotchilarga qiziqarli ko‘rinayotganligi, shuning uchun ularda Sharq etnosiyosiy tajribalari kamdan kam tilga olinayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar.** demokratiya, demokratizm, liberalizm, kommunistik ideologiya, liberal-demokratiya, etnosiyosiy tajribalar.

## DEMOCRACY AND THE INFLUENCE OF THE PRINCIPLE OF DEMOCRACY ON SOCIAL AND POLITICAL PROCESSES (PHENOMENOLOGICAL APPROACH)

**Abstract.** This article examines the impact of democracy and the principle of democracy on social and political processes, and analyzes the philosophical and political views of philosophers who made a significant contribution to the spread of liberal-democratic ideas in Europe. In addition, the importance and role of democracy and the principles of democracy in the current socio-political processes of the 1990s and today highlighted.

This article presents various types of democracy and methods of democracy from the point of view of socio-political life, and their place in socio-political processes discussed. In these processes, information provided that the study of Western experiences seems to be leading, that the diversity, contradictions, and struggles between interests in Western socio-political life seem interesting to researchers, and therefore, that Eastern experiences of ethnogenesis are less and less taken into account.

**Key words.** democracy, democratism, liberalism, communist ideology, liberal democracy, ethnosocial experiences.

**Kirish.** Demokratik taraqqiyotga oid konsepsiyalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi maqsadlilik, konseptual g'oyalar davlat va jamiyat boshqaruvining samarali ishlashini ta'minlaydi, davlat bilan fuqaro, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni ratsional, permanent qiladi, meritokratiyaga ehtiyoj yuzaga keladi. Demokratik taraqqiyot konsepsiyalariga qarab jamiyatdagi kratologik qarashlarga baho berish, demokratizm prinsipining ishlashini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham falsafiy-kratologik va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda demokratik taraqqiyot konsepsiyalarini o'rganishga, ulardagi demokratizm prinsiplarining real hayotda aks etishiga alohida e'tibor berishadi. Bugun ijtimoiy-siyosiy hayotda keng namoyon bo'layotgani liberal-demokratik taraqqiyot konsepsiyasidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Liberal-demokratik g'oyalar asosan g'arbda paydo bo'lgan va BMT, YUNESKO, YUNISEF, YI kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar targ'ib etayotgan falsafiy-aksiologik va huquqiy qadriyatlar asosan ana shu g'oyalarga tayanadi. Bu borada T. Gobbs (1588–1679), B.Spinoza (1632–1677), J.Lokk (1632–1704), Sh.S. Monteskyo (1689–1755), B.Franklin (1706–1790), D.Yum (1711–1776), I.Kant (1724–1804), Gegel (1770–1831), J.Mill (1806–1873), K Marks (1818–1883), E.Dyurkgeym (1858–1917), F.fon Xayek [6] (1899–1992), K.Popper (1902–1992) [7] kabi<sup>2</sup> mutafakkirlarning falsafiy merosini, inson va jamiyat, fuqaro va davlat haqidagi qarashlarini esga olish mumkin. Biz ushbu meros va qarashlarni tahlil qilmoqchi emasmiz, u boshqa mavzu. Aynan ushbu faylasuflar Yevropada liberal-demokratik g'oyalarning tarqalishiga katta hissa qo'shganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yozishda tarixiy-falsafiy, qiyosiy va tizimli tahlil, analiz va sintez, kompleks yondashuv usullari va tarixiylik, mantiqiylik hamda vorisiylik metodlardan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** "Shaxs erkini yuqori qo'yish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, inson huquqlarini demokratik taraqqiyot mezoni sifatida qarash, ushbu huquqlarni sud hokimiyati tomonidan himoya qilish tizimini shakllantirish, inson erki siyosiy hayotda emas, balki davlatning shaxs hayotiga aralashmasligida deb qarash, inson huquqini ta'minlash uchun fuqarolik jamiyati institutlari va uyushmalarini barpo qilish kabilar mazkur konsepsiyaning ichki xususiyati, mohiyati hisoblanadi. Shaxsning erki va huquqlari liberal demokratiya targ'ib etadigan, himoya

<sup>2</sup> Каранг: Антология мировой политической мысли. –Москва: Мысль, 1997; История политических и правовых учений.- Москва: НОРМА, 2000; Ашин Г.К. Элитология. Становление. Основные направления. –Москва: Изд. МГИМО, 1996; Власть. Очерки современной политической философии Запада. Под ред Е.В.Осипова.- Москва: Наука, 1989; Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. Учебное пособие. 2 е изд.- Москва: Аспект Пресс, 1995; Хайек Ф. Общество свободных. – London, 1994; Поппер К. Открытое общество и его враги.- Москва: Культурная инициатива, 1990; Alder I. Constitutional and Administrative Law. Second ed.- London, The Macmillan press limited, 1994; Schwai tzenhtrg R.G. Sociologie politique. –Paris, 1998

qiladigan qadriyatlaridir”[10, 23 b.]. G‘arb liberal demokratiyasining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri doimo ziddiyatli bo‘lgan, shuning uchun undan najot izlash an’anasi bir yoqlama yondashuv tuyuladi. O‘tgan asrning 90-yillarida SSSR davlatining tarqatib yuborilishi va kommunistik ideologiyaning tanazzuli ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, ayniqsa, endi mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgan postsovet makonidagi davlatlarni g‘arb liberal demokratiyasiga murojaat etishga undadi. Bu murojaatni hatto mutlaqlashtirish, milliy demokratik tajribalarni inkor etish yoki mensimaslik darajasiga yetdi. Biroq g‘arb liberal demokratiyasining salbiy ta’siri borligini ayrim tadqiqotchilarimiz ochiq aytishdan tortinmadilar. Masalan, falsafa fanlari nomzodi, dotsent B.Umarov yozadi: “Keyingi vaqtda liberalizm ta’limotining inqirozga yuz tutayotgani, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar yo‘lida g‘ov bo‘layotgani haqida mulohazalar ko‘payib bormoqda. Ayrim mualliflar bu ta’limotni ma’naviy qadriyatlar va oilaning axloqiy asoslariga putur yetkazishda ayblayotgan bo‘lsa, boshqalar uning jahonda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga xolisona baho bera olmayotgani, mazkur jarayonlarga ikki xil andoza bilan yondashayotganini ta’kidlamoqda... . Darhaqiqat, liberalizm zamirida shaxs huquq va erkinliklarining mutlaqlashtirilishi, turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy-ma’rifiy hayoti faqat liberal g‘oya va qarashlar asosida baholanishi o‘sha davlatlarning milliy qadriyatlari, an’analari, hatto mustaqil rivojiga putur yetkazishi mumkin. Bu hol o‘tgan asrning oxirida mustaqillikka erishgan sobiq Ittifoq respublikalari iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ldi” [11, 70-71-b.]. Shunga yaqin fikrlarni XX asr boshlarida italiyalik faylasuf va huquqshunos V.Pareto ham bildirgan edi. Uning fikricha, g‘arb demokratiyasi, liberal g‘oyalari xususiy mulk, kapitalning ortishi, inson huquqlarining mensimaslik, manfaatlar kurashi kabilar ta’sirida o‘zining qimmatini va ahamiyatini yo‘qotdi, u ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilmay qo‘ydi [12, 5 b.]. Bugun Rossiya–Ukraina urushi fonida g‘arb liberal demokratiyasining chin basharasi, uning g‘ayriinsoniy jihatlari yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni bayroq qilib olgan g‘arb liberal demokratlari, ularga rahnamolik qilayotgan AQSh va Yevropa siyosatchilari Rossiya, Xitoy, Eron, Shimoliy Koreya, hatto Markaziy Osiyolik tadbirkorlarning xususiy mulklarini, aktivlarini, xalqaro normalar va shartnomalarni ochiqdan-ochiq buzib, tortib olish siyosatini olib bormoqda. Masalan, yurtdoshimiz, yirik tadbirkor va metsenat A.Usmonovning Yevropadagi mulklari musodara qilingan. Aytish mumkinki, ilgari sovet totalitarizmi dunyoga hukmronlik qilishga intilgan bo‘lsa, bugun dollar va yevroga asoslangan anglo-sakson totalitarizmi dunyoga hukmronlik qilishga intilmoqda. Bu g‘arb liberal demokratiyasining tub mohiyatini aks ettiruvchi hodisadir. G‘arb ijtimoiy-siyosiy hayoti o‘zining liberal-demokratik g‘oyalarni global voqelikka aylantirishga qurilgan, uni milliy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘ziga xoslik va etnomadaniy an’analar qiziqtiravermaydi... Yana shuni aytishimiz joizki, bugungi g‘arb siyosatchunolarining soxta liberal-demokratik davlatlari T.Gobbs, Monteskyu, Kant, Gegel va Popper kabi yirik faylasuflarning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-huquqiy merosining ahamiyatiga putur yetkazmaydi. Ular barcha insonlar va xalqlar o‘rtasidagi teng huquqlikka qurilgan liberal-demokratik g‘oyalarning tarafdorlari edi, bu meros gumanistik mohiyati bilan qadrlidir. Bugun (2023-yil 25-fevral) internetda AQSh va Yevropa davlatlari Xitoy va Hindistonning Rossiya bilan aloqalarini to‘xtatishga, Rossiya bilan aloqalar olib borayotgan uchinchi davlatlarga sanksiya e’lon qilishini bildirishi haqida xabar tarqaldi. Ushbu ro‘yxatda Markaziy Osiyo, shu jumladan, O‘zbekiston ham borligi g‘arb liberal-demokratiyasi tarafdorlari va siyosatchilarining asl niyatlari nimada ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, siyosatchilarning demokratizmi (usullari, vositalari) demokratiya (ideal)ni har doim rad etishi, uni yomonotli qilishi mumkin ekan. Shuning uchun ham demokratizmi o‘zgartirish, boshqa maqsadlarga muvofiqlashtirish mumkin, ammo demokratik idealni o‘zgartirish mushkul. Xalqlar liberal demokratiyani ideal tarzida qabul qiladi, ularning ushbu idealga ishonishi davlat va jamiyat boshqarishini xalqchillashtirishga bo‘lgan ishonchi ifodasidir. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshqarishga bosh-qosh bo‘layotgan liderlar va institutlar bugun mavjud, ammo ular, obyektiv omillar ta’sirida, keraksiz narsa

sifatida uloqtirilishi mumkin. Demokratiya esa, ideal sifatida, xalqlar orzu-tilaklarida, kelajakka bo‘lgan ishonchida barqarordir.

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda “to‘g‘ridan to‘g‘ri demokratiya” degan tushuncha ko‘p ishlatiladi. Ushbu demokratiyaning immanent xususiyatlariga:

referendum;

xalq qonunchilik ijodkorligi

xalq vetosi (abrogativ referendum);

turar joylaridagi aholi yig‘inlari;

saylovlar orqali boshqarish jarayonlariga aholining ta‘sir etishi

saylangan deputatlar va rahbar xodimlarni qayta chaqirib olish;

saylanadigan organlarni tarqatib yuborish kabilar kiradi [14].

Referendumning genezisi Shveysariyada 1848-yili o‘tkazilgan xalq ommasining konstitutsiyaga oid ovoz berishiga borib taqaladi. Shundan beri Shveysariyada 521 ta referendum o‘tkazilgan, ulardan 216 tasi konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Unda har yili 4 marta referendum o‘tkaziladi. Referendumga hukumatning inson erkinligini davlat in‘om etadigan imtiyozlardan biri sifatida e‘tirof etishi sabab bo‘lgan. Xalq esa erkinlikni fuqaroning tabiiy huquqi sifatida e‘tirof etilishini istab ovoz bergan [15]. Shuningdek, amaliyotda mahalliy referendumlar ham o‘tkazib turiladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi subyektlari mahalliy referendumlar o‘tkazishi mumkin. Qanday bo‘lmasin xalq o‘z irodasi va erkini referendumlar orqali ifoda etib, hukumat va davlat organlarini ana shu referendum talablariga, qarorlariga muvofiq ishlashini o‘rnatadi.

Globallashuvning bosh aktori AQSh va g‘arb tafakkuri, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni g‘arbone talqin qilish esa dunyoda yagona to‘g‘ri model bo‘lishi zarurligini yetakchi siyosatshunoslar va globalistlar ochiq tan olishadi [13, 12-13 c.]. Ushbu globalistik yondashuv etnomadaniyatlarida e‘tiroz uyg‘otmasligi mumkin emas. Globalizmning keng tarqalishini obyektiv zaruriyat sifatida e‘tirof qilgan holda, aytish mumkinki, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar nafaqat global demokratiya, shuningdek, etnosiyosiy tajribalarni ham hisobga oladi. Globalizm bilan etnosiyosiy tajribalarni uyg‘unlashtirish ikki tomon uchun ham foydalidir.

Ilmiy adabiyotlarda demokratiya va demokratizm usullari ijtimoiy-siyosiy hayot nuqtayi nazaridan turli tiplarga ajratiladi. Ular qatoriga elektron demokratiya va demokratizm, partitsipator demokratiya va demokratizm, kengashuvga asoslangan demokratiya va demokratizm, vakillik va delegativ demokratiya, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy demokratiya kabilar kiritiladi. Ular ilmiy adabiyotlarda yetarlicha tahlil qilinadi, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o‘rni ochib beriladi [16] [17] [18] [19] [20]. Mazkur adabiyotlarda e‘tibor g‘arb tajribalarini o‘rganish yetakchi o‘rinda turadi, g‘arb ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rang-baranglik, ziddiyatlar, manfaatlar o‘rtasidagi kurashlar tadqiqotchilarga qiziqarli ko‘rinadi, shuning uchun ularda Sharq etnosiyosiy tajribalari kamdan kam tilga olinadi. Tilga olinganda ham tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi, Gegelning: “Sharq despotiyasi” degan ta‘rifi ta‘siri hamon uchrashi kuzatiladi. Vaholanki, o‘tgan asrning o‘rtalarida boshlangan global o‘zgarishlar deyarli barcha etnomadaniyatlar va etnosiyosiy jarayonlarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Bu ta‘sir revolyutsion xarakterga ega bo‘lmasa-da, etnomadaniy va etnosiyosiy hayotda asta sekinlik bilan, evolyutsion tarzda o‘z aksini topmoqda. U evolyutsion rivojlanishga moyil Sharq xalqlarida fenomenal hodisadir.

**Xulosa.** Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar anglangan, tashkil etiladigan, aniq maqsad va vazifalarni nazarda tutadigan, mas‘ullikni o‘z ustiga oladigan aktorlarni taqozo etadigan hodisadir. Ularni mas‘uliyatdan yiroq, o‘zining egoistik manfaatlarini ko‘zlovchi, sodda kishilarni o‘z ketidan ergashtiruvchi destruktiv kuchlar qo‘liga topshirib bo‘lmaydi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o‘ta murakkab va ziddiyatlarga to‘la voqelik ekani bu borada ma‘lum bir tajribalar va bilimlarga ega shaxslarni siyosiy lider bo‘lishga undaydi, bu tabiiy holdir. Agar ushbu etnosiyosiy tajribalar va kratologik talablardan kelib chiqsak, demokratiya va demokratizm ham ana shunday siyosiy-ratsional, umumxalq manfaatlariga xizmat qilishga tayyor, fidoyi kishilar tomonidan amalga oshirilganida, yo‘lga qo‘yilganida ijtimoiy



taraqqiyotga eltadi. Demak, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar demokratiya va demokratizm ta'sirida ijtimoiy taraqqiyotga qaratilishi uchun maxsus bilim va siyosiy tajribalarga ega shaxslar islohotchi bo'lishi zarur. Bu shunchaki metafizik yoki spiritualistik mushohada emas, u ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv talabidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Антология мировой политической мысли. – Москва: Мысль, 1997.
2. История политических и правовых учений. – Москва: НОРМА, 2000.
3. Ашин Г.К. Элитология. Становление. Основные направления. – Москва: Изд. МГИМО, 1996.
4. Власть. Очерки современной политической философии Запада. Под ред. Е.В.Осипова. – Москва: Наука, 1989.
5. Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. Учебное пособие. 2 е изд. – Москва: Аспект Пресс, 1995.
6. Хайек Ф. Общество свободных. – London, 1994;
7. Поппер К. Открытое общество и его враги. – Москва: Культурная инициатива, 1990.
8. Alder I. Constitutional and Administrative Law. Second ed. – London, The Macmillan press limited, 1994;
9. Schwai tzenhtrg R.G. Sociologie politique. – Paris, 1998
10. Талапов Б.А. Демократия ва Ўзбекистонда миллий демократик тараккиёт. – Наманган, Зиё, 2022. 23 б.
11. Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент: Маънавият, 2006. 70-71 б.
12. Парето В. Трансформация демократии. Сборник. – Москва: Изд. дом “Территория”, 2017. - С. 5.
13. Сорос Дж. О глобализации.- Москва: ЭКСМО, 2004. - С. 122- 125.
14. Руденко В.Н. Прямая демократия: модели правления, конституционно - правовые институты. – Москва: Изд. РАН, 2003.
15. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki>
16. Токвил де Алексис. Демократия в Америке. – Москва: Прогресс, 1992; Ковлер А.И. Исторические формы демократии: проблемы политико-правовой теории.- Москва: Наука, 1990.
17. Комарова В.В. Формы непосредственной демократии. Учебное пособие. – Москва- Берлин, “Декрет Медиа”, 2014.
18. Наринский М,М. Демократия в Западной Европе XX века. – Москва: Институт всеобщей истории РАН, 1996.
19. Антонович И. Метафизика власти и эволюция демократии. – Москва: ВЭШ, 2023.
20. Садовникова Г.В. Представительная демократия: от идеи к реализации. – Москва: Изд. Гуманитарной литературы, 2008.

## SO‘ROV HOLATIDA XUSHMUOMALALIK SEMANTIKASINI IFODALASH VOSITALARI VA NUTQ MUHITI

**Feruza Umurova**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,  
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi

[umuroferuza@mail.ru](mailto:umuroferuza@mail.ru)

ORCID 0009-0001-7229-9414

UDK 415.616.2:177.2(045)

**Annotatsiya.** Maqolada so‘roq gaplarda xushmuomalalikning ifodalanishi sotsiopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xushmuomalalik, odatda, muloqot jarayonida shaxslar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va suhbatni odob-axloq me‘yorlariga muvofiq olib borishga qaratilgan nutqiy strategiya sifatida namoyon bo‘ladi. So‘roq gaplar, ayniqsa, ayollar nutqida ko‘pincha yumshoq ohang va muloyimlik orqali ifodalanib, sotsiopragmatik jihatdan suhbatdoshga nisbatan hurmat, e‘tibor va ehtiyotkorlikni aks ettiradi. Tadqiqotda so‘roq gaplarda xushmuomalalikni ifodalashning asosiy mexanizmlari sifatida iltimos shakli, savol ohangida so‘raladigan takliflar, yumshoq va nozik iboralardan foydalanish hamda suhbatdoshlarga tanlov imkoniyatini berish ko‘rsatib o‘tiladi. Bu pragmatik yondashuv, suhbatdoshning ijtimoiy maqomi, suhbatning vaziyatiga qarab, xushmuomalalik darajasini moslashtiradi va sotsiopragmatik jihatdan nutqning ko‘proq madaniy va odobli bo‘lishini ta‘minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘roq gaplarda xushmuomalalikning sotsiopragmatik jihatlarini chuqurroq o‘rganish orqali turli nutqiy vaziyatlarda kommunikativ samara va ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirish mumkin.

**Kalit so‘zlar.** so‘roq gaplar, xushmuomalalik, sotsiopragmatika, ohang, muloyimlik, iltimos shakli, savol takliflari, nutqiy strategiyalar, ijtimoiy munosabatlar, nutq etikasi, ayollar va erkaklar nutqi, kommunikativ samara.

### MEANS OF EXPRESSING THE SEMANTICS OF POLITENESS IN THE INTERROGATIVE CASE AND THE SPEECH ENVIRONMENT

**Abstract.** The article analyzes the expression of politeness in interrogative sentences from a sociopragmatic point of view. Politeness is usually manifested as a speech strategy aimed at managing social relations between individuals in the process of communication and conducting the conversation in accordance with the norms of etiquette. Interrogative sentences, especially in women's speech, are often expressed in a soft tone and gentleness, sociopragmatically reflecting respect, attention and caution towards the interlocutor. In the research, the main mechanisms of expressing politeness in interrogative sentences are shown to be the form of a request, requests in the tone of a question, the use of soft and delicate expressions, and giving the interlocutors the opportunity to choose. This pragmatic approach adjusts the level of politeness depending on the social status of the interlocutor, the situation of the conversation, and sociopragmatically ensures that speech is more cultural and polite. The results of the research show that it is possible to increase communicative efficiency and social flexibility in various speech situations by studying the sociopragmatic aspects of politeness in interrogative sentences.

**Key words.** interrogative sentences, politeness, sociopragmatics, tone, politeness, request form, question suggestions, speech strategies, social relations, speech ethics, women's and men's speech, communicative effectiveness.

**Kirish.** Badiiy matn til va uslub boyligini namoyon etadigan noyob maydon bo‘lib, unda nafaqat hikoya va syujet orqali voqealar rivoji ifodalanadi, balki qahramonlar o‘rtasidagi muloqot orqali ularning ichki kechinmalari, ijtimoiy rollari va bir-biriga nisbatan munosabatlari ham ochib beriladi. Bu jarayonda xushmuomalalik muhim kommunikativ vosita sifatida e‘tiborni tortadi. Ayniqsa, so‘roq gaplar yordamida xushmuomalalikning ifodalanishi, qahramonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatini va nutqiy odob-axloq qoidalariga rioya qilish darajasini yoritadi. So‘rov gaplarda xushmuomalalik suhbatdoshga hurmat va ehtiromni ifoda etish orqali muloqotning ijtimoiy mezonlariga moslashadi va shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Badiiy asarlar pragmatik tahlil uchun boy material taqdim etadi, chunki u yerda qahramonlarning muloqoti faqat matnli mazmun bilan cheklanmaydi, balki kontekst, vaziyat va ijtimoiy sharoitlar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, so‘roq gaplarda xushmuomalalikning

sotsiopragmatik aspektini o'rganish muhimdir. Bu yondashuv qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy pozitsiya, ularning suhbat jarayonida qanday rollarni egallashi, madaniy va axloqiy me'yorlarga qay darajada rioya qilinishini tushunishga yordam beradi. Ayollar nutqida esa bu xushmuomalalik ko'proq yumshoq ohang, muloyim so'zlardan foydalanish va ehtiyotkor yondashuv bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqot badiiy matnda so'roq gaplar orqali xushmuomalalikning sotsiopragmatik ifodalanishini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning qahramonlar o'rtasidagi muloqotni yanada boyitish va ularning shaxsiy xususiyatlarini ochib berishdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan. Ma'lumki, badiiy matn ekspressivlik ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lib, insonning ongi va shuuriga ta'sir qiluvchi, estetik zavq beruvchi omillardan biridir. Badiiy matnning quroli badiiy so'z va obrazlilikdir. Badiiy matn o'qish jarayonida adresant ruhiy, hissiy, aqliy ozuqa oladi. Agar tinglovchi til ilmi qonun-qoidalaridan xabardor bo'lsa, matnni to'liqroq tushunib his qiladi. Bundan tashqari, tafakkuri, ilmiy salohiyati yanada oshadi. Biroq tilshunos olim M. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, "badiiy matndan estetik ta'sirlanish darajasi hamisha ham bir xil bo'lmaydi. Bu shubhasiz, o'quvchining hayotiy tajribasi, filologik tayyorgarligi, estetik didi va saviyasiga bog'liq".[1]

"So'roq gaplar noma'lum bo'lgan voqea-hodisa haqida ma'lumot olish maqsadida ishlatiladi. Badiiy asarlarda so'roq gaplar muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnda esa so'roq gaplarning barcha turlarini har xil shakllarda ko'rishimiz mumkin. Tilning holati, undagi xilma-xil hodisalar, qonun-qoidalarni tavsiflovchi darslik va boshqa o'quv qo'llanmalarida ham asosiy faktik material badiiy asarlardan olinadi".[2]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ko'tarilgan muammoni ochib berishda tavsifiy, tipologik metodlar, matnda pragmatik, lingvomadaniy tahlil usullari qo'llanildi.

**Adabiyotlar sharhi.** Badiiy matnlarda so'roq gaplar orqali xushmuomalalikning ifodalanishi ko'p yillar davomida lingvistlar va adabiyotshunoslar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu mavzu tilshunoslikning pragmatika va sotsiolingvistika kabi sohalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, tilning vaziyatga moslashishi va muloqot odobining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi. So'roq gaplar yordamida xushmuomalalikni ifodalash madaniyatlararo farqlarga va muloqotning ijtimoiy mezonlariga bog'liq ravishda turlicha namoyon bo'ladi. Pragmatika va xushmuomalalik nazariyalari bo'yicha yetakchi olimlar orasida P. Braun va S. Levinsonning "xushmuomalalik nazariyasi" keng qo'llaniladi [3]. Ularning tadqiqotlari xushmuomalalikning ijtimoiy muvozanatni saqlash va shaxsiy "yuz"ni himoya qilishdagi rolini tahlil qiladi. Ular o'z tadqiqotlarida iltimoslar va so'rov gaplarni yumshatish orqali odamlar bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishini ta'kidlaydilar. Xususan, badiiy matnlarda qahramonlarning o'zaro muomalasi bu nazariyaga mos kelib, so'roq gaplar yordamida e'tiborli va muloyim muloqot qilinishini ko'rsatadi. Sotsiopragmatika aspektidan K. Ehrlich va R. Holmes [4] ayollarning nutqidagi xushmuomalalik va yumshoq so'zlashuvga bag'ishlangan tadqiqotlarida so'roq gaplar yordamida muloqot jarayonida ayollarning ko'proq muloyimlik ko'rsatishlarini ta'kidlashadi. Ularning fikricha, badiiy matnlarda ayollarning savol berish orqali qo'llaydigan yumshoq til unsurlari suhbatdoshga nisbatan hurmat va ehtiyotkorlikni ifodalaydi, bu esa sotsiopragmatik jihatdan muloqotni yanada ijtimoiy maqbul qiladi. Badiiy matnlarda xushmuomalalikni ifodalashga oid tahlillar adabiyotshunoslik sohasida ham e'tiborga loyiqdir. Masalan, G. Lakoffning xushmuomalalik va jinlar o'rtasidagi nutqiy farqlarni o'rganish bo'yicha ishlari badiiy matnlardagi qahramonlar o'rtasidagi muloqot orqali o'z aksini topadi. Lakoffning ta'kidlashicha, ayollar ko'proq muloyim va yumshoq ohangda so'rov gaplarni ishlatishadi, bu esa ularning nutqida xushmuomalalikning yuqori darajada ekanini ko'rsatadi[5]. Ushbu mulohazalar badiiy matnlarda ayol qahramonlar nutqini tahlil qilishda qo'llaniladi va ular o'zaro munosabatlarda ijtimoiy rol o'ynayotganini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, O'zbek adabiyotshunosligida ham badiiy matnlarda xushmuomalalikning ifodalanishi o'ziga xos ko'rinishlarda o'rganilgan. Masalan, Oybek, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon kabi o'zbek yozuvchilarining asarlarida qahramonlar o'rtasidagi muloqotda so'rov gaplar yordamida xushmuomalalikning ifodalanganini ko'rish mumkin. Bu

asarlar orqali o‘zbek tilidagi so‘roq gaplarning xushmuomalalikni qanchalik yumshoq va muloyim tarzda ifodalayotganiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu sharh so‘rov gaplarda xushmuomalalikning badiiy matnlardagi ifodalanishini tahlil qilishda pragmatika, sotsiopragsmatika va adabiyotshunoslik bo‘yicha tadqiqotlarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Badiiy matnlar qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zida aks ettirar ekan, ularning til vositalaridan qanday foydalanganini chuqurroq o‘rganish orqali, muloqotdagi xushmuomalalik va ijtimoiy me‘yorlar to‘g‘risidagi tasavvurlarimizni kengaytirishimiz mumkin.

Dolzarliligi va amaliy ahamiyati tufayli so‘rov janrini o‘rganish ilmiy asarlarda mustahkam o‘rin egallaydi. Tilshunoslar G.M. Yarmarkina so‘rovni kundalik ritorikaning bir turi sifatida o‘rgangan.

**Natijalar va muhokama.** Tadqiqotda badiiy matnlarda xushmuomalalikning so‘roq gaplar orqali sotsiopragsmatik ifodalanishini tahlil qilish maqsad qilingan. Ushbu metodologiya asosan tilshunoslikning pragmatika va sotsiopragsmatika sohalariga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – badiiy matnlardagi so‘roq gaplar yordamida qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarda qanday xushmuomalalik ifodalanishini aniqlash va uni ijtimoiy hamda madaniy kontekstda tushuntirishdir. Tadqiqotning metodik qismi bir nechta asosiy bosqichlardan iborat:

1. *Tanlangan badiiy asarlarni aniqlash va tahlil uchun ajratish:* tadqiqot uchun o‘zbek va jahon adabiyotidagi klassik badiiy matnlar tanlab olindi. Bu asarlar orasida Oybekning “Qutlug‘ qon”, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarlari va boshqa badiiy matnlar tanlab olindi.

Ushbu asarlar, badiiy til va qahramonlar nutqidagi xushmuomalalikni ifodalashda turli xil yondashuvlarni ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Matnlardan so‘roq gaplar va ular orqali namoyon bo‘lgan xushmuomalalik unsurlari kontekstual tarzda ajratib olinadi.

2. *Pragsmatik va sotsiopragsmatik tahlil:* Bu bosqichda har bir tanlangan matndagi so‘roq gaplar pragsmatik jihatdan tahlil qilinadi. Bunda quyidagi savollarga e‘tibor qaratiladi: so‘roq gaplarda xushmuomalalik qanday ifodalanadi? Suhbatdoshga nisbatan hurmat va e‘tibor qanday shakllarda namoyon bo‘lgan? Suhbat konteksti va ijtimoiy vaziyat bu gaplar orqali qanday aks ettirilgan? So‘roq gaplar orqali berilgan muloyimlik unsurlari suhbatning umumiy yo‘nalishiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi? Pragsmatika nuqtayi nazaridan, so‘zlovchining nutq niyati, suhbatdoshning reaksiyasi va muloqot vaziyatidagi xushmuomalalik darajasi o‘rganiladi. Sotsiopragsmatika esa qahramonlarning ijtimoiy maqomi, ularning rollari va o‘zaro munosabatlaridagi qanday ta‘sir ko‘rsatishini tahlil qiladi.

3. *Gender aspekti bo‘yicha tahlil:* bu bosqichda xushmuomalalikning ifodalanishi gender nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, ayol va erkak qahramonlarning so‘roq gaplar yordamida qanday tarzda xushmuomalalikni ifodalashi solishtiriladi. Ayollar nutqida yumshoq ohang va muloyimlikning ko‘proq qo‘llanishi hamda erkaklar nutqida bu xususiyatlarning qanday aks etishi o‘rganiladi. Ushbu tahlil asosan G. Lakoff va K. Ehrlichning gender va til bo‘yicha nazariyalariga tayanadi.

4. *Ma‘lumotlarni tasniflash:* Tadqiqot jarayonida tanlab olingan badiiy matnlardan so‘roq gaplar ajratib olinadi va ular tasniflanadi. Tasniflash jarayonida quyidagi unsurlar e‘tiborga olinadi: xushmuomalalik strategiyalari. Bunga: Iltimos shakli, taklif yoki maslahat shakli.

Muloqot konteksti: Ijtimoiy vaziyat, qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy maqom va munosabatlar.

Xushmuomalalik darajasi: Yumshoq ohang, muloyim so‘zlardan foydalanish, hissiy ehtiyotkorlik. Har bir so‘roq gapning muloqotdagi o‘rni va sotsiopragsmatik ma‘nosi izohlanib, ular toifalar bo‘yicha tasniflanadi.

5. *Natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish.* So‘rov gaplar orqali ifodalangan xushmuomalalik unsurlari va ularning badiiy matnda qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy va madaniy aloqalarga ta‘siri tahlil qilinadi. Ushbu jarayonda pragsmatik va sotsiopragsmatik

nazariyalardan foydalanib, natijalar to'liq izohlanadi. Gender, ijtimoiy maqom, madaniy muhit kabi omillar bu tahlilning markaziy nuqtalari bo'lib xizmat qiladi.

*O'rdada tushmaysizmi, singlim? "Ko'rdingmi, darrov chehrasi yorishdi. Nari borsa o'zing tengi xotin kishiga "xola" demasang asakang ketarmidi?(O'tkir Hoshimov, Nega?)* Xushmuomalalik nutq vaziyati omili asosida qo'llanilgan. Tabiatan ayol jinsidagi kishilar o'zini yosh ko'rinishga intilish, yosh bo'lishga urinish xislatlari mavjud bo'ladi. Bunda ayollarga xos bo'lgan xarakter jihatlarni hisobga olib so'z qo'llash orqali xushmuomalalik so'rov semasi namoyon bo'ladi.

– *Kechirasiz, singlim, o'tib ketsam... Rahmat... "Voy-bu-u! Atirga cho'milganmi bu xotin, nima balo, dimog'ni yoradi-ya! (O'tkir Hoshimov, Nega?)* Xushmuomalalik muloqot sharoiti nuqtayi nazaridan qo'llanilgan bo'lib, millatimiz xos bo'lgan ayollarni yaqinidan o'tayotganda yaqin bormaslik, tegib o'tmaslik uchun ijozat ma'nosida qo'llanilgan.

*Voyenniysi kim bo'ldi? Iye, mayor-ku! Savlatidan arava hurkadi. Nima gunohi bor ekan? Qiziq, quchoqlashga balo bormi?*

— *Kechirasiz, o'rtoq nachaynik. Men sizni...*

— *Hamid! Tanimading-a!*

— *Iye, voy, sen-ey! Voy «voyenniy-ey!» Shoshma bitta o'piy! E, shapkangni yechib turginda, mundoq Minorka! Mana bu boshqa gap! (O'tkir Hoshimov, Nega?)* Xushmuomalalik nutq egalari nuqtayi nazari omili asosida qo'llanilgan, tanish bolaligi bir bo'lgan kishilarga xos muloqot aks etgan.

Xushmuomalalikni ifodalash uchun so'roq gaplar turli usullarda qo'llaniladi. Quyida bu usullarning ayrimlari keltirilgan:

1. Yumshatish. Mazmunan buyruq gapni yumshatish orqali so'roq gaplar xushmuomalalik ifodalaydi. Masalan: *Kelin, bugun manti qilmaymizmi?*

2. Boshqalarning fikrini inobatga olish, so'rash xushmuomalalikni namoyon etadi. Masalan: "Sizningcha, bu to'g'ri yo'lmi?" yoki "Sizningcha, qanday qilish kerak?"

3. Xohish va iltimoslarni so'roq shaklida ifodalash yumshoqroq va xushmuomalalik bo'ladi. Masalan: "Menga yordam bera olasizmi?" o'rniga "Sizdan yordam so'rasam bo'ladimi?"

4. Leksik vositalar ishlatish xushmuomalalikni ifodalash uchun muloyim so'zlar va iboralar qo'llanadi. Bunga "iltimos", "kechirasiz", "mumkinmi?"

5. So'roq gaplar boshqalarga taklifni xushmuomalalikni ko'rsatadi. Masalan: "Kofe ichishni xohlaysizmi?" yoki "Biror yordam bera olamanmi?"

**Xulosa va takliflar.** Badiiy matnda xushmuomalalik bilan bog'liq so'roq gaplar sotsiopragmatik jihatdan juda boy va murakkab ifodalarga ega. Ushbu gaplar muallifning til vositalari orqali personajlararo muloqotda yumshatish, hurmat, samimiylik yoki, aksincha, kinoya, nazokat bilan tanqid kabi turli maqsadlarni ko'zlab ishlatiladi. Xushmuomalalik darajasining oshirilishi yoki pasaytirilishi, asosan, gapiruvchi va tinglovchining ijtimoiy maqomi, munosabatlardagi o'zaro hurmat darajasi, muloqotning madaniy konteksti va ma'naviy qadriyatlarga bog'liqdir. Shuningdek, badiiy matnlarda bu so'roq gaplar orqali qahramonlarning ichki dunyosi va ularning o'zaro aloqalari chuqurroq ochib beriladi. Shu tarzda, xushmuomalalik ifodalari so'roq gaplarida sotsiopragmatik vosita sifatida ham muloqot samarasini oshiradi, ham qahramonlarning xarakterlarini yanada ravshanlashtiradi.

### Adabiyotlar ro'yhati

1. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008, 137-бет.
2. Y. Yoqubova "O'tkir Hoshimov asarlarida so'roq gaplar lingvopoetikasi". "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliyizlanishlar" nomi ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya.
3. P. Braun va S. Levinson. Xushmuomalalik nazariyasi. Nashr: Politeness: Some Universals in Language Usage. 1987 K.
4. Ehrlich va R. Holmes. Ayollar nutqida xushmuomalalik. Nashr: The Handbook of Pragmatics. Nashriyot: Blackwell Publishing Yili: 2005.
5. Lakoff – "Til va jinslar o'rtasidagi nutqiy farqlar". Language and Woman's Place. 1975.
6. Oybek. Qutlug' qon. Toshkent: Yangi yo'l Poligraph Servise, 2019

7. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent: Sharq, 2018.
8. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995. –В. 29-бет.
9. Narxodjajeva X.Sh. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi. Ilm-fan-ma'naviyat, 2024. –В. 45.

## XALQ ERTAKLARI TILIDA BA'ZI METAFORALAR TAHLILI

**Sh.M.Kunnazarova**

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
[sholpankunnazarova@gmail.com](mailto:sholpankunnazarova@gmail.com)

ORCID: 0009-0007-7773-93-71

УДК: 494.3:413.1

**Annotatsiya.** Dunyo tilshunosligida, xususan, metaforik ifodalarning lisoniy, lingvomadaniy, lingvokognitiv tabiatini talqin etuvchi metaforologiyaning umumiy masalalari yuzasidan jadal izlanishlar olib borilmoqda.

Metaforalar bir necha yillar davomida xalq ongida saqlanib qolgan birliklar yordamida beriladi. Odatda, metaforalar tilshunoslikda ko'chma ma'no kasb etuvchi so'zlar bilan beriladi. Ular ertaklarda xalqning milliy dunyoqarashi, chuqur fikrlashidan ma'lumot beruvchi o'tkir ma'noga ega bo'lgan so'z va hosilalardan iborat. Ertaklar tilida ishlatilgan metaforalar qoraqalpoq xalqining milliy-madaniy qadriyatlariga haqida bebaho ma'lumotlar beradi. Ularning ko'pchiligi predmet ma'nosidagi leksemalar orqali real ma'noni emas, madaniy konnotatsiyani nazarda tutgan. Har qanday badiiy asar tili tasviriy vositalarining nutqiy qimmatini, nutqning jozibadorligini ta'minlash, shuningdek, badiiy ta'sirchanligini oshirishdagi imkoniyatlari til sohiblarining dunyoni o'zgacha his etishi bilan belgilanadi. Barcha metaforalar antropotsentrikdir, metaforalar inson tomonidan kashf etiladi hamda so'zlovchi realiyasini ifoda etadi. Bunda metaforik ifodaning hosil bo'lishida insonga xos qaysi belgi asos bo'lganligini aniqlash muhim.

Metafora olamga milliy nuqtayi nazarining muhim vositalaridan biri bo'lib, ushbu maqolada metaforani tushunish va dunyoqarashni tushuntirishning spetsifik usuli sifatida tadqiq etish belgilangan.

**Kalit so'zlar.** metafora, kontsept, diskurs, olamning lisoniy tasviri, madaniyat, universiya, konnotatsiya

**Abstract.** In world linguistics, in particular, intensive research is being conducted on the general issues of metaphorology, which interprets the linguistic, linguocultural, linguocognitive nature of metaphorical expressions.

Metaphors are given using units that have been preserved in the public mind for several years. Usually, metaphors are given by words that have figurative meaning in linguistics. They consist of words and derivatives that have a sharp meaning and provide information about the national outlook and deep thinking of the people in fairy tales. Metaphors used in the language of fairy tales provide invaluable information about the national and cultural values of the Karakalpak people. Most of them meant the cultural connotation, not the real meaning, through the lexemes in the meaning of the subject. The rhetorical value of the visual means of the language of any artistic work, the ability to ensure the attractiveness of the speech, as well as to increase its artistic effectiveness, is determined by the unique perception of the world by the speakers of the language. All metaphors are anthropocentric, metaphors are discovered by humans and express the speaker's reality. In this case, it is important to determine which character characteristic of a person was the basis for the formation of a metaphorical expression.

Metaphor is one of the important tools of national worldview, and this article aims to study metaphor as a specific method of understanding and explaining worldview.

**Key words.** metaphor, concept, discourse, linguistic picture of the world, culture, universiya, connotation

**Kirish.** XXI asrda vujudga kelgan yangi filologik yo'nalishlar til xususiyatlarini yangi nuqtayi nazar, mezonlar va me'yorlar asosida o'rganishni talab qiladi. Filologiya va madaniyatshunoslik ilmining o'zaro aloqasi natijasida paydo bo'lgan lingvomadaniyatshunoslik sohasining paydo bo'lishi "olamning lisoniy manzarasi", "konsept" va "diskurs" tushunchalarining fanda ishlatilishiga sabab bo'ldi. Yangi tushinchalar, o'z navbatida til hodislarini "inson, til, madaniyat" prizmasi yordamida o'rganish zaruriyatini yaratdi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvomadaniyatshunoslik

insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır"[1]. Bu esa shuni bildiradi, lingvomadaniyatshunoslik markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir. G.G.Slishkinnig fikriga ko'ra, "Lingvomadaniyatshunoslik inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan"[2]. Lingvomadaniyatshunoslikning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi. N. Alefirenko lingvomadaniyatshunoslikni quyidagicha tavsiflaydi: "Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega. Uning asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi"[3]. Lingvomadaniyatshunoslik maxsus fan sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikda bir qancha sermahsul tushunchalarni keltirib chiqardi: lingvokulturema, madaniyat tili, madaniy matn, madaniyat konsepti, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniy universaliya, madaniy meros, madaniy an'analar, va h.k. A.Vejbiskayaning ta'kidlashisha, madaniy o'ziga xoslik madaniy universalialarning yuzaga chiqishini talab qiladi. Har qanday solishtirishda umumiy va individual belgilar bo'lishi kerak[4]. Shuningdek, lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchaviy apparatiga mentalitet, mentallik, rasm-rusumlar, madaniyat doirasi, madaniyat turi, tamaddun, majusiylik va boshqalar kiradi. Lingvomadaniyatshunoslikda metaforalar xalqning olamga milliy nuqtayi nazarini aks ettirishda asosiy rol ni bajaradi. Metafora an'anaviy filologiyada so'zning ko'chma ma'noga o'tishining bir usuli sifatida o'rganildi. Filologiyaning stilistika bo'limida esa, metafora nutqning jozibadorligini ta'minlaydi, fikrlar yorqinligining o'ziga xos ifodasi sifatida qabul qilinadi. Lingvomadaniy izlanishlar doirasida vujudga kelgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metaforani ma'lum bir millatning milliy, o'ziga xos va o'ziga mos dunyoqarashini aks ettiradigan muhim vositalardan biri sifatida o'rganish tavsiya etiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Metafora olamga milliy nuqtayi nazarning muhim vositalaridan biri bo'lib, ushbu maqolada metaforani tushunish va dunyoqarashni tushuntirishning spetsifik usuli sifatida tadqiq etish belgilangan. Misollar qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri xalq ertaklaridan olingan. Maqolada qiyosiy tavsiflash, bayonlash usullaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Badiiy asarlarda tilning ichki mazmuni aks etib, unda milliy madaniyatimizga hos birliklar uchraydi. Ular xalqning hayoti, ijodi bilan bog'liqdir, ularni inson yaratmagan, ular o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, ularni jamiyat yaratgan. Qoraqalpoq xalq ertaklarida bir qator madaniy birliklarni o'z ichiga olgan metaforalar o'z ifodasini topgan. Metaforalar bir necha yillar davomida xalq ongida saqlanib qolgan birliklar yordamida beriladi. Odatda, metaforalar tilshunoslikda ko'chma ma'no kasb etuvchi so'zlar bilan berilsa, masalan, tulki – ayyor inson belgisi, eshak – yalqovlik, erinchoqlik, shuningdek, qora kuch egasi, sigir – ongsiz, laqma belgilarini aks ettirsa, ertaklarda xalqning milliy dunyoqarashi, chuqur fikrlashidan ma'lumot beruvchi o'tkir ma'noga ega bo'lgan metaforalar bisyor. Ertaklar tilidagi metaforalarini ko'rib chiqsak, ko'pchilik elementlar narsa va tushuncha nomlariga xos bo'lgan belgilarning qandaydir o'xshash tomonini qabul qilib, ma'no jihatidan o'zgarganini ko'ramiz. Og'u, zahar – insonni o'ldiradigan kuchga ega. Og'uda yoqimsiz sema mavjud bo'lib, insonni hayotdan ko'z yumdirish, umrini yo'q qilish kuchiga ega, ertaklarda zahar hammadam ham bo'lavermaydi, asosan yalmog'iz kampir yoxud niyati qora, zarracha ham mehr deganning uchquni yo'q qonxo'r insonlarda bo'ladi. Masalan, "Sol toyda seni o'ltirmekshi bolip ishine uw salip bir zeren qatiq berdi. Áne, men onı polat pishaq penen to'rt bo'lip záhárin polatqa aldirdim, sonnan keyin sağan qatiqti ishiwge ruksat ettim" ("Qıran", 27-b.) [7]. "Erteñine ańga keter waqıtta áketetuğın gúlshhege kempir uw qosıp pisiredi" («Ata hám qanalas balalar», 223-b.) [7].

Bu misolda og'u o'lim belgisi. Zaharni yeguliklarga qo'shish, ertakda berilgani kabi qatiqqa, kulcha nonga qo'shib pishirib berish va uni iste'mol qildirish orqali zaharlab o'ldirish – bu real voqealardan dalolat berib, bunda zaharning kuchini qaytarish uchun po'lat metaldan foydalanish – xalqning og'u kuchini qaytarish sir-asrorlarini tushinib yetishi, xalq tabobatidan

ham bilimga ega ekanligidan ma'lumot beradi.

Shu singari ko'chma ma'no kognitiv bilim asosi ekanligi haqida ilmiy adabiyotda: "...metaforalar mazmunan va ulardagi ma'daniy konnotatsiyalarning o'zi ham kognitiv bilim asosi xizmatida keladi. Shuning uchun ham ko'chma motivlashgan so'zlar (metaforalar) ma'daniy belgilarning tashqi ifodasi" - deb ko'rsatiladi[5].

Metaforalar ashyoviy ma'nolarda ham uchraydi. Taroq narsa, buyum ma'nosida. Taroq ertaklarda ko'pincha o'rmon ma'nosida yashiriladi. O'rmon va taroq o'rtasidagi o'xshashlik belgilar – taroq tishi ham daraxtlar singari bir tekis, ketma-ket joylashuvi, ikkinchidan soch taroq bilan taraladi, sochning o'rmonga o'xshashlik belgisi bu – soch ham o'rmon singari qalin va soch tolalarida ham daraxtlar singari o'sish belgisi bordir. Shuningdek, olma ko'pchilik ertaklardagi kabi farzandli bo'lishga ishora. Befarand onalarning olma yeb homilador bo'lishi, yoki yigit tushida olma bergan qizni ko'rishi, unga olma berishi – muhabbat ramzi sanaladi. Shu bilan qator olma – bu olma daraxtining bir qismi bo'lib ular orasida partonimik aloqa mavjud, asosiy ma'noga sheriklik ko'rinadi. Olma orqali yigit va qizning uchrashish joyi, olma daraxti sirli tarzda yashirilgan. Insonlar olma va daraxt orqali hali yozuv shakllanmagan davrlardayoq axborot almashgan, shu narsalarni jumboq sifatida ishlatib, ularning o'xshash taraflari orqali bir-birining fikri-yu xayollarini tushinishgan. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, inson zotining fikrlash dunyosi naqadar kengligi, teranligi va xayollarining chegarasiz ekanligini tushunamiz. Masalan, Bay buni ashup qarasa, bir taroq penen bir alma salgan, buni qolına alıp, há degenshe túsinbey, úyine keke sala qatınına ko'rsatedi:

- Al, bul taroq penen almanıń sebebin há m sheshiwin tap, - deydi.

Zayıp alma menen taroqtı qolına uslap turıp bılay dedi: - Meniń ákemniń bağıniń sırtında baǵqa heshkim kirmesin dep qoldan jasalǵan toǵayı bar, ol toǵaydan qalay da bolsa o'terseń, onnan soń bir úlken alma bağı bar, soǵan kelip meni kútińiz, soǵan o'zim kelemen degen so'zi, - deydi ("Ziyba menen Zayıp qız", 531-b.) [7].

Metaforalar tarkibidagi birliklar predmetlik, jonli narsalarning nomi bilan kelishi bilan birga toponomik indikatorlar bilan ham ishlatiladi. Masalan, ertaklarda uchraydigan yo'l – bu oddiygina yo'l emas, u faqat insonlarni manziliga eltuvchi yo'l xizmatidan tashqari inson umri ma'nosini ham ifodalaydi. Yo'l – hali insonning o'zi uchun ham ma'lum emas taqdiri, tutash hayoti. Tug'ilish, yashash, o'lim – bular inson hayotining belgisi qismlaridir. Inson o'ziga notanish yo'ldan yurish orqali qiyinchiliklarga, quvonchga, ochlikka, to'qchilikka, turfa xil hodisalarni boshidan o'tkazishi mumkin. Lekin ular qanday hodisalar ekanligi unga noma'lum. Ko'pincha qoraqalpoq ertaklarida uchraydigan – agar shu yo'ldan yursa eson-omon keladigan, ikkinchisi eson-omon qaytishi dargumon yo'l, uchinchisi borsa kelmas yo'l. Bularning ichidagi dastlabgi ikki yo'l inson o'mri davom etishidan, yashashidan, tirikchiligidan darak bersa, borsa kelmas yo'l – bu narigi dunyo demakdir. Masalan, Úsh bala jolǵa shıǵıp bir neshe kún jol júrgen soń, aldınan jol úshke ayrıldı. Bir jol – Barsakeler, ekinshi jol – Barsa keler-kelmes, úshinshi jol – Dım kelmes. Úlken aǵası birinshi jolǵa, ortanshısı ekinshi jolǵa ketti. Málikhásenge úshinshi kelmes jol tuwrı keldi. Sebebi, anaw eki aǵası oylasıp, Málikhásendi kelmes jolǵa qoyıp edi. Eki úlken aǵasınıń Málikhásennen anası bo'lek edi. Áne, Málikhásen o'zi jas, barsa kelmes jolǵa ketti ("Málikhásen", 44-b.) [7]. Metaforada yo'lning inson hayoti bilan o'xshashlik taraflari e'tiborga olingan. Bu o'rinda yo'l faqat ikki so'zning ma'nosini bog'laydigan vositagina emas, balki ikki tushinchadagi sferani uyg'unlashtiradigan jarayon sifatida talqin qilinadi.

Ertaklarda dev, jinlar, yalmog'iz kampir, shayton, pari singari diniy tushinchalar bilan bog'liq personajlar ham metaforizatsion ma'noda keladi. Xususan, yalmog'iz kampir xusnichiroyi badbashara, bukchayib qolgan, hamma narsani yamlamay yutub yuboradigan, turqi sovuq, liboslari iflos va yirtiq, ichki dunyosi ham qora niyatli deb tushintiriladi. Yalmog'iz kampir jonli predmet ma'nosida yovuzlik va ifloslik belgisini bildiradi. Yalmog'iz kampir sehirlil fantastik ertaklarning asosiy personajlaridan biri bo'lib, turli xalqlar folklorida turli xil talqin qilinadi. Masalan, slavyan xalq ertaklarida u o'rmon hukmdori, ba'zida o'rmon



o'rtasida qad ko'targan tovuq oyoqli kulbada yashovchi, odam go'shti bilan oziqlanuvchi, kulbasi atrofida odam suyaklari sochilib yotuvchi sehrigar-jodugar kampir qiyofasida tasvirlansa, turk xalqlari ertaklarida yalmog'iz kampir odamxo'r, bolalar kushandasi sifatida talqin qilinadi.

Yalmog'iz kampir obrazining ildizlari matriarxat davrlariga boradi. U faqat tirikchilik dunyosiga, balki o'lik mavjudotlarga ham hukmronlik qila oladi. Matriarxat davrida oilada onalarning mavqeyi baland bo'lgani kabi, yalmog'iz kampirning ham borliqdagi hukmronligi ustundir. Uning ayol obrazida tasvirlanishi ham matriarxat davrining qoldig'i sifatida insonlar ongida saqlanib qolg'an. Matriarxat davri tugashi, patriarxat davrining boshlanishi bilan u salbiy obrazlarda talqin qilina boshlaydi. Asosan xalq ertaklari va miflarda uning qiyofasining tasvirlanishi bilan-oq, yovuzlik, sehrigari, hiyla-yu nayranglarning isi ufurub turadi. Yalmog'iz kampir obrazining oila o'chog'ining qo'riqchisi sifatida talqin qilinishi uning kun-u tun o'chmasdan yonib turadigan o'choq boshida o'z o'ljasini paylab o'tirishi tasvirlangan motivlarda ko'rinadi. Masalan: Ko'z tigip ot basina qarasa, ko'zleri mashtey, arqasi qozgan, toppisi tozgan, eki dizesi qulaginan ozgan bir mastan mamani ko'rdi («Agalı-iniler hám apalı-sinliler», 100-b.) [7].

Yalmog'iz kampir ba'zda shum, judayam katta hayotiy tajribaga ega personaj sifatida tasvirlansa, ba'zda laqma, anqov kampir tasvirida beriladi: Eñ úlken qız jalmawız kempirdin quwıp kiyatırǵanın ko'rip, basındaǵı taraǵın alıp ılaqtırıptı. Taraq túsken jer dút toǵayǵa aylanıptı. Kempir toǵaydan o'tip, qızlarǵa jáne jetip alıptı. Sonda ortanshı qız qaltasınan aynasın alıp ılaqtırǵan eken, ayna keń dáryaǵa aylanıp: Kempir dáryanın jaǵasında turıp qızlarǵa:

- Qızlarım, dáryadan qalay o'tinler? - dep baqırıptı.

- Sheshe, bizler etegimizge kesek salıp o'ttik, - dep juwap beripti qızlar. Jalmawız sol jerde etegine kesek salıp, dáryaǵa túse di. Kesektin awırlıǵı menen ol suwǵa batıp ketedi. (Úysiz qalǵan úsh qız 164-bet) [7].

Xullas, yalmog'iz kampir metaforasi orqali xotin-qizlarga xos xislatlar, xarakter, belgilar, uning hayotdagi o'rni so'z etiladi, shuningdek, insonlarni yaramas ishlardan uzoq yurishga undaydi.

Turkiy xalqlar folkloriga asosan fors madaniyatidan o'tib kelgan pari obraziga nisbatan ijobiy ma'noda yondashilgan. O'tmishda shamanlarning aqidalariga ko'ra Yunus pari, Yulduz pari, Qunduz pari, Misqol pari singari obrazlarning vujudga kelishi bilan, ular nomi bilan bog'liq afsona va ertaklarning yaratilishiga asos bo'ldi. Qoraqalpoq xalq ertaklarida ayol go'zalligi, uning husn-u jamoli ta'rif etilmoqchi bo'lsa pari metaforasi ishlatiladi. Lekin bu obraz faqat ijobiy ma'noda kelib qolmasdan salbiy obrazlarda ham uchraydi. Ular suv parisi, ilonlar, qushlar parisi sifatida kelib, insonlarning sehr-u jodu haqidagi tushinchalarini aks ettiradi. Masalan, Barsakelmeste bir daraq bar, bir japıraǵı altınnan, bir japıraǵı gúmisten. O'zin peri iyelep ketken. "Sonnan bir shaqa ákelip bereseñ" dep jumsasañız, onı peri qaǵıp o'tiredi (Shopan bala, 9-bet) [7]. Peri qız káramatı menen qanatın shıǵarıp jerdi bir sıypap jiberip edi, ko'k tastan saray payda boldı. (Aǵalı-iniler hám apalı-sinliler 108-bet) [7]. Periler biri kepter, biri julan, hár qaysısı hár nárese bolıp saraydan shıǵıp ketedi. (Hár kim qılsa o'zine, 55-bet) [7].

Pari metaforasining ma'no ko'lami turkiy xalqlar mifologiyasida mavjud bo'lib kelgan dev, ajdaho, alvasti, yalmog'iz kampir singari personajlardan keskin farq qiladi. Undagi ijobiy emotsional-ekspressiv bo'yoq ham asosan paridagi ayol semasining mazkur obraz etimologiyasi bilan zich assotsiatsiyaga kirishganligidan yuzaga chiqqan, xolbuki, pari va ayol tushunchalari o'zaro go'zal, tengsiz, sirlı ma'no ko'lamida uyg'unlasha oladi. U turkiy xalqlar madaniyatida ayol tushunchasini ifodalashga xizmat qiluvchi, ayol zotiga tegishli ijobiy xislatlarga qo'yilgan insoniy estetik bahoning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi [6]. Masalan, Asan genje jayǵa kirip baradı. Jaydın ishi kúndizgidey. Hesh jerde janıwlı turǵan sham joq, bul qızdın sulıwlıǵı jaydı da kúndizgidey etip turǵan eken. Bul waqta Mısqal peri uyqıda eken.

Betine siyle jawıp jatır eken. Asan genje siyleni ko'terip qızdın júzine qarağan waqta Mısqal periniń sulıwlıǵınan esi awıp qulap qaladı (Asan genje, 136-bet) [7].

**Xulosa va takliflar.** So'nggi yillari filologik yo'nalishda vujudga kelgan tadqiqot ishlari ilgari an'anaviy filologiya doirasida tadqiq etilgan til hodisalari va leksemalarini yangi talqinda tadqiq etish uchun imkon yaratdi. Natijada ma'no ko'chich usullarining asosiy usullaridan biri hisoblangan metaforani ham olamga milliy nuqtayi nazarning in'ikosi sifatida o'rganish yo'lga qo'yildi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, metaforalar qoraqalpoq xalq ertaklarida universion xizmatda kelishi, ya'ni faqat qoraqalpoq xalqidagina emas, ko'pchilik dunyo xalqlariga ham xos jarayon ekanligi ma'lum. Metaforalarda xalqning milliy psixologiyasi, olamni, borliqni tanishi, uni qabul qilishi, tushunish jarayonining xizmatini ham ko'rsatadi. Ertaklar tilida ishlatilgan metaforalar qoraqalpoq xalqining milliy-madaniy qadriyatlariga haqida bebaho ma'lumotlar beradi. Ularning ko'pchiligi predmet ma'nosidagi leksemalar orqali real ma'noni emas, madaniy konnotatsiyani nazarda tutgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 222
2. Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Издательский центр «Академия», 2000.
3. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука, 2010. – С. 21.
4. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. — Москва: Язык русской культуры, 1999. — С. 270-274 — URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01000598629>
5. Abdinazimov Sh., Tolibayev X. Lingvokulturologiya. – No'kis: Qaraqalpaqstan, 2020
6. Махмараимова Ш. Теоморфик метафорада ментал хосликлар. Ученый XXI века//Филологические науки.2015.29-бет
7. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 67-76-томлар. – Нөкис: Илим, 2014.
8. Абдиназимов Ш. Лингвофольклористика. – Нөкис: Миразиз Нукус, 2015. – 132 б.
9. Мақсетов Қ. Қарақалпақ фольклорының эстетикасы. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1971. - 112 б.
10. Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира // Язык и картина мира / Отв. ред. Б.А. Серебряков. – Москва, 1988. – С. 217.

### KIRITMA KONSTRUKSIYALARNING SEMANTIK TURLARI VA STILISTIK FUNKSIYALARI

**Davletova Shoxida Bazarbayevna**

Urganch davlat universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

tayanch doktoranti

[shoxidadavletova0@gmail.com](mailto:shoxidadavletova0@gmail.com)

ORCID 0000-0003-4103-9983

UDK: 81'367.4:81'42

**Annotatsiya.** Kiritmalarning qo'llanishi fikr bayon qilish jarayonidagi turli assotsiatsiyalar, o'xshash belgi-holatlarni chog'ishtirish, fikrning ayrim detallarini aniqlash, ajratib ko'rsatish va asosiy gapdagi fikrga so'zlovchining munosabatini bildirish kabi epizodik holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, biror konstruksiyaning kiritma sifatida qo'llanishiga asosiy gap qurilishini yanada kengaytirishning noquvayligi, uning hajmi va matndagi boshqa gaplar bilan bo'lgan semantik-grammatik munosabatlari ham sabab bo'lishi mumkin. Kiritma konstruksiyalar semantik jihatdan gapni murakkablashtiradi va sintaktik aloqa tushunilishini qiyinlashtiradi. Kiritmalar gapda modal ma'no anglatib, qo'shimcha fikr ifodalaydi. Kiritmalar ustida tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o'z samarasini berib, kiritma konstruksiyalar tilshunoslik fanida alohida sintaktik kategoriya sifatida ko'pchilik tomonidan tan olindi. Kiritma konstruksiyalar xilma-xil izoh va qo'shimcha ma'lumot ifodalash vositasigina bo'lib qolmasdan, fikr ifodalashning maxsus usuli sifatida ma'lum stilistik maqsadlarda ham keng qo'llanadi. Ushbu maqolada kiritma konstruksiyalarning semantik xususiyatiga ko'ra turlari, gapda qo'llanishi va stilistik funksiyalari tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar.** izohlovchi kiritmalar, aniqlovchi kiritmalar, sharhlovchi kiritmalar, remarkanamo kiritmalar, murakkab kiritmalar.

**Abstract.** The use of introductions is related to episodic situations such as different associations in the process of expressing an opinion, mixing similar signs and situations, identifying and distinguishing some details of an opinion, and expressing the speaker's attitude to the opinion in the main sentence. Also, the inconvenience of further expanding the construction of the main sentence, its size and semantic-grammatical relations with other sentences in the text can be the reason for the use of a construction as an introduction.

Input constructs semantically complicate a sentence and make syntactic communication difficult to understand. The entries represent a modal meaning in the sentence and represent an additional thought. Research on inclusions by linguistic scientists has paid off, and inclusionary constructions have been recognized by many as a separate syntactic category in linguistics. Input constructions are also widely used for certain stylistic purposes as a special way of expressing thought, rather than being a means of representing diverse annotations and additional information. This article analyzes the types of introductory constructions according to their semantic characteristics, their usage in sentences, and their stylistic functions.

**Key words.** explanatory inputs, determining inputs, interpretive entries, remark inputs, complicated inputs.


**Kirish.** Kiritmalar grammatik jihatdan shakllangan tayyor gap strukturasi kiritilib, gapdagi grammatik aloqani ham, tugal intonatsiyani ham uzib qoʻyadi, uni murakkablashtiradi. Kiritma ifodalayotgan maʼno koʻpincha asosiy gap mazmuniga nisbatan boshqa yoʻnalishda, yoʻl-yoʻlakay kiritilgan ikkinchi darajali (baʼzan eng muhim) izoh, qoʻshimcha maʼlumot tarzida boʻladi. Bu ogʻzaki nutqda asosiy gap mazmunini, gapning kiritmadan oldingi qismi bilan keyingi qismini birgalikda tushunilishiga oz boʻlsa ham xalaqit beradi.

Tilshunos olimlar I.I. Shcheboleva va D.E. Malyavinlar oʻzlarining dissertatsion ishlarida rus va ingliz tilidagi kiritmalarining semantik-stilistik funksiyalarini yoritishga harakat qilishgan. A.I.Yefimov va Saltikov-Shchedrin asarlarida qavs leksik, frazeologik, semantik stilistik va yordamchi-grammatik funksiyalarda ishlatilganligini koʻrsatib, ularni atroflicha tahlil qiladi [1]. Bunda u gap tarkibida qavs orqali ajratilgan soʻz, soʻz birikmasi va gaplarni nazarda tutadi: kiritma terminini ishlatmaydi.

Kiritma konstruksiyalar gap mazmuniga yoki uning ayrim boʻlaklari maʼnosiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik - semantik jihatdan munosabatga kirishadilar. Kiritma konstruksiyalar xilma-xil izoh va qoʻshimcha maʼlumot ifodalash vositasigina boʻlib qolmasdan, fikr ifodalashning maxsus usuli sifatida maʼlum stilistik maqsadlarda ham keng qoʻllanadi. Kiritma konstruksiyalarning semantik turlari va stilistik funksiyalarini oʻrganish alohida oʻrin tutadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada oʻzbek tilidagi kiritma konstruksiyalarning semantik xususiyatlariga koʻra tiplarga ajratilishi jadval asosida yoritildi. Tadqiqot uchun zarur maʼlumotlarni tavsifiy yoʻl bilan ilmiy bayoni berildi. Tadqiqot oldiga qoʻyilgan asosiy muammoning aniq yechimi statistik tahlil metodi orqali belgilab olindi.

**Natija va muhokama.** Oʻzbek tilida kiritma konstruksiyalarning sabab, payt, xarakteristika, shart, toʻsiqsizlik kabi maʼnolarni ifodalashi ayrim ishlarda koʻrsatib oʻtilgan [2]. Kiritmalarni semantik xususiyatlariga koʻra quyidagi guruhlariga ajratdik.



**I. Izohlash, tushuntirish xarakteridagi kiritmalar.** Bu tipdagi kiritmalar asosiy gapning biror komponentini, odatda, kam qo'llanadigan, tushunilishi qiyin bo'lgan maxsus leksik qatlamga xos so'z va iboralarni ifodalaydi, tushuntiradi.

1. Dialektizmlar badiiy adabiyotda territorial kolorit yaratish, personaj nutqining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish kabi maqsadlarda ishlatilgan bo'lib, ular ifodalagan ma'noning o'quvchiga tushunarli bo'lishida kiritmalar alohida ro'l o'ynaydi: *Chamanbog'...Chamanbog'...u Chamanbog'!* **Bari (beri) kel!-deb uzoqroqdagi bir qora uy eshigidan chiqqan keksa bir xotin uni chaqiradi** (S.Ayniy).

2. Kiritma professionalizmlar ma'nosini tushuntirib, sharhlab keladi: *Dadashev bilan Doniyorov kolonna* **“Magazin”iga (ular quvur va boshqa materiallar to'plangan joyni magazin deb ataydilar)** yaqinlashganlarida qummi qorday to'zg'itib, bo'ron ko'tarildi (I.Rahim).

3. Kiritma ekzotizmlar, jargon va evfemizmlar ma'nosini izohlaydi: *Hind jamiyatida xotin-qizlar* **“douri” (qalin to'lash) sistemasidan ko'p jafo chekkanlar** (“Toshkent”).

**II. Aniqlash, konkretlashtirish, sharhlash va chegaralash xarakteridagi kiritmalar.** Bu tip kiritmalar asosiy gap sostavidagi biror so'zning semantik strukturasi, talaffuzi, tarjimai, etimologiyasi bilan bog'liq izohlarni ifodalaydi, asosiy gapning biror komponenti ma'nosini ravshanlashtirish, uni biror jihatdan baholash, turli qo'shimcha ma'lumot berish funksiyasini bajradi. So'z ma'nolarini konkretlashtiradi, chegaralaydi.

1. Kiritma so'z va iboraning ma'nosini chegaralaydi. Izohlanayotgan so'z ko'chma ma'noda, ba'zan nutq egasi tomonidan yangi ma'no yuklangan holda qo'llangan bo'ladi: *Qiltiriq maxsum har jumada kelib* **“ishni” (to'qilgan bo'zni) talab qilar, ya'ni “simkor undirar” edi** (A.Muxtor).

2. Kiritma abstrakt yoki jamlik, umumiylik anglatuvchi so'zlar ma'nosini oydinlashtiradi: *...umuman* **biz (Boris bilan men) bu yerning sharoitini bilmasmishmiz** (A.Muxtor).

3. Gapning umumiyroq tushuncha ifodalovchi komponenti kiritma tarzida keltirilgan misollar orqali sharhlanadi. Bunday kiritmalar, odatda, uyushgan so'z, so'z birikmalari, ajratilgan bo'laklar, oborotlar tarzida qo'llanadi: *Adabiyotda bir necha xil kulgi yo'llari bo'lsa ham (masalan; piching, kesatish, kinoya, tag'ofil va boshqalar), lekin eng mo'tabari xarakter kulgisidir...* (A.Qodiriy).

**III. Nomlar haqida qo'shimcha ma'lumot beruvchi kiritmalar.** Bunday kiritma kishi ismlari, laqablari va turli geografik nomlar haqida qo'shimcha ma'lumot beradi yoki ularni sharhlaydi.

1. Kiritma personaj nomi bilan bog'liq turli tafsilotlarni anglatadi: *Husni (u endi o'z nomidan “din” qo'shimchasini olib tashlagan edi)* **Rustamov bo'lsa, goho hovliqib e'lon qilar edi** (P.Tursun).

2. Kiritma asosiy gapda tilga olingan shaxsning laqabini, taxallusini yoki ular bilan bog'liq faktlarni eslatadi: *Ipday ingichka bo'lganidan juda novcha ko'rinuvchi starshina duduq Yashkin (o'zbeklar uni o'zaro “laylak” deb atardilar) non va kasha ulasha boshlagandi* (Oybek).

3. Kiritma geografik nomlarni, toponimlarni izohlaydi: *Birinchi may arafasida Sidiqjon Qo'g'azor ko'chasidagi (bu ko'chaga birinchi bo'lib Qo'g'azordan to'rt xonadon ko'chgani uchun ko'cha Qo'g'azor deb atalgan, hali ot qo'yilmagan edi) uylardan biriga ko'chgan Ro'zimatni tabriklagani bordi* (A.Qahhor).

**IV. Asosiy gap mazmunini rivojlantiruvchi kiritmalar.** Bunday kiritmalar gap yoki uning biror komponenti mazmuniga doir qo'shimcha fakt orttiradi. Asosiy gap mazmunini rivojlantiradi: sabab, natija, payt, o'rin, miqdor bilan bog'liq tushuncha yoki fikrni konkretlashtirib, aniqlab, sharhlab keladi.

1. Kiritma sabab-natija ma'nolarini ifodalaydi: *Er-u xotin uzoq o'ylashib o'tirmay (chunki o'ylashadigan joy emas edi!) sovchining ikkinchi kelishida javob berishga qaror qo'yidilar* (A.Qodiriy).

2. Kiritma asosiy gap mazmunini avtor istagandek tushunish, unda tasvirlanayotgan voqea yoki harakatning amalga oshishi uchun biron shart borligini ifodalaydi: *Hatto yer sotishni hayoliga keltirmagan odamlarning yerlarini-agar ularning yerlari o'z yerlariga chegaradosh bo'lsa-o'z inikiga qo'shish uchun hech nimadan qaytmas...edi* (Oybek).

3. Kiritmada asosiy gap mazmunning ziddi, unga qarama-qarshi ma'no ifodalanadi: *Xalq tasavvuridagi Navoiy kambag'al oiladan yetishib chiqqan (holbuki Navoiy o'ziga to'q oiladan chiqqan) bo'lib, nihoyatda qashshoqlikda, muhtojlikda hayot kechiradi* ("Toshkent oqshomi").

**V. Subyektiv-emotsional munosabat ifodalovchi kiritmalar.** Kiritma avtorning bevosita o'quvchiga qilgan murojaatini, his-tuyg'usini, o'zi hikoya qilayotgan hodisaga nisbatan munosabatini bayon qiladi. Ular, odatda, sotsiativ yoki appelyativ funksiyani bajaradi.

1. Kiritma orqali avtor to'g'ridan-to'g'ri o'quvchiga murojaat qiladi, uni suhbatga tortadi. Bu avtorga o'quvchi bilan kontakt yaratishga, uni hikoya qilinayotgan voqeaning bevosita qatnashchisi sifatida voqelik ichiga olib kirishga yordam beradi: *"Havfxatarli" bu ko'chadan asta borarkanman, dadamning "Jinlar bazmi" hikoyasini (balki, o'qigandirsiz?) beixtiyor eslayman* (H.Qodiriy).

2. Kiritma avtorning his-hayajonini ichki kechinmalarini, xitob yoki taajjubini, afsuslanishini ifodalaydi. Ular ko'pincha emotiv funksiyani o'taydi: *Hatto ertalab ko'rganida ham "ishlar joyida" edi, kechqurun qarasa (yorabbim) boshqa odam bo'пти-qopti!* (O.Yoqubov).

3. Kiritma avtorning o'zi hikoya qilayotgan voqea haqidagi taassurotini, o'z nuqtai nazarini, pozitsiyasini fikr-mulohazasini ifodalaydi: *Bu rasmlarni ko'rgan kishi go'zallikka butun borlig'i bilan maftun bo'ladi (men go'zallarni-hayotning yuksak cho'qqisi deb bilardim)* (D.Nuriy).

**VI. Xarakteristika, ma'lumot beruvchi kiritmalar.** Kiritma nutqda tilga olingan narsa, hodisa yoki personajga xarakteristika, turli spravka beradi.

1. Kiritma qahramonning o'ziga xos xususiyatini, xarakterini, tashqi ko'rinishini, portretini tasvirlaydi; o'quvchiga u haqida ma'lumot beradi: *Zokir qo'ng'iroq chaldi (u katta-kichik hamma majlislarni qo'ng'iroq bilan olib borardi) va qovog'ini solib dedi* (P.Qodiriy).

2. Kiritma personaj xatti-harakatini, nutqini sharhlaydi, kommentariya beradi: *Xatib domla bir majlisda necha nuqtalarni ko'zda tutadi: Avvalan, qiziq gap va hikoyalardan so'zlab, xalqni xursand va o'zidan rozi qiladi... (Bunda o'zining fazlini avomdan tasdiq ettirish maqsadi ham bor)*. (A.Qodiriy).

3. Avtor hikoya davomida o'zining, shuningdek, personajlarning o'y-hayollarini kiritma orqali bayon qiladi: *Bo'riyev hayallamay yetib keldi. U negadir sochini olib tashlagan (sochi qanday ko'hlik edi-ya – deb o'ylab qo'ydi Ulyana), bir oz oriqlagan, qoraygan, yangi qora kostyum kiyib olgan edi* (A.Muxtor).

**VII. Fikr bayon qilish va o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi kiritmalar.** Bu tipdagi kiritmalar fikr bayon qilish uslubi, uni shakllantirish, so'z tanlash, talaffuz qilish bilan bog'liq holatlarni sharhlaydi. Fikrlarni o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi kiritmalar orqali avtor asosiy gapdagi biror fikrning ilgari aytilganligi yoki u haqda keyinroq gap ketishini uqtiradi, o'tmish voqeligi bilan bir-biriga bog'laydi. Bunday kiritmalar, odatda, funksiyasi jihatdan snoskalar yordamida berilgan izoh va tushuntirishlarga yaqin turadi.

1. Kiritma gapdagi biror so'z yoki iboraning aytilish ohangi, talaffuzi va buning sababi haqida izoh beradi. Bunday kiritmalar personaj nutqi ichiga, ko'chirma gap sostaviga kiritilgan bo'ladi: - *Mana bu erda bir kishi o'qib berishni talab qilib yuborgan (Hakimov "talab" so'zini istehzo bilan aytdi) taqriz ham bor* (P.Qodirov).

2. Kiritma fikrni shakllantirish jarayonida nutq egasining so'z tanlashdagi ikkilanishi, taraddudi kabilarni sharhlaydi: - *Akangiz qamalib, sizni institutdan bo'shatishgandan ("haydashgandan" deyishga tili bormadi) keyin bir uchrashdikku, chinorli xiyobonda* (Shuhrat).

3. Kiritma o'tmish voqeligi bilan hozirgi voqelik o'rtasida vositalik qiladi, ularning o'rtasiga go'yo ko'prik tashlaydi: *Saida bilan birga o'sha to'garakda Cho'tixon Toshmatova (hozir u Qo'qondagi maktablardan birida o'qituvchilik qiladi) uning singlisi O'g'ilxon (o'sha paytda Hamza nomli Qo'qon teatrida ishlagan), Hidoyatxon Usmonova, Hanifaxon degan qizlar birga edi* (H.Tojiboyev).

**VIII. Manba ko'rsatuvchi kiritmalar.** Kiritma asosiy gapdagi biror fikrning manbaini, uning kimga qarashli ekanligini yoki mazkur fikrning nimaga asoslanib aytilayotganligini, kim tomondan va qayerda aytilganligini ko'rsatadi.

1. Kiritma nutqdagi biror fikrning nimaga asoslanib aytilayotganligini ko'rsatadi: *Atrof qishloqlarda birin-sirin qo'ylar yo'qola boshladi. Bu mahal Fransiya tuprog'ida bo'rilar batamom qirib tashlangani (rasmiy ma'lumotlarga ko'ra) tufayli, qo'ylarni sayoq itlar nobud etayotgan bo'lsa kerak, deb taxmin qildilar* ("Guliston").

2. Kiritma shaxsning qaysi tashkilotga, qanday ijtimoiy oqimga mansubligini, qayerlik ekanligini ko'rsatadi. Bu tipdagi kiritmalar matbuotda tez-tez uchraydi: *Uchrashuvning birinchi bo'limida G.Krasnitskiy O'zbekiston komandasi darvozaboni Shokirov (Andijon, "Spartak") ni to'pni setkadan olib chiqishga majbur qildi* ("Toshkent oqshomi").

**IX. Remarkanamo kiritmalar.** Ular pesonaj nutqi ichida berilib, uning harakati, holati, gapirish manerasi yoki mazkur nutqning tinglovchilarga ta'siri, munosabati haqida yo'l-yo'lakay qo'shimcha ma'lumot beruvchi remarka xarakteridagi izohlardan iborat bo'ladi: - *Nega! Avval mehmonxonaga joylashib, soqol-mo'ylovlarni olib (Ochil sho'x harakat bilan yuzini siladi, keyin agitator sifatida (u ko'kragini kerdi) salobat bilan kirib bordim* (P.Qodirov).

**X. Murakkab mazmunli kiritmalar.** Kiritmalarning bu qismini turli mazmundagi qo'shimcha fakt, yordamchi ma'lumotlar ifodalovchi sintaktik konstruksiyalar tashkil etadi. Ular ba'zan sintaktik jihatdan murakkab tuzilishda, bir nechta mustaqil gaplardan iborat bo'lib, biror voqea yoki hodisa haqida hikoya qiladi, xabar beradi. Bunday kiritmalar bajargan funksiyalari jihatdan ham ancha murakkab bo'ladi: *Oddiy g'o'ladan, oddiy toshdan paydo bo'lgan san'at asari haykaltarosh dahosining kuchi bilan belgilanadi.*

*(Tabiatning o'zida ham san'atkorona bunyod bo'lib qolgan narsalar uchraydi. Masalan, qish paytlari derazalarga naqshlanib qolingan tasvirlar, daryo yoqasidan topilgan turli narsalarni eslatuvchi daraxt ildizlari, bog'larda uchraydigan "badiiy shoxlar" shular jumlasiga kiradi. Hozir gap bu hususda borayotgani yo'q.) San'atkor har kimga tanish so'zlarni shunday tizib chiqadiki, ularning birligidan, uyg'unligidan poeziya hosil bo'ladi, o'qib quvonch topamiz ("O'zbekiston madaniyati").*

**Xulosa.** To'plangan faktik materiallar asosida kiritmalar asosiy funksional-semantik tiplariga ko'ra yuqoridagi guruhlariga statistik tahlil metodi orqali ajratildi. Lekin ularning funksional-semantik tiplari bular bilan chegaralanmaydi, albatta. Chunki kiritma konstruksiyalarning ifodalagan ma'nolari, strukturasi va qo'llanish sabablari xilma-xil bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida muhim stilistik vosita sifatida ham keng qo'llanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лебедева Л.В.. Из наблюдений над стилистическими функциями вставных конструкций в публицистической прозе В.В.Маяковского ("Труды кафедры русского языка вузов Восточной Сибири и Дальнего Востока", т. 2. - Иркутск, 1962, стр. 225-239);
2. А.Ф.Фуломов, М.Аскарлова. Хозирги ўзбек адабий тили, II том, синтаксис, Ғ.Абдурахмонов таҳрири остида. –Тошкент:ФАН, 1966, 314 - 315-бетлар;
3. Ефимов А.И. Стилистические функции скобок в языке Салтыкова-Щедрина ("Русский язык в школе", 1946, №1, стр. 25-33).
4. К.Назаров. "Киритма гап ва киритма сўз" мавзуси ҳақида ("Ўқитувчилар газетаси", 1964, 30 май).
5. Ованова М.Г. Вставные конструкции в русском языке – "Ученые записки Юго-Осетинского госпединститута", т. 9. - Цхинвали, 1965. - С. 119-136.
6. М.Мирзасев, С.Усмонов, И.Расулов. Ўзбек тили, Тошкент, Ўрта ва олий мактаб нашриёти, 1962.
7. Ш.Зуннун. Тил қоидалари, Самарқанд – Тошкент, Ўздавнашр, 1925.

8. И.А.Бабакова. Явление вводности в русском языке, Харьков, 1955.
9. М.Шамсиев. Ўзбек тили дарслиги, Грамматика ва имло, II қисм, Тошкент, Ўздавнашр, 1933.
10. И.Тошалиев. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. Ўзбекистон ССР “ФАН” Нашриёти Тошкент – 1976

## EFFECTIVE STRATEGIES FOR ENHANCING THE RESEARCH SKILLS OF FUTURE TEACHERS

Musoyeva Aziza Botirovna

Samarkand state institute of foreign languages, PhD, docent

[musoeva@samdhti.uz](mailto:musoeva@samdhti.uz),

ORCID 0000-0002-3845-0790

UDC: 37.013.8 (575.1)

**Abstract.** Currently, significant transformations are occurring in the realm of education on a global scale, and it is certain that these changes will have a beneficial impact on the advancement of civilization. These improvements are crucial for enhancing the cognitive capacity of our nation and preparing skilled individuals who can meet the demands of contemporary global educational standards. Scientific writing has a crucial and vital role in the education of persons in the present educational process. The objective of this study is to examine the level of research competency and academic writing skills among potential instructors. A modified multiple-choice questionnaire was sent to 397 prospective educators using Google Forms, an internet-based survey platform. The survey data was statistically analyzed utilizing the tools of Google Forms, which facilitated the use of descriptive statistics. The study's results indicate that a large proportion of prospective instructors had knowledge and understanding of research competence and academic writing.

**Key words.** academic writing, research competence, skills, competency, pedagogical competence, scientific writing competency.

## BO‘LAJAK MUTAXASISLARNING TADQIQOT KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA ILMIY YOZUVNING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Bilamizki, hozirda jahon miqyosida ta‘lim sohasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda va bu o‘zgarishlar sivilizatsiya rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi shubhasiz. Bu rivojlanishlar xalqimizning bilim salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jahon ta‘lim standartlari talablariga javob bera oladigan malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi ta‘lim jarayonida shaxsni tarbiyalashda ilmiy yozuv hamda tadqiqot kompetensiyasining ahamiyati beqiyosdir. Sababi, aynan tadqiqot kompetensiyasiga ega bo‘lish ilm-fan rivojiga hissa qo‘shishga intiladigan bo‘lajak mutaxassislarning ko‘payishiga zamin yaratadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqot kompetensiyasi va akademik yozish ko‘nikmalari darajasini o‘rganish hisoblanadi. Shu maqsadda, 397 nafar bo‘lajak o‘qituvchilarga Google Forms yordamida ko‘p tanlovli so‘rovnoma yuborildi hamda unga asosan statistik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning katta qismi tadqiqot kompetensiyasi va akademik yozish bo‘yicha yetarli bilim va tushunchaga ega.

**Kalit so‘zlar.** akademik yozish, tadqiqot kompetensiyasi, ko‘nikma, pedagogik kompetensiya, kompetentlik, ilmiy yozuv kompetensiyasi.

**Introductions.** Extensive research has been conducted in several fields globally for a considerable period of time. The historical roots of this may be traced back to ancient times and continue to exist now. The persistent efforts of ancient Greek philosophers and scientists, who were raised in Central Asia, led to several significant discoveries. These conclusions were the outcome of a thorough investigation, careful examination, and significant study, among other methods. Recently, research has expanded its focus to include several innovations and aspects that enhance the efficiency and accuracy of scientific study. Consequently, a significant number of individuals are engaged in doing research on a global scale.

Developing research competence among potential instructors, particularly in the context of ESL, is a challenging task. English is often taught as a second or foreign language in our nation, and due to significant improvements in this field, many young people acquire English skills from an early age. In the realm of higher education, students are extensively equipped with advanced knowledge and skills. However, in some instances, this may not be sufficient to develop their proficiency in academic writing skills and research competence.

Hence, it is crucial that the education system in Uzbekistan places more emphasis on developing curricula for higher education that specifically emphasize the significance of academic writing skills and research competence.

**Literature review.** The term “research” originates from the Middle French word “recherche” which translates to “to search” and may be traced back to the Old French phrase “recherchier”. The term “research” is a compound word derived from the combination of the prefix “re-” with the phrases “cerchier” or “searcher”, which both indicate “to search”. This term was first documented in 1577 [1].

While several scientists have offered varied interpretations of the term “research”, there is no universally accepted meaning for it. According to Z. Dörnyei in his book “Research methods in applied linguistics: Quantitative, qualitative, and mixed methodologies”, research may be defined as the systematic process of gathering information to get a deeper understanding of our environment and to discover solutions to inquiries [2].

John W. Creswell provides an alternative explanation of research, defining it as a systematic procedure including the collection and analysis of information with the aim of enhancing our understanding of a particular subject or issue. The process involves three distinct stages: formulating an inquiry, gathering relevant information to address the inquiry, and delivering a response to the inquiry [3].

We deemed it important to provide a definition of the term “competence” since the primary emphasis of this work is on research and research competence. That being said, the word «competence» has its roots in Latin, and according to the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”, it is defined as follows: [the Latin word *competere* means capable, to be worthy, or *competo* - I am achieving, I am worthy] and it refers to the degree to which an individual is aware of a particular field, as well as their knowledge of that field [4]. In 1965, N. Chomsky introduced the concept of «language competence» to the field of global linguistics for the very first time which has been used in the field of world linguistics.

Consequently, on the basis of this, it is possible to assert that competency is essential for any future experts, as it will let them to perform their job duties in an efficient manner throughout their career. The pedagogical competency and professional competence of these individuals are of utmost significance in this context since the goal of our work is the development of future experts, also known as educators. The reason for this is that research competence primarily motivates the prospective specialists to work on themselves, to contribute to personal growth, and to make valuable contributions to the scientific community, while professional competence enables them to effectively communicate the information.

When it comes to research competency, which is the subject of our study, we are aware that many scientists have stated a variety of perspectives. Furthermore, this subject has been the subject of research for a number of years. For instance, according to Darling-Hammond, research competence is a collection of abilities that includes the ability to critically evaluate scientific research, the ability to plan and carry out rigorous investigations, and the ability to effectively use research results in order to make informed judgments on teaching and learning [5]. As a result, research competency encompasses not only the capability to carry out research but also the talent of the researcher, which encompasses a variety of abilities. It is the capacity of a researcher who has been involved in research and scientific activity for a considerable amount of time to think critically, assess, and successfully apply the findings of his study.

Levchenko asserts that higher education institutions have a crucial responsibility to enhance their research capabilities in order to create skilled and competitive professionals. It provides future experts with the chance to enhance their personal growth and self-awareness, enabling them to make unconventional choices in certain circumstances, engage in groundbreaking initiatives, and facilitate imaginative learning by incorporating scientific and educational advancements. The scientist described research competence as a comprehensive




and fundamental skillset that is essential for professional-pedagogical competence. It is considered one of the most crucial components of this competence [6].

The requirement of today is to teach mature professionals who are fit for the work market. Therefore, it is important to provide training to students and future professionals at the higher educational institution in a manner that enables them to effectively use the knowledge and skills they have received in practical situations. Research proficiency is a crucial talent that will be required in the future for any professional in any subject. The Organization for Economic Cooperation and Development further underscores the need of developing relevant skills and effectively using these skills in the job market, since they are crucial for the economy and society [7]. The rationale behind this is that any skill or expertise that has a positive impact on society plays a role in advancing scientific knowledge, and individuals with such abilities are more likely to get employment in the job market. By this, we are referring to not only research proficiency, but also all the abilities and credentials that a prospective expert will need.

Mogonea and Remus conducted research that demonstrated that research competence encompasses the acquisition of new knowledge, identification of educational problems, synthesis and argumentation, understanding, knowledge of new research methods, development of research tools, and interpretation and dissemination of results [8].


Scientific writing competency is often associated with research competence in some books. Proficiency in scientific writing is crucial for future specialists as it fosters the development of critical thinking and analytical abilities, as well as the capacity to effectively convey ideas and findings. Moreover, possessing proficiency in scientific writing empowers future experts to make significant contributions to their respective areas of expertise [9]. Scientific writing competency also provides future experts with crucial academic abilities and instills in them the values of inquiry and academic rigor [10]. Proficiency in scientific writing enables students to cultivate their critical thinking abilities and enhances their capacity to gather, evaluate, and articulate knowledge with efficacy.

**Research Methodology.** The study included 397 prospective teachers from four universities: Uzbekistan State University of World Languages, National University of Uzbekistan after Mirzo Ulugbek, Bukhara State University, Jizzakh State Pedagogical University, and Samarkand State Institute of Foreign Languages. Figure 1 indicates that out of 397 respondents, over 60% fall within the age range of 20-25 years, while more than 21% fall within the age range of 26-30 years. The percentage of respondents in the age range of 31-35 is 11.8%, while the percentage of respondents aged 36 and above is 6.2%.



**Figure 1. Respondents' age**


Figure 2 shows that the gender distribution of prospective teachers consists of over 45% males and over 54% females.



**Figure 2. Respondents' gender**

The data on the respondents' language ability indicates that slightly over 31% of them


have an intermediate level, while over 25% have a pre-intermediate level. Additionally, more than 28% have an upper-intermediate level, and just 15% have an advanced level (refer to Figure 3 below).



**Figure 3. Respondents' level of language proficiency**


**Data collection instrument.** This study utilizes a 20 Multiple Choice Questionnaire, divided into four sections. The survey was conducted with future teachers from five universities in Uzbekistan, utilizing an online Google forms software program. The questionnaire is divided into three parts. The first part collects participants' demographic information and learning profiles. The second part evaluates their feelings, beliefs, and motivation about L2 writing. The third part assesses the pre-service and in-service teachers' competences of digital literacy. Lastly, the fourth part measures the frequency of receiving feedback and revising.

In order to assess their writing proficiency, the participants were queried about their level of writing expertise. As depicted in Figure 4, over 40% of respondents perceive their writing skills as highly proficient, while more than 26% consider their writing to be at an advanced level. Additionally, 29% rate their writing as good, with only a small minority of participants perceiving their writing as weak.




**Figure 4. The level of their writing proficiency**

In order to assess their understanding of research competence, the participants were asked to indicate their level of familiarity. As depicted in Figure 5, approximately 30% of respondents reported being familiar with research competence, 43% indicated knowledge of the main idea, over 20% possessed only a vague understanding, and the remaining 6.8% reported never having heard of research competence.




**Figure 5. The knowledge about research competence**

In order to identify the shortcomings or challenges in their academic writing, the participants were instructed to indicate their selection by marking a checkbox next to the provided criteria for deficits or problems in academic writing. According to Figure 6, over 30% of respondents experience difficulties with language use, while 26% have issues with coherence and cohesion. Additionally, 25% struggle with paraphrasing and summarizing. The remaining respondents face various other challenges, including finding relevant references, presenting statistics, and writing introductions or conclusions.




**Figure 6. The weaknesses or difficulties in their academic writing**

The participants were queried about the internal and external elements that are influencing their challenges in academic writing. They identified lack of confidence (31%), self-motivation (42%), lack of knowledge (38%), and feeling under pressure (28%) as internal factors contributing to their problems.




**Figure 7. The internal factors contributing to difficulties in academic writing**

The external reasons identified include instructors' teaching style (36%), complex materials (40%), insufficient corrective feedback (33%), occasional classroom climate issues (30%), and unresponsive teachers (18%).




**Figure 8. The external factors contributing to difficulties in academic writing**

In order to get insight into the digital tools used in academic writing, we posed the following question (see to Figure 9 below). A significant proportion of prospective teachers, around 32.9%, rely on Google as their primary search engine. Additionally, around 31% use online grammar checkers, while 29% make use of Google dictionary. The remaining individuals employ various additional platforms such as Quill bot, Turnitin, Mendeley, Zotero, online websites, antiplag.uz, and YouTube videos.




**Figure 9. The digitals tools that they use in academic writing**

In order to determine the frequency with which they use digital tools in their academic writing, we posed the following question (see to Figure 10 below). The data reveals that a majority of respondents, namely 41%, use them regularly. Additionally, 35% use them seldom, 7% use them extremely frequently, and 15% never use them.



**Figure 10. The frequency of using digital tools in academic writing**

Finally, we inquired about the specific objectives for which they use the aforementioned digital tools, and obtained the following results (refer to Figure 11 below). As evident, their primary emphasis was on the need of writing well-constructed sentences, using precise vocabulary, and organizing thoughts effectively.



**Figure 11. The purposes of using digital tools in academic writing**

**Results and Discussions.** The research indicated that over 40% of respondents perceived their writing abilities as highly skilled, while 26% categorized them as advanced. This outcome is consistent with the findings of Mogonea and Remus (2019), which demonstrate that structured academic environments significantly improved writing skills among pre-service instructors. In contrast, Cuayzon (2024) observed that only a small number of high school graduates demonstrated advanced academic writing proficiency, suggesting a potential gap in skill development between secondary and tertiary educational settings.

Approximately 43% of individuals demonstrated a thorough understanding of research competence, while 30% showed a basic familiarity. The results align with Darling-Hammond's (2017) characterization of research competency as a multifaceted skill set that requires structured educational interventions. In contrast, research conducted by Tamban and Maningas (2020) indicated a reduced foundational understanding of research skills among public-school educators, potentially due to differing curricular emphases.

The primary challenges identified included language use (30%), coherence and cohesiveness (26%), and paraphrasing/summarizing (25%). The findings correspond with the systematic study conducted by Castillo-Martínez and Ramírez-Montoya (2021), which recognized similar challenges as critical areas for targeted educational interventions. Mogonea and Remus (2019) proposed integrative strategies to address these issues, including the implementation of scaffolding methods to improve coherence and linguistic accuracy.

Participants identified insufficient motivation (42%) and a lack of confidence (31%) as significant internal barriers. The elements presented align with Cuayzon's (2024) findings regarding psychological barriers that impede writing skill development. External variables, including insufficient corrective feedback (33%) and complex materials (40%), correspond with the findings of Tamban and Maningas (2020), who highlighted the importance of adaptive teaching strategies and contextualized resources.

The most frequently utilized digital tool was Google, accounting for 32.9% of usage, followed by grammar checkers at 31% and online dictionaries at 29%. These techniques were mostly used for crafting coherent sentences and guaranteeing grammatical precision. Levchenko (2020) said that proficiency with these technologies is crucial for cultivating autonomous research abilities, especially in digitally-oriented academic environments. Unlike the findings of Tamban and Maningas (2020), which highlighted limited digital literacy among their subjects, this study reveals a higher level of digital competence, potentially reflecting geographical or institutional differences in technological access.

The results of this study correspond with global research on the enhancement of

academic writing and research skills, especially for the recognition of current issues and dependence on digital resources. This research specifically examines Uzbekistan, highlighting the impact of educational reforms and linguistic conditions on the development of these skills.

This study emphasizes the specific challenges faced by Uzbek pre-service teachers, including a lack of exposure to advanced academic writing skills in their native language, in comparison to research such as that conducted by Castillo-Martínez and Ramírez-Montoya (2021), which explores global trends. This disparity underscores the importance of customized strategies in curriculum development. Additionally, the study emphasizes the role of digital technologies, reflecting a significant trend identified by Levchenko (2020), where technical competence is recognized as a crucial component of academic success.

**Implications and Recommendations.** This study's findings offer significant practical and theoretical insights aimed at improving the academic writing and research skills of pre-service teachers, especially within the framework of higher education in Uzbekistan.

It is essential to improve feedback mechanisms within higher education. Higher education institutions should implement structured feedback systems, enabling instructors to deliver detailed, constructive, and timely responses to students' academic writing. These systems may incorporate feedback from both peers and instructors to enhance the variety of perspectives. The rationale of this study indicates that more than 33% of respondents recognized insufficient corrective feedback as a barrier. Darling-Hammond (2017) emphasizes that specific, actionable feedback promotes self-reflection and enhances writing skills. Application examples include instructors utilizing digital tools like Turnitin or Grammarly to identify areas for improvement, complemented by personalized comments to facilitate revisions.

Secondly, we should focus more on the development of the curriculum in academic writing and research competence. Therefore, academic writing modules ought to focus on skills like paraphrasing, coherence, and cohesion, which were recognized as challenges by 26–30% of participants. Research competence ought to be integrated across various disciplines, rather than limited to particular courses, thereby ensuring that students receive consistent exposure to these essential skills. Additionally, the curriculum must incorporate examples and assignments that are pertinent to the Uzbek educational and linguistic context, enhancing its relevance and applicability for students. Lastly, digital literacy training should be included in these modules, focusing on the use of research tools such as Zotero for referencing, Grammarly for language accuracy, and Turnitin for ensuring originality.

Thirdly, it is essential to organize workshops and training programs that specifically address internal challenges, such as the lack of motivation (42%) and confidence (31%). Additionally, subjects may encompass time management, managing academic pressure, and addressing the fear of failure in writing. The organization should include various formats, such as interactive sessions that allow students to actively revise their writing with guidance, alongside group discussions aimed at reducing anxiety and promoting a supportive environment. According to Cuayzon (2024), the outcomes indicate that targeted workshops result in measurable enhancements in writing quality and self-efficacy.

**Conclusion.** The results of this study suggest that the participants have favorable views of their research skills and ability to write academically. A number of respondents identify certain challenges in their academic writing; nonetheless, they exhibit a strong level of confidence in their overall writing abilities. The quantitative data gathered from respondents demonstrates their research competency, indicating that they participate in research activities to different extents, including studying, reviewing publications, and occasionally authoring articles. Furthermore, they demonstrate a strong command of digital tools for research, allowing them to utilize technology effectively in their academic endeavors and investigations.

### References

1. "Research." Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster, <https://www.merriam-webster.com/dictionary/research>. Accessed 20 Aug., 2024.
2. Dörnyei., Z. (2007). Research methods in applied linguistics: Quantitative, qualitative, and mixed methodologies. Oxford: Oxford University Press.
3. Creswell, J.W. (2008). Educational Research: Planning, conducting, and evaluating quantitative and qualitative research (3rd ed.). Upper Saddle River: Pearson.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, K jild. – Toshkent; O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 193 b.
5. Darling-Hammond, L. (2017). Teacher education around the world: What can we learn from international practice? *European Journal of Teacher Education*, 40(3), 291-309.
6. Levchenko, I. (2020). Pedagogical conditions for the formation of research competence in future specialists in labour protection. Collection of scientific papers LOGOS, 104-107. <https://doi.org/10.36074/13.03.2020.v2.36>
7. Castillo-Martínez IM and Ramírez-Montoya MS (2021) Research Competencies to Develop Academic Reading and Writing: A Systematic Literature Review. *Front. Educ.* 5:576961. doi: 10.3389/feduc.2020.576961
8. Mogonea, F., and Remus Mogonea, F. (2019). The pedagogical research project - an essential tool for the development of research competencies in the field of education. *Educatia* 21 17, 49–59. doi: 10.24193/ed21.
9. Tamban, V. E., Maningas, O.B. (2020). Research capability of public-school teachers: A basis for research capability enhancement program. *PEOPLE: International Journal of Social Sciences*, 6(1), 222–235. <https://doi.org/10.20319/pijss.2020.61.222235>
10. Cuayzon, M.L. (2024). Research writing competence of grade 12 students: Towards research culture improvement. *Journal of Interdisciplinary Perspectives*, 2(9), 22-31. <https://doi.org/10.69569/jip.2024.0311>
11. Musoeva, A. (2018). What do Uzbekistani EFL teachers know and believe about the usefulness of the CEFR? *Education*, 2019.
12. Musoyeva, A. B. (2021). Problems and Solutions in Testing Future Teachers' Knowledge in the National System of Foreign Language Proficiency. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(12), 209-215.
13. Musoyeva, A. B. (2021). The importance of competencies in improving the professional skills of future foreign language teachers. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 89-95.

### YOZMA CHET TILI MULOQOTINING MUVAFFAQIYATINI BELGILAYDIGAN OMILLAR

**Yuldashova Nilufar Muxitdinovna**

Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

[yuldashova-n@mail.ru](mailto:yuldashova-n@mail.ru)

UDK 37.016:811

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson hayotida chet tili yozma muloqotining ishlashini belgilaydigan va uning mahsuli sifatida yozma diskursda aks etadigan, ya'ni shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy omil va kommunikativ vazifa kabi omillar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Yozma nutq yozma chet tili muloqotini amalga oshirish usullaridan biri sifatida fikrlarni yozma ravishda ifodalash uchun o'ziga xos kommunikativ ehtiyojga ega va yozma nutq faoliyatida yozma chet tilidagi muloqot vositasi sifatida mujassamlashgan. Nutq faoliyati bu odamlarning bir-biri bilan o'zaro ta'sirida nutq xabarini qabul qilish yoki yetkazish, faol, maqsadga muvofiq, til vositachiligida bo'lgan va muloqot holati bilan bog'liq jarayon bo'lib, bu muloqot kommunikativ va kognitiv ehtiyojni qondirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar.** yozma chet tili muloqoti, individual xususiyatlar, subyekt xususiyatlari, ijtimoiy-maqom munosabatlari, subyekt munosabatlari, kommunikativ vazifa.

**Abstract.** This article provides information about factors such as personal characteristics, socio-cultural factors, and communicative tasks that determine the functioning of foreign language written communication in human life and are reflected in written discourse as its product. Written speech, as one of the methods of communication in a written foreign language, has a specific communicative need to express thoughts in writing, and is embodied in the activity of written speech as a means of communication in a written foreign language. Speech activity is a process of receiving or conveying a speech message in the interaction of people with each other, active, purposeful, mediated by language and related to the situation of communication, and this communication is to satisfy communicative and cognitive needs. directed.

**Key words.** written foreign language communication, individual characteristics, subject characteristics, social-status relations, subject relations, communicative task.

**Kirish.** Yozma nutq faoliyatini faol, maqsadga muvofiq, til vositachiligida amalga oshadigan muloqotning ijtimoiy-madaniy holati tufayli boshqa odamlar uchun ular bilan muloqotga kirishib, chet tilidagi yozma muloqot jarayonida yozma kommunikativ va kognitiv ehtiyojni qondirish uchun mo'ljallangan yozma xabarni yaratish jarayoni deb ataymiz. Yozma nutq faoliyati nutq faoliyatining har qanday turi singari mavzu mazmuni va tarkibi bilan ajralib turadi.

Keltirilgan masalani ko'rib chiqishni bilvosita aloqa turi sifatida yozma chet tilidagi muloqotning xususiyatlari bilan boshlaymiz. Shu maqsadda biz M.S.Kagan tomonidan falsafada taklif qilingan muloqot tushunchasidan foydalanamiz. U o'z izlanishlarida muloqotni: "Subyektlararo o'zaro ta'sir o'tkazish" jarayoni sifatida talqin qiladi va uning tarkibida birinchi navbatda "individual shaxslar, o'ziga xos ijtimoiy organizmlar" bo'lgan o'zlarining motiv va maqsadlariga ega bo'lgan va ba'zi bir ijtimoiy va shaxsiy narsalarda bir birlari bilan munosabatda bo'lib o'zaro ta'sir qiluvchi subyektlarni ajratib ko'rsatadi". Muloqotning ikkinchi komponenti bu uning ishlashi uchun zarur bo'lgan vositalar bo'lib, ular tillar, amalga oshirish mexanizmlari va usullari hisoblanadi. Bunday vositalar yordamida subyektlar uchinchi tarkibiy qismi sifatida ma'lum bir ijtimoiy-madaniy muhitda o'zaro aloqada bo'lib muloqot o'rnatadilar va bu muloqot mohiyatini, yo'nalishini, mazmunini va shakllarini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yozma chet tilidagi muloqotning o'zaro aloqador subyektlari turli madaniyat vakillari, turli jamiyat a'zolari, o'z mamlakatlari madaniyatiga xos bo'lgan me'yorlar, an'analar va qadriyatlarining tashuvchilari hisoblanadi. Ular o'zlarining individualligini rivojlanish darajasini ifoda etadigan ma'lum individual, subyektiv va shaxsiy xususiyatlar to'plamiga ega. Individual xususiyatlar guruhiga yosh-jins xususiyatlari, idrok, xotira, tasavvur va fikrlash kiradi. Subyekt xususiyatlari uning faoliyati, mustaqilligi, faoliyat tajribasi, faoliyatni amalga oshirish usullari va vositalariga egaligi, holati, rol va mavqei bilan namoyon bo'ladi. Shaxsiy xususiyatlar esa dunyoqarashni, mentalitetni, hissiyot va his-tuyg'u sohani, qiziqishlarni, istaklarni, moyillik va boshqalarni aks ettiradi.

Shuningdek Cheremisinova ta'kidlashicha bunday holda o'zaro ta'sir qiluvchi subyektlardan biri yozuvchi rolini o'ynaydi, ya'ni muloqot tashabbuskori. Uning maqsadi – ma'lum bir tilning kodidan foydalangan holda (bizning holda xorijiy til) ma'lum ma'lumotlarni to'liq yozib olish uchun yozma ishni boshlash, loyihalashtirish va boshqarish, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan fikr va hissiyotlarni xayoliy subyekt (qabul qiluvchiga) yetkazish. Bu bilan yozma yoki og'zaki javob, harakatlar yoki amallar shaklida kerakli natijani olish kutiladi.

O'zaro ta'sir o'tkazish samaradorligi, birinchi navbatda, yozuvchining yaratilayotgan yozma ishda aks etadigan yozma chet tili muloqotining faol subyekt sifatida individual, subyektiv va shaxsiy xususiyatlariga, ikkinchidan yozma ishni qabul qilib oluvchining individualligi haqidagi xabardorligiga bog'liq. Yozuvchi va bo'lajak qabul qiluvchining ko'rsatilgan xususiyatlari orasida ularning dunyoqarashi, qiziqishlari, qobiliyatlari, ijtimoiy tajribasi, ijtimoiy mavqei, o'ynagan rollari va boshqalar muhim ahamiyatga ega. O'zaro muloqotda bo'lgan subyektlarning sanab o'tilgan xususiyatlari to'plami yozma chet tili muloqotining ishlashini belgilaydigan birinchi omil bo'lib xizmat qiladi va tayyor yozma mahsulotda aks etadi.

S.S.Kuklina subyektlarning o'zaro aloqalari ijtimoiy va madaniy muhitda sodir bo'ladi, bu shaxs va tashqi dunyo o'rtasidagi munosabatlar, ularning bevosita muhiti tizimini o'z ichiga oladi, deb ta'kidlaydi. Ushbu tizim insonda butun hayoti davomida kognitiv, o'zgaruvchan va qiymatga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadigan subyekt-obyekt va subyekt-subyektning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlaridir. Muloqotning har bir individual harakatida muhit yozma muloqot ishtirokchilarining o'ziga xos subyekt-subyekt va uning asosida yotuvchi subyekt-obyekt munosabatlarida o'zini namoyon qiladigan, muloqot subyektlari harakat qiladigan, ijtimoiy-madaniy vaziyat bilan ifodalanadi.

A.A.Leontyev bu vaziyatni "nutqiy harakatni amalga oshirish uchun zarur va yetarli nutq va nutqdan tashqari shartlar majmui" deb hisoblaydi. V.A.Avrerin uni

murakkab bir butun sifatida, shu jumladan, ma'lumot jo'natuvchi va ma'lumotni qabul qilib oluvchining o'ziga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlari, o'zaro munosabatlari, muloqot sodir bo'ladigan muhit, nutqning mavzusi va lingvistik aloqasi bilan izohlaydi. V.L.Skalkin vaziyatni "shaxsni lingvistik muloqotga jalb qiladigan va uning bir aloqa akti doirasida nutq xulq-atvorini aniqlaydigan o'ziga xos ekstralingvistik informativ omillar to'plami" deb ta'riflaydi. Ye.I.Passov uni turli xil nutqiy bo'lmagan sharoitlar asosida vujudga keladigan chet tili muloqoti subyektlarining ijtimoiy mavqei, roli, faoliyati va axloqiy munosabatlarining integral dinamik tizimi sifatida tushunadi.

**Natija va muhokama.** Yuqoridagi ta'riflarni asos qilib olib, biz yozma chet tili muloqotining ijtimoiy-madaniy holati murakkab butunligi va u o'z ichiga aloqa subyektlarining o'zaro ta'sirini tashkil etadigan nutqsiz va nutqiy shart-sharoitlar majmuasini olishini muhokama qilamiz.

Bu yerda nutqga oid bo'lmagan holatlar deganda biz a) chet tili yozma muloqotining maqsadi; b) muloqot mavzusi (voqea, harakat, bahsli subyektiv bayonot va h.k.); v) subyektlarning o'zaro munosabatlari; va nutqga oid holatlarga esa –yozuvchi va qabul qiluvchining chet tilidagi nutq tajribasida mavjud bo'lgan kerakli va yetarli darajada til va nutq materialining mavjudligini tushunamiz.

Chet tilidagi yozma muloqot subyektlari o'rtasidagi munosabatlarga kelsak, bizning e'tiborimiz ulardagi ijtimoiy mavqei, roli va ulardagi bevosita mavjud faoliyat va axloqiy munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy-maqom munosabatlari turli xil professional (o'qituvchi, sharhlovchi, jurnalist, adabiyotshunos va boshqalar), yosh guruhlari (maktab o'qituvchisi, talaba, kattalar va boshqalar), etnik (millat vakili, millati va boshqalar) va hududiy (vatandoshlar, qo'shnilar) sifatida ishlaydigan muloqot subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Subyekt munosabatlari esa ular rasmiy va norasmiy yozma chet tilidagi muloqot jarayonida muayyan rollarni bajarganda paydo bo'ladi. Har ikkala holatda ham yozma muloqot subyektlari uning ishtirokchilari bo'lib, ular insonparvarlik, bag'rikenglik, adolatlilik, odob-axloq, mas'uliyat kabi axloqiy pozitsiyalardan harakat qilishadi.

Bunday ijtimoiy-madaniy vaziyat yozma muloqot subyektlari o'zaro aloqada bo'lgan muloqotning belgilari, yo'nalishi, shakli va mazmunini belgilaydi va yozma chet tili muloqotining muvaffaqiyatini belgilaydigan ikkinchi omil hisoblanadi.

Yozma chet tili muloqotining maqsadi uning har bir harakatida kommunikativ vazifa yordamida amalga oshiriladi va biz buni ma'lum bir ijtimoiy-madaniy vaziyatda aloqa subyektlarining nutq xatti-harakatlarini boshqarish vositasi va uning yozma ijodi uchun rag'batlantiruvchi vosita sifatida tushunamiz. Bu yozuvchi uchun kutilayotgan tezkor natija ko'rinishida paydo bo'ladi va yozma chet tilidagi muloqot natijasiga erishguncha uning xayolida qoladi. Kommunikativ vazifa, masalan, qanday qilib muloqot qilish, tushuntirish, ma'qullash, tanqid qilish, ishontirish va h.k., yozuvchini mavjud ijtimoiy-madaniy vaziyatda yo'naltiradi va chet tilidagi yozma muloqotni yaratish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos yozma muloqot vositalarini tanlashga turtki beradi va bu yozma muloqot faoliyati samaradorligini belgilaydigan uchinchi omil vazifasini bajaradi (1-rasmga qarang).

Demak, yuqorida ko'rib chiqilgan shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy omil, kommunikativ vazifa kabi omillar yozma muloqotni olib borish uchun muloqot sub'ektlariga muloqotni rejalashtirish, boshlash va boshqarish, shuningdek harakatlar yoki amallar shaklida kerakli natijani olishda muhim vazifani bajaradi.

Yozma chet tilidagi aloqa vositalari, avvalambor, tegishli til (yozuv belgilari) va uning faoliyati asosida yotadigan umumiy funksional va nutq mexanizmlari xizmat qiladigan, ya'ni uni amalga oshirish usullari tushuniladi. Yozma nutq faoliyatining umumiy funksional mexanizmlari N.I.Jinning fikriga ko'ra, tushunish mexanizmi, mnemonik tashkil etish mexanizmi yoki nutq xotirasi mexanizmi hamda "lingvistik va semantik sintez" mexanizmini o'z ichiga oladi.

Ushbu mexanizmlarning eng muhimi, *tushunish mexanizmidir*, chunki yozma nutq faoliyatining mazmunini aqliy tahlil qilish, uning tarkibiy tuzilishi va lingvistik tuzilishi uning ishiga bog'liq. Ushbu mexanizm yordamida ijtimoiy-madaniy vaziyatni tahlil qilish, yozma nutqning kommunikativ vazifasi, maqsadini




anglash, shuningdek, yozma ishni (diskurs) rejalashtirish, dasturlash va yozma nutq faoliyati natijasini boshqarish, ya'ni yozma chet tili muloqoti sodir bo'ladigan nutqiy bo'lmagan holatlarni tushunamiz. Ular yozma muloqotning kerakli natijasiga erishish uchun eng maqbul bo'lgan chet tilining tegishli nutq birliklarini tanlash va ulardan foydalanishni belgilaydilar.


Yozma ishni yaratish jarayonida uzoq muddatli va qisqa muddatli xotira mexanizmlari bilan ifodalanadigan *mnemonik tashkil qilish mexanizmi* alohida rol o'ynaydi. Xotira deganda biz yozuvchining chet tilidagi nutq tajribasida mavjud bo'lgan materialni yodda tutish, saqlash va yozuvchining keyinchalik yozma nutq faoliyatida ushbu materialdan foydalanishini tushunamiz.

Umumiy funksional mexanizmlarga so'zlarni tanlash, aniqlovchi ta'riflarni, qo'shimchalarni, holatlar va boshqalarni tanlashni tartibga soluvchi "*lingvistik va semantic sintez*" mexanizmi ham kiradi (2-rasmga qarang).

A.A Leontyev ta'kidlashicha, umumiy funksional mexanizmlar yozma asarning ichki tuzilishi yoki leksik-grammatik joylashuvi va tashqi tuzilishi bilan ifodalangan nutq mexanizmlarining ishlashini ta'minlaydi. Bu yozma muloqot muvaffaqiyatini belgilaydigan yana bir omilga olib keladi, ya'ni o'zlarining mikro va makro operatsiyalariga asoslangan yozma chet tili muloqoti vositalariga ega bo'lish.



1-rasm. Chet tili yozma muloqotining ishlashini belgilovchi omillar



2-rasm. Yozma nutq faoliyatining umumiy funksional mexanizmlari

A.A Leontyev ta'kidlashicha, umumiy funksional mexanizmlar yozma asarning ichki tuzilishi yoki leksik-grammatik joylashuvi va tashqi tuzilishi bilan ifodalangan nutq mexanizmlarining ishlashini ta'minlaydi. Bu yozma muloqot muvaffaqiyatini belgilaydigan yana bir omilga olib keladi, ya'ni o'zlarining mikro va makro operatsiyalariga

asoslangan yozma chet tili muloqoti vositalariga ega bo'lish.

**Xulosa.** Yuqorida biz yozuvchi nuqtai nazaridan yozma chet tilidagi muloqotning mahsuloti yozma diskurs bo'lishini ko'rsatdik va bu yozma diskurs qabul qiluvchi tomonidan qog'ozda yoki elektron shaklda yozilgan matn sifatida qabul qilindi. Shu munosabat bilan, qabul qiluvchi tomonidan qabul qilingan matn, an'anaviy o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, uning yaratilish xususiyati tufayli diskursga xos xususiyatlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Bunga sabab yozma chet tilidagi aloqa natijasi bunga bog'liq, ya'ni qabul qiluvchi o'z munosabatini yozma yoki og'zaki javob, harakat yoki qandaydir ish shaklida ifodalaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каган, М.С. Мир общения: Проблема межсубъектных отношений / М.С.Каган. – М.: Политиздат, 1988. – 255б.
2. Р.А. Черемисинова Методика формирования иноязычной письменной дискурсивной компетенции у обучающихся вуза. Дис. ... канд. пед. наук; - Киров 2016 - 18 с.
3. Куклина, С.С. Система организационных форм коллективной учебной деятельности в группе для овладения учащимися иноязычным общением: монография / С.С.Куклина. – Киров: Изд-во ВятГГУ, 2007. – 32 с.
4. Леонтьев, А.А. Язык, речь, речевая деятельность / А.А.Леонтьев. – М.: Просвещение, 1969; М.: Изд-во ЛКИ / URSS, 2008. – 85 с.
5. Аврорин, В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка / В.А.Аврорин. – Л.: Наука, 1975. – 116 с.
6. Скалкин, В.Л. Типичная коммуникативная ситуация как структурно-тематическая основа обучения устной иноязычной речи / В.Л.Скалкин // Русский язык за рубежом. – 1979. – № 5. – С.56-62. (58 б)
7. Пассов, Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению / Е.И.Пассов. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с. (95 б)
8. Царькова, В.Б. Речевые упражнения на немецком языке: пособие для учителей ст. классов сред. школы / В.Б.Царькова. – М.: Просвещение, 1980. – 144 с. (34-35 бб)
9. Жинкин, Н.И. Механизмы речи / Н.И.Жинкин. – М.: Изд-во АПН РСФСР. 1958. – 372

### YOZMA DISKURSNING ISHLASH JARAYONI BOSQICHLARI

**Yuldashova Nilufar Muxitdinovna**

Xorijiy tillar kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

[yuldashova-n@mail.ru](mailto:yuldashova-n@mail.ru)

UDK 81`42

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz ishlab chiqqan yozma diskursning ishlash jarayoni modeli yozuvchi yozma diskurs mahsulotini adresatga ta'sir o'tkazish va kerakli natijani olish uchun o'zining individualligini namoyon etib, mavjud bo'lgan chet tilidagi nutq tajribasiga tayanib, kommunikativ muammoni mos vositalar to'plami yordamida hal qilib, yozma nutqni yaratish bosqichlari tahlilga olindi. Yozma diskurs qabul qiluvchi tomonidan qog'ozda yoki elektron shaklda yozilgan matn sifatida qabul qilinadi. Shu munosabat bilan, qabul qiluvchi tomonidan qabul qilingan matn, an'anaviy o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, uning yaratilish xususiyati tufayli diskursga xos xususiyatlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Bunga sabab yozma chet tilidagi aloqa natijasi bunga bog'liq, ya'ni qabul qiluvchi o'z munosabatini yozma yoki og'zaki javob, harakat yoki qandaydir ish shaklida ifodalaydi.

**Kalit so'zlar.** strategik va taktik komponent, janr komponenti, refleksiv fikrlash komponenti, kodlash, dekodlash, ichki dasturlash, kommunikativ vazifa

**Abstract.** The working process model of written discourse that we have developed in this article is a set of appropriate tools for the communicative problem, relying on the existing experience of speaking in a foreign language, showing his individuality in order to influence the addressee and get the desired result. the steps of creating a written speech were analyzed. Written discourse is perceived by the recipient as a text written on paper or in electronic form. In this regard, the text received by the recipient, in addition to its traditional characteristics, should also include the characteristics of the discourse due to the nature of its creation. The reason for this is that the result of communication in a written foreign language depends on it, that is, the receiver expresses his attitude in the form of a written or oral answer, action or some kind of work.

**Key words.** strategic and tactical component, genre component, reflection component, coding, decoding, internal programming, communicative task.

**Kirish.** CEFR (Common European Framework of References – Umumyevropa Darajalarga Tavsiyalar. Tillarni O‘rganish, O‘qitish va Baholash)ga ko‘ra, ingliz tilini bilish darajasini baholashda diskursiv kompetensiya muhim tarkibiy qism hisoblanib “Pragmatik kompetensiya” bo‘limida ko‘rib chiqiladi. Hujjatning ushbu qismida diskursiv kompetensiyaning o‘rni tasodifiy emas, sababi diskursiv kompetensiya – bu xorijiy tilni o‘rganayotgan talabalar chet tili yordamida ma‘lumotlarni bu tilning leksik, grammatik va sintakatik me‘yorlarga muvofiq kodlash (ma‘lumotni yuborish) va dekodlash (ma‘lumotni qabul qilish) jarayoni bo‘lib, bunda ular uslub, janr, ijtimoiy-madaniy, psixologik va hissiy omillarni hisobga olgan holda kogeziya va kogerentlik vositalaridan foydalanib kommunikativ maqsadga erishishi uchun kerak bo‘ladigan ma‘lum bilim, ko‘nikma va malakalar majmuidir.

Yozma diskurs qabul qiluvchi tomonidan qog‘ozda yoki elektron shaklda yozilgan matn sifatida qabul qilinadi. Shu munosabat bilan, qabul qiluvchi tomonidan qabul qilingan matn, an’anaviy o‘ziga xos xususiyatlaridan tashqari, uning yaratilish xususiyati tufayli diskursga xos xususiyatlarni ham o‘z ichiga olishi kerak. Bunga sabab yozma chet tilidagi aloqa natijasi bunga bog‘liq, ya’ni qabul qiluvchi o‘z munosabatini yozma yoki og‘zaki javob, harakat yoki qandaydir ish shaklida ifodalaydi.

Yozma chet tilidagi muloqotning ishlashini belgilaydigan omillarni hisobga olgan holda, biz yozma diskursni yozma chet tilidagi muloqotning mahsuli sifatida ko‘rib chiqamiz. Bu ijtimoiy-madaniy vaziyat va kommunikativ vazifaga muvofiq tashkil etilgan, yozuvchining shaxs va uning chet tili xususiyatlarini aks ettiruvchi nutq tajribasi va xabarni oluvchiga mo‘ljallangan yozma ish deb ko‘rsak bo‘ladi.

Shu munosabat bilan biz yozma diskursiv kompetensiya orqali yozuvchining shaxs sifatida, ijtimoiy-madaniy vaziyat va kommunikativ vazifaga muvofiq, kutilgan natijaga erishish uchun mo‘ljallangan adresat bilan yozma chet tilidagi muloqotda ishtirok etish uchun turli xil diskurs turlarini yaratish qobiliyatini tushunamiz. Bu ijtimoiy tajribaning mazmuni bo‘lgan bilim, ko‘nikma, qobiliyat va faoliyat tajribasi majmuiga asoslanadi va bunga ega bo‘lish ushbu kompetensiyaning shakllanishini ta’minlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yozma diskursiv kompetensiya chet tili kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismi bo‘lib uni xorijiy tadqiqotchilar masalan L.Baxman, X.Boyer, M.Kanale, J.A.Van Ek, D.Xayms, S.Savignon, M.Sveyne, X.G.Vidovson va boshqalar o‘rganib rivojlantirish bilan shug‘ullanishgan va ularning aksariyati buni tan olishadi.

A.Devis, A.Braun, S.Elder va boshqalar diskursiv kompetensiya ostida “matnning uyg‘unligi va yaxlitligi (coherence and cohesion) uchun javob beradigan chet tili kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismi” degan ma’noni tushunishgan. X.Braun diskursiv kompetensiyani “jumalarni birlashtirish va mazmunli bayon qilish qobiliyati” deb izohlaydi.


**Natija va muhokama.** Diskursiv kompetensiya deganda– bu xorijiy tilni o‘rganayotgan talabalar chet tili yordamida ma‘lumotlarni bu tilning leksik, grammatik va sintakatik me‘yorlariga muvofiq kodlash (ma‘lumotni yuborish) va dekodlash (ma‘lumotni qabul qilish) jarayoni bo‘lib, bunda ular uslub, janr, ijtimoiy-madaniy, psixologik va hissiy omillarni hisobga olgan holda kogeziya va kogerentlik vositalaridan foydalanib kommunikativ maqsadga erishishi uchun kerak bo‘ladigan ma‘lum bilim, ko‘nikma va malakalar majmuidir.

Yozma diskursiv kompetensiya murakkab ko‘p komponentli hodisa bo‘lib, uning tarkibida ma‘lum miqdordagi subkompetensiyalar ajratiladi.

N.P.Golovinaning tadqiqotlarida yozma diskursiv kompetensiya to‘rt komponentdan iborat:

- strategik (subyektning kommunikativ maqsadni anglashi va kommunikativ hodisani rejalashtirish qobiliyati);
- taktik (yetarli va maqbul vositalar va usullarni tanlash qobiliyati);
- janrli (janr tamoyillariga muvofiq nutqni tashkil qilish qobiliyati);
- matnli (gaplarni izchil matnga aylantira olish).

R.A.Cheremisina yozma chet tilidagi aloqa mahsuloti sifatida yozma diskursning tipologik xususiyatlarini quyidagicha sxemada beradi.



1-rasm. Yozma diskursning tipologik xususiyatlari

Rasmdan shuni ko'rish mumkinki, yozma diskurs nafaqat matnga xos bo'lgan xususiyatlarga ega (janr, matn, lingvistik-ritorik), balki yozma chet tilidagi aloqa mahsuli sifatida unga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Bu xususiyatlar yozma diskurs faoliyatini ishlashini belgilovchi omillar mazmunini aks ettiradi va strategik, taktik belgilar bilan ifodalanadi. Shuning uchun matn qog'ozda yoki elektron yozilgan va mo'ljallangan qabul qiluvchi tomonidan qabul qilingan mahsulot sifatida yozma aloqa mahsulotlariga xos bo'lgan barcha tipologik xususiyatlarni o'z ichiga olishi kerak.


Bundan kelib chiqib, yozma diskurs yozma chet tilidagi aloqa mahsuli sifatida beshta xususiyat bilan tavsiflanishi mumkin: strategik, taktik, janrli, matnli va lingvistik-ritorik. Bu xususiyatlar yozuvchi yaratgan va adresant tomonidan qabul qilingan har bir yozma matn uchun xos bo'lishi kerak. Shu bilan birga, diskurs turiga qarab (bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan yozma diskurslarni tushunishimiz kerak), ular faqat strategik, taktik, janr va lingvistik-ritorik darajalarda o'ziga xosligini namoyish etadi, chunki matn xususiyatlari har bir yozma diskurs turiga bir xil darajada xosdir.

R.A.Cheremisina til komponenti e'tibordan chetda qolayotgani tufayli buni oltinchi komponent sifatida kiritgizdi. Bunga sabab tadqiqotchi bu komponent chet tilidagi yozma nutqning leksik va grammatik me'yorlariga muvofiq har xil turdagi yozma diskursni yaratish uchun javobgar deb hisoblaydi va shuning uchun uni yozma chet tilidagi muloqot uchun juda muhim deb ta'kidlaydi.

Darhaqiqat biz tajriba maydonlarida olib borgan dastabki tajriba-sinov ishlari talabalarning yozma ishlarida yetarlicha ko'p sonli leksik, grammatik va sintaktik xatolar mavjudligini ko'rsatdi, bu esa ma'lumotni qabul qiluvchiga yozuvchining kommunikativ vazifasini tushunishni qiyinlashtiradi.

Shu sababli, tili o'rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan chet tili yozma nutqining leksik va grammatik me'yorlariga muvofiq yozma diskursni yaratish talabalar, ayniqsa, yozma nutq faoliyatini nisbatan past darajada egallagan quyi kurslar uchun qiyinchiliklar tug'diradi va shu sababli ushbu qobiliyatni o'zlashtirishda tizimli va maqsadli ishlash talab etiladi.


Shu munosabat bilan R.A.Cheremisina yozma diskursiv kompetensiyani tarkibini unga oltinchi, lingvistik komponentni kiritish orqali kengaytirdi. Natijada, yozma diskursiv kompetensiyani tuzilishi strategik, taktik, janr, matnli, lingvistik-ritorik va lingvistik komponentlar to'plami bilan ifodalandi.



2-rasm. Yozma diskursiv kompetensiya komponentlari

Biz yuqorida keltirilgan tadqiqotchi olimlarning fikrlari, ular keltirgan tasnif va modellardan foydalanib yozma diskursning ishlash jarayoni modelini yaratishga harakat qildik. Bu ma'lum bir ijtimoiy-madaniy vaziyatda muloqot subyektlarining o'zaro ta'siri qanday davom etishini ko'rsatadi. Bunga muvofiq yozuvchi (1-subyekt) o'zining individualligini namoyon etib, mavjud bo'lgan chet tilidagi nutq tajribasiga tayanib kommunikativ muammoni mos vositalar to'plami yordamida hal qiladi va yozma nutqni yaratadi. Ushbu mahsulot mo'ljallangan oluvchiga unga ta'sir o'tkazish va kerakli natijani olish maqsadida yuboriladi. (3-rasmga qarang)

Biz ishlab chiqqan model ijtimoiy-madaniy vaziyat va tegishli kommunikativ vazifa, yozuvchi va qabul qiluvchining individualligi xususiyatlari va ularning chet tilidagi nutq tajribasi, yozma chet tili muloqoti va uning mahsuli yozma diskursni belgilaydigan omillar, umumiy funksional mexanizmlar va yozma diskursiv kompetensiya komponentlari birgalikda yozma diskurs ishlash jarayonini ta'minlashini ko'rsatib beradi.



3-rasm. Yozma diskursning ishlash jarayoni

**Xulosa.** Yozma diskursiv kompetensiyasi takomillashgan til o'rganuvchi adresant bilan yozma muloqot olib borish jarayonida yozma diskurs mazmunining yozma chet tilidagi muloqotning ijtimoiy-madaniy holatiga va kommunikativ vazifaga muvofiqligiga rioya etib, aloqa subyektlari madaniyatiga xos bo'lgan yashash sharoitlari, qadriyatlarini, odob-axloq qoidalarini yetarli darajada aks ettiradi. Shuningdek, o'rganilayotgan chet tili mamlakatida qabul qilingan janr-stilistik me'yorlar va stereotiplarga, axborotni taqdim etishda mantiq va ketma-ketlikka hamda muayyan turga xos bo'lgan diskursning lingvistik-ritorik tuzilishiga, leksiko-grammatik to'g'riligiga rioya qilib va nihoyat turli xil bog'lovchi (kogeziya) vositalaridan foydalanib matnni paragraflarga bo'lib tashkil qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Canale, M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing / M.Canale, M.Swain // Applied linguistics. – 1980. – 1 (1). – Pp. 1-47. / Bachman L. Fundamental considerations in language testing. Oxford. Oxford University Press; 1990. /Savignon, S.J. Interpreting communicative language teaching. Context and concerns in teacher education / S.J.Savignon. – New Haven & London, 2002. – 243 p. /Van Ek, J. (1986). Objectives for Foreign Language Learning. Strasbourg: Council of Europe./Hymes, D. H. (1972). On Communicative Competence. In Pride, J. B., & Holmes, J. (Eds.), Sociolinguistics, (pp.269-293). Baltimore, USA: Penguin Education, Penguin Books Ltd.
2. Brown H.D. Teaching by principles. N.Y.: Longman, 2000., 68-71 bet

3. Евстигнеева И.А. Роль современных информационных и коммуникационных технологий в развитии дискурсивных умений студентов языкового вуза., <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-sovremennyh-informatsionnyh-i-kommunikatsionnyh-tehnologiy-v-razvitii-diskursivnyh-umeniy-studentov-yazykovogo-vuza>.,214-бет

4. Н.П. Головина Формирование дискурсивной компетенции у учащихся старших классов в процессе обучения репродукции и продукции иноязычных письменных текстов (школа с углубленным изучением английского языка). Дис. ... канд. пед. наук; - Санкт-Петербург 2004 -20-23 сс.

5. Р.А.Черемисинова. Методика формирования иноязычной письменной дискурсивной компетенции у обучающихся вуза Дис. ... канд. пед. наук; - Киров 2016 -49 с.

## „DO‘STLIK“ KONSEPTIDA QADRIYATLAR IN‘IKOSI

**Karimova Zuxra Ulugbekovna**

Urganch davlat universiteti

Roman-german filologiyasi doktoranti

[zuxra.karimova@gmail.com](mailto:zuxra.karimova@gmail.com)

ORCID 0000-0001-5916-0197

UDK 811.111:811.512

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida do‘stlik konsepti doirasida ikkala til egalari xos qadriyatlarining ifodalanishi bayon qilingan. Xalq qadriyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari jamiyat tajribasi va turmush tarzini o‘zida namoyon qiluvchi xalq maqollarida ham o‘z aksini topgan. Har bir xalq madaniyatida ushbu millat xususiyatini namoyon qiluvchi, turli jabhalarni yorituvchi maqollari mavjud. Qadriyatlar orasida insonlar orasidagi muloqotning muhim qismi bo‘lmish do‘stlik aloqalari xalq orasida muhim o‘ringa ega. „Do‘stlik“ tushunchasining ikki xalq madaniyatida ifodalanishi ikki til egalari og‘zaki ijodi mahsuli – maqollar orqali o‘rganildi. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida „do‘stlik“ konseptini ifodalovchi maqollar tahlilga tortildi. Tadqiq qilinayotgan til egalari qadriyatlarida do‘stlik tushunchasi, uning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilib, ushbu tushunchalarning til imkoniyatlari orqali maqollarda bayon qilinishi tadqiq qilindi. Ingliz va o‘zbek xalqlari qadriyatlaridagi farqlar va o‘xshashliklar ajratilib ko‘rsatildi.

**Kalit so‘zlar.** do‘stlik, maqol, o‘zaro munosabat, qadriyat, konsept, jamiyat, vertikal munosabat, gorizontal munosabat

## REFLECTION OF VALUES IN THE CONCEPT OF „FRIENDSHIP“

**Abstract.** This article describes the expression of the values specific to the owners of both languages within the framework of the concept of friendship in English and Uzbek. The unique characteristics of the people’s values also reflected in the folk proverbs, which reflect the experience and lifestyle of the society. Every nation has proverbs that show the characteristics of this nation illuminating various aspects. Friendship ties, which are an important part of communication between people, have an important place among the values. The expression of the concept of “friendship” in the cultures studied through proverbs, part of folklore of the two languages. In the article, proverbs expressing the concept of “friendship” in the English and Uzbek languages analyzed. The concept of friendship, its importance, its unique features in the world view of the people were studied in the values of the speakers of the languages under study, and the expression of these concepts in proverbs through the language possibilities was studied. The differences and similarities in the values of the English and Uzbek peoples highlighted.

**Key words.** friendship, proverb, mutual interaction, value, concept, community, vertical relationship, horizontal relationship

**Kirish.** Har qanday madaniyatning asosida xalqning o‘zigagina xos bo‘lgan qadriyatlari turadi. Ular jamiyatda hayotiy ko‘rsatma vazifasini bajarib, ushbu jamiyat madaniyatining shakllanishiga asos bo‘ladi. Barcha xalqlar o‘z qadriyatlariga ega, ammo bu tushunchalarning qadr darajasi turli xalqlarda turlicha. Masalan, sharq xalqlari uchun insonning xalq bilan birligi, oila, kattalar va ota-onaga hurmat, inson kamoloti, o‘zaro munosabatlarda uyg‘unlik, kamtarinlik kabi qadriyatlar muhim hisoblansa, g‘arb an‘analarida jamiyat va shaxsning qarama-qarshiligi, jamiyat qadriyatlaridan ko‘ra shaxsiy qadriyatlarining ustun qo‘yilishi, mustaqillik, shaxs ozodligi, tenglik kabi tushunchalar qadrlanadi[1]. Xalq qadriyatlarining o‘ziga xos hususiyatlari jamiyat tajribasi va turmush tarzini o‘zida nomoyon qiluvchi xalq maqollarida ham o‘z aksini topgan. Maqollarga bo‘lgan qiziqish o‘zbek va xorij

tilshunosligida anchadan buyon davom etadi. Asrimizning boshidan boshlab o'zbek tilshunosligida paremiologiya sohasi chuqurroq o'rganila boshlandi[2]. Bir qator tilshunoslar maqol va unga xos xususiyatlarni tadqiq qildi. Jahon tilshunosligida ham maqollarni o'rganish va tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlar diqqatga sazovor. Shular orasida amerikalik mashhur maqolshunos olim V. Miderning maqollar ustida olib borgan izlanishlari va ushbu izlanishlari natijasida ushbu mavzuga oid yuzlab kitoblari hamda mashhur „Proverbium“ jurnaliga muharrirlik qilgani maqolshunoslik sohasida salmoqli o'ringa ega. Quyida maqollarda xalq qadriyatlarining, jumladan, munosabatlar qadriyatlarining aks aks etishi tadqiq ostiga olingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xalq orasidagi qadriyatlar jamiyatdagi insonlarning o'zaro aloqasidagi qoidalarga, munosabat turlariga ham ta'sir ko'rsatadi va munosabatning o'ziga xos turlarini shakllantiradi. Rus tilshunosi T.V. Larina ingliz xalqining insonlar bilan muloqotdagi o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ifodalaydi. „Ma'lumki, inglizxabon xalqlar yuqori darajali individuallik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu esa ular o'zaro muloqotining gorizontol turida insonlarni ajratib turuvchi katta masofa va shu bilan birga vertikal munosabatlarda o'zaro kichik masofani afzal ko'rishini ko'rsatadi. Natijada inglizxabon xalqlarda o'zaro munosabatlarida masofa va tenglik qadrlanadi“[1]. Zero, ingliz xalqi uchun insonlar orasida hamma bilan yaqin aloqalar, ochiq suhbatlar, shaxsiy chegarani buzish xarakterli hisoblanmaydi. Yoshi va ijtimoiy jihatdan farqli insonlar (ota-ona-farzand, o'qituvchi-talaba, aka-uka, qariya-yosh yigit) o'rtasidagi munosabatda esa chegara o'rnatilmaydi, ya'ni yoshi kattaligi yoki hayotdagi o'rni - obro'si balandligi uchun ular bilan aloqada cheklanish kuzatilmaydi. O'zbek xalqi orasida aksincha munosabat shakllangan bo'lib, o'zaro munosabatlarda gorizontol masofa kichik va vertikal masofa kattadir. Zero, ushbu xalq atrofdegilar bilan yaqin munosabatga kirishishga intiluvchandir. Shu bilan birga o'zbeklarda kattaga hurmat, ular oldida andisha saqlash alohida qadrlanadi. Yuqoridagi qadriyatlar, jumladan, do'stlar, ularning turlari va ular orasidagi o'zaro munosabat ingliz va o'zbek xalqlaridagi maqollarda ifodalanishi tilshunoslikning dolzarb mavzularidan hisoblanadi. O'zbek tilida maqollar xususida H. Berdiyrov, R. Rasulov, Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov, T. Mirzaev, A. Musoqulov, M. Yo'ldoshev, B. Sarimsoqov, K. Karomatova va M. Sodiqova kabi bir qator tilshunoslar tomonidan izlanishlar olib borildi. Jahon tilshunosligida W. Mieder, N. Norrick, Stephen Winick, Galit Hasan-Rokem, S. Gallacher, M. I. Shaxnovich, A.V. Kumin, V.P. Anikin, V.P. Jukov kabi tilshunos olimlar tomonidan ilmiy ishlar nashr qilingan. Ikkala tilda bu tushunchalarning maqollarda ifodalanishidagi farqli va o'xshash jihatlar tilshunos olimlarning izlanishlari asosida davom ettirildi. Tadqiqot maqsadida tasnifiy usul orqali maqollar tanlab olindi, deskriptiv tahlil va qiyosiy-tarixiy metodlar orqali tahlil qilindi.

**Natijalar va muhokama.** Har bir millatning o'zaro munosabatidagi o'ziga xos xususiyatlar xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan. Quyida ingliz va o'zbek xalqi orasidagi o'zaro munosabatlar, aniqrog'i, do'stlik munosabatidagi o'ziga xosliklar xalq maqollarida aks etishini kuzatamiz. O'zbek xalqi uchun jamoaviy manfaatlar, umumiylik, birgalik kabi xususiyatlar shaxsiy qiziqishlardan muhim hisoblanadi. *Yuz so'm puling bo'lguncha, yuz do'sting bo'lsin*[3] maqolida „yuz“ so'zi uslubiy bo'rttirmaga ega bo'lsa ham, o'zbek xalqi uchun do'stning qadri balandligini namoyon qiladi. O'zbeklar doimo atrofida do'stlari bo'lishini xohlashadi. Bu xususiyat quyidagi maqollarda ham aks etgan: *Pul ortirma, do'st orttir. Rabot solma, do'st orttir.* Zero, ingliz xalqida *Two is company, three is crowd* (Ikki kishi hamroh, uchasi esa olomondir.) mavjud bo'lib, u xalqning munosabatlaridagi chegaralanish, insonlar o'rtasidagi o'zaro masofani ifodalaydi. *Do'st bilan obod uyning; Do'stsiz boshim — tuzsiz oshim*[4] maqollarida o'zbek xalqida doimo do'stlar bilan birga bo'lish muhim hisoblanishi, ular uyning obod, fayzli bo'lishini, hayotning mazmunli bo'lishini ta'minlashi ko'rsatilgan. Shu mazmundagi qadriyatlarga ega o'zbek xalqi uchun

ingliz tili lug'atidagi *quality time* (yaqin insonlar bilan, munosabatlarni mustahkamlash uchun ajratiladigan vaqt) tushunchasi tushunarsiz va g'ayrioddiy tuyulishi mumkin.

Insonlar muloqotga kirishar ekan, ikki turdagi muloqotga duch keladi. Birinchisi, ma'lum maqsadlarni amalga oshirish maqsadida tanlanadigan munosabat, ikkinchisi shaxsiy munosabatlar. Ikkinchi turdagi munosabatlarda inson tanlayotgan hamrohining shaxsiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi va qalbiga yaqin insonni „o'ziniki“ sifatida qabul qiladi. Shu o'rinda „begonalar“ va „o'zimmiki“ qarama-qarshi tushunchalari paydo bo'ladi. Insonning „o'z“ do'stlari va maqsadli tanishlari orasidagi munosabatlarda katta farq kuzatiladi. O'zbek xalqining „do'st“ tushunchasidagi yaqinlik, ishonch, qo'llab-quvvatlash inglizabon xalqlardagi „do'st“ tushunchasidan tubdan farq qiladi. Ingliz va o'zbek tillarining izohli lug'atlarida „do'st“ va „friend“ so'zlari quyidagicha izohlanadi.

| Do'st   | Friend  |
|---|---|
| 1. Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo'lgan, inoqlik, ahillik bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri; o'rtoq. | 1. a person you know well and like, and who is not usually a member of your family (oilangiz a'zosi bo'lmagan siz yaxshi bilgan va yoqtirgan inson)   |
| 2. Yaqin, tanish, oshno.  | 2. a person who supports an organization, a charity, etc., especially by giving or raising money; a person who supports a particular idea (Ma'lum bir tashkilotni moddiy tarafdin qo'llab quvvatlovchi shaxs) |
| 3. Murojaat qilish shakli.  | 3. a person who has the same interests and opinions as yourself, and will help and support (siz bilan bir xil qiziqish va qarashlarga ega, sizni qo'llovchi va yordam qiluvchi shaxs)                         |
| 4. Diniy tasavvufda: Alloho, ey xudo.   | 4. used to talk about someone you do not know who has done something silly or annoying (sizga yoqmagin siz tanimagan inson haqida gapirishga qo'llaniladi)  |
|   | 5. Friend a member of the Society of Friends (Society of Friends jamiyatining a'zosi)   |

L.Visson shu munosabatlar haqida quyidagicha yozadi: Amerikaliklar tez-tez joydan joyga ko'chib, eski do'stlaridan ajralib, yangilarini topib hayot kechirishga ko'nikishgan. Ularning ishda, klubda, sport zalida, cherkovda do'stlari bor. „Fred gimnastika zalidagi do'sti haqida gapira turib, uning ismini ham eslolmadi, - hikoya qiladi Irina. – Bu qanday do'st bo'ldi?“ Aniqrog'i, amerikaliklar uchun „do'st“ tennis yoki golf o'ynash, birga ovqatlanish kabi ma'lum tadbirlar bilan bog'liq insonlardir[5]. Ammo o'zbeklarda do'st u uchun „zahar yutish“ mumkin bo'lgan, dildan suhbat quriladigan, har sohada suyana oladigan insondir: *Do'st – do'sting tayanchi*[6]; *Do'sting uchun zahar yut*; *Ota-ona hazina, aka-uka- tayanchn, do'st esa ikkovi*; *Chin do'st tug'ishganing bilan teng*; *Quyosh havoni isitar, do'st — qalbni*.

Русская литература сохраняет свою устойчивую специфику, выделяющую её среди других литератур мира, благодаря социально-историческим причинам. Основной слой грамотных людей состоял из церковных и государственных деятелей, поэтому русской литературе на протяжении многих веков были присущи духовность и государственность. «Духовность» (как эзотерическое знание для посвященных), столь характерная для восточных литератур, в процессе усиления светского начала в русской культуре трансформировалась в «душевность». Отсюда особая задушевность произведений русской классики, которая заставила иностранцев говорить о «загадочной русской душе».

В древнерусской литературе с самого начала зародилось понятие «монументального историзма», характеризующегося тесной связью индивидуальных событий и судеб с историей общества и государства. В отличие от западной литературы, русская не восхваляет индивидуализм; напротив, она ценит стремление человека к связи с окружающими.

Счастливые концовки, или *happy end*, редко встречаются у русских писателей. Даже если они и появляются, как в пьесе А. Н. Островского «Без вины виноватые», они часто окрашены страданиями героев и не являются подлинным завершением. Более типичны для русской литературы открытые финалы, как в «Горе от ума» Грибоедова или «Преступлении и наказании» Достоевского. Даже если сюжет доводится до логического завершения, автор часто продолжает свои размышления, как это делает Л. Н. Толстой в «Войне и мире» или «Анне Карениной»[3].

**Заключение.** Западная литература часто использует новеллы с замкнутой композицией, тогда как русская предпочитает рассказы с открытым финалом. Русская литература требует более медленного чтения, что связано с особенностями языка. Русские слова, как правило, длиннее английских или французских, а язык — синтетический, требующий большего внимания к деталям. Медленное чтение также связано с частым использованием пунктуации, которая в европейских языках не требуется.

В русском языке существительные, прилагательные и наречия обладают богатым разнообразием оттенков, тогда как система времён глагола менее развита, чем в западных языках. Это приводит к созданию статичных картин и грандиозных панорам, в то время как быстрая смена действия, характерная для западных жанров *action*, встречается реже. Время в русской литературе чаще всего представляется в крупных и простых формах, что напоминает «монументальный историзм».

Черты русской литературы, которые мы рассмотрели, отражают феномен «загадочной русской души». Эти черты могут частично совпадать с особенностями других культур, но их уникальное сочетание и пропорции отличают русскую литературу, например, от французской, как это блестяще описал бывший президент Франции Валери Жискар д'Эстен[4]. Через призму «загадочной русской души» можно увидеть величественный образ России.

### Список использованной литературы

1. Алексеев М. П. Очерки по истории англо-русских литературных отношений (XVI-XVII вв.): тезисы докт. дис. - Л., 1937.
2. Алексеев М. П. Шекспир и русское государство его времени // Шекспир и русская культура. - М. ; Л., 1965. - С. 784-805.

3. Гуманитарное знание: тенденции развития в XXI веке: В честь 70-летия Игоря Михайловича Ильинского / под общ. ред. Вал. А. Лукова. - М., 2006.
4. Жискар д'Эстен В. Французы. - М., 2004.
5. Захаров Н. В. Шекспиризм как творческая идея русской литературы // Шекспировские студии II: Исследования и материалы науч. семинара, 26 апреля 2006 г. - М., 2006. - С. 12-17.
6. Луков Вл. А. Загадка Гамлета // Шекспировские студии: Трагедия «Гамлет»: материалы науч. семинара, 23 апреля 2005 г. / Моск. гуманит. ун-т, Ин-т гуманит. исследований. - М., 2005. С. 21-26.
7. Михальская Н. П. Образ России в английской художественной литературе IX-XIX вв. М., 1995; 2-е изд. - М., 2003.
8. Микеладзе Н. Э. Русские мотивы в произведениях Шекспира // Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика. - М., 2001. - С. 28-39.
9. Тарасов А. Б. Что есть истина? Праведники Льва Толстого. - М., 2001.

## “MUNIS UL-USHSHOQ”DA NAVOIY G‘AZALLARIGA MUXAMMASLAR

**Shodmonov G‘iyosiddin Nafasovich**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,

Qarshi davlat universiteti

[shodmonov786@gmail.com](mailto:shodmonov786@gmail.com)

ORCID 0000-0002-0778-8385

UDK 894.375 (021)

**Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiy g‘azaliyotining o‘zbek adabiyoti tarixida muxammas janri taraqqiyoti uchun o‘ynagan roli tahlil qilingan. Hech bir shoir g‘azallariga Navoiy g‘azallari kabi ko‘p muxammas yozilmagani ta’kidlangan. Bu an‘anada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida yashab ijod qilgan Shermuhammad Munis tomonidan yaratilgan muxammaslar g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan Navoiy ijodiga eng yaqin turishi dalillangan. Shuningdek, Munisning hozirgacha nashr qilinmagan bunday muxammaslari transliteratsiyasi taqdim qilingan. Bundan tashqari, maqolada Navoiy va Munis muxammaslari mavzu va g‘oya jihatidan tahlil etilgan. Munis muxammaslarida Navoiy g‘azallaridagi so‘fiyona g‘oyalarni rivojlantirgani hamda yangi poetik tasvir usullaridan foydalangani atroflicha tahlilga tortilgan. Shoir muxammaslarining munisshunoslik, umuman, matnshunoslik va adabiyotshunoslikdagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Navoiy, Munis, g‘azal, bayt, muxammas, band, qofiya, tazmin, an‘ana.

**Abstract.** In the article the author analyses the role of gazels by Alisher Navai in the history of the Uzbek Literature and in the development of the poetic genre mukhammas. Also, the author points out that plenty of mukhammases were written to only Navai’s gazels, but no other poet’s and the author gives reasons that as for tradition, the mukhammases which were written by Shermuhammad Munis who lived in the late XVIII century and in the early XIX century are close to the poetry of Navai ideologically and in a fictional manner. As well as, the author presents the transliteration of Munis’s such mukhammases which have not been published yet. In addition, the article analyzes the mukhammases of Navoi and Munis in terms of subject and idea. It has been thoroughly analyzed that in Munis's mukhammases he developed Sufi ideas from Navoi's ghazals and his use of new poetic image methods. The significance of the poet's mukhammases in munistic studies, textual studies and literary studies in general is revealed.

**Key words.** Navai, Munis, gazel, muhammas, couplet, rhyme, tazmin, tradition

**Kirish.** O‘zbek adabiyoti tarixida g‘azallariga eng ko‘p muxammas bog‘langan shoir Alisher Navoiy ekaniga shubha yo‘q. Buning miqdorini hozircha aniqlash imkoni ham yo‘q. Chunki Navoiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslarning ba‘zilari mavzusi irfoniy, tasavvufiy bo‘lgani bois sho‘ro davri adabiy ilmlari doirasiga tortilmagan bo‘lsa, ba‘zilari muxammas yozuvchilarning merosi har xil sabablarga ko‘ra o‘rganilmay qolib ketgan. Shunga qaramay, ulug‘ mutafakkirdan so‘ng yashagan shoirlar salohiyati va iste‘dodiga ko‘ra, bitilgan taxmislarning sifati xususida fikr yuritish mumkin. Bu borada XVIII asr oxiri va XIX asr boshida yashab ijod qilgan Shermuhammad Munis tomonidan yozilgan muxammaslarning poetik darajasi eng yuqori o‘rin egallaydi. Lekin, afsuski, bu shoir muxammaslari hanuz to‘laligicha joriy yozuvlarga o‘g‘irilmagan va o‘rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot asosan qiyosiy-tipologik, tarixiy metod asosida shakllantirilgan. Ushbu o‘rinda boshqa masala ham bor. Bu buyuk shoir g‘azallarining boshqa ijodkor tafakkuridagi sintezi masalasidir. Gap shundaki, muxammasda

gʻazal yangi “hayot”ini yoki ikkinchi umrini yashay boshlaydi. Taxmis muallifi unda oʻz talqinini yaratadi. Yaʼni gʻazaldan oʻz qarashlari va badiiy imkoniyatlariga koʻra foydalanadi. Binobarin, Navoiy gʻazallariga yozilgan muxammaslar shoir ijodiga munosabatning turli davrlardagi koʻrinishlari haqida tasavvur beradi. Bunda muxammas muallifining niyati tadqiqotchi diqqat markazida boʻlishi kerak, albatta. Shoirning gʻazal muallifi gʻoyasiga qoʻshilishi yoki muxtalif yoʻl tutishi niyat mazmunini belgilab beradi. Ammo, aksariyat holda, muxammas bituvchi gʻazal muallifiga tobeʼlik yoʻlini tutadi. Navoiy gʻazallariga muxammas bogʻlovchilarning bundan boshqa yoʻllari boʻlishi ham mumkin emas. Eʼtiqod, ilm va badiiy-estetik saviyaning yaqin boʻlishigina ularning muvaffaqiyatini taʼminlaydi. Shu mezonlar bilan yondashganda, bizningcha, Navoiy taxmischilari orasida ikki shoir – Amiriy (Umarxon) va Munis boshqalardan yuqoriroq mavqe egallaydi. Boshqa shoirlar taxmislari nechogʻli goʻzal boʻlmasin, mazkur jihatlarning loaqal birida “oqsaydi”. Buni isbotlash uchun Munis muxammaslariga murojaat qilamiz.

Akademik V.Abdullayev Navoiy va Munis ijodidagi uygʻunlik haqida alohida maqola yozgan edi. Olim unda shunday yozadi: “Munis taqlidchilik qilmagan va Navoiyning soʻzlari yoki misralarini aynan koʻchirmagan; u Navoiy sheʼriyatidan oʻrganish natijasida mustaqil fikr yuritishga, sheʼriyatda Navoiy izidan borib, yangiliklar yaratishga muvaffaq boʻlgan” [1].

**Natijalar va muhokama.** “Munisul-ushshoq”ning OʻzR FA Sharqshunoslik institutida 63 raqamli toshbosmasi [5] (maqolamizda muxammaslar tahlili uchun ana shu manbadan foydalanamiz) va 940 raqam ostida saqlanayotgan qoʻlyozmasida muxammaslar – 18 ta (193a – 203b) deb koʻrsatilgan. Ular orasida 11 tasi Navoiy (4 tasi Fuzuliy, 1 tasi Amiriy, 1 tasi Vola, 1 tasi Andalib) gʻazallariga bogʻlangan. 1980-yilda nashr qilingan Munis “Saylanma”sida muxammaslarning teng yarmi – 9 tasi, Navoiy gʻazallariga bogʻlangan 6 ta (Fuzuliy gʻazaliga 2 ta va Andalib gʻazaliga 1 ta) taxmis chop etilgan [6]. Shundan kelib chiqib, mazkur muxammaslar tahlilini ikki guruhga boʻlib amalga oshirish mumkin: 1) nashr etilgan va 2) nashr etilmagan muxammaslar matnii xususiyatlari.

**Nashr etilgan muxammaslar.** Munis tomonidan Navoiyning quyidagi gʻazallariga bogʻlangan:

1. “Favoidu-l-kibar” devonidagi 9 baytli 168-gʻazal [10.173]

Gʻazalning 7 bayti taxmislanib, 2 bayt soqit qilingan. Ikkinchi va uchinchi baytlar oʻrni almashtirilgan. Buni baytlar mazmuni silsilasi Munis tomonidan bir oz oʻzgacha talqin qilingani bilan izohlash mumkin. Maʼlumki, tasavvuf adabiyotida koʻngil va aql koʻpincha zidlantiriladi. Munis birinchi baytda koʻngil qushining ruxsor shulasiga bandligini inobatga olib, gʻazalning uchinchi baytidagi begona va oshno ziddiyatini oʻsha anʼanaviy ziddiyat ifodasi bilan izchillikda rivojlantiradi. Shu bois uni ikkinchi bandga oladi:

Telba koʻnglum gʻorat aylar yuz tuman ranju ano,

Moyai aqlimni ilgimdin olib dardu balo,

Muxtasar bukim, mani gar koʻrsalar hijron aro,

Yigʻlar ahvolimgʻa ham begonavu ham oshno,

To ulusqa oshno, ul oy manga begonadur.

Muxammas tarkibiga kiritilmagan ikki baytning birinchisi gʻazaldagi toʻrtinchi bayt boʻlib, uning qofiyasi sifatida “koshonadur” soʻzi qoʻllangan. Bu soʻz Navoiy baytida zindon, choh kabilar tazod hosil qilib, bayt badiiyatini qanchalik yuqoriga koʻtargan boʻlmasin, Munis nazdida avvalgi baytning “begonadur”, keyingi baytning “donadur” qofiyalari orasida bir oz muvofiq emasdek koʻrinish beradi va bayt soqit qilinadi. Ikkinchi soqit baytga misralar qoʻshishga, nazarimizda, Munis andisha qilgan koʻrinadi. Bu bayt mutlaq navoiyona boʻlib, Munis unga misra qoʻshish bilan noyob topilmaga soya solish boʻlishi mumkinligini oʻylagan:

Zor jismimda soʻngakkim, bilgurur dandonasi,

Goʻyiyo koʻnglum uyining farshigʻa dandonadur. [10.173]

“Dandona” kishining old tishlari maʼnosini ham, binolardagi kungura maʼnosini ham anglatadi [2]. Baytda tajnis sanʼatidan tashqari, zor jism orqali koʻngil holati, koʻngil uyi holati misolida jism abgorligi benihoya mahorat bilan tasvirlanadiki, unga daxl qilishdan

shogird, izdoshning adab saqlashi o‘rinli edi.

2. Muxammaslar tartibida uchinchi o‘rinda (2-muxammas Fuzuliy g‘azaliga yozilgan) “Favoidu-l-kibar” devonidagi 7 baytli 13-g‘azalga bog‘langan taxmis joy olgan. Uning matla‘i quyidagicha:

Agarchi yo‘q talabingdin dame qaror manga,

Irodat emgagidur bu, ne ixtiyor manga. [10.18]

G‘azal tasavvufiy ruhda, haqiqiy ishq mavzusida bo‘lib, Yor vasli mavjud vatanda biyik maqom irodati emgagi (zahmati)dan nolon oshiq kechinmalari qalamga olingan. Shuningdek, unda kalom ilmining ko‘p muhokamalariga sabab bo‘lgan iroda ixtiyori masalasiga ham diqqat qaratilgan (*Irodat emgagidur bu, ne ixtiyor manga*). G‘azalga bog‘langan muxammasda ishq mavzusi bir oz majoziyashtirilib talqin qilingan. Shu vajhdan g‘azalning ikkinchi va uchinchi baytlari soqit qilinib, besh bandlik ko‘rinishga kelgan.

Muxammas nashrida, boshqa muxammaslarda ham bo‘lgani kabi ba‘zi matniy noqisliklar bor. Masalan, uchinchi bandning uchinchi misrasida “dame” so‘zi tushib qolgan:

Ko‘rub hamisha zarar aqlim istagan ishdin,

Boshing‘a yog‘di g‘am izhori fazlu binishdin,

Bilibman emdiki, chiqmon *dame* bu kohishdin,

Qochib adamg‘a boray aqlu fahmu donishdin,

Vatan bori(n)da bu yot el aro ne bor manga.

3. Munis devoni toshbosmasidagi tartib bo‘yicha beshinchi muxammas “G‘aroyibu-s-sig‘ar”dagi 9 baytli 627-g‘azalga bog‘langan. G‘azal shunday boshlanadi:

Ishq ahli go‘ristonida qabrim chu zohir bo‘lg‘usi,

Farhod aning toshin yo‘nub, Majnun mujovir bo‘lg‘usi. [7.648]

Muxammasda ikki baytning soqit qilinishi uning hajman kengayib ketishidan saqlanish uchungina, xolos. Uning strukturasi ham, g‘oyaviy-mavzuiy va badiiy jihatlari ham g‘azalga muvofiq, boshqa ba‘zi muxammaslardagi kabi o‘zgacharoq talqin qilinmagan:

Fatton ko‘zung mardumlari xunxora ikki jodudur,

Mehri jamoling ollida xurshidi raxshon ko‘zgudur,

Qilsam anga nazzoraye, men zorg‘a bu qayg‘udur,

Dersen, yuzum sori ko‘zung ko‘p boqmasun gar yuz budur,

Ul mehr tobidin erib, oqg‘uncha nozir bo‘lg‘usi.

4. “Favoidu-l-kibar”dagi 59-g‘azalga bog‘langan muxammas Munis devoni toshbosmasida 10-o‘rinda keladi. G‘azal mashhur “Tun aqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab” [10.64], misrasi bilan boshlanadi, 9 baytdan iborat. Taxmis bitish jarayonida ikki bayt soqit qilingan bo‘lib, bunda Munisning boshqa muxammasnavislarda uchramaydigan bir o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Bu soqit qilingan bayt mazmunini keyingi bandda o‘z so‘zlari bilan qayd etish uslubidir. Masalan, g‘azalning 3-baytidagi “Quyoshdek chehra birla tiyra kulbam aylagach ravshan” misrasining mazmuni keyingi band birinchi misrasida “Eshikdin mehrdek nur birla chun kulbam aro kirdi” ko‘rinishida keladi. Yoki, soqit qilingan:

Ki, *ey majnun*, pariy ko‘rdung magarkim, tarki hush etting?

Takallum qil *bu sog‘arni ichib, raf‘i hijob* aylab

baytidan keyingi band quyidagi misralar bilan davom ettiriladi:

Dedi: *K-ey telba* tokay lol o‘lub yosh to‘kkasen ko‘zdin?

*Ichib bu mayni*, dey holing *hijobin raf‘ etib* o‘zdin,

Man oni ilgidin olib, bo‘lub xushhol bu so‘zdin...

Ko‘rinib turganidek, baytdagi so‘zlar qayta jilolantirilgan.

5. “Navodiru-sh-shabob”ning 421-g‘azaliga [8.426] to‘liq bog‘langan muxammas toshbosmada 14-o‘rinda keladi. Muxammasda g‘azalning ayrim so‘zlari bir oz shaklan o‘zgartirilgan. Masalan, birinchi misradagi “dayrdadur” so‘zi “dayr arodur” ko‘rinishiga keltirilgan.

6. “Badoye‘u-l-vasat” 421-g‘azali “Bodadin jon isi kasb etti mashom, Go‘yiyo la‘linga yetmish edi jom” [9.426] misralari bilan boshlanadi. Taxmislash jarayonida g‘azaldan ikki

bayt soqit qilingan. Bu yerda ham baytlarning soqit qilinishi yuqoridagilar kabi xususiyatlarga ega.

**Nashr qilinmagan muxammaslar.** Navoiy gʻazallariga Munis tomonidan yozilgan 5 ta muxammas hozirgacha nashr qilingan emas. Buning sababi, birinchidan, ularning hammasi diniy-tasavvufiy mavzularda yozilgani boʻlib, Munis adabiy merosining nashrga tayyorlanishi asosan shoʻro mafkurasi ustuvor davrda amalga oshirilgani; ikkinchisi, bu merosning oʻrganilishi, jumladan, matnshunoslik nuqtayi nazaridan unga diqqat qaratilmaganidir. Holbuki, Navoiy merosining oʻrganilishi uning anʼanalari munosib davom ettirilgan, unga har jihatdan yaqin boʻlgan xalaf shoirlar ijodiga eʼtibor qaratilishini ham taqozo qiladi. Taʼkidlanganidek, Munis bunday ijodkorlarning eng avvalgi safida turadi.

Koʻpincha, tazmin yoʻlida muxammas yozuvchi shoirlar buning uchun ishqiy yoki ijtimoiy mavzulardagi gʻazallarga murojaat qiladilar. Baʼzan goʻzal badiiy ifodalar muxammasnavisni jalb qiladi. Diniy-tasavvufiy gʻazal tanlanganda Navoiyning bu boradagi qarashlariga, talqiniga muvofiqlik koʻrsata olmaydilar. Natijada muxammas gʻazalning gʻoyaviy va badiiy-estetik darajasini tushirib qoʻyadi. Munisning diniy-tasavvufiy gʻazallarga bitgan muxammaslari bu jihatdan alohida eʼtirofga loyiq. Buning isboti sifatida birinchi muxammasning birinchi bandini tahlil qilish yetarlidir:

Zihi sunʼing bihorining hubobi torami aʼlo,  
Vujudi pokinga mazhar erur oyinai ashyo,  
Qilib zanjiri ishqing olam ahli koʻnglini shaydo,  
Zihe husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,  
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz gʻavgʻo.

Gʻazalning “zihi husnung” bilan va muxammasning “zihi sunʼung” bilan boshlanishi shunchaki shakliy oʻxshashlik emas. Baytda Haq husni zuhuridan, namoyon boʻlishidan olam va undagi barcha harakatlar vujudga kelishi talqin qilinsa, bandda oʻsha husn zuhurining qanday taʼsir etuvchi omil (sunʼ) orqali yuz berishi hamda yaratilgan ashyolarning hammasi Vujudi pok – Mutlaq borliq mazhari (zohir boʻlishi) uchun koʻzgu kabi boʻlib, olam ahli koʻnglining bir-biriga shaydoliq “ishq zanjiri”ni vujudga keltiradi. Ishaq esa barcha intilish-harakatlar omili. Bu yerda vahdatu-l-vujud taʼlimotiga doir qarashlar oʻz ifodasini topadi.

Bunday holatlarni kuzatish va baholash uchun quyida Munisning shunday muxammaslarini birinchi bor havola qilamiz:

1. “Gʻaroyibu-s-sigʻar”ning 2-gʻazaliga yozilgan muxammas [7.23]. Maʼlumki, bu gʻazal Haq hamdiga bagʻishlangan. Munis devonida muxammaslar qatorining boshida bu gʻazalga taxmisning qoʻyilishi ham navoiyona usuldir. Zero, Navoiy devonlarida har bir juzʼ qofiyasi “alif” harfi intiho topuvchi hamd va naʼtlar bilan boshlanadi. Shunga muvofiq birinchi muxammas:

Zihi sunʼing bihorining hubobi torami aʼlo,  
Vujudi pokinga mazhar erur oyinai ashyo,  
Qilib zanjiri ishqing olam ahli koʻnglini shaydo,  
Zihe husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,  
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz gʻavgʻo.

Kim etmas sandin ummidu emas sandin harosonkim,  
Sanga tolib turur xalq talabda lek hayronkim,  
Visoling bodasi har tashnalablarga ne imkonkim,  
Seni topmoq base mushkildurur, topmasligʻ osonkim,  
Erur paydoliqʻing pinhon, vale pinhonligʻing paydo.

Shundan keyingi baytlarning oʻrni muxammasda almashtirilgan, 5-bayt 3-bandga, 3-bayt 4-bandga va 4-bayt 5-bandga tazmin boʻlgan. Muxammas yozishda baytlarning oʻrnini



almashtirish Navoiy ijodida ham kuzatiladi. Xususan, uning Lutfiy gʻazaliga yozgan “Koʻkdadur har dam figʻonim...” deb boshlanuvchi gʻazaliga bitilgan taxmisdagi uchinchi va toʻrtinchi baytlar oʻrni almashtirilgan. Demak, Munisning muxammas yozishda baytlarning oʻrnini almashtirishi ham bevosita Navoiyga ergashish natijasidir [4].

Zuhur etdurmak istab zotinga istar katmondin,  
Nasimi qudratingni zohir etgach bu gulistondin,  
Ochildi har taraf gullar fuzun aʼdovu imkondin,  
Quyoshqa gah qizarmoq, gohe sargʻarmoq erur ondin  
Ki, sunʼung bogʻida bor ul sifat yuz ming guli raʼno...

Koʻngulning bulbulini navʼi zikring doston qilsun,  
Siposing joʻyborini xirad qaydin ravon qilsun,  
Sanoyi pokingni soʻz bila Munis ayon qilsun,  
Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon (qilsun),  
Tikan jannat guli vasfin qilurda gung erur goʻyo.

2. “Badoyeʼu-l-vasat”ning 344-gʻazaliga muxammas [9.349]. Bu muxammas oltinchi oʻrinda joylashtirilgan. Gʻazalning uchinchi va sakkizinchi baytlari soqit qilingan. Muxammasni koʻchirishda Navoiy gʻazalining baʼzi oʻrinlari oʻzgargan. Masalan, gʻazalning 6-bayti “A” misrasidagi “Boshimgʻa keldi gʻam tigʻi” birikmasida “keldi” soʻzi oʻrnida “yogʻdi” soʻzi qoʻllangan. Lekin bu oʻzgarish, noqisliklar Munis tomonidan sodir etilmagani ayon. Bunday xatolar matn koʻchirish jarayonida sodir boʻlishi matnshunos D.S. Lixachev tomonidan taʼkidlangan. Olim koʻchirish jarayonini ketma-ketlikdagi toʻrt harakat bilan bogʻlaydi: 1) xattot tomonidan sobiq (koʻchiriluvchi) matnni oʻqish, 2) undagi parchani yodda saqlab qolish, 3) ichki imlo (diktant), 4) yozish [3]. Eslab qolishdagi xatolarga uslubiy quyma shakllar, barqaror birikmalarni ham qoʻshish mumkin. Bunday qoʻshishlarning katta qismi koʻchirilayotgan matnda oʻsha barqaror birikma va uslubiy quyma shaklda qaysidir oʻxshash soʻz birikmalarining mavjudligi “chaqirib oladi”. Juda koʻp barqaror birikmalar (Masalan, “boshga yogʻish”) koʻchiruvchi tomonidan oʻzining toʻliq shakliga “yetib borolmaydi”. Biz bunday juzʼiy oʻzgarishlarni Navoiy gʻazallari nashrlari bilan qiyoslab tashbih qildik. Shuningdek, baʼzi oʻrinlarda gʻazal nashrida yoʻl qoʻyilgan xatoliklar (Masalan, ikkinchi va toʻrtinchi baytlarda bir xil – “kuydurdung” soʻzining qofiya boʻlib kelishi Navoiyga xos emas, shuning uchun ikkinchi bayt qofiyasi “yondurdung” koʻrinishida) muxammasdagiga moslab tuzatildi:

Havodis oʻqlarin gardun otar boshimgʻa qobu deb,  
Qoʻyar gʻam dogʻ koʻnglumga nishon boʻlsun sanga bu deb,  
Ul oqshom gar bu mehnat qaydidin chiqmoq boʻlurmu deb,  
Sotarlal dasht uza men telbani kim tutsa hindu deb,  
Tanimni hajr dudu shuʼlasigʻa baski yondurdung.

Taharruk bargi aʼzo shoxi uzra yoydi ul kunkim,  
Xirad ashjori bunyodi bila oʻrtandi ul kunkim,  
Xavos aql kuymaklik ishin oʻrgandi ul kunkim,  
Hazin koʻnglum qushining parlari churkandi, ul kunkim,  
Buzugʻ tan oshyonin shuʼlai hajringgʻa kuydurdung.

3. “Favoidu-l-kibar”ning 36-gʻazaliga bogʻlangan muxammas yettinchi oʻrindan joy olgan [10.41]. Gʻazal 9 bayt, muxammas 5 band. Gʻazalning uchinchi, beshinchi, yettinchi va

sakkizinchi baytlari soqit qilingan.

Barqi ishqing shu'lasig'a toki bo'ldim muftalo,  
O'tlig' afg'onim sharori birla o'rtandi samo,  
Rahm etib holimg'a, hargiz qilma vaslingdin judo,  
Orazu xolingni birdam ko'rmasam, ey dilrabo,  
Uyladurmenkim, ko'runmas ko'zuma oqu qoro...

Munisi dilxastag'a hamdam erur bir sarvqad,  
O'q otarda g'amzasi shastig'a hayrondur xirad,  
Yetsa ondin gar sanga bir shast, shukr ayt, beadam,  
Ey Navoiy, xasta ko'nglumba madaddur novaki,  
Rost andoqkim, zaif elga berur quvvat aso.

4. Toshbosmadagi o'n birinchi muxammas "G'aroyibu-s-sig'ar"ning 445-g'azaliga yozilgan [7.466]. Avvalgilaridan farqli ravishda bu g'azalning biror bayti ham soqit qilinmagan. Matn tugal, hech qanday o'zgarishlar yo'q.

G'am o'tig'a yonadur borho ko'ngul netayin,  
Junun bila bo'ladur oshno ko'ngul netayin,  
Fig'ondin o't soladur borho ko'ngul netayin,  
Shikeb uyin buzadur benavo ko'ngul, netayin,  
Xaroblig' qiladur muftalo ko'ngul, netayin...

Nasihati aylab eding Munisoki bir od et,  
O'zungni ya'ni ibodat futuhidin shod et,  
Binoyi taqviyu qasri vara'ni obod et,  
Navoiyo deb eding: Zuhd tarhi bunyod et,  
Shikeb uyin buzadur benavo ko'ngul, netayin.

5. 17-muxammas "Favoidu-l-kibar"ning 50-g'azaliga bog'langan [10.55]. Bu g'azal ham 7 bayt, muxammasda baytlardan hech biri soqit qilinmagan. Bu yerda ham matn tugal, hech qanday o'zgarishlar yo'q.

Shakkarafshon so'z ila kuptur el aro mahbub,  
Karashmada mijasi o'qu qoshi yo mahbub,  
Va lek mumkin emas o'xshamoq sango mahbub,  
Qani sening kebi olamda dilrabo mahbub,  
Ko'z ila qotilu lab birla jonfizo mahbub...

Necha yetushsa jafu birla do'stidin yuz g'am,  
Vafo tariqida Munisg'a saboti qadam,  
Ko'rub bu holni andin o'zini tutg'ay kam,  
Gar o'lsa ahli muhabbat Navoiy, ey hamdam,  
Vafo kerak anga, qilg'an soyi jafu mahbub.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa shuki, Alisher Navoiy nazmiyoti o'zbek she'riyati uchun ijod mezoni bo'lish bilan birga, bir necha janrlarning taraqqiyot omili sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Xususan, o'zbek muxammasnavisligi rivojining asosiy manbasi Navoiy g'azaliyoti bo'lib qoldi. Shermuhammad Munis muxammasotining muvaffaqiyatlarini ham u bilan belgilash maqsadga muvofiq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев В. Сайланма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I ж. – Тошкент: Фан, 1983.
3. Лихачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. – Москва-Ленинград: Наука, 1964.

4. Лутфий. Девон. Гул ва Наврўз. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1965.
5. Мунис, Шермухаммад. Девон. – ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди, № 63 рақамли тошбосма.
6. Мунис, Шермухаммад. Сайланма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980.
7. Навоий, Алишер. Фаройиб ус-сиғар. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. I ж. – Тошкент: Ўз МАА, Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011.
8. Навоий, Алишер. Наводир уш-шабоб. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. I ж. – Тошкент: Ўз МАА, Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011.
9. Навоий, Алишер. Бадоеъ ул-васат. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. III ж. – Тошкент: Ўз МАА, Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011.
10. Навоий, Алишер. Фавойид ул-кибар. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. IV ж. – Тошкент: Ўз МАА, Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011.

## NASAFIYLARNING KASHF ETILISHIDA POYON RAVSHANOVNING TUTGAN O‘RNI

**Rajabaliyeva Muhabbat**

Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant

[rma2272@gmail.com](mailto:rma2272@gmail.com)

ORCID: 0009-0009-2930-0764

UO‘K: 37.016: 82.991.1

**Annotatsiya.** Tarixiy-ilmiy manbalarda cho‘l va biyobonlardan iborat deb ta’rif etilgan Qashqadaryo bugungi kunda muhtasham bir diyorga aylanmoqda. Ammo asriy urushlar, mo‘g‘ullar bosqini, arablar istilosi, o‘zaro hokimiyat talashishlar, ilg‘or fikrli, erkin qarashli ziyolilarni, shoir va olimlarni hamisha ta’qibga va quvg‘inga duchor qilgan. Bu esa adabiy hayotning bir tekis rivoj topishiga to‘sqinlik qildi. Ijtimoiy hayotdagi tanazzul va parokandalik adabiy muhitning taraqqiyotiga, zabardast shoirlar, olimlar yetishib chiqishiga g‘ov bo‘lib keldi. Buxoro xonlarining zulmidan norozi bo‘lgan erkin fikrli, adolat talab shoirlar, olimlar, xattotlar ayovsiz jazolandi, quvg‘in qilindi va qatl etildi. Xonlar ularning asarlarini atayin yo‘qotib, nomlarini butunlay o‘chirib tashlashga harakat qilganlar. Qashqadaryolik o‘tmish ijodkorlar haqida manbalarda, ilmiy-badiiy adabiyotda ma’lumotlar juda kam uchraydi. Lekin Qashqa vohasidagi adabiy hayotni butkul so‘ndirib tashlash mumkin bo‘lmadi. Shoirlar va olimlar nomi, asarlari beiz yo‘qolmadi.

Ushbu maqolada Nasaf shahridan yetishib chiqqan Nasafiy fuzalolarga doir manbalar va ular qalamiga mansub xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan qo‘lyozmalar, jahon tamadduniga hissa qo‘shgan boy ma’naviy-ilmiy meros haqida Poyon Ravshanov tadqiqotlari orqali tahlil etildi. Ajdodlarimizning boy merosi xorijiy mamlakatlarga olib ketilganligi, Yevropa, Osiyo qit‘alaridagi yirik davlatlar markaziy kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tildi.

**Kalit so‘zlar.** Nasafiyalar, Qashqa vohasi, Poyon Ravshanov, Nasaf, “Qashqadaryo haqiqati”, qo‘lyozma, mustabid tuzum, kutubxona

## THE ROLE OF POYON RAVSHANOV IN THE DISCOVERY OF THE NASAFIS

**Abstract.** Kashkadarya, described in historical and scientific sources as a desert, is now becoming a magnificent land. However, centenary wars, Mongol invasions, Arab invasions, power struggles have always persecuted progressive-minded, free-thinking intellectuals, poets and scientists. This hindered the smooth development of literary life. Decline and disorganization in social life became an obstacle to the development of the literary environment, the development of great poets and scientists. Free-thinking, justice-seeking poets, scientists, and calligraphers who were dissatisfied with the tyranny of the Bukhara khans were brutally punished, persecuted and executed. The Khans deliberately lost their works and tried to completely erase their names. There is very little information about the past creators of Kashkadarya in sources, scientific and artistic literature. However, it was not possible to completely extinguish the literary life in the Kashka oasis. The names and works of poets and scientists did not disappear for nothing.

In this article, the sources of the Nasafi scholars who grew up in the city of Nasaf and their manuscripts preserved in foreign countries, the rich spiritual and scientific heritage that contributed to world civilization were analyzed through the research of Poyon Ravshanov. Valuable information was given about the fact that the rich heritage of our ancestors was taken to foreign countries and is kept in the central libraries of major countries in Europe and Asia.

**Key words.** Nasafis, Kashka oasis, Poyon Ravshanov, Nasaf, “Truth of Kashkadarya”, manuscript, despotism regime, library.

**Kirish.** Asrlarga bo'ylashgan Turkistonning muazzam o'tmish tarixi, boy ilmiy va madaniy merosga ega ekanligi bilan umumbashariy tamadduni taraqqiyotida o'ziga xos muhim o'rinda edi. Xususan, Buxoro, Samarqand, Shosh, Kesh, Xiva kabi yirik shaharlar butun musulmon Sharqidagi madaniy markazlar sifatida jahonda tan olingan. O'zbekistonning janubiy sarhadlaridagi Qashqadaryoning quyi oqimidagi eng qadimiy tarixga ega bo'lgan Nasaf shahri Markaziy Osiyodagina emas, balki Sharq olamida ham salmoqli o'ringa ega edi. Ammo Nasaf vohasidan yetishib chiqqan olimlar ijodi va faoliyati shu davrgacha Movarounnahrning boshqa markazlari – Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg'ona bilan bog'liq holda o'rganib kelingan. O'tgan asrning 70-yillari so'nglarida mumtoz adabiyot bilan shug'ullanib kelgan, ilmiy maqsadi ufqi ancha yorishib qolgan adabiyotshunos Poyon Ravshanov tadqiqotchilik iqtidori butunlay Qashqadaryoning o'tmish badiiy hayotiga, uni mukammal ochishga, mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotida tutgan o'rnini, qo'shib kelgan hissasini belgilashga bag'ishlandi. Bu davrni Poyon Ravshanov ilmiy tadqiqotchiligida "Nasafiy larni kashf etish" bosqichi deb atash o'rinlidir. [1]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola asosan bibliografik va biografik tahlil metodlaridan foydalangan holda yozilgan. Bibliografik tahlil orqali tegishli mavzudagi ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalarni o'rganib, ularning mazmuni, asosiy g'oyalari va xulosalar keltirildi. Biografik tahlilda esa mavjud tadqiqotlar tahlil qilinib, tadqiqotchi olimning izlanishlari o'rganildi.

**Natijalar va muhokama.** Poyon Ravshanovning tadqiqotlari asrlar davomida sir bo'lib kelgan ijodkorlarni kashf etishga bag'ishlandi. 1979-1980-yillar davomida matbuotda izma-iz Qashqadaryoda yetishgan shoirlar haqida maqolalar berib borildi. Jumladan, "Mir Qarshiy" ("Qashqadaryo haqiqati" 1979, 10-fevral), "Abulbaraka Firoqiy" ("Qashqadaryo haqiqati" 1979, 5-mart), "Nasafiy" ("Qashqadaryo haqiqati" 1979, 7-aprel), "Mavlono Soyiliy" ("Qashqadaryo haqiqati" 1979, 9-may), "Tohira Nasafiy" ("Qashqadaryo haqiqati" 1979, 2-iyun), "Mushtoq Shahrisabziy" ("Qashqadaryo haqiqati" 1979, 16-iyun), "Ayyub Shahrisabziy" ("Qashqadaryo haqiqati" 1980, 19-yanvar), "Shoir So'zaniy" ("Qashqadaryo haqiqati" 1980, 27-aprel) , "Sayido Nasafiy", ("Qashqadaryo haqiqati" 1980, 31-may), "Lomeiy Nasafiy" ("Qashqadaryo haqiqati" 1980, 13-sentabr) kabi tadqiqotlar xuddi shu yillarda yaratiladi. Bu sohadagi izlanishlar keyingi yillarda ham davom ettiriladi. XVIII asrning oxirlarida yashagan, shoirlar haqida tazkira tuzgan Nurmuhammad Nasafiy ("Qashqadaryo haqiqati" 1983, 11-avgust), XI asrda yetishgan shoir, olim, fiqhshunos Abu Nasafiy ("Qashqadaryo haqiqati" 1984, 14-iyun) voha o'tmish madaniy muhitining ildizlarini aniqlash, yoritish davom etganligi misoli hisoblanadigan adabiy izlanishlar mavzusi qilib olinadi. Bu izlanishlarning qonuniy davomi sifatida, Poyon Ravshanov 1985-yilda Toshkentda, "O'qituvchi" nashriyotida Qashqadaryo viloyatining o'tmish adabiy va madaniy hayotiga, shoirlari, xattotlari ijodiga bag'ishlangan "Adabiy sahifalar" kitobini nashr ettirishga muvaffaq bo'ladi. Bu izlanish, tadqiqotchilik yo'lining taraqqiyotini tushunib yetishda, olimning mashaqqatlarini anglashda ko'makka keladi. [2]

O'tgan asrning 60-yillariga qadar o'zbek mumtoz adabiyotining yirik bo'g'inlaridan biri – Qashqadaryo adabiy muhiti deyarli o'rganilmasdan kelgan edi. Bu vohada yozma adabiyot namunalari erta shakllangan, IX-X asrlarda Abu Makhul an – Nasafiy, Shahobiddin Nasfiy, Najmiddin an – Nasafiy, Hofiziddin an-Nasafiy kabi shoirlar ijodi keng yoyilgan edi. XIII–XIV asrlardan XX asr boshlariga qadar Ziyouddin Naxshabiy, Mir Qarshiy, Abulbaraka Firoqiy, Mavlono Soyiliy, Lomeiy Nasafiy, Sayido Nasafiy, Mushtoq Shahrisabziy, Xiromiy, Tohira Nasafiy, Rojiiy Shahrisabziy singari yigirmadan ortiq ijod ahli ismi sharifi, asarlari ma'lum va mashhurlik kasb etgandi.

Jumladan, quyidagi allomalarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

**Mir Qarshiy.** (*taxminan XV asrda yashagan*) shoir va sah Hof. Fors-tojik tilida „Xitoy“ taxallusi bilan ijod qilgan. Asli qarshilik, XV asrning 2-yarmidan keyin hayoti Samarqandda o'tadi. XV asrda yashagan shoir Mir Qarshiy Samarqandda hayot kechiradi, bu shaharda Alisher Navoiy o'qish uchun kelgan yillarda uning kitob do'koni bo'lgan.

Alisher Navoiy Mir Qarshiy haqida “Majolis un-nafois” tazkirasida ma’lumot berib, uning she’rlaridan bir bayt misol ham keltiradi. Mir Qarshiy kitoblarni sahifalash, bezash ishlarini bajargan va badiiy ijodda “Xitoy” taxallusini qo‘llagan. Mumtoz asarlar qo‘lyozmalarini kitob holiga keltirishga bezakning “islamiy”, “xitoy” kabi turlarni ishlatilgan. Mir Qarshiy kitoblarini chiroyli ko‘rinishga keltirishda “xitoy” naqshlaridan foydalangan. Shu munosabat bilan o‘ziga “Xitoy” taxallusini olgan.

Alisher Navoiy asarida uning quyidagi bayti ham keltirib o‘tiladi:

*Nest oyini muhabbat kardan az yore gila,  
Varna z-on badaxd mekardem bisyore gila.*

Mazmuni:

*Muhabbat qoidasida yordan gina qilish yo‘qdir,  
Bo‘lmasa, ul ahdi yolg‘ondan ko‘p gina qilar edim.*

Mir Qarshiy Samarqandda vafot etgan va shu shaharga dafn etilgan. [3]

O‘tmishda Qashqadaryo vohasidan, ayniqsa, Nasaf-Qarshi, Kesh – Shahrisabz, Yakkabog‘ va boshqa mavzelerdan xattotlar ko‘plab chiqqan. Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirish amalga oshirilgan. Xushnavis xattotlar o‘zbek mumtoz adabiyotining eng nodir namunalarini ko‘chirib, qo‘lyozmalar shaklida avlodlarga meros qilib qoldirganlar.

O‘zbek adabiyotining katta bir qismini tashkil etuvchi Qashqa vohasi adabiy hayoti, afsuski, mustabid Sovet davrida deyarli e’tiborni tortmadi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida ehtirom bilan tilga olib o‘tgan Mir Qarshiy Xitoy, Mavlono Soyiliy, Abulbaraka Firoqiylar ham o‘z avlodlariga uzoq vaqtlar noma’lumligicha qolib keldi.

**Abulbaraka Firoqiy.** XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida yashab ijod qilgan shoir Alisher Navoiyning zamondoshi bo‘lgan, uzoq vaqtlar Shahrisabzda qozilik qilgan. Abulbaraka Firoqiy XV asrdagi an’anaga ko‘ra zullisonayn, ya’ni ham o‘zbek tilida, ham fors tilida she’rlar yozgan shoirdir. U aruzning murakkab va nihoyatda musiqiy hisoblangan “ahrabi maqsur” vazni uchun badiiy jihatdan yuksak baytini misol tariqasida keltirsak:

*Jonni fido qilib, senga bor men dag‘i yomon,  
Qilg‘on hamon durur, sanga gilmagan hamon.* [4]

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida Qashqadaryo vohasidan etishgan Mir Qarshiy Xitoy, Mavlono Soyiliy va Abulbaraka Firoqiylar to‘g‘risida muxtasar ma’lumot beriladi. “Majolis–un nafois”ni mutolaa qilganlar ko‘p bo‘lgandir, lekin, o‘tmish qashqadaryolik shoirlar haqida yozish, ularni ulug‘ shoir asari vositasida qayta kashf etish faqat o‘tgan asrning 70-yillari oxirlarida amalga oshadi. Qashqadaryoning o‘tmish madaniyati tarixiga murojaat etish, mumtoz adabiyot vakillari hayoti va ijodiyotini tadqiq etish Poyon Ravshanov nomi bilan bog‘lanadi. Bu, ilmda, adabiyotshunoslik sohasida o‘z yo‘lini belgilab olish bo‘libgina qolmay, ayni vaqtda, vatanimiz ilm-fani tarixini o‘rganishda yangi qadam, moziy madaniyati va adabiy hayotining pinhon qolib kelayotgan qo‘riqlarini ochish, tadqiqotchilikdagi kashfiyot yo‘li edi.

**Mavlono Soyiliy.** XV asrning 60-yillarida Qarshi shahrida tug‘ilgan. Alisher Navoiy nazariga tushgan shoirlardan bo‘lgan. Xattotlik bilan ham shug‘ullangan.

Alisher Navoiy “Majolisun-nafois» asarida Mavlono Soyiliy haqda shunday yozgan: “Aningdek sari’u-l-qalam kotib o‘z zamonida yo‘qtur. Har kunda 500 bayt osonlik bila bitar”. Bu bir kunda ming misra she’rni ko‘chirib yozish degan gap, yana “osonlik” bilan, kalligrafik va grammatik talablar darajasida yozish Mavlono Soyiliy Alisher Navoiy ta’kidlaganidek, o‘z davrining tez yozuvchi, peshqadam qalam sohibi darajasiga ko‘targan.

Alisher Navoiy shoirning quyidagi forsiy baytini keltirib o‘tgan:

*Na bar zaxmash dilam paykoni on abro‘ kamol dorad,  
Ki baxri zaxmi digar obi hasrat dar dahon dorad.*

Mazmuni: *U qosh o‘qining oshiq qalbini yaralashiga ko‘ngilning gumoni yo‘q,  
Shu sababdan ikkinchi yarmini davolamoq uchun og‘zida hasrat suvini saqlaydi.* [5]

**Tohira Nasafiy.** Qarshi iste’dodli shoirlar ham yetishtirgan shahardir. Tohira Nasafiy

ba'zi manbalarga qaraganda XIX asrning oxirlarida Qarshida (yoki unga yaqin qishloqlardan birida) tug'ilgan. O'z davrining fozila qizlaridan bo'lgan Tohira Nasafiy ilm-ma'rifatli oilada kamol topadi. Qarshida bir qancha vaqt maktabdorlik qiladi, qizlarni savodxon qilishga fidoyilik ko'rsatadi. Zullisonayn shoiramiz ham o'zbek, ham tojik tilida go'zal she'rlar yaratgan. Shoironing quyidagi satrlari uning yuksak iste'dodi va mahoratidan darak berib turibdi:

*Gar ba tu aftodam nazar chehra-bachehra, ro'-baro'*  
*Sharh diham g'ami xudro nuqta-banuqta, mo'-bamo'*  
 Mazmuni: *Senga nigohim tushib, chehrangga chehram, yuzingga yuzim boqqanda,*  
*G'amingni birma-bir, nuqta-banuqta sharh etar edim.*

Tohira Nasafiy umrining so'nggi yillarini Termizda kechirgan va shu yerda vafot etgan. Afsuski, shoironing vafot etgan yili ham aniqlangan emas. [6]

**Mushtoq Shahrabisabziy.** Mushtoq Shahrabisabziyning adabiy merosi haqida yetarlicha ma'lumot to'plangan emas, shoirning devoni ham topilganicha yo'q. Sankt-Peterburgdagi M.E. Saltikov-Shchedrin nomli kutubxona qo'lyozmalar bo'limida PNS-355 raqami bilan "Majmuai ash'or" bayozi saqlanadi. Bayozning 97-100 betlaridan Mushtoqning uchta g'azali o'rin olgan. [7]

**Ayyub Shahrabisabziy.** Ayyub Shahrabisabziy (to'liq ismi Mir Xoja Ayyub Abulbaraka Shahrabisabziy) (XV asr oxiri – Shahrabisabz -XVI asr o'rtalari) – o'zbek shoiri, musiqa nazariyotchisi. Turkiy va forsiyda ijod qilgan. She'rlari mutoyibaga boy, rindlik ruhi bilan ajralib turadi. Navoiy ("Majolis un-nafois"da), Sodiqbek Kitobdor ("Majma ul-xavois"da) Ayyub Shahrabisabziyning she'riyat va musiqashunoslikdagi iste'dodini yuksak baholaganlar. Uning musiqiy iqtidoriga Darvishali Changiy ("Tuhfat us-suru" – "Risolai musiqiy") ham yuqori baho bergan. [8]

**Shoir So'zaniy.** Hakim So'zaniy XI asr oxiri XII asr boshlarida yashab ijod qilgan. Taxallusi "So'zaniy" – "kuydiruvchi, yondiruvchi, dunyoni o'rtovchi" degan ma'nolarni anglatadi. Qasidaları va qit'alarida ijtimoiy norozilik qalqib turadi. Zamonasining peshqadam ijodkorlaridan bo'lgan, fors-tojik tilida ijod qilgan, Tojikiston poytaxti Dushanbeda uning 10-12 ming misrali devoni saqlanmoqda. [9]

**Sayido Nasafiy.** Sayido Nasafiy (taxallusi; ismi Mirobid) (1637–Nasaf – 1710) – shoir. Buxoro madrasalarida o'qigan. To'quvchilik bilan kun kechirgan. Turdi bilan yaqin do'st bo'lgan, uning ta'sirida ijodi kamolga yetgan. Dastlab asarlarida ashtarxoniy hukmdorlarni madh etgan, ularga madhiyalar yozgan. Lekin ijtimoiy tengsizlik, adolatsizliklar mohiyatini tushungach, madhiyabozlikdan uzoqlashgan. Asarlarida jabr-u zulmga qarshi norozilik asosiy o'rinni egallagan. "Shahr Oshub" manzumasida 212 xil kasb-hunar egasi haqida fikr bildirgan, hunar ahlini ulug'lagan. "Bahoriyot" ("Hayvonotnoma") majoziy munozara asarida, ayrim g'azallarida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muhiti tanqid qilingan. Asarlari nafis, sodda tilda yozilgani uchun tez ommalashgan. [10]

**Lomeiy Nasafiy.** XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida yashagan taniqli shoir va tarjimon bo'lgan. Adabiy merosdan ayrim namunalar Sankt-Peterburgdagi M.E. Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonada mavjud. Jumladan, kutubxona qo'lyozmalar bo'limida TNS-42 raqami ostidagi asari fikrimiz dalilidir. Uning "Ibratnoma", "Sharaf-ul inson" asarlarida odob-axloq haqidagi ilg'or qarashlari, ibratomuz hikoyat va latifalari o'z ifodasini topgan. [11]

Poyon Ravshanov mumtoz adabiyotimiz bilimdoni va tadqiqotchisi sifatida ilmiy jamoatchilik nazariga ham tushadi, uning fidoyiligi, yurt va uning ma'naviy dahosiga bo'lgan mehr-muhabbati, tinimsiz izlanishlari, o'z ustida muntazam ravishda qunt bilan ishlab borishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mustabid Sovet hokimiyati yillarida, mafkura zug'umidan hayiqish oqibatida, biron-bir olim Qashqadaryodek muazzam vohamizning o'tmishini ilmiy-tarixiy badiiyati jihatidan tadqiq etishga jur'at qilolmagan edi. Poyon Ravshanov bu haqda rus tilida ham bir qator maqolalar e'lon qiladi. Uning "Память веков" (Asrlar yodi) maqolalar turkumi "Кашкадарьинская правда" gazetasining 1989-yilgi beshta sonida e'lon qilinadi. [12] "Шахрисабз: взгляд в прошлое" (Shahrabisabz: o'tmishga nazar) ham shu ro'znomaning

1989-yil may-iyun sonlarida bosilib chiqadi. [13] Rusiyzabon mushtariylarni – o‘quvchilarni vohamizning mumtoz adabiyot vakillari ijodiyoti bilan tanishtirish (ular ham bundan bebahra qolib kelganlar) maqsadida “Поэзия, Страницы литературной жизни Кашкадарья” maqolasi 1980-yil 13-iyulda yoritiladi. [16] Abu al-Muti’ an-Nasafiy, Shahobiddin Nasafiy, Najmiddin Nasafiy, Hofiziddin Nasafiy, Ziyouddin Naxshabiy kabi o‘tmish shoirlar to‘g‘risida ham rus tilida chop etilgan maqolalar, 80-yillar oxirlarida vujudga kelgan milliy ruhning o‘ziga xos ifodasi, vatanparvarlikning ilmda aks etgan namunasi sifatida maydonga kelgan edi.

“Adabiyot va ta’lim” kitobining birinchi qismi mazmuni va mohiyatiga e’tibor beraylik. Gap shundaki, muallif doimo izlanishda, tafakkur va tahlil rivojlanishida bo‘ladi. Qilingan ishlar, yozilgan maqolalar, nashr etilgan risolalar, qo‘llanmalar bilan sira qanoatlanib qolmaydi. O‘z ishiga hamisha tanqidiy yondashadi, mutolaa va mulohazani kanda qilmaydi. “Adabiyot va ta’lim” asariga kiritilgan tadqiqot ishlari asosida bunga ishonch hosil qilish mumkin. [17] “Nodir qo‘lyozmalar” maqolasini ko‘raylik. Bu tadqiqot ishi O‘rta Osiyoni, Turkistonni Oq podshoh – rus armiyasi bosib olish davrida Leningradga (Sankt-Peterburg) yurtimizdan olib ketilgan qo‘lyozmalar - kitoblar haqida. Muallif 80-yillar boshida Leningradga M.V. Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonada ishlagan va yurtimizdan olib ketilgan kitoblarni ko‘rib chiqqan edi. Shu ilmiy safarning dastlabki natijalaridan biri sifatida “Nodir qo‘lyozmalar” tadqiqoti maydonga kelgan. 80-yillar boshida kutubxonada bo‘lish, kataloglar bilan tanishish (masalan, V.A.Dorning 1852-yilda tuzgan kitoblar ro‘yxati va b.) yurtimizdan olib ketilgan nodir qo‘lyozmalarining saqlanayotganligini ko‘rsatadi. Poyon Ravshanov bu yerda ham ilmiy izlanishlari doirasiga Qashqadaryo vohasi o‘tmish madaniy va adabiy hayotini yoritishga xizmat qiladigan qo‘lyozmalarni kiritadi. Ilmiy safar natijasi sifatida birinchi marotaba Nasafiylar haqidagi ma’lumotlar yuzaga kela boshlaydi. “Nodir qo‘lyozmalar” tadqiqoti yurtimizdan tashqarida saqlanayotgan manbalar orqali o‘tmish alloma va adiblarini o‘z avlodlariga tanitish yo‘lidagi dastlabki qadamlar edi. Shu jihatdan, quyidagi satrlarni keltirib o‘tish o‘rinlidir:

“Qashqa vohasida o‘tmish asrlardayoq xos adabiy muhit shakllana boshlagan. Masalan, IX asrlardan vujudga kelgan yozma adabiyot namunalarining hammasi ham izsiz yo‘qolib ketmagan. Kaufman xususiy yig‘masiga oid qo‘lyozmalar orasida IX asr oxirlari X asr boshlarida yashagan Abu Muti’ Makhul an-Nasafiyning (930-yilda vafot etgan) Al-lo‘liyyat fi mavoiz” deb atalgan asarining tarjimasi saqlanmoqda. Asar Mahmud ibn Hasan ibn Qozi Oraj tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Taniqli xattot Muhammad Sharif ibn Mir Solih Qorabog‘iy asarni hijriy 1250-yilda ko‘chirgan. Mana shu nodir qo‘lyozma kutubxona qo‘lyozmalar bo‘limida PNS-18 raqami bilan saqlanadi.

X-XII asrlarda Nasafda yetishgan fiqhshunos olimlarning asarlari keyingi davrlarda ham katta qiziqishlarga sabab bo‘lib kelgan. Bu fikrning dalili sifatida PNS-165 raqamli qo‘lyozmani ko‘rsatish mumkin. Abul Barakat Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasafiy asaridan bevosita tarjima etilgan bu qo‘lyozma “Tarjimayi kanz ad-daqqiy” deb atalgan. Fiqh ilmiga oid bu asarni arab tilidan Nasrullo Kirmoniy fors tiliga tarjima qilgan. Abu Hafs an-Nasafiyning “Al-aqoiyd” asari ham Burhon al-Miskinning “Irshod ul-muslimin” asari orqali sharhlab beriladi. [17]

Qashqa vohasining XIV asrda yashagan buyuk farzandi Ziyovuddin Naxshabiy ijodiga mansub asarlarni alohida ta’kid bilan aytmoqchi edik. Hozirga qadar ilmiy manbalarda, adabiyot tarixiga oid darsliklarda Ziyovuddin Naxshabiyning birgina “To‘tinoma” asari borligi qayta-qayta zikr etib kelinayotir... Ziyovuddin Naxshabiy adabiy merosi mundarijasi qo‘lyozmalar bo‘limida PNS-296, PNS-517 raqamlari ostida saqlanayotgan “Juz‘iyat va kulliyat”, “Lazzat an-nisa” kabi asarlar hisobiga boyishini aytish lozim”. [18]

Poyon Ravshanov Leningradga (Sankt-Peterburg) ijodiy safarda bo‘lgan vaqtida (1981), yana bir shoir – Lomeiy Nasafiy haqida ham ma’lumotlar jam qilgan va “Nodir qo‘lyozmalar”ga kiritgan edi. Muhimi, o‘tgan asrning 80-yillari boshlarida tadqiqotchi olimning mana bu so‘zlari diqqatni tortadi: “Bir paytlar Peterburgga olib ketilgan qo‘lyozma

asarlar taqdiri ham e'tiborda bo'lishi, ehtimol, ularning yurtimizga qaytarilishi masalasi ham kun tartibiga chiqar". Bu, endi, 1981-yilgi ilmiy safar sababli vujudga kelgan shunchaki taassurotlar natijasi bo'lgan xulosa emasdi. Doimo vatani, yurti qalbida bo'lgan olimgina shunday dalil fikrni mustabid tuzum davrida o'rtaga qo'ya oladi. Chunki, "Nodir qo'lyozmalar" maqolasi, bosqinchilar tomonidan zo'ravonlik bilan olib ketilgan nodir qo'lyozmalarni yurtiga – O'zbekistonga qaytarish masalasi ko'tarilgan mazkur maqola 1981-yilning 13-dekabrda "Qashqadaryo haqiqati" gazetasida e'lon qilingan edi. Ro'znoma tahririyatining jur'atiga ham qoyil qolish kerak. Mustabidlardan qo'lyozmalarni qaytarish talab qilingan, shu masalaning kun tartibiga oshkora, dangal o'rtaga qo'ygan maqolani chop etish hammaning ham qo'ldan keladigan ish emasdi. Tadqiqotchidagi millatparvarlikni, o'z yurtiga fidoyilikni, shu tariqa, o'tgan asrning 80-yillaridayoq aytilganligini ko'rish mumkin edi.

**Xulosa va takliflar.** Vatanimiz mustaqillikka erishgan dastlabki paytlarda, ushbu tadqiqot ishining yana ko'tarilishi, "Adabiyot va ta'lim" asariga kiritilishi muammoning nihoyatda dolzarbligicha ahamiyat saqlab kelayotganligini ko'rsatadi. Bu masala hamon o'z yechimini topgan emas. Masalaning o'rin tutishi, nodir qo'lyozmalar o'zining qonuniy egasi – O'zbekistonga qaytarilishi lozim. Nasafiylarning qimmatli asarlarini ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganib, keng xalq ommasiga yetkazish olimlarimiz oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Toshkent Sharqshunoslik va Islom universitetlarida Nasafiylarning hayoti va ularning ilmiy-ma'naviy meroslarini o'rganib tadqiq etishga katta e'tibor berilmoqda. Qarshi davlat universiteti qoshida ham 2007-yil mart oyida manbashunos olim, professor U.Uvatov rahbarligida "Nasafiylar va Keshiylar merosini o'rganish ilmiy markazi" tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri Qashqa vohasidan chiqqan allomalarning hayoti va ilmiy-ma'naviy meroslarini o'rganishdan iboratdir.

Ona zaminimizning eng muqaddas go'shalaridan biri sanalgan Turkistonda IX-XII asrlarda ma'naviy uyg'onish davrida samarali ilmiy faoliyat ko'rsatib jahonga dong taratgan Nasaf vohasi olim-u fuzalolari boy ilmiy merosini xolisona o'rganish va xalqimizga to'laonli yetkazish eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Tabiiyki, ajdodlarimiz boy ma'naviy sarchashmasidan bahramand bo'lish mustaqil yurtimizning har bir fuqarosiga faxr-iftixor tuyg'usini uyg'otadi va bu barkamol avlodni voyaga yetishiga yaqindan yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Sodiqova, M.Rajabaliyeva. Mumtoz adabiyot muhibi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2014-yil, 42-bet
2. P.Ravshanov. Adabiy sahifalar. – Toshkent "O'qituvchi", 1985-yil, 127 bet
3. P.Ravshanov. Mir Qarshiy. / "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1979-yil, 10-fevral
4. P.Ravshanov. Abulbaraka Firoqiy. / "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1979-y, 5-mart
5. P.Ravshanov. Mavlono Soyiliy. / "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1979-yil, 9-may
6. P.Ravshanov. Tohira Nasafiy. / "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1979-yil, 2-iyun
7. P.Ravshanov. Mushtoq Shahrisabziy. / "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1979-yil, 16-iyun
8. P.Ravshanov. Ayyub Shaxrisabziy. / "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1980-yil, 19-yanvar
9. P.Ravshanov. Shoir So'zaniy. / "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1980-yil, 27-aprel
10. P.Ravshanov. Sayido Nasafiy. / "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1980-yil, 31-may
11. P.Ravshanov. Lomeiy Nasafiy. / "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1980-yil, 13-sentabr
12. Равшанов П. Память веков. - "Кашкадарьинская правда" газета. 1989 год, 8, 12, 14, 18 апреля.
13. Равшанов П. Шахрисабз: взгляд в прошлое. - "Кашкадарьинская правда" газета. 1989 год, 26 мая, 1, 10 июня.
14. Rahimjonov D. Abu Hafs Nasafiy. Monografiya. / Toshkent, 2010. — 40 b.
15. Равшанов П. Поэзия. Страницы литературной жизни Кашкадарьи – "Кашкадарьинская правда" газета. 1989 год, 13 июля.
16. P.Ravshanov. Adabiyot va ta'lim. – Toshkent:Fan, 1991-yil, 22-bet
17. Rahimjonov D. Abu Hafs Nasafiy va Nasaf ulamolari // „Nasaf va Kesh tarixi manbalarda“ mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. — Qarshi: Qarshi davlat universiteti nashriyoti, 2010. — B. 14-16.
18. P.Ravshanov. Nodir qo'lyozmalar. – "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1981-yil, 13-dekabr



## IJROVIY LIRIKANING SOTSIOANTROPOLOGIK DOMINANTLIK ASOSIDAGI BADIY TASVIR POETIKASI

Umida Abdullayeva

QarDU doktoranti

[abdullayevaumida792@gmail.com](mailto:abdullayevaumida792@gmail.com)

ORCID: 0009-0003-6554-8712

УДК 894.375:808(045)

**Annotatsiya.** Hozirgi adabiy jarayon, ijtimoiy voqelik, tafakkurning o'zgarib borayotganligi, qolaversa, shoirlarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan badiiy-estetik izlanishlar mohiyati xilma-xil ifoda shakllarini yuzaga chiqarmoqda. So'nggi yillar she'rshunoslikda "falsafiy she'riyat", "fikriy she'riyat", "meditativ lirika", "emotsional-intellektual lirika", "ijroviy lirika" singari ifodalar keng qo'llanmoqda. Bu kabi istilohlar adabiy-ilmii muomalada faollashmoqda. Bular, albatta, bejiz emas. Sababi, bu kabi turli xil ifodalarning yuzaga kelishini adabiy jarayonning o'zi taqozo qilmoqda.

O'zbek adabiyotshunosligida ijroviy lirika nazariyasi masalalari tizimli va har tomonlama o'rganilmagan. Professor Dilmurod Quronov tomonidan adabiyotshunoslik termini sifatida adabiyot nazariyasiga kiritilgan. Shuningdek, Ulug'bek Hamdam doktorlik dissertatsiyasida ijroviy lirika atamasiga qisqacha izoh berib o'tgan.

She'rda tasvirlanayotgan kechinma har doim ham shoirga tegishli bo'lmaydi, masalan, sevgi iztiroblari haqida yozilgan she'r muallifining sevgi dardida yonishi qat'iy talab etilmaydi. Fikrimizcha, unda o'quvchi bu holatni his qiladi, she'rda tasvirlangan holatni anglab tushunadi, garchi o'zi real hayotida bunday voqelikka duch kelgan bo'lmasa-da, har bir inson qalbida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan barcha o'zgarish va tuyg'ular imkoniyat tarzida yashaydi.

Mazkur maqolada ijroviy lirikada sotsioantropologiyaning dominantlik xususiyati ochib berilgan bo'lib, nazariy tushunchalar dalili uchun Cho'lpon, Usmon Azim, Mirzo Kenjabek, Eshqobil Shukur she'rlari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar.** ijroviy lirika, sotsioantropologiya, dominantlik, obraz, xarakter.

### THE POETICS OF ARTISTIC IMAGERY BASED ON SOCIOANTHROPOLOGICAL DOMINANCE OF PERFORMANCE LYRICS.

**Abstract.** The current literary process, social reality, the changing way of thinking, moreover, the nature of artistic and aesthetic research carried out by our poets, bring out different forms of expression. In recent years, expressions such as "philosophical poetry", "ideological poetry", "meditative poetry", "emotional-intellectual poetry", "executive poetry" have been widely used in poetry. Such revolutions are becoming active in literary and scientific communication. These are certainly not in vain. The reason is that the literary process itself requires the emergence of such different expressions.

In Uzbek literary studies, the issues of the theory of performance lyrics have not been systematically and comprehensively studied. It was included in the theory of literature as a term of literary studies by Professor Dilmurod Kuronov. Also, Ulug'bek Hamdam briefly commented on the term performance lyrics in his doctoral thesis.

The experience described in the poem does not always belong to the poet, for example, the author of a poem written about the pain of love is not strictly required to burn in love. In our opinion, the reader will feel this situation, understand the situation described in the poem, even if he has not encountered such a reality in his real life, but all the emotions that can exist in the heart of every person.

This article reveals the dominance of socio-anthropology in performance lyrics, and analyzes the poems of Cholpon, Usman Azim, Mirzo Kenjabek, Eshqabil Shukur for the proof of theoretical concepts.

**Key words.** performance lyrics, socioanthropology, dominance, image, character.

**Kirish.** O'zbek adabiyoti, xususan, lirikada badiiylik, peyzaj, ruhiyat, badiiy tasvir usullari va yo'llari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ammo sotsioantropologiyaning tasviri muammosi yuzasidan yirik planda deyarli tadqiqotlar olib borilmagan. She'rda subyekt hissiyoti ifodalanishini hisobga olib, she'riyatda sotsioantropologiyani o'rganish masalasi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ijroviy lirika xarakter xususiyatiga ko'ra, adabiy asar mazmunini birinchi shaxs, hikoyachi, bosh qahramon tomonidan aytiladigan lirik hikoya. Ijroviy lirikada hikoyaning mavzusi ko'pincha xayoliy belgi bo'lib, uning xususiyatlari va fazilatlarini tasvirlangan davrga, vaqtning janr an'alariga mos keladi. Muallif o'zida boshqa personajlarning rolini sinab ko'radi, boshqalarning tasvirlari va rollariga sho'ng'iydi. Ijroviy lirikada muallif va ijroviy qahramonning qalbi "ochiladi"

har bir insonga xos bo'lgan va o'z navbatida bir-biridan tubdan farq qiladigan his-tuyg'ular, fikrlar, hissiyot va kechinmalar tasvirlanadi.

Maqolada lirikaning subyektivligi nuqtayi nazaridan ajratilgan ijroviy lirika turida sotsioantropologiyaning dominantlik masalasi ilk bor tadqiq qilinmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Antropologiya atamasini birinchi bo'lib Aristotel qo'llagan bo'lib, ushbu fan insonni o'rganish yoki inson to'g'risidagi fan bo'lib hisoblanadi. Antropologiya terminiga olimlar turlicha ta'rif berishgan. Oksford lug'atlarida: "Insoniyat jamiyati va uning urf-odatları, kelib chiqishini tadqiq qilish; insoniyat evolyutsiyasi va strukturasi tadqiq qilish" deb izohlanadi.

Antropologiyaning bir turi bo'lgan sotsioantropologiya ijtimoiy tashkilotlar va ijtimoiy institutlarning paydo bo'lishi va insonning ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Antropolog olim Fert: "Ijtimoiy antropologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri ijtimoiy jarayonlarni taqqoslash bo'lishi lozim" [2;b 5] deb ta'kidlaydi. U antropologiyaning muhim bir yo'nalishi hisoblanadi va boshqa yo'nalishlardan farqli ravishda insoniyat hayotini ijtimoiy jihatdan tahlil etib berishi bilan farqlanadi.

S.Dyubening ta'kidlashicha: "Ijtimoiy antropologiya – madaniy antropologiyaning bir qismi bo'lib, birinchi navbatda madaniyatning moddiy ko'rinishlarini emas, ijtimoiy struktura va diniy e'tiqod bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etishga e'tibor qaratadi" [2;5-b]. Tabiiy antropologiya va madaniy antropologiya bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Tabiiy antropologiyadagi ba'zi faktlar ijtimoiy antropologiyadagi jumboqlarni yechish uchun yordam beradi. Bundan tashqari, arxeologiyadagi topilmalar esa, tabiiy antropologiyaning ba'zi bo'limlaridagi tadqiqotlarda foydali bo'lishi mumkin. Ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, ijtimoiy, ya'ni sotsioantropologiya insonning ijtimoiy hayotdagi o'rni, shaxs sifatidagi xususiyatlarini o'rganadi. Ijroviy lirika qahramonlarining ijtimoiy jihatdan turli qatlam vakillari orasidan ekanligi ijodkorning qobiliyati, mahorati va dunyoqarashi darajasini belgilaydi.

Ijroviy lirikani sotsioantropologik jihatdan tahlil etishda she'r mazmunidan kelib chiqib, tasvirlangan obrazlar (insonlar)ning xulq-atvori va ijtimoiy hodisada ishtirokini bir-biri bilan taqqoslash muhim mezon hisoblanadi. Bu jarayonda etnografiya (insoniyat irqini tahlil etib, ularga oid ijtimoiy-madaniy farqlanishni aniqlaydi) hamda oila antropologiyasini, shuningdek, ijroviy qahramonlarning, asosan, ijtimoiy hayotda tanilgan mashhur shaxslardan tanlanishi bu turkumdagi she'rlarda sotsioantropologiya dominantligini ko'rsatadi.

Dominant ta'limoti 1923-yilda ichki fiziolog A.A. Uxtomskiy (1875-1942) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, (dominantis) ustunlik degan ma'noni bildiradi. Hayajonning ustuvor, dominant turg'unligini ifodalab, kuchli xarakter, o'ziga ishonch, qat'iyatlilik, mustaqillik kabi xususiyatlarni ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuni yoritish jarayonida ijroviy lirika namunalari sotsioantropologik dominantlik subyektning jamiyatdagi kurashuvchan va taniqli shaxslar, badiiy asarlardagi tipik obrazlar orasidan tanlangani, shuningdek, unda gender munosabatlar ifodalangani biografik, analitik, tarixiy-tipologik, psixanalitik usullardan foydalangan holda yoritib beriladi.

**Natijalar va muhokama.** She'riyatda dominantlik asosiy belgi, hukmron g'oya hisoblanadi. Ijroviy lirikada sotsioantropologik dominantlik qahramonlarning ijtimoiy guruhlardagi ishtiroki, ijtimoiy holati, milliy va madaniy qadriyatlarida, milliy va mahalliy muammolarida, siyosiy faoliyatida, intellektual salohiyatida ko'rinadi. Shunga ko'ra, ijroviy lirikada ijroviy qahramon, asosan, jamiyatning kurashuvchan qatlami vakillaridan tanlanadi. Nozim Hikmat – "Nozimning sadosi", Siyovush – "Siyovush faryodi", Muktibodh Madhav – "Muktibodh duosi" (Rauf Parfi), Zardusht – "Zardusht so'zi", Furqat – "Furqat nidosi", (Abdulla Oripov), Usmon Nosir – "Usmon Nosirning so'nggi tushi", Brut – "Brut", Go'ro'g'li – "Go'ro'g'li" (Usmon Azim) kabi.

Adabiyotshunos olimlar M.M. Baxtin, V.V. Vinogradova, O.B. Kormanlar tomonidan antropologik yo'nalish nazariyasi mukammal ishlab chiqilgan. Savelyevaning ta'kidlashicha, adabiy (badiiy) antropologiya quyidagi komponentlar bilan belgilanadi: "obraz – xarakter", "muallif – shaxs" turli ko'rinishdagi "o'zi yaratgan badiiy dunyoda mavjudlik" va "o'quvchi" [2;15-b]. Badiiy asar mazmunini tahlil qilish asosida shaxsiy qadriyat, irodaviy munosabatlarga ahamiyat qaratiladi. Fan uchun an'anaviy bo'lgan bu tushuncha qahramon va muallifning poetikasini o'rganishni hamda o'quvchining she'rni tushunishi va tahlil qila olishini anglatadi.

Adabiyotni, xususan, lirikani bunday tahlil qilish muallif tomonidan obyektivlashtirilgan real, aniq va tarixiy voqelikni ochib berishga xizmat qiladi. Ijroviy lirikada qahramonlarning tarixiy shaxslardan tanlanishi buning yaqqol dalilidir.

Ijroviy lirikada sotsioantropologik tadqiqot o'tkazish jarayonida siyosiy ta'limotga ham e'tibor qaratdik. Sababi, bizningcha, bunday she'rlarning yaratilishi jamiyatning ijtimoiy holati bilan uzviy bog'liq. Siyosiy ta'limotning vujudga kelishi uzoq tarixiy o'tmishga ega bo'lib, u jamiyatning rivojlanishi bilan birga takomillashib, tadqiqot doirasi kengayib boradi. Siyosiy nazariyaning rivojlanish g'oyalari tarixi, g'oyalarning o'rin almashinuvi va g'oyalar kurashi tarixini ko'rsatadi. Har bir tarixiy davrning, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning tub tabiatini, asl maqsad-manfaatlarini, unda sodir bo'layotgan turli yo'nalishdagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy harakatlarni aynan va unga yaqin tarzda ifoda eta oladigan siyosiy g'oyalarning mazmuni shakllanadi va amaliyotga tatbiq etiladi. Ko'pincha biror obyektiv xususiyatli siyosiy g'oyalar va uning zaminida yotgan ijtimoiy-siyosiy tuzumning o'ziga xos va o'ziga mos keladigan, uning mohiyatini anglatadigan siyosiy g'oyalarga amal qilinishini kuzatamiz. Ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda, qadimgi Sharq va G'arb mamlakatlarining jamiyat va inson, siyosat va davlat to'g'risidagi nazariy qarashlariga e'tibor qaratiladi. Sharqda davlat boshqaruvida boshqaruvchi va xalqning o'zaro munosabati itoatkorlik shaklida bo'lib, jamiyatning a'zolari hukmdorlar qaramog'ida bo'lib, ularga bevosita bo'ysunishga majbur.

Konfutsiy insonlarni ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra 4 qatlamga ajratadi:

- 1) aslzodalar (har qanday bilimga tug'ilishdan ega);
- 2) bilimlarga o'qish-o'rganish jarayonida ega bo'lganlar;
- 3) bilimlarni qiynchilik bilan o'zlashtiruvchilar;
- 4) bilim olishga intilmaydiganlar [4;24-b].

Shu tariqa odamlar o'rtasida tengsizlik mavjudligi va omi odamlar, quyi tabaqalar, kichik oliynasab aslzoda, kattalarga bo'ysunishlari zarurligi belgilab beriladi.

Konfutsiy hokimiyatning adolat va mehr-shafqatga asoslanishi, fuqarolar esa isyonlardan o'zlarini tiyishlarini uqtiradi: "Davlat hokimiyati xalq ishonchisiz mavjud bo'la olmaydi, ammo hukmdorlar hammaga o'rnak bo'lishlari lozim. Hukmdor xalqni o'z farzandidek sevishi, fuqarolar esa hukmdorni o'z otasidek hurmat qilib, e'zozlashi lozim. Odamlarning "najib" va past kishilarga bo'linishini o'zgartirib bo'lmaydi" [4;24-b]. Ijroviy lirika namunalarida shoirlar qiyosiy-tipologik uslubga ko'ra, Konfutsiy aytmoqchi, aslzodalar qatlamidan qahramon tanlaganligini ko'ramiz. Xususan, temuriy shahzodalardan bo'lgan Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq she'r Abdulla Oripov ijodida ham, Usmon Azim ijodida ham borligi aniqlandi. Har ikkala shoirning ijroviy qahramoni bitta bo'lsa-da, ijodiy niyatdan kelib chiqib, o'zgacha mazmun kasb etadi.

| № | Muallif        | She'ring nomi               | G'oyaviy-badiiy mazmuni              | She'r tuzilishi   |
|---|----------------|-----------------------------|--------------------------------------|---|
| 1 | Abdulla Oripov | Ulug'bek faryodi            | Padarkush farzandan norizo ota dardi | 4 baytdan iborat, Masnaviy shaklida, qofiyalanishi: a-a, bb, d-d, ye-ye |
| 2 | Usmon Azim     | Mirzo Ulug'bekning o'kinchi | Ilmi qadrlanmagan olim dardi         | 8 banddan iborat, erkin vaznda  |

Amir Temur sulolasining so'nggi vakillaridan biri Zahiriddin Boburning tarixi va taqdiri barchaga ayon. Eduard Xolden ta'biri bilan aytganda, "Fe'li-sa'jiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevimli" bo'lgan shoh va shoir Boburga yoshligidan hukmdorlik qismati berildi. U "Boburnoma" asarining muqaddimasida (1494-yilda) "Tengri taoloning inoyati bilan ...o'n ikki yoshda podshoh bo'ldum" [5;5-b]– deb yozadi. Tabiatan shoir va nozikta'b ijodkor umrining so'ngiga qadar podshohlik qilib Hindistonda Boburiylar imperiyasini yaratdi. Hayoti davomida xiyonatchilik, dard-u alamlar ko'rgan Bobur ijodida hasb-u holini bayon etdi. Qiynalgan paytlarida Allohdan madad

olib, ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Mirzo Kenjabekning "Bobur so'zi" ijroviy lirikasi shu mavzuda. To'rtlik shaklida yozilgan mazkur she'r barmoq vaznida bo'lib, har bir misrasi 11 bo'g'indan tashkil topgan, a-a-b-a shaklida qofiyalangan.

Yo falak! G'aroyib bir ish qilmishsan,  
Boshimga mangulik tashvish qilmishsan;  
Ayt, mening o'zimni shoh etib nechun,  
Nechun yuragimni darvesh qilmishsan?

Ijroviy qahramon o'z taqdirini bilgani holda, Yaratganga nido qiladi. Bu o'rinda shoir (M.Kenjabek) tajohuli orif san'ati orqali Bobur nutqida shoirlik qismatini ifoda etadi.

Ijroviy lirikada ifodalangan obraz va motivlar semantikasi – erk, ozodlikka intilish, Vatan va xalq tinchligi, ravnaqi uchun kurashish, sevgi dardi, hijronini yengib o'tishdan iborat. Har bir insonda kechadigan bunday holatlar tasviri she'riyat va sotsioantropologiya uyg'unligini isbotlaydi.

Xalqda ayol olam gultoji, mehvari deya ulug'lanadi. O'rganishlar natijasida ijroviy lirika namunalarida gender mavzusiga ham alohida ahamiyat qaratilganligining guvohi bo'ldik. Xalq ruhi timsoli sifatida ayol qiyofasi, ijtimoiy portreti ochib beriladi. Bunday tasvir jarayonida zamon va makon kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ot bog'ladim xariga,  
Xaridan ham nariga.  
Otam meni erga berdi  
O'zidan ham qariga. (Xalq og'zaki ijodidan)

Otasining xohishi bilan turmushga uzatilgan qiz so'zida o'tmishda xotin-qizlar hech qanday haq-huquqqa ega bo'lmagani, taqdiri o'zгалar qo'lida bo'lgani aks etgan. Cho'lponning "Sharq qizi" she'rida ham davr ruhi o'z ifodasini topgan.

Faqat, men bir o'zim, Sharqning bir qizi,  
Bahor kelganini ko'rmay qolamen;  
Uzun qora qishning ketmasdan izi,  
Uning "do'sti" kuzni kutib olamen [6;24-b].

1922- yilda yozilgan mazkur she'rda sharq xalqlarining bandi ekanligi o'sha davr xotin-qizlarining ahvol-ruhiyasi tasviri keltiriladi. Bahorga yetish – tiriklik belgisi, hayotning davomiyligiga umid uyg'otuvchi tasvir. Erksizlik, jaholat qurboni bo'lgan sharq qizi bahor, yozni ko'rmay, qishdan kuzga chiqayotgan umidsiz tutqun. "Menim uchun dunyo rohati – To'rt devor ichida ko'zlar o'ynatmoq / Menim uchun ulug' shodlik soati – Telba ko'kragimda "o'ylar" uyg'otmoq..." O'z erki qo'lida emasligini bilib tursa-da, ozodlikka chiqishni niyat qilib kutayotgan qiz savoliga javob izlaydi:

Aytalarkim, yozda har bir joni bor,  
Erkin nafas olar, shodlanar, yayrar...  
Aytmaylarkim, Sharqda bog'liq xotinlar  
Ul yorug' dunyoga ne zamon kirar?.. [6;25-b].

XX asrning 90-yillariga kelib, ayollar ijroviy qahramoni bo'lgan she'rlarda ijtimoiy voqelikdan kelib chiqib, erk, ozodlik motivlari o'rnida ayol dardi, ijtimoiy-maishiy muammolar tasvirlana boshlandi. Eshqobil Shukurning "Sog'in. Befarزند ayol" she'ri buning misolidir. Shakl jihatidan xalq qo'shiqlarini eslatadigan mazkur she'r barmoq vaznida yozilgan bo'lib, a-a-b-a, b-b-v-b... tarzida qofiyalangan. She'rning nomlanishidan g'oyaviy-badiiy mazmuni anglashiladi. O'zbek tilida "sog'in" so'zi "sut beradigan", "sog'iladigan" [8;562-b] degan ma'noni bildiradi.

Ho'o'sh-ho'o'sh... Ho'o'sh...  
Govmishim iysin, suting,  
Bag'rimda bo'g'ma tutun,  
Oq siynamning ostida  
Qobirg'alarim o'tin.

Farzandsizlik – ayol uchun buyuk dard, armon. Sigir sog'ish jarayonida farzandsiz ayol dardi yangilanadi va shu qadar alanganadiki, uning olovida qovurg'alar yonishga shaylangan o'tinga aylanadi. "Bir tirnoqqa zor bo'ldim, Egasiz mozor bo'ldim / Baxti toshga boylangan, Tosh kabi nochor bo'ldim". Islom dini qoidalariga ko'ra, ayol kishi vafot etsa, turmush o'rtog'i ham nomahram hisoblanib, faqat o'g'li unga mahram bo'larkan va qabrga qo'yishga haqli ekan.

Farzand ko'rmagan ayol bu dunyodan o'tganidan keyin qabri ham egasiz qolishidan zorlanadi. She'ning xulosasida dunyodan izsiz o'tayotgan qalb iztiroblari hayotiy voqelikka oid metaforalar bilan ifodalanadi.

Quyun o'ynar izimni,  
G'am qovurar ko'zimni.  
Govmishim, seni emas,  
"Ho'sh-ho'sh"layman o'zimni.  
Ho'o'sh... Ho'sh... Ho'o'sh...[7;89-b]

Usmon Azimning 2012-yilda yozilgan "X asr. Cholg'uvchi ayol" she'ri ayol sevgisini ifodalaydi. She'ning sarlavhasi Alisher Navoiy "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor"dagi Diloromni yodga soladi. Garchi oradan asrlar o'tsa-da, haligacha ayol ibosi, hayosi va g'ururi sevgisini oshkor qilishga yo'l qo'ymaydi. Sozanda ayol yurak izhorini sozi orqali aytadi. "Yong'in hayotimda Ohang behudud...Barmoqlarim tegdi –Zor qaqqshadi ud! / Udni bo'zlatganicha, bag'rimga bosdim / Aqldan ozdim men, Aqldan ozdim". Sevgani bilan xayolan suhbatlashish, "Seni "sevaman" deb xayolda aytish ayollarga xos xususiyat. Ijroviy qahramon sevganining sukutidan ham uning ovozi eshitadi.

"Men ham...Men ham..." – sukut  
Aytadi rozing.  
Bir dunyo sukunat  
Sening ovozing [1;144-b].

Ana shu sukunatni quchib uxlash ham baxt beradi, ayol zotiga. "U juda sog'ingan – Charchamas – uchib... / Bu kecha uxlayman, Sukutni quchib".

**Xulosa va takliflar.** Tahlillardan kelib chiqib, aytish mumkinki, davr o'zgarishi bilan ijtimoiy obrazlar va she'rlar mavzusi ham o'zgarib boradi.

Mashhur rus shoiri Y.Yevtushenko ijodida sotsioantropologik dominant masalasini o'rgangan O.V.Kravsova: "Y.Yevtushenko lirikasining sotsial-antropologik dominantini rivojlantiruvchi motiv va obrazlar semantikasida sovet tuzumidan keyingi davrda dunyoning chuqur his qilingan "yo'qotish", "parchalanish" xususiyati aks ettirilgan. Bu yerda asosiy maqsad millatning baxtsizligi motividir [3;8-b]"–deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, erksiz, birovga qaram bo'lgan millat o'zligini anglamasa, albatta, yo'qlikka mahkum.

O'zbek adabiyotidagi ijroviy lirikaga oid she'rlarning ham aksariyatida milliy "erk" mifologemi (Furqat, Usmon Nosir, Yegishe Charens, Raskolnikov, Basyo kabi ) millat ravnaqi, erki uchun kurashgan shaxslar subyektida yoritiladi.

She'riyatda sotsioantropologiya subyektning axloqiy asosida, ijtimoiy voqeliklarga munosabati va hamdardligida, estetik qolip sifatidagi "Men-Biz-Odamlar" syujet tasvirida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday she'rlarda asosan "inson / jamiyat" antitezasi vositasida ijtimoiy munosabatlar oydinlashadi. Jamiyat a'zolarining davr voqeligiga munosabati shoir nigohida ijroviy qahramon tilidan ifodalanadi. Misralarda qo'llangan badiiy tasvir vositalari hamda metaforalar she'ning mafkuraviy va estetik mazmunini ifodalaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azim U. Kollaj. – Toshkent: Sharq, 2018. – B.144.
2. Kalanov K, Sabirova U. Ijtimoiy antropologiya. –Toshkent, 2020. – B. 5.
3. Кравцова О.В. Социоантропологическая доминанта лирики Е.А.Евтушенко 1950-1990-х годов. – Автореф.дисс. кан.фил.наук. – 2009. - С. 8.
4. Konfutsiy. Hikmatlar. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B.24.
5. Z.M.Bobur. Boburnoma. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. –B.5.
6. Cho'lpon. Asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – B.24.
7. Eshqobil Sh. Hamal ayvoni. – Toshkent: Sharq, 2002. – B.89.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. Madvaliyev A tahriri ostida. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.562.
9. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1986. – 408 b.
10. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2022. – 252 b.
11. To'xliyev B. va boshqalar. Adabiyot (majmua): akademik litseylar ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun. – Toshkent: Bayoz, 2018. – 207 b.
12. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – B. 303.

13. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – 365 b.
14. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Innovasiya – Ziyo, 2020. – 309 b.

## HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA RUHIY KECHINMA VA BADIY IFODA

**Pirmatova Shohista Mahmudovna**

Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi matbuot kotibi

[gulipirmatova4@gmail.com](mailto:gulipirmatova4@gmail.com)

ORCID 0009-0004-2402-8945

UDK 82(575.1)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi o'zbek she'riyatida ruhiy kechinma va badiiy ifoda masalalari tahlil qilinadi. Mustaqillik davridan keyin o'zbek she'riyatida yuz bergan badiiy yangilanish jarayonlari, inson ruhiy olamidagi murakkab kechinmalarni yoritishning badiiy usullari o'rganiladi. Maqolada shoirlarning ruhiy holatni ifodalashda qo'llagan badiiy tasvir vositalari — ramz, timsol, istiora, tashbeh va boshqa poetik unsurlar tahlil qilinadi. A. Oripov, E. Vohidov, R. Parfi, B. Ro'zimhammad kabi ijodkorlarning she'rlaridan misollar keltirilib, ruhiy kechinmalarning falsafiy mushohadalar bilan uyg'unlashuvi yoritiladi. Shoirlar asarlarida ichki kechinma va ichki dramatismni ochib berishning o'ziga xos usullari ko'rsatiladi. Tadqiqot davomida badiiy tafakkurning zamon ruhi bilan bog'liqligi, she'rlar orqali inson ruhiyatining teran talqini o'rganiladi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ruhiy kechinma va badiiy ifodaning ijodiy izlanishlarga ta'siri ochib berilib, shoirlarning individual uslubi hamda o'zbek she'riyatiga qo'shgan hissiy tahlil qilinadi. Maqola, asosan, she'riyatning ruhiy kechinmalarni ifodalashdagi mahoratini ko'rsatishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar.** ruhiy kechinma, badiiy ifoda, zamonaviy o'zbek she'riyati, ramz va timsol, poetik tasvir, falsafiy mushohada, shoir uslubi.

## THE SPIRITUAL EXPERIENCES AND ARTISTIC EXPRESSION IN CONTEMPORARY UZBEK POETRY

**Annotation.** This article analyzes the issues of spiritual experiences and artistic expression in contemporary Uzbek poetry. It examines the processes of artistic renewal in Uzbek poetry after independence and explores the artistic methods used to depict the complex emotions of the human psyche. The article studies the literary imagery tools—such as symbols, metaphors, allegories, similes, and other poetic elements—employed by poets to convey spiritual states. Examples are drawn from the works of poets like A. Oripov, E. Vohidov, R. Parfi, and B. Ro'zimhammad, highlighting the integration of spiritual experiences with philosophical reflections. The unique approaches poets use to reveal inner emotions and internal drama in their works are demonstrated. The research delves into the connection between artistic thought and the spirit of the times, as well as the profound interpretation of human psychology through poetry. The article reveals the influence of spiritual experiences and artistic expression on creative exploration in modern Uzbek poetry, analyzing poets' individual styles and their contributions to Uzbek poetry. The study primarily focuses on showcasing the mastery of poetry in expressing spiritual experiences.

**Key words.** spiritual experience, artistic expression, contemporary uzbek poetry, symbols and imagery, poetic depiction, philosophical reflection, poetic style.

**Kirish.** O'zbek she'riyati milliy adabiyotning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda xalqning ma'naviy olami, ichki kechinmalari va hayot haqidagi mushohadalari aks etadi. She'riyatning badiiy ifoda vositalari orqali inson ruhiy dunyosini yoritish imkoniyati kengaygan hozirgi davrda, o'zbek she'riyatining yangi qirralari ochilmoqda. Mustaqillik davridan keyingi o'zbek she'riyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashib, insonning ruhiy kechinmalari falsafiy mushohadalar bilan birgalikda badiiy in'ikos topmoqda. Shoirlarning ijodiy izlanishlari orqali xalqning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy ehtiyojlari badiiy asarlarda namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillikning adabiyotga ta'sirini kuzatar ekanmiz, shoirlarning ijodiy erkinligi kengaygani, badiiy obrazlarning xilma-xillashgani va ruhiy kechinmalarni chuqur ifodalashga intilish kuchayganini ko'rishimiz mumkin. Avvalgi davrlar senzura va mafkuraviy cheklavlar sababli tasvirlanmagan insoniy kechinmalar endilikda erkin ifoda qilina boshladi. Shu sababli, zamonaviy o'zbek she'riyati avvalgi davr she'riyatidan birmuncha farq qiladi. Shoirlar insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini keng ko'lamda tasvirlashga harakat qilmoqdalar. Shoirning ichki ruhiy holatini ifodalashda ramz, timsol, tashbeh, istiora va boshqa badiiy vositalar asosiy o'rinni egallaydi. Bularning barchasi she'riy ifodani yanada teranlashtiradi, ma'no qatlamlarini chuqurlashtiradi va o'quvchini mushohadaga chorlaydi.

She'riyatda ruhiy kechinma muhim o'rin egallaydi. Insonning ichki olamida kechayotgan jarayonlar, his-tuyg'ular, hayajon va shodliklar, qo'rquv va umidlar shoir ijodida yorqin aks etadi. Shoirlar bu kechinmalarni ramziy obrazlar va falsafiy umumlashmalar yordamida ifodalaydilar. Shu jihatdan, A. Oripov, E. Vohidov, R. Parfi, B. Ro'zimuhammad, Faxriyor singari shoirlarning ijodi e'tiborga loyiqdir. Ularning asarlarida ruhiy kechinmalar va falsafiy mushohadalar badiiy obrazlar orqali mujassam etilgan. Bu jarayonda shoirning shaxsiy his-tuyg'ulari milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashadi. Shuning uchun ham, zamonaviy o'zbek she'riyati ruhiy kechinmalarning turli ko'rinishlarini yoritish imkoniyatiga ega.

Zamonaviy o'zbek she'riyatining muhim xususiyatlaridan biri – ruhiy kechinma va ichki drammatizmni chuqur ifodalashdir. Bu jarayonda shoirlar ichki kechinmalarni inson ruhiyatining o'zgarish jarayonlari bilan bog'laydilar. Bu borada A. Oripovning "Aktyor" she'rini misol qilish mumkin. Unda insonning ikkiyuzlamachiligi, riyokorligi va hayotiy kurashlari tasvirlangan. Bu tasvir o'quvchiga faqat tashqi harakatni emas, balki ichki kechinmani, qalbning murakkabligini ham anglash imkonini beradi. Ruhiy kechinmalarni tasvirlashda shoirlar insonning ichki dunyosini ochib berishga alohida e'tibor qaratadilar.

Ruhiy kechinma faqat hissiyotning tasviri emas, balki insoniy hayotning ichki mohiyatini yoritadigan falsafiy mushohadalar bilan uyg'unlashgan holda badiiy obrazlar orqali namoyon bo'ladi. Falsafiy mushohadalar orqali kechinmalarning mazmuni kengayadi, shoirlar ruhiy iztirobni falsafiy tushunchalar orqali chuqur ifoda etadilar. Bu esa zamonaviy she'riyatning murakkab va ko'p ma'noli bo'lishiga zamin yaratadi. Bu borada A. Oripovning "Shoir qalbi" she'rini misol keltirish mumkin. Ushbu she'rda shoir o'zining ichki iztiroblari, millatga, xalqqa nisbatan o'z mas'uliyati va ijodiy vazifasini badiiy umumlashmalar orqali ifoda qiladi.

Zamonaviy she'riyatda ruhiy kechinmalarning ifodasi badiiy tasvir vositalari orqali kuchaytiriladi. Shoirlar ko'chimlarning barcha turlaridan, jumladan, ramz, timsol, tashbeh, istiora va metonimiyadan mohirona foydalanadilar. Ayniqsa, ramziy tasvirlar o'quvchini mushohada yuritishga, yashirin ma'nolarni anglashga chorlaydi. Bu usul o'quvchining faqat tashqi voqelikni emas, balki ichki ruhiy kechinmalarni anglashga xizmat qiladi. Zamonaviy she'riyatda insonning ichki olamini yoritish ramzlar orqali amalga oshiriladi. Bu borada R. Parfi va B. Ro'zimuhammadning she'rlarida ko'plab misollarni ko'rish mumkin.

Ularning asarlarida shoirning ichki dunyosi bilan o'quvchining his-tuyg'ulari o'zaro uyg'unlashadi.

Ruhiy kechinmalarni ifodalashda shoirlar o'ziga xos badiiy til va uslubdan foydalanadilar. Har bir shoirning badiiy ifoda uslubi o'ziga xosdir. A. Oripov, E. Vohidov, R. Parfi kabi shoirlar she'rlarida falsafiy ohanglar kuchli seziladi. Ular insonning ichki kechinmalarini ijtimoiy hodisalar, falsafiy mushohadalar orqali badiiy ifodalab, o'quvchini o'ylashga undaydilar. Boshqa tomondan, Faxriyor, B. Ro'zimuhammad, A. Qutbiddin kabi ijodkorlarning she'rlarida lirik kechinmalar, shaxsiy tuyg'ularni ifodalashda tasviriylikka alohida e'tibor qaratiladi. Ularning she'rlarida lirizm va musiqiylik kuchli bo'lib, bu holat o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi.

She'riyatni ifoda etish usullari turlicha bo'lishiga qaramay, undagi asosiy maqsad insonning ichki kechinmalarini ochib berishdir. She'riyatning o'quvchiga yetkazadigan asosiy ta'siri ham shu ichki kechinmalarning ta'sir kuchidadir. Ruhiy kechinmalarni badiiy tasvirlashda shoirlar xalqning milliy ruhiyati va madaniy qadriyatlaridan foydalanadilar. Shu sababli, zamonaviy o'zbek she'riyati faqat o'z milliy madaniyatining in'ikosi bo'lib qolmay, balki umuminsoniy muammolarni yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Hozirgi o'zbek she'riyatida ruhiy kechinma va badiiy ifoda masalalarini yoritishga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar, maqolalar va monografiyalar mavjud. Ushbu adabiyotlarda sho'rolar davridan keyingi she'riyat taraqqiyoti, shoirlar ijodidagi falsafiy mushohadalar va lirik kechinmalar tahlili asosiy o'rinni egallaydi. Taniqli adabiyotshunos olimlar, jumladan, I. Sulton, O. Sharafiddinov, B. Nazarov va H. Umurovlar zamonaviy o'zbek she'riyati taraqqiyotiga oid ilmiy maqolalarida she'riyatda badiiy tafakkurning yangilanishi, inson ruhiy olami va kechinmalarni ifodalashning poetik xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. B. Nazarovning tadqiqotlarida she'riyatda ramz, timsol va tashbehning o'rni hamda ularning ruhiy holatlarni ochib berishdagi ahamiyati batafsil yoritilgan. R. Parfi, B. Ro'zimuhammad, A. Qutbiddin, Faxriyor kabi shoirlarning ijodi ilmiy adabiyotlarda zamonaviy ruhiy kechinmalarning badiiy tasviri sifatida tahlil qilinadi. Ularning ijodiy tajribalari orqali o'zbek

she'riyatida modernizm va postmodernizm yo'nalishlari shakllana boshlagani qayd etilgan. Jumladan, U. Hamdamovning maqolalarida B. Ro'zimuhammad ijodi, uning lirik kechinmalarni badiiy ifodalashda qo'llagan usullari chuqur o'rganilgan. A. Oripov va E. Vohidovning she'rlari milliy ruh va falsafiy mushohada uyg'unlashgan poetik namunalaridir. Ularning asarlari tahlilida shoirlarning inson ruhiyatini tasvirlashdagi individual uslublariga e'tibor qaratilgan. O'zbekiston xalq shoirlari ijodini o'rganishda O. Matchon va M. Yo'ldoshevalarning maqolalari alohida o'rin egallaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada hozirgi o'zbek she'riyatida ruhiy kechinma va badiiy ifoda masalalarini tadqiq etish uchun zamonaviy adabiyotshunoslikning nazariy va amaliy usullaridan foydalanildi. Asosiy metod sifatida tahlil va taqqoslash usuli qo'llanilib, zamonaviy shoirlarning asarlaridagi ruhiy kechinmalar va badiiy tasvir vositalarining o'ziga xosligi o'rganildi. Bundan tashqari, tasviriy tahlil usuli orqali she'rlardagi badiiy obrazlar, ramzlar, timsollar, istiora va boshqa tasviriy vositalarning o'rni va ahamiyati ko'rib chiqildi. Qiyosiy usul yordamida A. Oripov, E. Vohidov, R. Parfi, B. Ro'zimuhammad singari shoirlarning ijodida ruhiy kechinmalarning ifodalanishidagi o'ziga xos jihatlar taqqoslandi. Tadqiqotda tarixiy-tipologik usul orqali mustaqillik davri o'zbek she'riyati oldingi davrlardan farqlanuvchi jihatlari, zamonaviy shoirlarning badiiy izlanishlari o'rganildi. Shuningdek, falsafiy mushohada usuli asosida she'rlardagi falsafiy g'oya va ruhiy kechinmalar o'rtasidagi bog'liqlik ochib berildi. Ushbu metodologiya she'riyatning badiiy-estetik ahamiyatini va uning ruhiy kechinmalarni ifodalashdagi imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga imkon beradi.

**Natijalar va muhokama.** Mustaqillik davri o'zbek she'riyati mazmun va shakl jihatidan sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Sovet mafkurasining ta'siri yo'qolishi ijod erkinligi va milliy o'zlikni anglash jarayonini jadallashtirdi. Shoirlar o'z ijodida nafaqat ijtimoiy, balki shaxsiy, ruhiy va ichki kechinmalarni ham yoritishga intildilar. A. Oripov, E. Vohidov, B. Ro'zimuhammad, R. Parfi, Faxriyor singari shoirlarning ijodida insonning ichki iztirob va quvonchlari, ma'naviy azob va yuksalishlari, hayotiy murakkablik va falsafiy mushohadalar badiiy tasvirda gavdalandi. Ushbu kechinmalar lirik qahramonning ichki dunyosidagi murakkablik, ziddiyat va ko'p qirrali jarayonlar sifatida namoyon bo'ladi. Shoirlar o'z asarlarida badiiy tasvir vositalaridan faol foydalanadilar. Ayniqsa, tashbeh, ramz, timsol, istiora, metonimiya kabi badiiy vositalar ruhiy kechinmalarni chuqur ifodalashda muhim rol o'ynaydi. A. Oripovning "Aktyor" she'rida riyokorlik va ikkiyuzlamachilik ramziy aktyor obrazi orqali gavdalantiriladi. Bunday ramzlar o'quvchini mushohada yuritishga chorlaydi va ruhiy kechinmaning chuqur qatlamlarini ochishga xizmat qiladi. Ramzlar insonning ichki olamidagi kechinmalarni yashirin ma'noda yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. B. Ro'zimuhammadning "Ko'klam naqorati" she'rida tabiat tasvirlari orqali insonning ichki ruhiy olamidagi o'zgarishlar tasvirlanadi. Ko'klamning uyg'onishi inson qalbida yangicha umid va yangilanish jarayonining ramzi sifatida ifodalanadi. Bu usul orqali shoir inson va tabiat o'rtasidagi mushtaraklikni, ruhiy kechinmalar va tashqi olam hodisalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatishga erishadi.

Hozirgi o'zbek she'riyatida falsafiy mushohadalar ruhiy kechinmalarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu usul A. Oripov, E. Vohidov, R. Parfi, Faxriyor, B. Ro'zimuhammad singari ijodkorlar ijodida o'z ifodasini topgan. A. Oripovning "Shoir qalbi" she'rida insonning Vatan oldidagi mas'uliyati, shoirlik burchi va ma'naviy fidoyilik g'oyasi falsafiy mushohadalar orqali ochib beriladi. Shoir o'zining shaxsiy ruhiy kechinmalarini xalqning ichki iztiroblari bilan bog'laydi. Shoirning bu usuli orqali o'quvchining qalbida chuqur ruhiy ta'sir uyg'otiladi. B. Ro'zimuhammad va R. Parfi she'rlarida falsafiy mushohadalar orqali insonning hayot va o'lim haqidagi kechinmalari ifodalanadi. Masalan, R. Parfining she'rlarida insonning o'tkinchi hayotga munosabati, o'lim va abadiylik haqidagi falsafiy mulohazalari ichki kechinmalar ko'rinishida tasvirlanadi. Bu jarayonda timsollar va ramzlar asosiy o'rinni egallaydi. Shu tariqa, shoirlar ichki kechinmalarni badiiy falsafiy umumlashmalar darajasiga olib chiqadilar.

Har bir shoirning ruhiy kechinmalarni ifodalashdagi uslubi va mahorati o'ziga xosdir. A. Oripov ijodida insonning ichki iztiroblari ko'proq ijtimoiy muammolar, Vatan oldidagi mas'uliyat bilan bog'lanadi. Shoirning "Xalq" she'rida Vatan va xalq tushunchasi falsafiy mushohadalar orqali badiiy ifodalangan. Shoir insoniylik, vatanparvarlik, ma'naviy fidoyilik kabi g'oyalarni ochib berishda ruhiy kechinmalarni o'quvchiga ta'sirli qilib yetkazadi. B. Ro'zimuhammad va R. Parfi she'rlarida esa ichki kechinmalar ko'proq shaxsiy iztirob, insoniylik va hayotiy kurashlar



bilan bog‘lanadi. Ularning she‘rlarida ramziy obrazlar yordamida insonning ichki ruhiy kurashi ko‘rsatiladi. Faxriyor va A. Qutbiddin ijodida esa kechinmalar lirizm va ichki tuyg‘ularning nozik tasviri orqali ifodalanadi. Bu shoirlarning she‘rlarida musiqiylik, ritm va ohangning uyg‘unligi ichki kechinmaning ta‘sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi.

Milliylik hozirgi o‘zbek she‘riyatining asosiy tamoyillaridan biridir. Shoirlar o‘z asarlarida milliy ruhni ifodalash uchun xalq og‘zaki ijodi, qadimiy an‘analar va tarixiy obrazlardan foydalanadilar. Milliylik orqali ifodalangan ruhiy kechinmalar xalqning umumiy ma‘naviy holatini aks ettiradi. A. Oripovning “Vatandosh” she‘rida vatanparvarlik kechinmasi Vatan va xalq ramzi orqali ifodalanadi. O‘zbek xalqining urf-odatları, qadriyatları va milliy madaniyati shoirlar ijodiga chuqur singdirilgan. Bu nafaqat ruhiy kechinmalarining tasvirida, balki tasviriy vositalarni tanlashda ham namoyon bo‘ladi. Xususan, xalqona tashbeh va timsollar shoirlarning kechinmalarini milliy ruhda ifodalash imkonini beradi. Bunda xalq tilidagi ko‘chimlar, maqol va matallarning she‘rlarda qo‘llanishi milliy o‘ziga xoslikni ta‘minlaydi.

**Xulosa.** Hozirgi o‘zbek she‘riyatida ruhiy kechinmalar va badiiy ifoda masalalari jiddiy ilmiy tadqiqotlarni talab etadigan murakkab va dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Shoirlarning ijodida inson ruhiyatining har xil holatlari, hissiyotlari, ichki iztiroblari va fikrlarining ifodalanishi she‘riyatning asosiy jihatlaridan biri bo‘lib, ularning asarlari nafaqat estetik, balki ma‘naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida A. Oripov, E. Vohidov, B. Ro‘zimuhammad, R. Parfi, Faxriyor kabi o‘zbek she‘riyatining yetakchi namoyandalarining asarlari asosida ruhiy kechinmalar va badiiy ifoda o‘rganildi. Ushbu shoirlarning ijodi orqali ruhiy kechinmalarni ifodalashda qo‘llaniladigan badiiy vositalar va ularning estetik ta‘siri batafsil yoritildi.

Hozirgi o‘zbek she‘riyatida ruhiy kechinmalarni ifodalashning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lib, har bir shoirning badiiy izlanishlari o‘ziga xosdir. Masalan, A. Oripov o‘zining she‘rlarida milliy va shaxsiy kechinmalarni badiiy ramzlar orqali yoritadi. Shoirning "Vatandosh" va "Shoir qalbi" kabi asarlarida Vatan va xalq oldidagi mas‘uliyat, milliy tuyg‘ular, shaxsiy iztiroblar kabi mavzular chuqur falsafiy mushohadalar orqali taqdim etilgan. A. Oripovning she‘rlaridagi ramzlar va timsollar, masalan, "Shoir qalbi" she‘rida qalb va Vatan o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, millat va shaxsiy ruhiyatning uyg‘unlashuvi orqali shoirning ichki dunyosini o‘quvchiga yetkazishning nozik va mahoratli usulini ko‘rsatadi. Shoir, o‘zining chuqur falsafiy izlanishlari bilan, she‘rlarni faqat estetik maqsadlarda emas, balki ruhiy kechinmalarni teranroq ifodalash uchun ham yaratadi. E. Vohidov esa o‘z she‘rlarida ruhiy kechinmalarni, asosan, lirik va hissiy holatlar orqali ifodalaydi. Uning she‘rlarida, masalan, "Dushman" va "Xalq" asarlarida milliy hamjihatlik, vatanparvarlik va insonning haqiqiy tuyg‘ulari kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Shoir o‘zining lirik qahramoni orqali insonning ichki iztiroblarini va hissiyotlarini badiiy til bilan aks ettiradi. E. Vohidovning she‘rlaridagi tashbehlar va ramzlar yordamida o‘quvchiga nafaqat umumiy tasvirlar, balki shaxsiy iztiroblar ham taqdim etiladi. Uning she‘rlarida milliy tuyg‘ular va xalq oldidagi mas‘uliyat kiritilgan, bu esa she‘rning estetik va ruhiy jihatdan chuqurligini oshiradi. B. Ro‘zimuhammadning she‘rlarida esa ruhiy kechinmalar ko‘proq tabiat va ichki olamning uyg‘onishi orqali ifodalangan. Uning "Ko‘klam naqorati" she‘rida tabiat tasvirlari orqali insonning ichki ruhiy izlanishlari va yuksalish jarayonlari ko‘rsatiladi. B. Ro‘zimuhammad, tabiatni ichki dunyoning ramzi sifatida ko‘rsatib, ruhiy kechinmalarni nafaqat tashqi dunyo bilan bog‘laydi, balki inson qalbining qayta tug‘ilish jarayonini ham ifodalaydi. Shu tarzda, B. Ro‘zimuhammadning she‘rlarida ko‘klam ramzi orqali shaxsiy izlanishlar, o‘zgarishlar va yangilanishlar aks ettiriladi. Tabiatning uyg‘onishi bilan birga, shaxsiy ruhiy uyg‘onish va yuksalish ham aks etadi. Bu orqali B. Ro‘zimuhammad o‘zining she‘rlarida tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rsatadi. R. Parfi esa o‘z she‘rlarida falsafiy mushohadalar orqali ruhiy kechinmalarni yoritadi. Uning she‘rlarida, masalan, "Qayg‘u" va "O‘lim" asarlarida insonning hayotga bo‘lgan munosabati, o‘lim va abadiylik haqidagi fikrlar yoritiladi. Parfi o‘zining she‘rlarida tabiiy hodisalar va shaxsiy iztiroblarni birlashtirib, insonning o‘limga bo‘lgan munosabatini falsafiy tarzda ko‘rsatadi. Shoir, o‘limni tabiat hodisasi sifatida emas, balki ruhiy kechinma va ichki kurash sifatida yoritadi. Shu tarzda, Parfi o‘zining asarlarini falsafiy mushohadalar bilan boyitib, ichki iztiroblarni ko‘proq chuqur his-tuyg‘ular bilan aks ettiradi.

Hozirgi o‘zbek she‘riyatida milliylikning ruhiy kechinmalarni ifodalashdagi o‘rni juda katta. Shoirlar o‘z asarlarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, xalq hikmatlari va an‘analarini

tasvirlab, shu orqali xalqning umumiy ruhiy holatini aks ettiradilar. A. Oripovning "Vatandosh" she'rida milliy tuyg'ular, Vatan va xalq oldidagi burch, shaxsiy kechinmalar bilan uyg'unlashadi. Shoir, o'zining shaxsiy ruhiy iztiroblarini milliy qadriyatlar va tarixiy voqealar bilan birlashtiradi. Shu tarzda, Oripovning she'rida milliylik va ruhiy kechinmalar birlashtirilgan bo'lib, ularni ifodalashda ramzlar va tashbehtar muhim o'rin tutadi. E. Vohidov va B. Ro'zimuhammad she'rlarida ham milliy ruhiyat va shaxsiy kechinmalar birlashtirilgan. E. Vohidovning "Dushman" she'rida milliy tuyg'ular, xalqning abadiy yuksalish umidi va birlashish g'oyasi o'z aksini topadi. E. Vohidov, shuningdek, o'zining shaxsiy kechinmalarini va xalq oldidagi mas'uliyatni birlashtirib, o'quvchiga chuqur hissiy ta'sir ko'rsatadi. B. Ro'zimuhammadning "Ko'klam naqorati" she'rida esa tabiat orqali ruhiy kechinmalarni ifodalash, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan tarzda, odam va tabiatning o'zaro aloqasi ko'rsatiladi.

Shoirlarning badiiy uslubi ruhiy kechinmalarni ifodalashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. A. Oripov, E. Vohidov, B. Ro'zimuhammad, R. Parfi kabi shoirlar o'z ijodlarida nafaqat o'zlarini, balki butun jamiyatni aks ettirishga harakat qilganlar. Ularning badiiy uslubi va individual tajribalari ruhiy kechinmalarni ifodalashda yuksak mahoratni ko'rsatadi. Har bir shoir o'z she'rlarida o'zining ichki iztiroblarini, tuyg'ularini va milliy mas'uliyatni aks ettirib, o'quvchiga chuqur ta'sir qilishga intiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Oripov (2002). Shoir qalbi. Toshkent: Yangi asr avlodi, -B. 45-50
2. E. Vohidov (2003). Dunyoga ochiq ko'z bilan qarash saodati. Toshkent: O'qituvchi, -B. 23-30
3. B. Ro'zimuhammad (2001). Ko'klam naqorati. Toshkent: Adabiyot va san'at, -B. 17-22
4. R. Parfi (1999). O'lim va hayot. Toshkent: Sharq, -B. 65-70
5. Faxriyor (2000). Yurakning sadosi. Toshkent: Yangi avlod, -B. 89-94
6. I. Sulton (2004). Zamonaviy o'zbek she'riyati. Toshkent: Fan, -B.120-125
7. O. Sharafiddinov (2005). Adabiyot va falsafa. Toshkent: O'zbekiston, -B. 33-37
8. B. Nazarov (2006). She'riyatning badiiy tahlili. Toshkent: Ma'naviyat, -B.150-155
9. H. Umurov (2007). She'r va san'at. Toshkent. -B. 41-45
10. I. Haqqulov (2008). Shoir va ruhiyat. Toshkent. -B. 72-75

### ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA METAFORA VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI

**Shodmonova Dildor**

QarDU o'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

[dildorshodmonova@mail.ru](mailto:dildorshodmonova@mail.ru)

0009-0007-1461-1899

UDK 821.512.133

**Annotatsiya.** Badiiy ijod namunasida qo'llanilgan so'zlar o'zidagi sodda nominativ funksiyani o'zgartirgan holda yangi obraz yasashda faol ishtirok etadi. Bu orqali har bir so'zning ichki semantik imkoniyati ochiladi: ma'noviy ko'lamni tashkil etuvchi turli toifadagi semalar adibning badiiy g'oyasiga ko'ra, o'rni bilan ustuvor jihatni bir-biriga bo'shatib beradi. Bu esa metaforada mavjud bo'lgan xususiyatini yaqqol namoyon etadi. Metafora – ko'rinmas olam haqidagi ma'lumot tashuvchi unsur bo'lib, metaforaning she'riyat uchun xos bo'lgan xarakterli jihati borliq haqidagi jami qarashlar va farazlar o'zaro implisit holatida zidlantirilishidir. Ana shunday qarshilantirish evaziga referentlararo o'xshash va farqli jihatlar ajratib olinadi. Maqolada Abdulla Oripov she'riyati asosida metaforalar tahlilga olindi.

**Kalit so'zlar.** Metafora, badiiy ijod, metaforik trop, she'riyat, semantik evrilish.

**Abstract.** Words used in a work of art actively participate in creating new images by altering their simple nominative function. This process reveals the internal semantic possibilities of each word: various categories of semes that make up the semantic range, depending on the author's artistic idea, release the dominant feature to each other. This clearly demonstrates the characteristic of metaphors. A metaphor is an element that carries information about the invisible world, and its specific feature for poetry is the implicit confrontation of general views and assumptions about existence. Such confrontation distinguishes similar and different aspects between referents. In the article, metaphors in Abdulla Oripov's poetry are analyzed.

**Keywords.** metaphor, artistic creation, metaphorical trope, poetry, semantic evolution.

**Kirish.** Metafora olamni badiiy idrok etishning organik (tabiiy) usulidir [1]. U yoki bu muallifning olami (she'riy ijodi) esa uning o'zigagina mansub bo'lgan metaforalar orqali tushuniladi va qabul qilinadi. Masalan, N.Vilmont B.Pasternak she'riyatiga yo'l topmoq

ilinjida uning panmetaforistikasiga[2] murojaat qiladi. Fanda bunga o'xshash yondashuvlar nihoyatda ko'p bo'lib, masalan, R.O.Yakobsonning V.Mayakovskiy ijodiga metaforalar sirasi orqali murojaatini ham misol qilish mumkin. Boshqacha aytganda, metafora – har bir adib va shoirning tili, olamni ko'ruvdagi o'zgacha nigohi, usuli bo'lsa, she'riyatning o'ziga xos “shevasi” esa aynan metaforalar asosida yuzaga chiqadi.

Badiiyat uchun metafora – trop, lingvistika va boshqa kognitiv fanlar uchun esa – tafakkur hodisasi.

Struktur jihatdan badiiyatdagi tropni ikki turga: metonimiya asosida yuzaga keluvchi hamda metafora asosli troplarga bo'lish mumkin. Jumladan, metonimiya asosida yuzaga kelgan trop hajm, shakl, chiziq va hokazo unsurlardan tashkil etuvchi butunlikdan ishora beradi. Masalan, eposda keltirilgan portret yordamida inson haqidagi tasavvurga ega bo'lamiz.

Metaforik tropda esa so'zlar ma'nosi tegishli o'zgarishlarga uchraydi: o'xshashlik, muqobillik, assosiasiya sababidan yuzaga keluvchi semantik evrilish natijasida obyektlar o'rtasida hatto bir-biriga aloqador emasdek ko'ringan (irreal) munosabatlar o'rnatiladi. Bunda fikrlar simmetriyasini oson ilg'ash va tushuntirish imkoni mavjud, bundan farqli, fikrlar assimetriyasiga izoh topish birmuncha mushkullashadi. Solishtiramiz:

*Xato qilsang, ularga bayram,  
Yo'qsa, zahru zaqqum yutarlar.  
Mayli jindek, zarra bo'lsa ham,  
Xato qilishingni kutarlar.*

*Xatolaring kerak ularga .  
Shox-novdangni darhol butarlar,  
Tag'in kunni ulab tunlarga,  
Xato qilishingni kutarlar.*

**(Xatolaring kerak ularga)**

Yoki:  
*Minoda Shaytonni qildik toshbo'ron,  
La'natga ko'mildi бадбахт у лаин.  
Dedik, shuncha yukning ostidan Shayton  
Ming yillar chiqolmay yotmog'i tayin.*

*Shodumon yo'l oldik Vatanga qarab,  
Shayton qoldi, deya chuqurda-chohda.  
Manzilga qaytgandik, Shayton,  
vo'ajab,  
biznu kutib oldi tayyoragohda.*

**(Shayton)**

Dastlabki to'rtlikdagi *zahru zaqqum yutmoq* metaforik qurilmasi hasadgo'y odamga o'zbek lingvomadaniyatida berilgan baho bo'lib, xalq tilida baxil odamlarga nisbatan qo'llaniluvchi *achchiq ichak (-dek)* o'xshatish etaloniga yaqin turadi. Hasadgo'y odam na o'ziga va na o'zgalarga tinchlik bermaydi, oqibatda o'zgalalar va o'z hayotini zaharlaydi. Shu jihatdan tegishli qurilmani “uniqqan” (styortaya) metafora deb qarash o'rinli bo'ladi hamda uning nutqdagi bu tarzda ifodasi fikr simmetriyasiga munosib misol bo'ladi. Shu singari, *shox-novdani butamoq* metaforasi imkoniyatlar yo'lini berkitmoq, unib-o'sishga yo'l bermaslik ma'nosida izohlanadi va bu o'rinda ham o'xshatish simmetriyasi kuzatiladi.

Keyingi, misoldagi *la'natga ko'milmoq* metaforik birikmasi mantiqan tabiiy qonuniyatni – sabab-natija munosabatini ifoda etadi. Bu borada belgilararo munosabatlarga bir qadar oydinlik kiritsak.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada leksik-semantik, leksik-stilistik, analiz va sintez, umumlashtirish va nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Ma'lumki, har qanday belgida o'zaro ma'lum munosabatda bo'lgan ikki obyekt mavjud bo'ladi. Obyektlar o'rtasidagi munosabat ikki xil bo'lib, bulardan biri – sabab-natijali, ikkinchisi esa shartli munosabatni o'zida aks ettiradi. Sabab-natijali munosabatda o'zaro munosabatda bo'lgan obyektlar motivlangan, shartli munosabatda esa motivlanmagan bo'ladi. Shunga ko'ra, belgilar ham motivlangan va motivlanmagan belgi turlariga bo'linadi. Deylik, xazonrezgini ko'rib, yil yakuniga yetayotganini ilg'aymiz, bu o'z navbatida umrning shom pallasini yodimizga soladi. Bunday tashqi belgilar assosiasiyasi tabiiy o'xshashlik sababidan, demak, simmetriya hosil qilgan holda namoyon bo'ladi[3]



### 1-rasm. Obyektlararo o'xshatish simmetriyasi hamda uning ma'no ko'chimi bilan muvofiq kelishi

Fanda "ko'chib yuruvchi konnotasiya" sifatida ma'lum bo'lgan bu kabi ko'chimlar uzual ahamiyatli bo'lib, lisoniy metafora sifatida o'rganiladi (bu haqda tadqiqotimizning 2.2.-, 2.3.-faslida ham to'xtalganmiz). Ya'ni bu singari ifodani hatto lug'atga kiritish, izohlash va oson sharhlash mumkin. Binobarin, tahlilga tortilayotgan *La'natga ko'mildi badbaxt u lain* misrasi ham shu kabi. Bir qarashda motivlanmagandek tuyulgan mazkur belgi musulmon xalqlarida aynan motivlangan munosabatni ifoda etadi. Ya'ni musulmon xalqlarining qadriyatli tizimi qonuniyatlariga muvofiq, sabab-natija kategoriyasining ifodasi la'natlangan kimsaning shaxs sifatida yo'qlikka mahkum etilishida ko'rinadi. Demak, *la'natlanmoq va ko'milmoq* leksemalari o'zaro simmetrik assosiativ munosabatga kirishgan holda ma'no ko'chimining sodir bo'lishiga xizmat qilgan (2-rasm).



### 2-rasm. La'natga ko'mildi badbaxt u lain misrasidagi fikriy simmetriya

Biroq bu yerda fikriy simmetriyani metonimiyada uchraydigan ko'chim simmetriyasi bilan adashtirmaslik lozim. Aloqadorlik – metonimiyani metaforadan farqlab turuvchi jihat. Bu munosabat ma'noviy qatorlarning o'zaro qarindoshlik aloqasini taqozo etadi. To'g'ri, metonimiyada ham A obyekt V predmetni real yoxud assosiativ uyg'unlik evaziga nomlaydi. Bu uyg'unlik: fazoviy, tushunchaviy, hodisaviy munosabatlar orqali sodir bo'ladi. Xususan, N.D. Arutyunova metonimiyaning 11 ta hosil bo'lish usuli haqida axborot beradi[4]. Demak, metonimiyadagi simmetriyani metaforadagi fikriy simmetriyadan farqlashda o'xshatish predmeti sifatida tanlanayotgan referentlar orasidagi qarindoshlik va noqarindosh munosabatlarni inobatga olish lozim.

Ma'lumki, subyekt tomonidan his etilgan taassurotlarning metaforik ko'chimni keltirib chiqarishiga doir ishlar R.Z.Miller-Budniskaya, L.M.Granovskaya, N.A.Kojevnikova, S.B.Karavayeva, I.N.Gorelov, T.R.Stepanyan tadqiqotlarida kuzatilib, bu olimlar badiiy matndagi metaforani tizimli tarzda tekshiradilar hamda ko'chimga tegishli lisoniy xususiyatlarni sinesteziya orqali izohlaydilar[5]. Ya'ni, dastlab his etilgan tuyg'ularning muallif tomonidan ma'lum obraz shaklida berilishi sinestetik ko'chim tabiatini belgilaydi: bunda empirik yo'l bilan hosil qilingan hukm va uning emotsional bo'yoqdorligi yetakchi omil bo'lib yuzaga chiqadi.

Z.Xovanskayaning fikricha, "ramzdagi aniq obrazning o'zgacha talqini o'zining erkinligi bilan farqlanadi. Bu asosan imlisit ta'sirida sodir bo'ladi. Biroq, ushbu ramzda kechuvchi diaxron va sinxron kesimdagi ma'no taraqqiyoti, u bilan bog'liq uzil-kesil

talqinning mavjud emasligiga qaramay, ramziy obraz-belgi nisbatan barqaror ma'no ko'lamini saqlab qoladi[6]. Ramziy belgining o'ziga xos semiotik rang-barang tabiati – unda butun insoniy jamoaning hayotiy tajribasi va e'tiqodiy qarashlarining jamlanishida kuzatiladi. Shu bilan mazkur ramz hamma uchun tushunarli, umumiy talqinni ifoda etuvchi belgiga aylanadi, muloqotda qulay kommunikativ vaziyatni yuzaga keltiradi. Demak, mifologik genezisga ega bo'lgan ramzlarga tegishli madaniyatga daxldor qadriyatiy qarashlarning ifodachisi sifatida yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladi.

Tan olish kerakki, mifologik obrazlar asosida yuzaga chiquvchi *shayton* metaforasining chastotasi XX asr o'zbek she'riyatida nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bunda *shayton* - shaxs, jamiyat va tuzumga tegishli illatlarning salbiy bo'yoqdorlik bilan tamg'alangan etalon nomi. Xususan,

*Rejissor buyurdi: endi men – shayton...*

*Yo'q, yo'q farishtaman, hali farishta.*

*Olloh pokligimga qilgan yo'q gumon,*

*Xizmatim – beminnat, ishim – sarishta.*

*Usmon Azim*

Mazkur metaforaning fikr asimmetriyasidagi okkazional vaziyatda kuzatilishi – muallif metaforasiga yorqin dalil bo'ladi.

Metaforani funksional-sintaktik ko'lamda tekshirgan N.D.Arutyunova uning nominativ, obrazli, kognitiv va generallashtiruvchi tiplarini ajratadi. Olima o'z qarashlarida jami tipdagi metaforalar, pirovardida, kognitiv metaforaning xususiyatlarini uyg'unlashtiradi, deb xulosa qiladi[7].

Shu singari, *Shayton bizni kutib oldi tayyoragohda* misrasidagi obyektlar orasidagi motivlanmaganlik, mantiqiy nomuvofiqlik shoirning kognitiv kechimida shakllangan qadriyatiy olamini aks ettirmoqda. Shuningdek, badiiyat qonuniga ko'ra, metafora adibning fuqarolik pozitsiyasini yashirin tarzda ifoda etarkan, bu holat matnda kognitiv metaforaning yuzaga chiqishiga asos yaratadi. Demak, *Shayton bizni kutib oldi tayyoragohda* metaforik qurilmasi – shoirning ijodiy kashfiyoti emas, olamga, ijtimoiy tuzumga munosabatini ifodalovchi subyektiv baho sifatida yuzaga chiqqan tajriba va mahorat mahsulidir.

Unutmaslik kerakki, metaforalar nutq ifodalashning rasional usuliga yondosh holat sifatida tushunchaga yaqin turadi. Shuningdek, ular ongli ravishda qabul qilingan qaror tafsilotining muqobili sifatida ham tushuniladi. Chunki metaforalar ushbu axborotni sig'imi katta, nisbatan ixcham va sodda shakllarga; birvarakayiga: tasvirlash, taqqoslash, jilo berish, ochish, g'oyalar almashinuvini ta'minlash kabi vazifalarni ado etgan holda joylaydi. Matnni qayta kodlovchi metaforalar, pirovardida, hosil bo'lgan konsepsiyani, garchi u g'ayritabiiy, mantiqsiz tuyulsa-da, voqelikning real tasviri sifatida qabul qilishga majbur qiladi.

Masalan, buni idrok rekonstruksiyasida kuzatish mumkin:

*Bir xabar tarqaldi,*

*Yarim tun edi,*

*Go'yo g'am seliga botdim, yo'qoldim.*

*Kimdir yo'l boshchidan ayrildik dedi,*

*Men-chi, aziz do'stdan ayrilib qoldim.*

*Kimning xayoliga kelmishdir axir,*

*Birdan qulab tushsa buyuk bir chinor.*

*Alam bo'g'zimizda achchiq va taxir,*

*Bu g'amning na cheki - chegarasi bor.*

*Ketdi nogahonda aytmay biror so'z,*

*Hijron oloviga barchani tashlab.*

*O'zbek osmonida so'ndi cho'ng yulduz,*

*Katta-yu kichikning ko'zini yoshlab.*

*Biz – noqis bandalar, o'ylamay goho,*

*Boshimiz silagan qo'lni tishladik.*

Yuz yillab teskari aylandi dunyo,  
 O'z emas, o'zgaralar uchun ishladik.  
 Biz – o'jiz bandalar, anglamay turib,  
 Birovning zaborin sanadik afzal.  
 Shu yurt daholarin bilib va ko'rib,  
 Begona zotlarga yasadik haykal.  
 Bosqin tepamizda turar edi zil,  
 Uni tag-tubidan buzmoq shart edi.  
 Asriy vayronaning o'rnida dadil,  
 Yangicha mamlakat tuzmoq shart edi.  
 Foni bu dunyoning baland-pastiga,  
 Teran nazar tashlab o'tdi bu Inson.  
 Millat qadri deya yashab aslida,  
 Xalqining dardiga bo'loldi darmon.  
 Bugun judolik bor gar qalbimizda,  
 Lekin g'urur yashar havas qilgulik.  
**Abadiyat o'sdi ko'z oldimizda,**  
**Shundoq yonimizdan o'tdi Mangulik.**  
 (Mangulik)



### 3-rasm. Metaforik jarayonda idrok rekonstruksiyasi

Ko'rinadiki, metafora voqelikning evrilgan talqini, falsafiy mushohadalarning immanent birligi sifatida ruhiyatning ko'rinmas olamini tabiat bilan bog'laydi. Shu yo'l bilan bizni "begona" ko'lamlarga, ularni esa bizga yaqinlashtiradi.

Keyingi misolga diqqat qilamiz:

*Uzoqlardan zalvarli tog'lar*

*Xayolimni keldilar bosib.*

*Kechsa qancha intizor chog'lar,*

*Vasling menga bo'lmadi nasib.*

*Sensiz men ham, bahor ham g'arib,*

*Sen bahorni sog'inmadingmi?*

*(Sen bahorni sog'inmadingmi?)*

Mantiq qonuniyatlariga ko'ra, bahor – yangilanish, yasharish fasli, olamni yangidan-yangi tushunchalarga burkaydigan davr. Bahor kelib, daraxtlarning bargi sarg'aydi jumlasidagi mazmuniy noqislik naqadar mantiqsiz bo'lsa, bu singari nomuvofiqlik belgilari bahor va g'ariblik tushunchalarining birgalikdagi qurilmasiga ham birdek tegishli. Oksyumoron tarzidagi ushbu fikriy asimmetriya lirik qahramonning kuchli tuyg'ularidan darak berib, favqulodda ta'sirli ifoda vositasi bo'lib kelgan. Holbuki, bahorga xos quyidagi ko'chim iqlim o'zgarishi to'g'risidagi nisbatan aniq konsepsiyani ifoda etgan:

*Bolalik yillarni eslayman oz-oz –*

*Bosiq uyqu ichra yotganda olam,*

*Tonglar qulog'imga kelardi ovoz:*

*"G'aflatda yotmagil, erkatoiy bolam".*

*U jaji bahorning sho'x sasi edi,*

*U munis onamning nafasi edi.*

**Xulosa.** Shunday qilib, aytilganlar asosida quyidagilarni qayd etish o'rinli.

Metafora – Abdulla Oripov she'riyatida: murakkab obrazlar uyg'unligi, tegishli syujet va realiyalarni o'z holicha bera olish, poetik matnning ichki qurilmasini shakllantira oluvchi, ekspressiv nominasiyalar hosil qiluvchi, subyektiv modallik ifodachisi, mavhumni aniqlik va aniqlikni mavhumlik negizida ochib beruvchi kognitiv hodisa, olamni idrok etish fenomenidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арютонова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 380.
2. Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4
3. Петровский М. Метафора // Словарь литературных терминов. Т. 1. – С. 434-437.
4. Махмараимова Шохиста Тухташевна “Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи” филология фанлари доктори (dsc) диссертацияси автореферати, Самарқанд – 2020,15-б.
5. Арутюнова Н.Д. Метонимия // Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. В.Н. Ярцевой. – М., 1990. – С.300.
6. Майданова Т. В. Синестетические метафоры в художественной речи XX века. АКД. – М., 1992. – С. 18.
7. Хованская З.И. Принципы анализа художественной речи и литературного произведения. – Саратов: Изд-во Саратовского ун-та, 1975. – С.283.
8. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс//Теория метафоры. – М., 1990. – С. 78.

## TALABALARNI O‘QITISHDA MATEMATIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODI

**Ruzimurodov Ixtiyor Nishonovich**

TATU Qarshi filiali Telekommunikatsiya texnologiyalari  
fakulteti dekani

[Ixtiyor31031976@gmail.com](mailto:Ixtiyor31031976@gmail.com)

**Sherboboyeva Gulrux Baxtiyorovna**

TATU Qarshi filiali dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarga matematikadan dasturiy mahsulotlar yaratish usullari, dasturlash tilidan foydalanib, dasturiy mahsulotini ishlab chiqishni o‘rgatish haqida ilmiy fikrlar o‘rtaga tashlangan. Axborotni qidirish, tanqidiy tahlil qilish va sintez qilish, vazifalarni hal qilishda tizimli yondashuvni qo‘llay olish o‘rganilgan. Axborot tizimi komponentlari, shu jumladan, ma‘lumotlar bazasi modellari va inson-kompyuter interfeysi modellarini ishlab chiqish qobiliyati. Bundan tashqari, bo‘lajak dasturchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda fanlararo integratsiya muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlillar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Talabalar kompetensiyalarni rivojlantirishda motivatsiyani oshirishda tahliliy metodologiyaning bosh bug‘ini sanalmish kompetentlik usulidan foydalanish katta samara beradi. Shuningdek, malakali yondashuv nuqtayi nazaridan talabaning kasbiy faoliyatda olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyati va tayyorligini rivojlantirishda ahamiyati haqida ilmiy xulosalar beriladi. Loyihalash metodidan foydalanildi.

**Kalit so‘zlar.** Dasturiy mahsulotlar, pyhton dasturlash tili, dasturiy vosita, dastur kodi, grafigi, kompilyatsiya, axborotni qidirish.

### METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL COMPETENCE IN TEACHING STUDENTS

**Abstract.** This article focuses on teaching students how to create software products from mathematics, how to develop a software product using a programming language. In addition, the fact that interdisciplinary integration is important in preparing prospective programmers for professional activities, which demonstrated, based on analysis. In addition, from the point of view of a competent approach, scientific conclusions are given about the mathematical competency significance of the student in the development of the ability and readiness to apply the knowledge gained in professional activities.

**Keywords.** software products, python programming language, software tool, program code, graphics, compilation, information retrieval.

**Kirish.** Axborot texnologiyalari XXI asr boshiga kelib keskin rivojlanishi tufayli har bir insonning kundalik hayotiga mustahkam o‘rnashib qoldi. Ilmiy-pedagogik soha ham bundan mustasno emas. U texnologiyalarni rivojlantirish va turli sohalaridagi bilimlarning o‘shishiga yanada ko‘proq hissa qo‘shadi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, dunyoda axborot hajmi yildan yilga oshib borayotganligi sababli bunday hajmlarni saqlash va qayta ishlash masalalari esa hamon ochiqligicha qolmoqda[5]. Axborot bilan bir qatorda har qanday sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib borish uchun egallanishi zarur bo‘lgan tegishli bilimlar hajmi ham ortadi. Ta’lim texnologik sohani rivojlantirishning hozirgi darajasiga mos kelishi kerak va bilimlarning haddan ziyod ko‘pligi sababli o‘qituvchi ularni an’ana viy usulda talabalarga reproduktiv yetkazish uning ahamiyatini yo‘qotadi. Bunday vaziyatda bilim va ko‘nikmalarni qayta ishlab chiqishga asoslangan ta’lim tizimi iqtisodiyot, sanoat va ilm-fanni rivojlantirishning hozirgi darajasiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash vazifasini bajara olmaydi. Ta’limning bilimli va kompetentli yondashuvga o‘tish zamonaviy dunyoda bilim, muloqot, tashkiliy, axloqiy va boshqa muammolarni mustaqil ravishda hal qilish bo‘yicha ta’lim tajribasini rivojlantirish usuli sifatida qaraladi[1]. Shu bilan birga, kompetentli paradigma “bilim”ni inkor etmaydi, balki uning asosida shakllantiriladi va malakali yondashuv nuqtayi nazaridan talabaning kasbiy faoliyatda olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyati va tayyorligini rivojlantirishni ko‘rib chiqadi [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘z-o‘zini tarbiyalash usullari orqali o‘quvchilarning mustaqilligi va mas’uliyatini oshirish, axborot bilan ishlashning yangi usullarini joriy etish, mavzuviy kompetensiyalarni rivojlantirishda motivatsiyani oshirish, shuningdek, talabalarning mustaqil ishlashiga ajratilgan vaqtni oshirishga e’tibor qaratilishi lozim.



Talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirishda motivatsiyani oshirishda analitik metodologiyaning bosh bo'g'ini sanalmish kompetentlik usulidan foydalanish katta samara beradi. "Kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarini ajratish uchun asos sifatida A.A.Verbitskiy shaxsning faoliyati sifatini belgilovchi shartlarning obyektivligi va subyektivligidan foydalanadi. Kompetensiya-shaxsning kompetentligini amalga oshirish imkoniyatlari va chegaralarini belgilovchi obyektiv shart-sharoitlar majmui. Kompetentlik-bu o'z kasbiy faoliyatida kasbiy masalalarni samarali hal etish va hayotning istalgan sohasida zarur harakatlarni bajarish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmuyidir [3].

Zamonaviy ta'lim amaliyotida matematik tayyorgarlik fundamental va amaliy fanlarni jadal rivojlantirish xususiyatiga ega, shuningdek, matematika murakkab o'quv fani sifatida jamiyatning axborotlashtirish darajasini oshirishi barobarida matematik ta'lim mazmuni doimiy o'sishini ta'minlaydi[1]. Shunday qilib, matematikaning ilm iy mavzu sifatidagi xususiyatlari yuqori darajada formallashtirish bilan ajralib turadi. Shu bilan birga matematik fani muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talaba matematik tafakkur kabi tushunchaning asosi bo'lgan idrokning psixofiziologik xususiyatlari sifatida aqliy va mantiqiy tafakkurning rivojlangan darajasiga ega bo'lishi kerak.

Matematik kompetensiyalar tarkibini "Dasturiy injiniring" yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning matematik kompetensiyasi misolida ko'rib chiqamiz. Biz "Dasturiy injiniring" bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2019-yil Oliy ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan DTS va malaka talablarini tahlil qilishimiz natijasida bo'lajak dasturchilarning matematik kompetentligining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan quyidagi kompetensiyalar mavjudligi aniqlandi: "fikrlash madaniyatiga ega, axborotni umumlashtirish, tahlil qilish, idrok etish, maqsadlar qo'yish va unga erishish yo'llarini tanlay bilish; o'z-o'zini tashkil rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyati;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida kasbiy faoliyatning namunaviy vazifalarini hal qila olish qobiliyati;

axborot tizimi komponentlari, shu jumladan, ma'lumotlar bazasi modellari va inson-kompyuter interfeysi modellarini ishlab chiqish qobiliyati; qabul qilingan loyihaviy qarorlarni asoslab bera olish, ularning to'g'riligi va samaradorligini tekshirish uchun tajribalarni o'rnatish va bajara olish qobiliyati.

Shuningdek, hujjatning mazmuniga turli funksiyalarni, jumladan, "Dasturiy injiniring" bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablarida dasturiy muhit tushunchasiga alohida o'rin berilgan:

ta'lim jarayonining borishi, oraliq attestatsiya natijalari va bakalavr dasturini o'zlashtirish natijalarini qayd etish; barcha turdagi mashg'ulotlarni o'tkazish, o'quv natijalarini baholash tartiblari, amalga oshirishda dasturiy ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bilan ta'minlanadi; ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, shu jumladan, internet orqali sinxron va asinxron o'zaro munosabatlar"[5].

**Natijalar va muhokama.** Davlat ta'lim standartlarida umummadaniy yetukliklar umumbashariy yetuklikka aylantirilishi belgilangan bo'lib, kasbiy yetuklik esa bitiruvchining kasbiy faoliyatiga mos keluvchi kasbiy standartlar asosida belgilanadi. Bu yerda "Dasturiy injiniring" yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning matematik kompetensiyasiga kiruvchi kompetensiyalar to'plami quyidagicha:

axborotni qidirish, tanqidiy tahlil qilish va sintez qilish, vazifalarni hal qilishda tizimli yondashuvni qo'llay olish; o'z vaqtini boshqara olish, hayot davomida ta'lim tamoyillariga asoslangan o'z-o'zini rivojlantirish trayektoriyasini qurish va amalga oshirish; matematik va tabiiy-ilmiy va umumkasbiy bilimlarini, matematik analiz va modellashtirish usullarini, nazariy va eksperimental tadqiqotlarni kasbiy faoliyatda qo'llay olish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida kasbiy faoliyatning

namunaviy vazifalarini hal eta olish.

Kasbiy kompetensiyalarni belgilash ta'lim tashkiloti tomonidan bitiruvchilarning kasbiy faoliyat sohalari va yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilarning kasbiy faoliyatiga mos keladigan kasbiy standartlar asosida amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim standartining talablari ta'lim dasturlarini ishlab chiquvchilarga kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli matematik kompetentlikning tarkibiy qismlarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Olib borilgan tahlillar "Dasturiy injiniring" ta'lim yo'nalishi talabalarining matematik kompetentligining tarkibiy qismlarini tanlash imkonini beradi, ular orasida matematik tahlil va modellashtirish usullarini qo'llash, shuningdek, hayot uchun ta'lim tamoyillariga asoslangan o'z-o'zini rivojlantirish trayektoriyasini qurish va amalga oshirish qobiliyati alohida o'rin tutdi.

Biz matematik modellashtirish bosqichlariga asoslangan matematik tahlil va modellashtirish usullarini qo'llash uchun zarur kompetensiyalar mazmunini aniqlash mumkin deb hisoblaymiz, chunki ular Davlat davlat ta'lim standarti va malaka talablarida belgilangan kasbiy faoliyatning tarkibiy qismlariga tegishli[1]:

1. Masalaning matematik rasmiylashtirish bosqichi.
2. Matematik modellashtirish usullarini amalga oshirish bosqichi.
3. Axborotni tahlil qilish bosqichi va modelning adekvatligini tekshirish.

**Xulosa va takliflar.** Matematik masalani rasmiylashtirish bosqichi modellashtirishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda o'rganilayotgan tizim ta'riflanadi: uning maqsadi, faoliyat xarakteri, foydalaniladigan resurslar va tartibga solish parametrlari aniqlanadi. Muammoni belgilashda modellashtirish obyekti (tizim, jarayon) o'rganiladi, mavjud axborotlar tahlil qilinadi va cheklashlar va taxminlar aniqlanadi. Matematik modelni qurish bu model faoliyat ko'rsatadigan cheklashlar tizimini hamda obyekt ustida maqbul operatsiyalarni belgilovchi qoidalar majmuini tuzishdan boshlanadi. Muammoni rasmiylashtirishda modelning o'zgaruvchilari va parametrlarini bog'lovchi funksional bog'liqlikni aniqlash kerak. Keyin formallashtirish elementlari kiritiladi: o'zgaruvchilar, parametrlar va rasmiy belgilar, indekslar bilan tanishish, matematik formulalarni kiritish. Bu bosqich "Dasturiy injiniring" ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining matematik kompetentligining majburiy tarkibiy qismi sifatida formallashtirish kompetensiyasini joriy etishni belgilaydi.

Olingan matematik modelning turiga qarab masalani yechish usuli tanlanadi. Biroq kasbiy faoliyatda matematik modellashtirishni qo'llash uchun tegishli kompetentlikka ega bo'lish kerak, shuning uchun matematik modellashtirishning kompetensiyalari haqida matematik kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida gapirishimiz mumkin. Pedagogik nazariyada matematik modellashtirish kompetensiyalari ishlab chiqilgan[3,4]. Bu kompetensiya matematik kompetentlikning kasbiy komponentida asosiy rol o'ynaydi, chunki matematik modellashtirish "Dasturiy injiniring" sohasidagi bakalavrlarning kasbiy faoliyati uchun ishchi vositaga aylanadi. Dasturlash muhiti bilan ishlash asosida talabalarining matematik kompetentligini shakllantirishda matematik model yaratmasdan va uni dasturlash tillaridan foydalanmasdan bajarib bo'lmaydi.

Ehtimollik va statistika fanini o'qitishda Mazkur misollarni yechishda loyihalash metodidan foydalanamiz. Loyihalash metodidan foydalanish talabalarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish keying o'rinda matematik hisoblashda dasturlash tillarini qo'llash natijasida matematik kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

Loyihalash metodi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Algoritmash.
2. Blok sxemani ishlab chiqish.
3. Modellashtirish.
4. Dasturlash.
5. Vizuallashtirish.
6. Dasturiy mahsulotni testlash.

$n$  ta erkli tajriba o'tkazilyotgan bo'lsin. Ularning har birida  $A$  hodisa bir xil  $p$

ehtimol bilan yuz bersin.  $n$  ta tajribada  $A$  hodisaning yuz berishlar sonidan iborat  $X$  tasodifiy miqdorni qaraymiz. Loyihaning 1va 2-bosqichida Bernulli formulasi yordamida hisoblaymiz.

$$X: 0 \quad 1 \quad 2 \quad \dots \quad n-1$$

$$p: P_n(0) \quad P_n(1) \quad P_n(2) \quad \dots \quad P_n(n-1) \quad P_n(n)$$

Loyihaning 3-bosqichida olingan ma'lumotlarni jadvalga joylashtiramiz.

$$P_n(k) = C_n^k p^k q^{n-k}, \quad (k=0,1,2,\dots,n) \quad (1)$$

Loyihaning 4-bosqichda dasturlash amalga oshiriladi.

Loyihaning 5 va 6-bosqichlarida vizuallashtirish amalga oshiriladi.

7-bosqichda dastur keng qamrovli sinovdan o'tkaziladi.

jadvalda  $P_n(k)$  ( $k = \overline{0, n}$ ) ehtimollik binomial formuladan foydalanib hisoblanganligi sababli yuqoridagi jadval bilan xarakterlanadigan taqsimot qonuni *binomial taqsimot qonuni* deb ataladi. (1) formula esa binomial taqsimotning analitik ifodasi deyiladi.

**Misol.** Do'konga kirgan har bir xaridorning xarid qilish ehtimoli 0,25 ga teng bo'lsa, do'kondagi 4 ta xaridorning xarid qilishini  $X$  tasodifiy miqdor deb qarab uning taqsimot qonunini tuzing.

**Yechish.**  $X$  tasodifiy miqdorning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari: 0, 1, 2, 3, 4.  $P_n(k)$  ehtimollarni Bernulli formulasi yordamida hisoblaymiz[1]:

$$P_4(0) = C_4^0 \cdot \left(\frac{1}{4}\right)^0 \cdot \left(\frac{3}{4}\right)^4 = \frac{81}{256}, P_4(1) = C_4^1 \cdot \left(\frac{1}{4}\right)^1 \cdot \left(\frac{3}{4}\right)^3 = \frac{108}{256},$$

$$P_4(2) = C_4^2 \cdot \left(\frac{1}{4}\right)^2 \cdot \left(\frac{3}{4}\right)^2 = \frac{54}{256}, P_4(3) = C_4^3 \cdot \left(\frac{1}{4}\right)^3 \cdot \left(\frac{3}{4}\right)^1 = \frac{12}{256},$$

$$P_4(4) = C_4^4 \cdot \left(\frac{1}{4}\right)^4 \cdot \left(\frac{3}{4}\right)^0 = \frac{1}{256}.$$

Olingan ma'lumotlarni jadvalga joylashtirib


$X: 0 \quad 1 \quad 2 \quad 3 \quad 4$

$$p: \frac{81}{256} \quad \frac{108}{256} \quad \frac{54}{256} \quad \frac{12}{256} \quad \frac{1}{256}$$

taqsimot qonunini hosil qilamiz.

Dasturlash tillaridan foydalanamiz:

```
import matplotlib.pyplot as plt
from math import comb
n = 4
p = 0.25
def binom_ehtimollik(n, k, p):
    return comb(n, k) * (p ** k) * ((1 - p) ** (n - k))
k_values = range(n + 1)
ehtimolliklar = [binom_ehtimollik(n, k, p) for k in k_values]
plt.figure(figsize=(8, 6))
plt.bar(k_values, ehtimolliklar, rangi='blue', alpha=0.7)
plt.title('Binomiy taqsimot (n=4, p=0.25)')
plt.xlabel('Xarid qilgan mijozlar soni (X)')
plt.ylabel('Ehtimollik P(X)')
plt.xticks(k_values)
plt.ylim(0, max(ehtimolliklar) + 0.05)
plt.show()
```



Dasturlash tillari yordamida matematik modellashtirishning kompetensiyalarini aniqlash matematik bilim va usullarni chiziqli va obyektga yoʻnalgan dasturlash tillari yordamida kasbiy masalalarni yechish jarayonida matematik modellarni qurish, tahlil qilish va talqin qilishda yangilash va qoʻllash qobiliyati deb belgilaymiz. Shuning uchun dasturlash tillarida matematik modellashtirishni qoʻllay olish matematik kompetentlikka uzviy bogʻliqdir.

Shu bilan birga uzluksiz taʼlimda talabalarning ularni mustaqil bilish, oʻz-oʻzini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirish orqali oʻquv faoliyati samaradorligi oshiriladi. Bu esa davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan boʻlgan aqlan yetuk, oʻz sohasida raqobatbardosh, Amir Temur singari buyuk ajdodlarimizga munosib kadrlarni tarbiyalashda oʻz hissasini qoʻshadi. Uzluksiz taʼlim shaxsning umumiy va kasbiy salohiyatini oshirish uchun maʼlum darajada taʼlim olganidan keyin ham hayot davomida uzluksiz taʼlim jarayonidir. Uzluksiz taʼlimni amalga oshirish uchun metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega [6].

Demak, matematika oʻqitish jarayonida matematik va kasbiy muammolarni hal qilish, bilim va oʻz-oʻzini bilish sohasini kengaytirish uchun yetarli vosita va usullarni tanlash va boshqa koʻnikmalar kompyuter fanlari va muhandislik bakalavr va kasbdagi oʻz-oʻzini tasdiqlash dunyosining professional tasvirining ajralmas qismidir. Shu munosabat bilan matematika oʻqitishda oʻquvchilarning metakognitiv qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir [1].

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдушукуров, А.А. Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика. –Тошкент: Ўқитувчи, 2015.
2. Банникова Т.М. Профессиональная математическая подготовка бакалавра: компетентный подход: монография / Т.М. Банникова, Н.А. Баранова, Н.И. Леонов. – Ижевск: Изд-во: Удмуртский университет, 2012. – 152 с.
3. Коростелев А.А. Компетентный подход: проблемы терминологии / А.А. Коростелев, О.Н. Ярыгин // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Педагогика, психология. - 2011. – №. 2. – С. 212.
4. Lee J.J. Gamification in Education: What, How, Why Bother? / J.J. Lee J. Hammer // Academic Exchange Quarterly. – 2011. – Vol.15. – №2.
5. Есин Р.В. Геймификация в электронных обучающих курсах на базе LMS Moodle / Р.В. Есин Ю.В. Вайнштейн // Материалы Международной научно-практической конференции «Информатизация образования: теория и практика». – Омск, 2017. – С. 111–114.
6. Муслимов Н.А., Сайфуров Д, Усмонбоева М, Тўраев А. Web технологиялар асосида электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш ва уларни амалиётга жорий этиш. Ўқув методик қўлланма. – Тошкент: 2015. – 128 б
7. Ruzimurodov I.N. “Elektron taʼlim muhitida dasturlarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” PhD.Dissertatsiya. Toshkent-2022 yil.
8. Зеер Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентный подход: учебное пособие / Э.Ф. Зеер, А.М. Павлова Э.Э. Сыманюк. – М.: МПСИ, 2005. – 216 с.
9. Абдукодиров А.А., Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. Тошкент: Фан, 2009. – 145 б.
10. Тураев С.Ж. Дастурий воситалар асосида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. PhD диссертацияси. –Тошкент-2019 й. -198 б.

## NOFILOLOGIK YO'NALISH TALABALARINING YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR

**Albina Yelmuratova**

“TIQXMMI” Milliy Taqdiqot universiteti tayanch doktoranti

[a.elmuratova@tiame.uz](mailto:a.elmuratova@tiame.uz)

ORCID: 0009-0002-5555-2227

UDK: 378.147:004.031.42:811.111

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini o'rganayotgan talabalarning yozish ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari va interaktiv texnologiyalari o'rganildi. Jahon miqyosida bajarilgan ilmiy ishlar tavsiflovchi metod orqali tahlil qilindi va natijalarga ko'ra maxsus maqsadlar uchun ingliz tilida talabalarning yozma ko'nikmasini rivojlantirishda samarali deb topilgan besh metod va interaktiv texnologiyalar, shu jumladan, loyiha asosidagi metodlar, ta'lim dasturlari va ilovalar, fikr mulohaza-refleksiya, bloglar va forumlardan foydalanish va gamifikatsiya kabilar ta'lim muhitini dinamik va samarali qilish, har bir talabaga moslashgan yondashuvni yaratishga yordam beradi, ingliz tilini bilish darajasini oshiradi, nofilologik yo'nalish talabalar orasida tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi deb xulosa qilindi.

**Kalit so'zlar.** Yozish ko'nikmasi, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), ingliz tili chet tili sifatida (EFL), interaktiv texnologiyalar, loyiha asosidagi metod, gamifikatsiya, fikr-mulohaza

### MODERN METHODS AND INTERACTIVE TECHNOLOGIES TO DEVELOP WRITING SKILLS OF ESP STUDENTS

**Abstract.** This article explores modern methods and interactive technologies for developing writing skills of students learning English for special purposes. Research work done worldwide was analyzed through a descriptive method, and according to the results, five methods and interactive technologies were found to be effective in developing students' writing skills in English for special purposes, including project-based methods, educational programs and applications, ideas making the educational environment dynamic and effective, such as reflection, use of blogs and forums, and gamification. These methods and interactive technologies are helpful to create student centered lessons, increases the level of English language proficiency especially in non-philological group of learners.

**Keywords.** Writing Skills, English for Specific Purposes (ESP), English as a Foreign Language (EFL), Interactive Technologies, Project Based Method, Gamification, Feedback

**Kirish.** Nofilologik yo'nalish talabalarining yozma savodxonligini rivojlantirish juda muhim hisoblanadi [1]. Til o'rganishdagi to'rt ko'nikmaning ichidagi eng murakkab va talabalarning eng ko'p qiyinchiliklarga uchraydigan ko'nikmalaridan biri ham yozish ko'nikmasidir. Bu kognitiv mahorat bo'lib, u yangi narsalarni o'rganish, tushunish, qo'llash va sintez qilishni o'z ichiga oladi. Yozish nafaqat yozuv qoidalariga rioya qilishni, balki ijodiy ilhomni, muammolarni hal qilishni, mulohaza yuritishni va qayta ko'rib chiqishni ham talab qiladi va buning natijasida esa tugallangan qo'lyozma yoki yozma ish hosil bo'ladi. Zamonaviy sharoitlarda ta'lim tizimi talabalarga muvaffaqiyatli yozma muloqot va akademik yutuqqa erishish uchun samarali metodlarni taklif qilishni talab qiladi[2]. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganayotgan talabalar uchun yozma nutq ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy metodlar [3] ko'rib chiqiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy texnologiyalar maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini (ESP) o'rganayotgan talabalarning yozish ko'nikmasini rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi. Kompyuter vositachiligidagi ESP darslari talabalarga o'z joyida kompyuterdan foydalanishdan tashqari chet tilini o'rganish uchun kerak bo'ladigan materiallarga qo'l yetimlilikni ta'minlaydi, mustaqil ta'limni rag'batlantiradi va murakkab mavzularni ko'proq

mashq qilishga imkon beradi [4]. Ingliz tilini o'qitishda ilg'or texnologiyalar integratsiyasi ta'limning turli bosqichlarini qo'llab-quvvatlaydi va yosh avlod ehtiyojlarini qondiradi [5]. Tibbiy sohalar uchun ingliz tili (English for Medical Purposes) va biznes ingliz tili (Business English) uchun chet tilini o'rganish uchun texnologik vositalar, texnologiyalar [6] muhim hisoblanadi [7]. Biznes ingliz talabalari ko'pincha malakali ma'ruzachilar, ammo o'rtacha darajada yozuvchilar bo'ladi va aynan ular uchun texnologiyaga asoslangan vazifalar kompyuter va mobil qurilmalar orqali o'rgatilishi, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin [1]. Umuman olganda, ESP sinflarida zamonaviy metodlardan foydalanish, interaktiv va raqamli texnologiyalarni kiritish an'anaviy o'qitish usullari muammolarini hal qilish va raqamli mahalliy talabalarning ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi va samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqola quantitative yondashuv asosida tahlil qilindi. Jahon miqyosida bajarilgan ilmiy ishlar tavsiflovchi metod orqali tahlil qilindi va maxsus maqsadlar uchun ingliz tilida talabalarning yozma ko'nikmasini rivojlantirishda samarali deb topilgan besh metod va interaktiv texnologiyalar o'rganilib chiqildi va keng tarzda yoritildi.

### Natijalar

|  | Zamonaviy metodlar va Interaktiv texnologiyalar | Afzalliklari   | Muallif/ DOI | Ilmiy ish nomi   |
|--|---|--|--------------|--|
|  | Bloglar va forumlardan foydalanish              | - o'z-o'zini aks ettirish va tengdoshlarning fikr-mulohazalarini ta'minlaydi;<br>- ingliz tilini o'rganuvchilarda sharhlovchi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;<br>EFL talabalari o'rtasida ham reflektiv amaliyotni, ham hamkorlikdagi o'zaro munosabatlarni targ'ib qiladi; rag'batlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi                              | [8]          | "Enhancing writing skills through blogs in an EFL class"                         |
|  | Ta'lim dasturlari va ilovalar                   | - ingliz tilini bilish darajasi past o'rganuvchilarga yozish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi;<br>- lug'at, grammatika, imlo va tinish belgilaridagi xatolarni kamaytirish uchun samarali;<br>- ingliz tilini bilish darajasi yuqori bo'lgan talabalarning yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi   | [9]          | "Grammarly in Teaching Writing to EFL Learners at Low Levels: How Useful Is It?" |
|  | Loyiha asosidagi metod                          | - EFL talabalarining yozish ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.<br>- talabalarning ingliz tilida yozish malakasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.<br>- hamkorlikda ishlash orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, muloqoti va ijodkorligi rivojlanadi.<br>o'рта maktab o'quvchilarining chet tili sifatida ingliz tilida yozish malakasini oshiradi. | [10]         | "Project-based learning and writing skill in EFL: are they related?"             |

|  |                             |  |      |  |
|--|-----------------------------|--|------|--|
|  | Gamifikatsiya               | <p>- o'quv jarayonini qiziqarli, rag'batlantiruvchi va qiziqarli qilish orqali EFL talabalarining yozish ko'nikmalarini oshiradi;</p> <p>yo'zishni o'rganish jarayonini talabalar uchun yanada qiziqarli va rag'batlantiruvchi ballar, nishonlar, peshqadamlar jadvali va hikoyaga asoslangan muammolar kabi o'yin elementlaridan foydalanadi;</p> <p>- yozuv ta'limi sharoitida o'quvchilarning motivatsiyasi, o'z-o'zini samaradorligi va hamkorlikda o'rganishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;</p> <p>- yozma ta'limni boyitish va o'quvchilarning yozish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam berishning istiqbolli usulini taqdim etadi;</p> | [11] | "Gamification to Improve Writing Skills in Students of 9th Basic Education"        |
|  | Fikr-mulohaza va refleksiya | <p>- tengdoshlarning fikr-mulohazalari bilan solishtirganda, ingliz tilini o'rganuvchilarning yozish mazmuni, tashkil etilishi va tilini yaxshilaydi;</p> <p>insholarining mazmuni, tashkil etilishi va tilini yaxshilash uchun foydali;</p> <p>o'quvchilarga takrorlashning samarali usullarini o'rganish, o'zaro fikr almashish sifatini oshirish, o'quvchilarning ishonchi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.</p>   | [12] | EFL Students' Perceptions of Teacher Feedback and Intra-Feedback in Writing Essays |

**4.1 Bloglar va forumlardan foydalanish.** Shaxsiy ingliz tilidagi blog [13] yuritish talabalar uchun yozish amaliyotini muntazam ravishda bajarishga yordam beradi. Forumlarda mavzularni muhokama qilish argumentatsiya va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Internetdagi aksariyat bloglar shaxsiy yoki jurnalistik bo'lishiga qaramasdan, ta'lim sohasida bloglardan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. Til o'rganishda bloglardan foydalanish o'quvchilarga yangi g'oyalarni o'rganish va o'zlashtirishga yordam beradi, o'zi tanigan va tanimagan odamlar o'rtasida aloqa o'rnatish va hissiyotlar bilan bo'lishishga yordam beradi. Bundan tashqari, bloglar va ijtimoiy tarmoq saytlari foydalanuvchilarga yozish ko'nikmasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Blog yozish jarayonida o'rganuvchilarning ijodkorlik tabiati oshishi va chet tilida yozish motivatsiya bo'la oladi [8].

**4.2 Ta'lim dasturlari va ilovalar.** Grammarly va ProWritingAid kabi dasturlar talabalar uchun xatolarni tuzatish va yozish uslubini yaxshilashda yordam beradi. Grammarly 2009-yilda onlayn grammatik tekshiruvchi dastur sifatida tashkil etilgan [20]. Bu dastur grammatik bilimlar va yozish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. O'quvchilar uchun eng muhim afzalliklaridan bu xatolarni aniqlab berish, darhol tuzatishlarni taklif qilish va to'g'ridan-to'g'ri fikr bildirishlar. Bu, shuningdek, yozuvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, o'rganuvchilarga xatolardan uyalmaslik yoki xato qilishdan qo'rqmaslik ishonchini beradi [9].

**4.3 Loyiha asosidagi metod.** Loyiha asosidagi o'rganish metodlari [14] talabalar tomonidan uzoq muddatli loyihalar bajarishni o'z ichiga oladi, bu esa ular uchun yozma

ko'nikmalarini amalda qo'llash imkonini beradi. Masalan, tadqiqot ishlari yozish yoki multimedia taqdimotlarini yaratish mavzuni chuqur o'rganishga va yozma nutq ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Loyihaga asoslangan o'rganish nafaqat qiziqarli dars jarayonini yaratishi, balki talabalarga ingliz tili bo'yicha bilimlarini oshirish imkonini beradi [10].

**4.5 Gamifikatsiya.** Dars jarayonida o'yin elementlarini [15] qo'llash talabalarda motivatsiyani oshiradi va ta'limni yanada qiziqarli qiladi. Kahoot va Quizlet kabi platformalar o'yin shaklidagi vazifalar orqali yozma ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Gamifikatsiya, o'yin elementlari va tamoyillarini o'yindan tashqari kontekstlarga integratsiya qiladi. Bunda ta'lim va o'yin-kulgi dinamik uyg'unlashuv yaratadi va o'yinlar qiziqarli va samarali o'rganish tajribasi, raqobat va mukofotlar kabi o'ziga xos motivatsiyadan foydalanadi [11].

**4.6 Fikr-mulohaza va refleksiya.** Samarali fikr-mulohaza [16] qila olish va xatolarni tahlil qilish o'rganish jarayonining muhim tamoyillaridan biridir. Yozma ishlarni muntazam birgalikda tahlil qilish va muhokama qilish talabalar uchun kuchli va zaif tomonlarni tushunishga yordam beradi. An'anaviy o'qitish jarayonlarida, o'qituvchilar o'quvchilarning yozma ishlariga fikr-mulohazalarini bildirishar edi. So'nggi paytlarda tengdoshlarning fikr-mulohazalari muqobil fikr-mulohazalar shakli sifatida ko'rib chiqilmoqda, bu yozma darsda bir-birining matnini ko'rib chiqish va muhokama qilishning dinamik jarayonini o'z ichiga oladi [12].

**Muhokama.** Ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'rgatishda zamonaviy va an'anaviy metodlardan foydalanishi mumkin, zamonaviy metodlar samaradorligi yuqoridagi jadvalda dunyo bo'ylab amalga oshirilgan tajribalar va ilmiy ishlar misolida keltirib o'tildi. An'anaviy yozish metodlari orasida esa esse yozish [17], diktantlar va grammatik mashqlar [18] kabi yondashuvlar mavjud. Ushbu metodlar uzoq tarixga ega bo'lsa-da, ular bir qator kamchiliklarga ega bo'lib, shaxsiy ehtiyojlarga yetarlicha moslashmagan va takrorlanuvchi bo'lishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar yozish ko'nikmasini o'rganish yoki rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Onlayn platformalar [19] va ilovalar talabalar uchun tezkor fikr almashish, muhokamalarda ishtirok etish va tilning asli egalari bilan hamkorlik qilish imkonini beradi.

Maqolada maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini o'rganayotgan talabalar uchun yozuv ko'nikmasini rivojlantirishda samarali deb topilgan zamonaviy metodlar va interaktiv texnologiyalar ko'rib chiqildi. Dars jarayonida bloglar, Grammarly yoki Kahoot kabi ta'lim dasturlari va o'yinlardan foydalanish, loyiha asosidagi metodlarni amalga oshirish va o'zaro fikr-mulohaza qilish kabi usullar, yozma ko'nikmalarni rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi kunda maxsus maqsadlar uchun ingliz tili o'rganayotgan talabalar uchun yozma ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy metodlar va interaktiv texnologiyalardan foydalanish, loyiha asosidagi metodlar, fikr mulohaza-refleksiya va gamifikatsiya kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar ta'lim muhitini dinamik va samarali qilish, har bir talabaga moslashgan yondashuvni yaratishga yordam beradi. Innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish nafaqat ingliz tilini bilish darajasini oshiradi, balki talabalar orasida tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Dimitriu and L. C. Mihaes, "Business english in the age of technology - a reappraisal of the traditional framework," presented at the eLSE 2018, Bucharest, RO, Apr. 2018, pp. 447-452. doi: 10.12753/2066-026X-18-133.
2. Е. Ю. Суворова, "Методологические основы формирования профессионального интереса у будущих it-специалистов в условиях цифровой трансформации," 2023.
3. M. Nasser, "Is postgraduate English academic writing more clausal or phrasal? Syntactic complexification at the crossroads of genre, proficiency, and statistical modelling," *JOURNAL OF*



*ENGLISH FOR ACADEMIC PURPOSES*, vol. 49. ELSEVIER, RADARWEG 29, 1043 NX AMSTERDAM, NETHERLANDS, Jan. 2021. doi: 10.1016/j.jeap.2020.100940.

4. L. C. Mihaes, A. Dimitriu, and I. Bocianu, "TOWARDS A COMPUTER-MEDIATED ESP CLASS," presented at the eLSE 2016, Bucharest, RO, Apr. 2016, pp. 167–174. doi: 10.12753/2066-026X-16-201.

5. M. Alemi, "General Impacts of Integrating Advanced and Modern Technologies on Teaching English as a Foreign Language," *Int. J. Integrating Technol. Educ.*, vol. 5, no. 1, pp. 13–26, Mar. 2016, doi: 10.5121/ijite.2016.5102.

6. G. Vonitsanos, I. Moustaka, S. Doukakis, and P. Mylonas, "Transforming Education in the Digital Age: Exploring the Dimensions of Education 4.0," in *2024 IEEE Global Engineering Education Conference (EDUCON)*, Kos Island, Greece: IEEE, May 2024, pp. 01–10. doi: 10.1109/EDUCON60312.2024.10578747.

7. A. Dziecioł-Pędich and A. Dudzik, "Technology in Support of Developing Speaking Skills in ESP Courses," *Lub. Stud. Mod. Lang. Lit.*, vol. 45, no. 3, pp. 57–69, Oct. 2021, doi: 10.17951/lsml.2021.45.3.57-69.

8. R. Vurdien, "Enhancing writing skills through blogs in an EFL class," *EuroCALL Rev.*, vol. 20, no. 1, p. 156, Mar. 2012, doi: 10.4995/eurocall.2012.16214.

9. M. N. Abu Guba, A. Awad, and A. Abu Qub'a, "Grammarly in Teaching Writing to EFL Learners at Low Levels: How Useful Is It?," *World J. Engl. Lang.*, vol. 14, no. 3, p. 1, Feb. 2024, doi: 10.5430/wjel.v14n3p1.

10. L. T. Praba, L. P. Artini, and D. P. Ramendra, "Project-based learning and writing skill in EFL: are they related?," *SHS Web Conf.*, vol. 42, p. 00059, 2018, doi: 10.1051/shsconf/20184200059.

11. G. P. Morales Mantilla and R. M. Silva Herrera, "Gamification to Improve Writing Skills in Students of 9th Basic Education," *Lect. Educ. Fisica Deport.*, vol. 29, no. 312, pp. 84–95, May 2024, doi: 10.46642/efd.v29i312.7270.

12. M. Kazemi, S. Abadikhah, and M. Dehqan, "EFL Students' Perceptions of Teacher Feedback and Intra-Feedback in Writing Essays," *Khazar J. Humanit. Soc. Sci.*, vol. 21, no. 2, pp. 26–49, Nov. 2018, doi: 10.5782/2223-2621.2018.21.2.26.

13. S. Korucu-Kis, "Instag(R)ite: integrating visual social media into academic writing instruction," *COMPUTER ASSISTED LANGUAGE LEARNING*. ROUTLEDGE JOURNALS, TAYLOR & FRANCIS LTD, 2-4 PARK SQUARE, MILTON PARK, ABINGDON OX14 4RN, OXON, ENGLAND, Jun. 22, 2023. doi: 10.1080/09588221.2023.2228838.

14. A. Habibi *et al.*, "Online Project-Based Learning for ESP: Determinants of Learning Outcomes during Covid-19," *Stud. Engl. Lang. Educ.*, vol. 9, no. 3, pp. 985–1001, 2022, doi: 10.24815/siele.v9i3.24928.

15. A. A. A. Rahim, M. M. A. Ali, N. Y. Khamis, and M. S. Z. A. Majid, "A preliminary study on students' perception in using gamification to learn ESP," in *Perspect. and Pract. of Gamification*, Nova Science Publishers, Inc., 2022, pp. 265–278. [Online]. Available: <https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-85152748776&partnerID=40&md5=0ae660f9c3a6127e3f3823338bdb8255>

16. L. M. Gonzalez Rodriguez and P. Alvarez Mosquera, "The Impact of Feedback and Explicit Rhetorical Instruction on EFL Students' Writing Proficiency in Higher Education," *ATLANTIS-JOURNAL OF THE SPANISH ASSOCIATION OF ANGLO-AMERICAN STUDIES*, vol. 42, no. 1. ASOC ESPANOLA ESTUDIOS ANGLO-NORTEAMERICANOS-AEDEAN, C/O DEPT FILOLOFIA INGLESA I, UNIV COMPLUTENSE DE MADRID, FAC FILOLOGIA, MADRID, 28040, SPAIN, pp. 120–142, Jun. 2020. doi: 10.28914/Atlantis-2020-42.1.07.

17. C. A. DeCoursey and A. N. Hamad, "EMOTIONS ACROSS THE ESSAY: WHAT SECOND-LANGUAGE WRITERS FEEL ACROSS FOUR WEEKS' WRITING A RESEARCH ESSAY," *ENGLISH STUDIES AT NBU*, vol. 5, no. 1. NEW BULGARIAN UNIV SOFIA, BULGARI, DEPT ENGLISH STUDIES, 21, MONTEVIDEO ST, BLDG 2, OFF 312, SOFIA, 1618, BULGARIA, pp. 114–134, Jun. 2019. doi: 10.33919/esnbu.19.1.6.

18. T. Oyama and H.-S. Kang, "Discourse-based grammar instruction in ESL academic writing: a mixed methods study," *LANGUAGE AWARENESS*, vol. 33, no. 1. ROUTLEDGE JOURNALS, TAYLOR & FRANCIS LTD, 2-4 PARK SQUARE, MILTON PARK, ABINGDON OX14 4RN, OXON, ENGLAND, pp. 117–134, Jan. 02, 2024. doi: 10.1080/09658416.2022.2163495.

19. D. T. N. Hoang and T. Hoang, "Enhancing EFL students' academic writing skills in online learning via Google Docs-based collaboration: a mixed-methods study," *COMPUTER ASSISTED LANGUAGE LEARNING*. ROUTLEDGE JOURNALS, TAYLOR & FRANCIS LTD, 2-4 PARK SQUARE, MILTON PARK, ABINGDON OX14 4RN, OXON, ENGLAND, May 27, 2022. doi: 10.1080/09588221.2022.2083176.

20. <https://www.grammarly.com/about>

## TA'LIM JARAYONIDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**Rajabov Adham Umarqulovich**

Qarshi davlat universiteti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

[rajabovadxam30@gmail.com](mailto:rajabovadxam30@gmail.com)

0009-0007-6778-0186

УДК 371.4:378.180.6(045)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim mazmunining integratsiyasi mazmuni hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirishni tizimga solishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Integratsiya tushunchasi asosida integrativ yondashuvni ko'rib chiqishga e'tibor qaratamiz, uning mohiyati quyidagicha ifodalanishi mumkin: ko'rib chiqilayotgan har bir jarayon yoki hodisada barcha integrativ tashkil etuvchilarni har qanday mavjud shaklda (asosiy tamoyil sifatida, g'oya sifatida, rol sifatida, xarakteristika sifatida, xususiyat sifatida va hokazo) ajratishga va tahlil qilishga, shuningdek, ushbu tashkil etuvchilarning tegishli jarayonning samaradorligi katalizatori sifatida foydalanilishi imkoniyatlarini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Integrallashgan bilimlar mazmunining ko'pligi va ko'pqirraliligiga qaramay, u albatta:

- inson tabiatning bir qismi sifatida dunyoga yaxlit qarash, barcha sodir bo'layotgan tabiiy va ijtimoiy jarayonlar borliqni tashkil etishning barcha darajalarida o'zaro aloqadadorlik;

- har bir individning hayoti, faoliyati mustaqil qadriyat sifatida qaralganda, bilim va e'tiqod esa - shaxsning barkamol rivojlanishining ilmiy-diniy dunyoqarashini shakllantirishning sharti sifatida qaralganda dunyoga axloqiy-qadriyat nuqtai nazaridan;

- inson tabiatning bir qismi, aql kuchiga ega bo'lgan va tabiat hodisalari energiyasiga o'xshash energiya ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan paytda, mahalliy va global jarayonlarda faol ishtirok etadigan hamda eng muhimi, sodir bo'layotgan voqealar uchun, dunyo taqdiri uchun javobgarlikni tushuna boshlaganda olamdagi o'zgarish jarayonlariga oqilona munosabat;

- zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan jamiyatda tabiiy, gumanitar, aniq, texnik, estetik fanlarning, san'at va dinning ularning obyektlari va predmetlarini birlashtirish, umumiy metodologik asoslar hamda yondashuvlarni ishlab chiqish asosida integratsiyalashuv tendensiyalarini aks ettirishi lozim.

**Kalit so'zlar.** integratsiya, faoliyat, tizim, yondashuv, maktabgacha yosh, nazariy-metodik tayyorgarlik, integrativ yondashuv, kasbiy faoliyat, integratsion dars

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF THE INTEGRATED APPROACH IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Abstract.** This article discusses the importance of the integration of educational content and the importance of systematizing the formation of skills and competencies related to preparation for professional activity.

Based on the concept of integration, we focus on considering the integrative approach, its essence can be expressed as follows: in each process or event under consideration, all integrative constituents are included in any existing form (as a basic principle, as an idea, as a role, as a characteristic, as a feature, etc.), we will try to separate and analyze, as well as show the possibilities of using these organizers as a catalyst for the effectiveness of the relevant process.

Despite the abundance and diversity of the content of integrated knowledge, it must:

- a holistic view of the world as a part of human nature, interaction of all occurring natural and social processes at all levels of organization of existence;

- when the life and activity of each individual is considered as an independent value, and knowledge and faith - from the point of view of moral and value to the world, when it is considered as a condition for the formation of a scientific and religious worldview of the complete development of the individual;

- when a person is a part of nature, has the power of mind and the ability to produce energy similar to the energy of natural phenomena, actively participates in local and global processes and, most importantly, for the happenings, for the fate of the world a reasonable attitude to the processes of change in the world when one begins to understand responsibility;

- modern information technologies should reflect the integration trends of natural, humanitarian, exact, technical, aesthetic sciences, art and religion based on the integration of their objects and subjects, development of common methodological bases and approaches.

**Key words.** integration, activity, system, approach, preschool age, theoretical and methodological

preparation, integrative approach, professional activity, integrated lesson.

**Kirish.** Jahonda zamonaviy dinamik ijtimoiy-madaniy sharoitda kuchli sarmoyaviy resurs – inson salohiyatidan maksimal darajada foydalanish zarurligini anglab yetmoqda. Ushbu tendensiya shaxsning nazariy-metodik tayyorgarligi muammosini, ayniqsa, dolzarb qilib qo‘yadi. Chunki nazariy-metodik tayyorgarlikka ega mutaxassisgina ta‘limning yangi sifatiga erishish uchun shart-sharoitlarni taklif etishi, ilmiy faoliyatni rivojlantira oladi. Mazkur jarayonda eng muhim birinchi navbatda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini nazariy-metodik tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi. Shu jihatdan pedagog kadrlarning ilmiy-uslubiy tayyorgarligi kelajak avlodni o‘quv-tarbiyaviy istiqbollari belgilaydi, jamiyatning ilg‘or rivojlanishiga xizmat qiladi.

Dunyoda integrativ ta‘limning rivojlanishi ijtimoiy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining o‘zaro tizimli aloqadorligi, ilm-fanning istalgan yo‘nalishida kuzatilayotgan integrativ jarayonlarning barchasi jamiyatning zamonaviy ta‘limni oldiga qo‘ygan talablarini qondirishga qaratilgan o‘quv-tarbiya jarayonini samarasini ta‘minlashning ustuvor strategiyasini belgilaydi. Bu esa dunyo ta‘lim tizimi oldida talabalar tafakkurini rivojlantirish, ularni nazariy-metodik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning ilmiy-amaliy imkoniyatini belgilab beradi. Mazkur jarayonda ushbu talabni hal qilishning mumkin bo‘lgan usullaridan biri - bu talabalarning nazariy-metodik tayyorgarligiga integral yondashuvdir. U talabalarning ilmiy-uslubiy va shaxsiy sifatlarni yaxlit pedagogik jarayonda samarali aloqadorligini ta‘minlash talabi va shaxsning bo‘lajak mutaxassis sifatida amalga oshirishga tayyorligi uchun zamin tayyorlashning yetarli amalga oshirilmaganligi o‘rtasidagi yetakchi qarama-qarshilikni hal qilishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik faoliyatda o‘qituvchilarni nazariy-metodik tayyorlash sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri - bu fanlararo aloqadorlikda amalga oshiriladigan umumta‘lim va maxsus fanlarning tizimli birligi hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilayotgan bir qator tadqiqotlarda ta‘lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuv zaruriyati qayd etilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy bilimlarni samarali o‘zlashtirishi ularda pedagogik bilim va mahoratning shakllanishi bilan birgalikda ta‘lim jarayonida fanlarning alohida bo‘limlariga tegishli bo‘lgan aloqadorligini o‘rganishga ham yordam beradi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, integratsiya - bu elementlarning bir butunga oddiy birlashishi emas, balki uning rivojlanishi, ilgari bu elementlarga xos bo‘lmagan yangi xususiyatlarning paydo bo‘lishiga, shuningdek, ularning faollashishiga yordam beradigan tizim, o‘zaro aloqadorlikdir. O‘zaro bog‘liqlik esa o‘zaro ta‘sir demakdir. Zamonaviy tadqiqotlarda integratsiyani, bir tomondan, ilmiy bilimlarni rivojlantirish uchun ichki zaxira rolini belgilaydigan, ikkinchi tomondan, integratsiya — bu fanlarning o‘zaro rivojlanishining sifat jihatidan yangi turi, fanlarning tarkib topishining zamonaviy sharoitlari uchun xosdir deb hisoblaydilar.

**Natijalar va muhokama.** “Integratsiya ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq” ekanligi ta‘kidlanadi. Shuningdek, integratsiya — fanlarning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash omili sifatida ham e‘tirof etiladi. Bizningcha, mazkur fikrlarning bu diapazoni ko‘p funksiyali hodisa bo‘lib, qo‘llanilish sohasiga qarab mazmunan farqlanib boradi.

Pedagogika ensiklopediyasida Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun so‘zidan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish tarzida talqin qilingan[1].

Zamonaviy ta‘limni bugungi kunda keng qamrovli kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nazariy-metodik muammolarni hal qilishning samarali vositasi sifatida maydonga chiqadi. Shu boisdan,

talabalarining nazariy-metodik tayyorgarligini axborotlashgan ta'lim muhitida integratsion yondashuv asosida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, fanlararo bog'liqlik ijodiy faoliyatga qodir malakali mutaxassisni shakllantirish uchun asos bo'lib ham xizmat qilishi mumkin.

Pedagogik nazariy-metodik faoliyatga tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda ilmiy-metodik jihatdan asoslangan mukammal ta'lim mazmunini ishlab chiqish va rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi.

Zero zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi yuqori texnologiyalar asosida bo'lajak mutaxassislarning qobiliyatini ochib berish, hayotga va nazariy-metodik faoliyatga tayyorlash, raqobatbardosh kadrlarni dunyo maydoniga chiqarishdan iboratdir. Shuningdek, har bir talabaning o'z oldiga mustaqil ravishda jiddiy maqsadlarni qo'yishi va ularga erishishi, turli xil nazariy-metodik vaziyatlarga mohirona javob berishi uchun tayyorlashi kerak. Bunga esa pedagogik jarayonga integratsion yondashuv asosida erishish maqsadga muvofiq.

Integratsion tarzda tashkil etilgan darslar fanlararo bog'liqlikni o'zida jamlagan holda o'quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon an'anaviy ta'lim tizimi doirasida ham, zamonaviy o'quv-tarbiya jarayonida ham amalga oshirib borish mumkin. O'zaro aloqadorlik jarayonining o'ziga xosligi esa - integrativ tizimning har bir komponenti mohiyatiga ko'ra sifatli o'zgarishlarni nazarda tutadi.

Demak, integratsion dars odatdagi darslardan:

- aniqligi, ixchamligi, o'quv materialining zich ko'lami;
- darsning har bir bosqichida integratsiyalanayotgan o'quv fanlarining har taraflama mantiqiy shartlanganligi;
- berilayotgan o'quv materialidagi keng ko'lamlı axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotlar tahlili natijasida olimlarning pedagogikada integrativ ta'limning bir qator kategoriyalarini ajratib ko'rsatganligini keltirib o'tamiz: integrativ tizim, integratsiya jarayoni, integratsion yondashuv, integratsiya tamoyillari, integrativ omillar, integratsiya shakllari. Mazkur kategoriyalar mazmunan quyidagicha ifodalanishi qayd etiladi:

Integratsiya tamoyillari - o'quv jarayonining barcha komponentlarini o'zaro aloqadorligini, tizimlar orasidagi bog'liqlikni nazarda tutadi. Shuningdek, ta'lim maqsadini belgilashda, o'qitishning mazmuni, uning shakllari va usullarini aloqadorlikda tashkil etishda birlamchi hisoblanadi.

Integrativ yondashuv - bu pedagogik jarayonning istalgan komponentida integratsiya tamoyilini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Pedagogik jarayonning yaxlitligi va izchilligini ta'minlaydi.

Integral jarayonlar - bu tizimning alohida elementlarini yoki butun tizimni sifatli o'zgartirish jarayoni.

O'qitish jarayonda o'quv fanlarini integratsiyasidan foydalanishga yetarlicha e'tibor berish lozim. Shu sababli fanlarni integratsiyalashda fanlararo yondashuv optimal yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Pedagogik ta'lim jarayonini integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining yaxlit bir tizim sifatida amalga oshirilishi bilan bir qatorda, jarayonning samarali kechishini ham ta'minlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Bizningcha, manbalarni tahlil qilish har qanday turdagi tadqiqot maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish uchun zarur shartdir. Lekin, birinchi navbatda, bu "voqelik haqidagi bilim" va "bilim haqidagi voqelik" ka ega bo'lgan nazariy va uslubiy tadqiqotlarga tegishli. Shunday ekan, integratsiyalashgan yondashuv muammosiga doir ko'rib chiqilayotgan manbalarni quyidagi guruhlar ko'rinishida yoritish mumkin:

1. Integratsiyaning nazariy masalalarini yoritadigan va tahlil qiladigan guruhi.
2. Fanning ayrim tarmoqlari va mavzulari orasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi guruhi.

Uzoq yillardan buyon fanlararo aloqadorlikning ta'lim jarayonida o'rganilishi integratsion yondashuvlarning yanada rivoj topishiga hamda fanlarararo aloqadorliklarni amalga oshirish talab va imkoniyatlarini belgilashga yordam beradi. Demak, o'quv fanlararo aloqadorlik qonuniyatlariga binoan amaliy mashg'ulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq real vaziyatlardan foydalanish asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunda bir qator

didaktik tamoyillar: ilmiylikka asoslanganlik, nazariya va amaliyotning birligi, o'qitish va tarbiyalashning muntazamligi, o'qitishda tarixiylik, o'quv jarayonini jadallashtirish tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun quyidagi vositalar: o'quv anjomlari, texnik vositalar, modellar hamda mahalliy omillarni hisobga olish, foydalaniladigan vositalarni tanlash ularning xususiyatiga muayyan ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga keldik.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000
2. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари: Пед. фан. док. дисс... . -Ташкент: ТДПУ, 2006. - 263 бет.
3. Беляева А. П. Дидактические принципы профессиональной подготовки в профтехучилищах: методическое пособие / А. П. Беляева. - Москва: Высшая школа, 1991. - 208 с.
4. Выготский Л. С. Этюды по истории поведения: Обезьяна. Примитив. Ребенок / Л. С. Выготский, А. Р. Лурия. - Москва: Педагогика-Пресс, 1993. - 224 с.
5. Муслимов Н. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: пед.ф. доктори даражасини олиш учун диссертация.- Тошкент: 2007.- 337 бет.
6. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo'llanma. - T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005.
7. Толипова Ж.О. Биология Биология ўқитувчисини илмий-методик тайёргарлиги даражасини орттириш назарияси ва амалиёти Пед.фан.док..дисс.-Т.: -2006.-305 б.
8. Фозиев Э.Ф. Олий мактаб психологияси.- Т.: Ўқитувчи, 1997.-106 б.
9. Кан-Калик В. А. И др., Никандров Н. Д. Педагогическое творчество. - М.: Педагогика, 1990. - 144 с.
10. Jumayev M.E. O'qituvchining ijodiy shaxs sifatida rivojlanishida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik-matematik tayyorgarlik. Monografiya.T.: "Fan", 2009. - 240 bet.
11. Rajabov A.U. Determination of the quality of mastering an Integrative course and the level of methodological and mathematical training of a graduate. // European journal of Recarch and Reflection in Educational Sciences Volume 8 Number 8, 2020 ISSN 2056-5852 pp. 135-137.

### LINGUA-COACHING AS A NEW APPROACH TO TEACHING ESP STUDENTS IN UZBEKISTAN

**Juraeva G.B.**

PhD, senior teacher

Turin Polytechnic University in Tashkent Department of Management,  
Economics and Humanitarian Disciplines

[gjuraeva77@gmail.com](mailto:gjuraeva77@gmail.com)

ORCID 0009-0000-9194-571X

UDK 378.1:811.111.

**Abstract.** Lingua-coaching, a modern educational trend, integrates language learning with coaching methodologies to enhance both personal and professional development for ESP (English for Specific Purposes) students. Emerging from a blend of mentoring, business advising, psychological counseling, and psychotherapy, this approach fosters a supportive learning environment where learners are guided to achieve their goals through self-awareness and strategic thinking. Results demonstrated that students in the experimental group, employing lingua-coaching methods, showed significant improvement in their English proficiency compared to the control group.

**Key words.** lingua-coach, lingua-coaching approach, method

### LINGUA-COACHING NOFILOLOGIK YO'NALISH TALABALARINI O'QITISHDA YANGI YONDASHUV

**Annotatsiya.** Lingua-coaching, zamonaviy ta'lim tendentsiyasi, ESP (aniq maqsadlar uchun ingliz tili) talabarlari uchun shaxsiy va kasbiy rivojlanishni oshirish uchun til o'rganishni coaching metodologiyasi bilan birlashtiradi. Murabbiylik, biznes bo'yicha maslahat, psixologik maslahat va psixoterapiya aralashmasidan kelib chiqqan holda, ushbu yondashuv o'quvchilar o'z-o'zini anglash va strategik fikrlash orqali o'z maqsadlariga erishish uchun boshqariladigan qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratadi.

**Kalit so'zlar.** lingua-coaching, lingua-coaching yondashuvi, usul

**Introduction.** Lingua-coaching is a contemporary trend or method of the XXI century in the learning of a foreign language (Thanasoulas, 2002) that helps ESP students to attain established goals and improve their professional results by mobilizing internal potential, developing advanced strategies to obtain results and fulfill necessary abilities and skills.

The concept of lingua-coaching as a unique style of learning interaction did not emerge abruptly in English-speaking countries (Passmore, 2006). It evolved from the integration of innovative concepts from mentoring, business advising, psychological counseling, and even psychotherapy. To be a lingua-coach involves establishing a simple and supportive relationship with someone, which helps them achieve success in both their personal and professional life (Gulkhayo, 2021). This relationship empowers the individual to actively listen and understand others, and develop empathy towards them.

Currently, varied teaching methodologies have been promoted that insist on scaffolding from the dependence of the teacher as a linguistic model to the independence of the learner as an explorer of learning resources (Cárcamo, 2022). In other words, there is a clear tendency for ESP instructors to assist their students to be autonomous by identifying the area of interest in the language learning process.

In these experiences, students are not only taught digitally connected to the web but also involved students participating in a classroom lesson taught by a teacher. Thus, it is called blended learning which combines conventional classroom teaching methods with online learning with the same students in the same course who are studying the same material (Rusdi Omar, 2021). Essentially, blended learning is a way to provide knowledge and training by combining in-person and technology-enabled learning

**Literature review.** According to Warren G. Bennis, a leading expert on leadership, a lingua-coach should be an observant and attentive individual (Weiss, 2003). As a leader, a lingua-coach should be aware of the learner's context and help them see their journey in a new light. Even if the coach is not an expert in the learner's field, they rarely provide advice, but instead ask appropriate questions to help the learner find solutions to difficult problems. It's important not to confuse the role of a manager with that of a lingua-coach. A manager gives directives to promote the organization's interests, while a lingua-coach directs the individual's interests by maintaining insight to help them grow. In short, the role of a lingua-coach is to reflect reality and clearly understand how they are influencing other (Boudon, 1992)

The use of technology has been and continues to be a valuable tool for personal and professional development, allowing people to learn new skills and achieve great success in their lives. By using this technology, personal and corporate goals have become more focused and consistent (Pinker, 2015). Although it may be costly, it is believed to be an effective way of achieving concrete results and gaining recognition in Uzbekistan.

**Rerearch methodology.** Pedagogical experimental research was conducted involving a total of 20 ESP (English for Specific Purposes) instructors from universities including Turin Polytechnic University in Tashkent and Central Asian University in Tashkent. The research concludes that the concept of "method" is multidimensional, and therefore, each teaching method should be designed by the teacher based on their individual circumstances. Various methods are often combined and interact with each other, characterizing the relationships between teachers and students from different perspectives (Indrawati, 2024).

During the realization of implementing lingua-coaching approach there were applied several research methods, such as experimental, case study, introspection, observation and survey on the base of teaching methods including the method of specific situations, the method of emotional stimulation of learning, the method of creating a situation of cognitive

dispute, 'mosaic' and the method of projects.

**Analysis and results.** Students were selected from two universities, which included three faculties - history, mathematics, and biology from Turin Polytechnic University in Tashkent and Central Asian University in Tashkent.

The knowledge of students was assessed through oral, written, and practical tasks in the experimental and control groups. To determine the level of English of the ESP students, we conducted a placement test using integrated skills, as well as grammar and vocabulary. This helped us determine if their level of English was A1, A2, or B1.

**TABLE 1**  
**THE OVERALL RESULTS OF THE EXPERIMENTAL AND CONTROL GROUPS AT THE INITIAL STAGE**

| №                  | Experimental group       |            |            |           | Control group            |            |            |           |
|--------------------|--------------------------|------------|------------|-----------|--------------------------|------------|------------|-----------|
|                    | Total number of students | A2         | B1         | B2        | Total number of students | A2         | B1         | B2        |
| <b>Management</b>  |                          |            |            |           |                          |            |            |           |
| 1                  | 87                       | 31         | 40         | 16        | 88                       | 35         | 36         | 17        |
| <b>Mathematics</b> |                          |            |            |           |                          |            |            |           |
| 2                  | 83                       | 35         | 39         | 9         | 80                       | 30         | 44         | 6         |
| <b>Biology</b>     |                          |            |            |           |                          |            |            |           |
| 3                  | 80                       | 49         | 27         | 4         | 83                       | 45         | 32         | 6         |
| <b>Total</b>       | <b>250</b>               | <b>115</b> | <b>106</b> | <b>29</b> | <b>251</b>               | <b>110</b> | <b>112</b> | <b>29</b> |

**TABLE 2**  
**THE OVERALL RESULTS OF THE EXPERIMENTAL AND CONTROL GROUPS AT THE FINAL STAGE**

| №                  | Experimental group       |           |            |           | Control group            |           |            |           |
|--------------------|--------------------------|-----------|------------|-----------|--------------------------|-----------|------------|-----------|
|                    | Total number of students | A2        | B1         | B2        | Total number of students | A2        | B1         | B2        |
| <b>Management</b>  |                          |           |            |           |                          |           |            |           |
| 1                  | 87                       | 19        | 47         | 21        | 89                       | 29        | 45         | 15        |
| <b>Mathematics</b> |                          |           |            |           |                          |           |            |           |
| 2                  | 83                       | 19        | 47         | 17        | 80                       | 26        | 48         | 6         |
| <b>Biology</b>     |                          |           |            |           |                          |           |            |           |
| 3                  | 80                       | 31        | 39         | 10        | 82                       | 36        | 35         | 11        |
| <b>Total</b>       | <b>250</b>               | <b>69</b> | <b>133</b> | <b>48</b> | <b>251</b>               | <b>91</b> | <b>128</b> | <b>32</b> |


According to the numerical information given in Tables 1 and 2, we indicate the overall results by Student – Fisher criterion on the basis of mathematical and statistical analysis.

**TABLE 3**  
**RESULTS OF AN EXPERIMENTAL AND CONTROL GROUPS**

|   |       |           |            |           |                                 |
|---|-------|-----------|------------|-----------|---------------------------------|
| <b>Results of an experimental group</b> | $X_i$ | <b>B2</b> | <b>B1</b>  | <b>A2</b> | <b>Total number of students</b> |
|   | $n_i$ | <b>48</b> | <b>133</b> | <b>69</b> | <b>n=250</b>                    |
| <b>Results of a control group</b>       | $Y_j$ | <b>B1</b> | <b>A2</b>  | <b>A1</b> | <b>Total number of students</b> |
|   | $m_j$ | <b>32</b> | <b>128</b> | <b>91</b> | <b>m=251</b>                    |

In accordance with the options that gave above, we form the dynamics of students' development.

**FIGURE 1**  
**DYNAMICS OF STUDENTS DEVELOPMENT**



According to the results of Table 3 we can conclude that the average value for the options  $X > Y$  satisfied the conditions. In order to find the average value, we applied the following formula

$$X = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 niXi = \frac{1}{250} (48 \cdot 5 + 133 \cdot 4 + 69 \cdot 3) = \frac{1}{250} (240 + 532 + 207) = \frac{979}{250} = 3.916 \approx 4$$

$$Y = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^3 miYj = \frac{1}{251} (32 \cdot 5 + 128 \cdot 4 + 91 \cdot 3) = \frac{1}{251} (160 + 512 + 273) = \frac{945}{251} = 3.74045802 \approx 3.7$$

From these calculations, it is apparent that the learning rate of learning of the experimental group is higher than the control group.

Variation coefficients are calculated for both experimental and control groups. For this, sample variance is required

$$D_n = \sum_{i=1}^3 \frac{n_1(xi-X)^2}{n-1} = \frac{240(5-4)^2 + 532(4-4)^2 + 207(3-4)^2}{250} = \frac{240 \cdot 1 + 532 \cdot 0 + 207 \cdot 1}{250} = \frac{447}{250} = 1.788 \approx 1.8$$

$$D_m = \sum_{j=1}^3 \frac{m_1(yj-XY)^2}{m-1} = \frac{160(5-3.7)^2 + 512(4-3.7)^2 + 273(3-3.7)^2}{251} = \frac{160 \cdot 1.69 + 512 \cdot 0.09 + 273 \cdot 0.49}{251} = \frac{210.4 + 4.608 + 133.77}{251} = \frac{348.778}{251} \approx 1.3$$

From these results, we find standard deviation

$$\tau_n = \sqrt{D_n} = \sqrt{1.8} \approx 1.3; \quad \tau_m = \sqrt{D_m} = \sqrt{1.3} \approx 1.1$$

On the basis of these results, the index variation is calculated for experimental and control groups

$$\delta_n = \frac{\tau_n}{X} = \frac{1.3}{4} \approx 0.3; \quad \delta_m = \frac{\tau_m}{Y} = \frac{1.1}{3.7} \approx 0.2$$

From these calculations we find the level of statistical significance

$$\alpha = \delta_m - \delta_n = 0.2 - 0.3 = 0.1$$

Statistics from the Laplace function table for  $\alpha=0.1$ , critical point  $t_{kn}$  from the equality we determine

$${}^{\circ}F(t_{kn}) = \frac{1-2\alpha}{2} = \frac{1-2 \cdot 0.1}{2} = \frac{0.8}{2} = 0.4$$

$$t_{kn} = 1.29$$

Reliable deviations of the assessment in the experimental group are equal to,

$$\Delta_n = t_{kn} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 1.29 \cdot \frac{1.8}{\sqrt{250}} = 1.29 \cdot \frac{1.8}{15.8} = \frac{2.322}{15.8} \approx 0.2$$

While the control group's



$$\Delta_m = t_{kn} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}} = 1.29 \cdot \frac{1.3}{\sqrt{251}} = 1.29 \cdot \frac{1.3}{15.8} = 1.677 = 0.1$$

From the results, the reliable interval for the experimental group is

$$X - t_{kn} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} \leq \alpha_x \leq X + t_{kn} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

$$4 - 0.2 \leq \alpha_x \leq 4.1 + 0.2$$

$$3.9 \leq \alpha_x \leq 4.3$$

For the control group is

$$Y - t_{km} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}} \leq \alpha_y \leq Y + t_{km} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}}$$

$$3.7 - 0.06 \leq \alpha_y \leq 3.7 + 0.06$$

$$3.69 \leq \alpha_y \leq 3.76$$

The degree of value of the statistical sign, that is  $\alpha=0.1$ , it can be said that the performance of the experimental group is higher than the control group.

On the basis of the results of the calculations, we calculate the effective indicator. According to the calculations  $X=4.2$ ;  $Y=3.7$ ;  $\delta_n=0.3$ ;  $\delta_m=0.2$ . From these, the indicator of effective training is

$$K = \frac{(X - \delta_n)}{(Y + \delta_m)} = \frac{4.1 - 0.3}{3.7 + 0.2} = \frac{3.8}{3.9} \approx 1 > 0$$

And we calculate the degree of cognition by the following formula

$$K = (X - \delta_n) - (Y - \delta_m) = (4.1 - 0.3) - (3.7 - 0.2) = 3.8 - 3.5 = 0.3 > 0$$

According to the results of the calculation, the assessment criterion of effective training and the degree of cognition is higher than zero. From this, it can be said, the indicators of the experimental group is higher than the control group.

Based on the formula of the average value, we calculate the results in the percentages

$$P = \frac{X}{3} \cdot 100\% - \frac{Y}{3} \cdot 100\% = \frac{3.916}{3} \cdot 100\% - \frac{3.74045802}{3} \cdot 100\% = 130.533333 - 120.6819 = 10.5\%$$

From this calculation, it became clear that the results of the experimental group increased by 10.5% compared to the control group.

**Discussion.** According to the results of the calculation of two universities, the presented hypothesis gave the effect. Therefore, it is recommended to apply lingua-coaching approach to teaching ESP. Lingua-coaching is an innovative approach that combines language learning with coaching techniques. The goal of this approach is to help learners not only improve their language skills but also develop personal and professional skills. That can benefit them beyond language learning. The experiment carried out with the appliance of several tools of coaching that supported the learners in achieving their goals. These provide the students with ample opportunity to reveal their potential and inner resources by staying motivated. The tasks that were given to the students not only increased their self-esteem but also provoked the desire to work without assistance. Therefore, the implementation of coaching tools in lingua-coaching approach has a number of benefits. These tools included goal setting to help a learner set specific language goals and identify what they want to achieve through learning a particular language; reflective exercises to help learners reflect on their progress and identify areas for improvement; feedback sessions to support learners with constructive feedback on their language skills and offer suggestions for improvement.

**Conclusion.** Lingua-coaching's holistic approach not only enhances traditional language skills like grammar and vocabulary but also emphasizes critical areas such as pronunciation, listening comprehension, and cultural awareness. The approach's focus on motivation and self-reflection helps learners stay engaged and continually improve, making the learning process more dynamic and less monotonous. Overall, the findings support the adoption of lingua-coaching in ESP teaching as it effectively combines language learning with personal and professional development. Thus, integrating lingua-coaching methods into language education is recommended to enhance both the effectiveness and enjoyment of the learning experience.

### References

1. Boudon T. John Witmore (1992) *Coaching of higher efficiency*. New York: University Press, p. 54.
2. Cárcamo B., Pérez C. (2022) *Toward autonomous learning: Exploring the impact of participating in an online Second language learning course*, International Journal of Information and Education Technology, Vol. 12, No. 5, May, p. 449
3. Indrawati D. (2024) Using Extrinsic Motivation in Learning English During Covid-19 Pandemic. Journal of Higher Education Theory and Practice Vol. 24(2)
4. Juraeva, G. (2021). A systematic approach in learning english language on the base of lingua coaching. *Academicia: an International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 1382–1385. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.00250.0>
5. Passmore J. (2006) *Excellence in coaching*. New York: Kogan Page ISBN 9780749474461, p.48
6. Pinker S. (2015) *Words and Rules: Ingredients of Language*.-New York: Basic Books, p. 40
7. Rusdi O., Narentheren K., Kamarul A. (2021) *Learning Approach in Graduate Studies*: International Journal of Information and Education Technology, Vol. 11, No. 11, November, p. 546
8. Thanasoulas D. (2002) *History of English language teaching*. California: California Star House
9. Weiss T. (2003) *Coaching Competencies and corporate leadership*.-New York: St Lucia Press, p. 23

## UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI RAHBARLARINI BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARINI ANIQLASH MEXANIZMLARI

**Iskandarova Gulrux Pirmamatovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Innovatsion ta‘lim” kafedrası PhD mustaqil izlanuvchisi,

[iskandarovashox@gmail.com](mailto:iskandarovashox@gmail.com)

**Annotatsiya.** Jahonda ta‘lim tizmi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida maktab ta‘limi sifatini yuqori bosqichga ko‘tarish, umumta‘lim maktablari faoliyatini modernizatsiya qilish, ta‘lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘quvchilar bilimini hamda pedagoglarning malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, mavjud muammolarni o‘z vaqtida hal etish hamda maktablarning raqobatbardoshligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablari rahbarlarini boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlarini aniqlash mexanizmlari yoritib berilgan. Shuningdek, boshqaruv faoliyat samaradorligi kabi tushunchalarini tahlil qilingan. Baholash mezonlariga ko‘ra umumta‘lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyat samaradorligi aniqlangan. Umumta‘lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyat samaradorligini mezonlar asosida baholash ko‘rsatkichlari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** rahbarlik mahorati, samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, Performance Indicators, Key Performance Indicators, baholash parametrlari, kvalifikatsiya.

**Abstract.** In the process of educational reforms around the world, special attention is being paid to raising the quality of school education to a higher level, modernizing the activities of general education schools, developing the managerial competencies of educational institution leaders, bringing students' knowledge and teachers' qualifications to an international level, timely addressing existing problems, and ensuring the competitiveness of schools. This article highlights the mechanisms for determining the indicators of the effectiveness of the management activities of heads of general secondary education schools. Additionally, concepts such as the effectiveness of management activities are analyzed. Based on the assessment criteria, the effectiveness of the management activities of general education school principals has been determined. Indicators for assessing the effectiveness of the management activities of general education school principals are provided based on these criteria.

**Keywords.** leadership skills, effectiveness, social effectiveness, economic effectiveness, Performance Indicators, Key Performance Indicators, assessment parameters, qualification.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda umumta‘lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish va ularning kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy talablarni klassifikatsiyalash, maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashga oid ko‘rsatkich va mezonlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Ta‘lim muassasasining faoliyatidagi samaradorlik, birinchi navbatda, jamoadagi shaxslararo munosabatlar, vazifalarni qanchalik to‘g‘ri tashkil etilgani yoki etilmaganligiga bog‘liq. Boshqacha aytganda, ishning qanday tashkil etilishi rahbarlik, boshqaruvchilikning tashkil etilishi darajasiga bog‘liq.

Dunyo miqyosida to'plangan tajribalar turli davlatlarda ta'lim muassasalari rahbarlarining faoliyati samaradorligini baholashning turlicha mexanizmlaridan foydalanish amaliyoti mavjudligini ko'rsatmoqda. Har bir rahbar pedagogik tizimni boshqarar ekan, eng avvalo, undagi muammolar va bu tizimdagi a'zolarining pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Maktab direktorlari boshqaruv faoliyatida ta'lim muassasasida barcha jarayonlarni tartibga solib turish uchun boshqaruv funksiyalarini mazmun va mohiyatini bilishlari zarur.

Ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishda rahbarlarning boshqaruv faoliyati samaradorligi asosan ularning boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga bog'liq, deb ko'rsatiladi.

Mazkur fikrga asoslangan holda, adabiyotlarda keltirilgan rahbar shaxsi, uning shaxsiy xususiyatlari hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga xos quyidagi talablarni keltirish mumkin: Barcha bo'g'inlarda insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali rahbar boshchilik qilmasa, mamlakatning obro'si, uning manfaati uchun mardlik, jonkuyarlik bilan ishlamas, ta'lim tizimi hech qachon rivojlanmaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shunday ekan birinchi navbatda samaradorlik, boshqaruv faoliyat samaradorligi kabi tushunchalarini tahlil qilib o'tsak.

**Samaradorlik** - sifatning umumlashgan o'lehoivi hisoblanadi. Samara deganda faoliyatda qo'yilgan maqsadga to'la yoki qisman erishish tushuniladi. Ta'lim sifatini oqilona darajasiga erishish ta'lim muassasasi boshqaruvidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu sababli sifatni boshqarish ba'zan samaradorlikni boshqarish deb ham aytiladi.

Pedagog olim D.Tojiboyeva o'zining tadqiqot ishlarida samaradorlikni baxolashda odatda ko'proq ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni nazarda tutgan.

**Ijtimoiy samaradorlik** - bu xo'jalik faoliyatining natijalarini jamiyatning maqsadi va ehtiyojlariga, uning a'zolari manfaatlariga mos kelishini anglatadi.

**Iqtisodiy samaradorlik**ga esa, eng avvalo, ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol samaradorligi sifatida qaraladi.

Tadqiqotchi olimlar M.Sharifxo'jayev va Y.Abdullayevlarning fikriga ko'ra, boshqaruv samaradorligi o'z tabiati bilan murakkab jarayon bo'lib, uni faqat bir yoki ikki ko'rsatkich bilan ifodalab bo'lmaydi. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimi zarur bo'lib, mazkur tizimni ikki yirik guruhga bo'lish mumkin:

1) *Boshqarish tizimi faoliyatini tavsiflovchi miqdoriy ko'rsatkichlar:*

- boshqaruvdagi jonli mehnatning tejalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- boshqaruv uchun sarflangan moliyaviy resurslarning tejalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- boshqarish uchun sarflanadigan vaqtni tejalishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

2) *Boshqaruvning ijtimoiy samaradorligini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichlari:*

- boshqarishning ilmiy-texnik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- boshqaruv apparati xodimlarining malakasi darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- qabul qilingan qarorlar samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- boshqaruv jarayonidagi axborotlarning ishonchliligi va to'liqligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- boshqarish madaniyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- kommunikatsiyaning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- boshqaruv apparatidagi mehnat sharoitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va h.k.

A.To'xtaboyevning ta'kidlashicha, boshqaruv samaradorligi uning boshqariluvchi obyekt maqsadlari va ijtimoiy-iqtisodiy samarasini ta'minlashdagi natijaviyligi bilan

boshqarish xarajatlarini va unda foydalanilgan resurslarni taqqoslash orqali aniqlanadi.

Boshqarish samaradorligini iqtisodiy ma'nosi – boshqarish xarajatlarining joriy holatida makro va mikrodarajada eng ko'p iqtisodiy samarani ta'minlash bo'lsa, ijtimoiy ma'nosi – boshqarish xarajatlarini joriy holatida eng ko'p ijtimoiy samarani ta'minlashdir.

G.S.Abdraxmanov boshqaruv faoliyati samaradorligini belgilangan meyorlar asosida yuqori sifatlariga erishish darajasi hamda ta'lim tizimi faoliyatining sifat va miqdoriy xususiyatlarining zaruriy ko'rsatkichlarini ifodalovchi, maqsadga erishish darajasi bo'yicha aniqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

**Natija va muhokama.** Ta'lim muassasalarini boshqarishni ilmiy asosda tashkil etishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar hamda ijobiy yechimini topish zarur bo'lgan ayrim muammolarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, ta'lim muassasalarini boshqaruv faoliyatining samaradorligi – bu boshqaruv qonuniyatlari, usul va metodlari hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv faoliyati asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligi hisoblanadi.

Ta'lim muassasasining boshqaruv samaradorligi - bu boshqaruv faoliyati maqsadiga erishganlik ko'rsatkichi, ya'ni ta'lim muassasasida har bir ta'lim oluvchining shaxsini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarning yaratilganligi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, boshqaruv faoliyat samaradorligi – rahbarning ma'lum bir muddatda ta'lim muassasasida erishgan asosiy natijalari hisoblanadi. Bu natijalarni aniqlashda faoliyat samaradorligini baholashning optimal mexanizmlaridan foydalaniladi.

Rivojlangan mamlakatlarda umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholashda asosan o'zini o'zi baholash tushunchasi ko'proq qo'llaniladi.

Boshqaruv faoliyati samaradorligini rahbarning o'zi tomonidan baholanishi va natijalar asosida o'z ustida ishlash, rivojlantirish rejalarini tuzish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazkur soha yo'nalishida o'z tadqiqotlarini olib borgan professor Djeyms X.Strong o'z tadqiqotlarida umumta'lim maktab direktorlarini baholashda quyidagi standartlarni keltirib o'tgan:

- yetakchilik;
- maktabdagi shart sharoitlar;
- inson resurslarini boshqarish;
- tashkillashtirishni boshqarish;
- aloqa va ijtimoiy munosabatlar;
- kasbiy mahorat.

Shunday ekan, ta'lim muassasasining boshqaruv samaradorligi qaysi holatda, natijalarga, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishayotganliklarini aniqlash uchun baholash, baholash mexanizmlarini qo'llash kerak bo'ladi.

Umumta'lim maktab rahbarlari boshqaruv samaradorligini KPI (Key Performance Indicators – samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari) tizimi asosida baholash orqali ular o'z faoliyatlarini tahlil qilish va strategik rejalar tuzish, faoliyat yo'nalishlaridagi bo'shliqlar ustida ishlash rejalarini tuzib oladilar.

Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (Key Performance Indicators, KPI) bu strategik va taktik maqsadlarga erishishda yordam beruvchi muassasa yoki xodimlar faoliyatiga taalluqli ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlardan foydalanish ta'lim muassasasi yoki rahbar xodimi o'z holatini tahlil qilish imkoniyatini taqdim etadi va strategik vazifalarni amalga oshirishni baholashda yordam beradi.

Samaradorlikni baholash ko'rsatkichi xodimlar, bo'limlar va butun muassasadagi ishchanlik faolligini nazorat qilish sharoitini yaratadi. Bu ko'rsatkich yutuqlar darajasi va unga erishish uchun qilingan xarajatlar darajasini o'zida aks ettiruvchi faoliyat natijadorligining muhim ko'rsatkichidir.

Samaradorlikni baholash ko'rsatkichi tizimida ta'lim muassasasi boshqaruvi va xodimlarining faoliyati raqamlar orqali o'lchanadi. Ko'rsatkichlar bo'yicha hisobot tayyorlangach, rejalashtirilgan maqsadga qanchalik darajada erishilgani, rejalar qay darajada

aniq va to'g'ri qo'yilganini baholash mumkin. Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari natijasi strategik va taktik maqsadlarga tuzatishlar kiritish, ta'lim muassasasi rahbarlari o'z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga ko'mak beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori bo'yicha umumta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini baholash quyidagi ko'rsatkichlar orqali amalga oshiriladi:

- bitiruvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha tayyorgarligi va ta'lim sifati darajasi;
- umumta'lim muassasasi bitiruvchi sinf o'quvchilarining bilim darajasi ko'rsatkichi;
- umumta'lim muassasasining oliy va birinchi toifali pedagog xodimlari ulushi;
- ijtimoiy so'rovnoma natijalari.

Umumta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini oshirish maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligi bilan bog'liq bo'ladi. Chunki ayrim baholash mezonlarini ta'lim muassasasi bilan rahbarlariga mos tushadi. Shu bilan birga maktab direktori boshqaruv faoliyat samaradorligini aniqlashda ma'lum bir muddatda ta'lim muassasasida amalga oshirgan ishlari natijasini baholash orqali aniqlash mumkin.

Ta'lim muassasalari rahbarlarini boshqaruv faoliyat samaradorligini baholashda ularning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish, baholash vositalari va metodlarini tanlash kerak bo'ladi.

S.T.Turg'unov Umumta'lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari quyidagi: maktabni rivojlantirishga jamoa a'zolarini motivlashtirish, o'quvchilar tomonidan egallanayotgan bilim va ko'nikmalar darajasini davlat ta'lim standartlari va mehnat bozori talablariga mos kelishi, moddiy texnik ta'minot va ulardan foydalanish samaradorligi, kadrlar salohiyati, innovatsion faoliyat, maktab obro'si, maktabdagi ijtimoiy psixologik iqlim, boshqaruv algoritmining maktab oldiga qo'yilgan maqsadlarga mosligi darajasini keltiradi.

S.V.Koshevenko o'z tadqiqotlarida ta'lim menejerlarining ta'lim muassasasini boshqarishdagi funksional vazifalarni quyidagicha belgilab olgan:

- yangi xodimlarini tanlash va (joy joyiga qo'yish) moslashtirish;
- pedagoglarning individual ta'lim yo'nalishini tashkil etish;
- xodimlarni o'z vaqtida malaka oshirishlarini tashkillashtirish;
- pedagoglarning kasbiy rivojlantirish yo'nalishlarini loyihalashtirish;
- pedagog jamoa bilan o'zaro hamkorlik tizimini yaratish;
- loyiha guruhlarini ishini tashkil etish va muvofiqlashtirish (grantlar, tanlovlar, konferensiyalar, turli darajadagi loyihalarda ishtirok etish uchun) va o'qituvchining individual tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish;
- xodimlar ma'lumotlar bazasini yuritish.

Shu bilan birga "xodimlar ma'lumotlar bazasini yuritish" yo'nalishida samaradorlikning muhim ko'rsatkichi sifatida: ma'lumotlar bazalari bilan ishlash hamda axborot tahlil ma'lumotlari va hisobotlarini tuzish ko'rsatkichlarini keltirib o'tgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyatini takomillashtirishda rahbarning boshqaruv faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- maktab faoliyatini rejalashtirish va kadrlar tanlash;
- joy-joyiga qo'yish, ularning muvofiqlashtirish;
- pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish,
- jamoa a'zolarining yashash va mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash;
- jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- innovatsion jarayonlarni tashkillashtirish va boshqarish, hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish;
- ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

– o‘zini o‘zi boshqarish va rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Bizning fikrimizcha, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar asosida, umumta‘lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini quyidagi faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholashimiz mumkin (1-jadval):

KPI tizimi asosida baholashda birinchi navbatda mezonlar ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan mezonlar bo‘yicha monitoring olib boriladi. KPI tizimi asosida baholashda ma‘lum bir muddatda olingan natijalar taqqoslanadi.

Baholash mezonlariga ko‘ra umumta‘lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyat samaradorligi(BFS)ni quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$BFS = \frac{B_0}{B_{max}} * 100\%$$

bu yerda: direktor to‘plagan ball, direktor to‘plashi kerak bo‘lgan maksimal ball.

Agar: BFS > 70% bo‘lsa, maktab direktorning BFS ligi maqsadga muvofiq; 70% > BFS > 55% bo‘lsa, direktorning BFS qoniqarli; BFS < 55% bo‘lsa, direktorning BFS past darajada degan xulosaga kelinadi.

Natijalarga ko‘ra ya‘ni samaradorlikning muhim ko‘rsatkich (KPI)lariga qarab ta‘lim muassasasini rivojlantirish rejalari tuziladi, qarorlar qabul qilinadi, maktab direktori faoliyat yo‘nalishidagi ehtiyojlarini to‘ldirish maqsadida o‘z ustida ishlash rejalari tuzib oladi.

1-jadval

**Umumta‘lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyat samaradorligini mezonlar asosida baholash ko‘rsatkichlari**

| №  | Baholash mezonlari  | Baholash parametrlari  |
|----|---|--|
| 1. | Umumta‘lim muassasasining oliy ma‘lumotli pedagog kadrlar bilan ta‘minlanganligi  | Fanlar bo‘yicha ta‘minlanganligi (5 ball):<br>70% - 1 ball<br>85% - 3 ball<br>100% - 5 ball  |
| 2. | Rahbar tomonidan xodimlarning samarali mehnat qilishlari va o‘quvchilarning sifatli ta‘lim olishlari uchun shart- sharoitlarning yaratilganligi                       | So‘rovnomalar asosida (5 ball). 70% - 1 ball<br>85% - 3 ball<br>100% - 5 ball  |
| 3. | Umumta‘lim muassasasini boshqarishning ochiqqligi, uni boshqarishda ta‘lim oluvchilar, ota-onalar va keng jamo- atchilik fikri inobatga olinishi                      | Ijtimoiy so‘rovnoma (5 ball). 70% - 1 ball<br>85% - 3 ball<br>100% - 5 ball  |
| 4. | Rahbarning ta‘limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, rahbarlik qobiliyati, kasbiy va lavozim vazifa- larida belgilangan vazifalar bo‘yicha bilimini aniqlash | Savolnoma (10 ball).<br>55% gacha – 3 ball<br>85% gacha – 7 ball<br>100% - 10 ball   |
| 5. | Umumta‘lim muassasasi bitiruvchilarining oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlarida qayd etgan ko‘rsatkichlari   | Respublika bo‘yicha kirish imtihonlari o‘rtacha ballga nisbatan (10 ball):<br>yuqori bo‘lsa - 10 ball bir xil bo‘lsa - 5 ball past bo‘lsa - 3 ball |
| 6. | Umumta‘lim muassasasi o‘quvchilarining o‘quv fanlarini dav lat ta‘lim standartlariga muvofiq o‘zlashtirish darajasi   | O‘quvchilarning samaradorlik ko‘rsatkichlari (10 ball): 70% - 3 ball<br>85% - 5 ball<br>100% - 10 ball   |
| 7. | Umumta‘lim muassasasi reytingi ko‘rsatkichlari  | O‘tgan yilga nisbatan (5 ball): o‘sgan bo‘lsa - 5 ball o‘zgarmagan bo‘lsa - 3 ball past bo‘lsa - 0 ball  |
| 8. | Umumta‘lim muassasasida budjetdan tashqari qo‘shimcha mablag‘ topishning yo‘lga qo‘yilganligi   | O‘tgan yilga nisbatan (5 ball): Ko‘p bo‘lsa - 5 ball<br>O‘zgarmagan bo‘lsa - 3 ball Kam bo‘lsa - 0 ball  |

|     |   |   |
|-----|---|---|
| 9.  | Umumta'lim muassasasida direktor jamg'armasi va byud- jet mablag'laridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari | Samarali foydalanganligi(5 ball):<br>foydalangan bo'lsa<br>- 5 ball)<br>qisman foydalangan bo'lsa - 3 ball<br>foydalanmagan bo'lsa - 0 ball |
| 10. | Maktab ma'lumotlarini axborot tizimlarida o'z vaqtida yuritilishi   | Ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritilishi (10 ball): muddatidan oldin - 10 ball<br>o'z vaqtida - 5 ball muddatidan so'ng - 3 ball               |

Ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatidagi samaradorligi ta'lim muassasasining umumiy faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot ishida boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash bo'yicha tahlillar natijasida umumta'lim maktab direktorlarining faoliyat samaradorligini baholashning asosiy mezonlari va parametrlarini aniqlashga harakat qilindi.

Umumta'lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyati yo'nalishlarini to'g'ri tahlil qilishi lozim. Boshqaruv faoliyat samaradorligini baholash natijalariga ko'ra ta'lim muassasasi rahbarlari o'z ustida ishlash, muntazam kasbiy mahoratini oshirib borishi, ta'lim muassasasining to'g'ri va istiqbolli rejalarini tuzishda muhim ahamiyatga egadir.

**Xulosa.** Umumta'lim maktab direktorlari boshqaruv faoliyat samaradorligini oshirishda quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

✓ boshqaruv faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda faoliyat yo'nalishlari, boshqaruv metodlari, rahbarlik uslublarini aniqlash va ilmiy asosda olib borish;

✓ maktab direktorlari faoliyatini o'zi tomonidan tahlil qilishi hamda aniqlangan natijalarga ko'ra bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishi hamda shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirish dasturini mustaqil yaratishi uchun o'zini-o'zi baholash jarayonlarini tashkil etish;

✓ samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari natijasiga ko'ra, ta'lim muassasasi rahbarlari o'z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali faoliyat yo'nalishidagi bo'shliqlar ustida ishlashi;

✓ baholash natijalariga ko'ra ta'lim muassasasi imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda maqsadga erishishda to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish ishlarini olib borish va hakazolarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlili va Ilmiy manbalar xulosalariga tayanadigan bo'lsak, ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonida rahbar-kadrlar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- belgilangan maqsadga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish;

- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mutaxassislarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash;

- umumta'lim maktabida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, pedagog-xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish;

- ta'lim muassasasida moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-metodik jihozlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish;

- ta'lim muassasasi va ijtimoiy munosabatlarining uzluksiz aloqasini ta'minlash;

- ta'lim muassasasida ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborotlar texnologiyalaridan foydalanilishini ta'minlash;

- ta'lim muassasasida Davlat ta'lim standartlari talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish;

- ta'lim muassasasining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlash uchun pedagog-xodimlar va ta'lim oluvchilar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish;

- ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash, lavozimlar bo'yicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish;

- Umumta'lim maktabi pedagog-o'qituvchilarning innovatsion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;
- qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish va boshqalar.

Umumta'lim muassasasi rahbar-kadrlari har qanday vaziyatlarda ham o'zini tuta olishi, tashabbuskor bo'lishi, har qanday vaziyatlardan jamoani olib chiqa olishi, taraqqiyot bilan barobar qadam tashlashi, hamjihatlik, ijodkorlik bilan ish yuritishi, kasbiy-uslubiy mahorat egasi bo'lishi, so'zi bilan amali bir bo'lishi, maqsadni aniq qo'ya oladigan va uning ijrosini ta'minlaydigan bo'lishi, vazmin, bag'rikeng bo'lishi, ijodkor va yaratuvchan bo'lishi, vaqtning qadriga yetadigan, xushmuomala inson bo'lishi kerak. Mazkur keltirilgan fikrlarda ta'lim muassasasi rahbar-kadrlarining bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va fazilatlarini kabi sifatleri bo'yicha tabiiy holda mavjud talablar o'z ifodasini topgan deyishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tompson A.J., Striklend A.D. Strategic management: concepts and situations for analysis. 12-e izd.-2003. 924 p.
2. Michael E. Porter. Competitive strategy: Techniques Analyzing Industries and Competitors. The free press. New York London Toronto Sydney Singapore. 2017 y. – 816 p.
3. Образование взрослых: теория и практика // Региональное образование. Занятость. – № 1. – СПб.: Ин-т образования взрослых РАО, 1995. – 160 с.
4. Поташник М.М. Управление современной школой. – М.: Новая школа, 1995. – 159 с.
5. Temur tuzuklari / V.Ahmedov tahriri ostida. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 75-76-b.
6. Тидор С.Н. Психология управления: от личности к команде. – Петрозаводск: Фолиум, 1996. – С. 133
7. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarining malakasini oshirish kursi tinglovchilari uchun ta'lim boshqaruvi (menejment)dan o'quv dasturi. – Toshkent: O'zPFITL, 2005.–19 b.
8. Hayitmetov A. Alisher Navoiy davlat va uni boshqarish to'g'risida // Rahbar va xodim. – Toshkent: Akademiya, 1998. – 100-110-b.

## INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA O'QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI BAHOLASH

**Nurmamatov Ramazon Abdirashid o'g'li**

Qarshi davlat universiteti,

Texnologik ta'lim kafedrasini tadqiqotchisi

[romazannurmamatov@gmail.com](mailto:romazannurmamatov@gmail.com)

ORCID 0009-0009-5772-2040

UDK 371.4:004

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati, raqamli ta'lim muhitini yaratish davrida raqamli kompetensiyaga ega bo'lgan o'qituvchilarga bo'lgan talab va ularning bu boradagi tayyorgarligining yetarli darajada emasligi o'rtasidagi ziddiyatni barqaror etishda raqamli texnologiyalardan muvoffaqiyatli foydalanishning zarurligi asoslangan. Maqola raqamli kompetentlikni baholashning zamonaviy yondashuvlari, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni haqida fikr-mulohazalarni jamlagan. Shu bilan birga, raqamli kompetentlikni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar berilgan. Maqola mualliflari hozirgi o'qituvchilar va bo'lajak o'qituvchilar – texnologiya ta'lim talabalar o'rtasida o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha so'rov davomida olingan emperik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish asosida o'qituvchining raqamli kompetensiyasining hozirgi holatini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek olingan natijalar asosida xulosalar va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar.** raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, raqamli ta'lim muhiti, raqamli texnologiya, axborot savodxonligi, kommunikativ savodxonlik, kompyuter savodxonlik.

## ASSESSING TEACHERS' DIGITAL COMPETENCE IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

**Abstract.** This article substantiates the importance of developing digital competencies among prospective teachers and emphasizes the necessity of effectively utilizing digital technologies to address the gap between the demand for digitally competent teachers and their insufficient preparation during the creation of a digital learning environment. The article consolidates modern approaches to assessing digital competence, its role in teachers' professional development, and its significance in enhancing the quality of



education. Practical recommendations for developing digital competence are also provided. The authors focus on identifying the current state of teachers' digital competence through the analysis of empirical research results obtained from surveys conducted among current teachers and prospective teachers - students in technology education. Based on the findings, conclusions and recommendations are presented.

**Key words.** digital literacy, digital competence, digital learning environment, digital technology, information literacy, literacy, communicative literacy, computer literacy.

**Kirish.** Hozirgi kunda “Raqamli O‘zbekiston-2030” Strategiyasida ko‘rsatilgan vazifalarga asosan ta’limda “...raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur ma’lumotlarni topish qobiliyati; kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonlik (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish qobiliyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); “Texnologik innovatsiyalarga ijodiy munosabatini shakllantirish...” masalasi alohida e’tibor berilgan.

Ta’lim tizimida raqamli muhitni yaratishda va ta’lim tashkilotlari faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishni, shuningdek, o‘qituvchining tegishli kasbiy tayyorgarligini, uning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashni talab qiladi hamda ularning raqamli savodxonligini rivojlantirishga e’tiborini qaratadi.

Ta’limda raqamli muhitni yaratishda va mavjud muammolarni hal qilishda o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi asosiy omil hisoblanadi.

O‘qituvchining raqamli kompetensiyasi zamonaviy ilmiy merosida AKT kompetensiyalarining evalyutsion rivojlanishi natijasida ko‘rib chiqiladi. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarni raqamli savodxonligini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining AKT kompetensiyalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan (Viznyuk V.V, Fedotova V. S. xalqaro miqiyosida Robert Wagenaar).

Raqamli kompetensiya hali ham o‘qituvchilarning malaka darajasini yangi muhim tarkibiy qismi sifatida muhokama qilinmoqda, ammo uni baholash metodologiyasi hali yetarli darajada amalda ishlab chiqilmagan.

Ushbu tadqiqot ishning maqsadi hozirgi o‘qituvchilar va bo‘lajak o‘qituvchilar - texnologik ta’lim yo‘nalishi talabarlari o‘rtasida o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha so‘rov davomida olingan emperik ma’lumotlarni tahlil qilish asosida o‘qituvchining raqamli kompetensiyalarini hozirgi ahvolini aniqlashdan iborat.

“Raqamli O‘zbekiston 2030” Strategiyasida belgilangan vazifalarga asosan ishlab chiqilgan Texnologiya ta’lim o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini o‘zlashtirishi nihoyatda muhim hisoblanadi. Ushbu standart talablarga muvofiq o‘qituvchi raqamli maktabning zamonaviy axborot telekommunikatsiya va texnologik infratuzilmasida raqamli ta’lim mazmuni bilan ishlash xizmatidan foydalanishi, elektron shaklda (onlayn) malaka oshirish dasturlarini o‘zlashtirishi, interaktiv elektron o‘quv materiallardan foydalangan holda laboratoriya va amaliy ishlar, jumladan virtual laboratoriyalar, stimulyatorlar, immutatsion virtual trenojorlar, 3D prenterlari va boshqalar bilan ishlay olishni o‘zlashtirishni talab etadi. Bularning barchasi o‘qituvchining didaktik raqamli vositalarini yangilashini raqamli pedagogik amaliyotda joriy etish orqali raqamli ta’lim muhitini loyihalashini nazarda tutadi.

O‘qituvchi tomonidan o‘quv jarayonini qullab quvvatlash va o‘quv faoliyatini amalga oshirish uchun shaxsiy qurilmadan muntazam foydalanilayotgan xizmatlarga quydagilar kiradi: raqamli ta’lim mazmuni bilan ishlash xizmatlari, elektron jurnal, axborot va aloqa ta’lim platformasi, elektron hisobot xizmatlari va boshqalar.

Raqamli xizmatlar vositalar va muhitlar juda dikamik tarzda o'zgarib turgani sababli ular doimo rivojlanib, takomillashib boradi. Shu munosabat bilan raqamli kompetentsiyalarni doimiy ravishda yangilab turish va rivojlantirish o'qituvchining raqamli kompetentsiyasini shakllantirish professional o'qituvchilik faoliyatida raqamli kompetentsiyalardan qulay, samarali va xavfsiz foydalanish uchun nihoyatda muhim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini o'rganishda Qashqadaryo viloyati o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash insituti texnologik ta'lim yo'nalishi tinglovchilari shuningdek, Qarshi davlat universiteti texnologik ta'limi bakalavriyat yo'nalishi talabalari o'rtasida ya'ni o'qituvchilik tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar va bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomma o'tkazildi.

Ta'lim muhitini raqamlashtirish sharoitida o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini o'rganish jarayonida quyidagi vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi:

- raqamli kompetentsiyalarni turli nuqtai nazardan namoyon bo'lishini tasvirlovchi o'qituvchilarni so'rov qilish uchun materiallar tayyorlash (ishchi)kontent, aloqa, iste'mol, texnosfera.

- raqamli kompetentsiyasini aniqlash uchun o'qituvchilarning so'rovini o'tkazish

- o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasining hozirgi holati to'g'risida xulosalash

- o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasi sohasidagi tadqiqotlar istiqbollari belgilashi.

**Muhokama va natijalar.** O'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini o'rganishning birinchi bosqichida ularning raqamli kompetensiyalarini qayta baholash uchun qay darajadiligini bilish muhim edi. So'rovga javob variantlari orasida o'qituvchilarga quyidagilar taklif etildi:

“Men ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashni yaxshi tushunmayman lekin u haqida ko'proq bilishni xoxlayman.”

“Men raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini tushunmayman va u haqida ko'proq bilishni xoxlayman.”

“Men raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini tushunaman, ulardan foydalanishni bilaman lekin ularni o'quv jarayonida keng qo'llaganim yo'q.”

“O'quv jarayonida keng tarqalgan raqamli texnologiyalardan muntazam va muvaffaqiyotli foydalanaman.”

“Raqamli texnologiyalarning keng spektridan ishonchi foydalanaman,doimiy ravishda yangi vositalarni o'rganaman va joriy qilaman.”

“Men maktabimda o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha yetakchiman.”

“Men umume'tirof etilgan mutaxassisman va ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va vositalarni faol ravishda ishlab chiqaman.”

Javob natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim bo'yicha raqamli texnologiyalarni yaxshi tushunmaydi deb hisoblaydigan respondentlar juda kam (2.9 %) lekin shu bilan birga, hech kim o'zini raqamli texnologiyalar sohasida yetakchiman deb hisoblamaydi (28.6%), o'qituvchilar raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini tushunadi, ulardan foydalanish misollarini biladi, lekin ularni o'quv jarayonida keng qo'llamaydi (28.7 %). So'rovda natijalarning raqamli texnologiyalardan o'quv jarayonida muntazam va muvaffaqiyatli foydalanadi (40 %), o'qituvchilar raqamli texnologiyalardan ishonchli foydalanayotganligini va doimiy ravishda yangilarini o'zlashtirib borishlarini takidladilar. Bu o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarga qiziqishlarini va zamonaviy raqamli ta'lim muhitidagi muhim rolini tan olishini anglatadi.

Raqamli kompetensiyalarni o'rganish natijasida uni shakllantirishning pedagogik vositalarini bashorat qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga bir vaqtning o'zida quyidagi natijalarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

1. Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi natijasi;
2. O'qituvchilarni o'zini o'zi rivojlantirish natijasi;
3. O'qituvchilarning pedagogik (faoliyati va shaxsiy) tajribasini sentez qilish natijasi;

Shu munosabat bilan raqamli kompetensiyalarning pedagogik vositalarini quyidagi uchta bo'limda ifodalanishi mumkin.

1. Oliy pedagogik ta'lim dasturi bo'yicha universitetda o'qish, o'qituvchilik amaliyotini o'tash, malaka oshirish kurslarini o'tash davrida talabalarning shaxsiy raqamli ta'lim muhitini modernizatsiyalash;

- o'quv jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish, shuningdek, ta'lim uchun raqamli platformalar materiallari (tartibida yuqori sifatli raqamli ta'lim mazmuni bo'lgan materiallar);

- onlayn muhitda qo'shma loyihalarni tashkil etish;

- bulutli xizmatlarda o'zaro ta'sir va muloqotni rivojlantirish;

- turli dars vaziyatlarini loyihalashga raqamli vositalar va xizmatlardan foydalanish hamda raqamli ta'lim mazmunini yaratish.

Bu o'qituvchining raqamli ta'lim muhitida ishlashga tayyorligini rivojlantirishi, yangi sharoitlarda ishlashning mumkin bo'lgan imkoniyatlarini ko'rsatishi, o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirilishi va dastlabki shaxsiy tajribani shakllantirilishi bo'yicha ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

2. Raqamli ta'lim muhitida o'quv jarayonini amalga oshirish bo'yicha o'qituvchilar malaksini oshirish, zamonaviy onlayn o'quv platformalaridan foydalangan holda ta'limni raqamli transformatsiyalash aspekti bo'yicha uslubiy tayyorgarlikni takomillashtirish, veb seminarlar va boshqalarda ishtirok etishi o'qituvchining raqamli kompetensiyalarini shakllantirishning amalyotga yo'naltirilgan muhitini yaratish imkonini beradi.

3. Onlayn ta'lim tizimi tarkibida raqamli ta'lim muhitida ishlashning ijobiy va salbiy pedagogik tajribalarini aniqlash;

ta'limni rivojlantirish bo'yicha ustivor milliy loyihalar doirasida ijodiy tanlovlarda ishtirok etish;

raqamli ta'lim muhitida ishlash bo'yicha mahalliy va xorijiy pedagogik tajribani o'rganish.

Bu o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalligi va kamchiligi haqida to'liq tasavvur hosil qilish va uni amalga samarali tadbiriq etish darajasini belgilab beradi.

**Xulosa.** Shunday qilib, raqamli kompetensiyalar maktab o'qituvchisi va bo'lajak o'qituvchilarning muhim kasbiy xususiyati uning mahorat darsini belgilovchi asosiy ko'rsatgichidan biri ekanligi to'g'risida xulosa qilishimiz mumkin.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ularning inson hayoti va faoliyatidagi ortib borishi munosabati bilan uning mohiyati darajasini aniqlash va baholash usullarini o'rganish masalalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini baholash natijalari o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda mutaxassislikka tayyorlovchi o'quv fanlari mazmunini

modernizatsiya qilishni rejalashtirish; malaka oshirish kurslari o'quv dasturlarini ishlab chiqish nuqtai nazardan amaliy ahamiyatga ega.

O'qituvchilarning raqamli texnologiyalar sohasidagi dunyoqarashini kengaytirishga qiziqishi va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish istagining oshishini alohida qayt etish mumkin. Shu bilan birga hali o'z yechimini kutayotgan qo'shimcha o'rganishlar talab qiladigan masalalar mavjudligini ham etirof etish lozim.

Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalana olish kompetensiyalarini baholash bo'yicha olingan natijalar ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish ularni malakasini oshirishni tashkil etishi uchun xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi." PF 5712 – sonli. 28.04.2019
2. "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasi PF 6079 – sonli. 05.10.2020
3. Mahmudov A.X Raqamli ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash. O'quv qo'llanma. T. 2020 y 108b
4. Yunosova G.N Ta'limda axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T. 2021 y 92 b.
5. Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T. 2007 y
6. Passmore J. (2006) *Excellence in coaching*. New York: Kogan Page ISBN 9780749474461, p.48
7. Pinker S. (2015) *Words and Rules: Ingredients of Language*.-New York: Basic Books, p. 40
8. Rusdi O., Narentheren K., Kamarul A. (2021) *Learning Approach in Graduate Studies*: International Journal of Information and Education Technology, Vol. 11, No. 11, November, p. 546
9. Thanasoulas D. (2002) *History of English language teaching*. California: California Star House
10. Weiss T. (2003) *Coaching Competencies and corporate leadership*.-New York: St Lucia Press, p. 23

## SHAXSNING DEPRESSIV HOLATIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Ne'matova Iroda Ibrohim qizi

QarDU mustaqil tadqiqotchisi

[ashurovo136@gmail.com](mailto:ashurovo136@gmail.com)

ORCID 0009-0008-6409-2967

UDK: 152.3:371.126/1.245

